

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**QISHLOQ XO'JALIK  
MAHSULOTLARINI SAQLASH VA  
DASTLABKI ISHLASH LOGISTIKASI**  
fanidan

**MA'RUZALAR MATNI**

*5A410501-QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASH VA DASTLABKI  
ISHLASH TEKNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISLARI UCHUN  
MO'LJALLANGAN*

**Tuzuvchi:** R.Ch.Ishmuxamedova

**Taqrizchilar:** **F.Suvanova-** “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi”

kafedrasи professori, t.f.d.

**J.J.Allayarov** - “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini  
saqlash va dastlabki ishlash  
texnologiyasi” kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Ma’ruza matnlari to’plami “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va  
dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasining 202\_\_-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi №  
\_\_\_\_\_-sonli, Sanoat texnologiyasi fakulteti Uslubiy komissiyasining 202\_\_-yil  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_-sonli, Institut Uslubiy Kengashining 202\_\_-yil  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_-sonli yig‘ilishlarida ko‘rib chiqib tasdiqlangan va o‘quv  
jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

# **1-MAVZU: QISHLOQ XO’JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASH VA DASTLABKI ISHLASH LOGISTIKASI FANINING MAZMUNI VA VAZIFALARI**

Reja:

1. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash logistikasi fanining predmeti va ob’ekti
2. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash logistikasi fanining maqsadi va vazifalari.
3. Logistika asosiy tamoyillari to‘g‘risida tushunchalar.
4. Moddiy oqimlar tushunchasi.
5. Logistik tizim va logistik zanjir to‘g‘risida tushuncha.
6. Agrosanoat majmuida logistik tizimi. Qishloq xo’jalik korxonasining logistik tizimini shakllantirish asoslari.

## **1.1. Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash logistikasi fanining predmeti va ob’ekti.**

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar o‘zgacha boshqarish va ishni tashkil etish usullarini talab etmoqda. Tabiyki, bu o‘z navbatida ishlab chiqarishni boshqaradigan rahbarlarni tayyorlashda yangicha, boshqarish usullarini va iqtisodiy yo‘nalishlarni talab etmoqda. Bu bilimlarni iqtisodiyotning yangi yo‘nalishi bo‘lgan logistika fani orqali bilib olish mumkin.

Logistika - ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar doirasida tovar va xizmatlarni xaridor tomon harakat samaradorligini oshirish maqsadida “xom-ashyo sotib olish, taqsimlash, sotish va iste’mol qilish”da yagona tizimga birlashgan turli tashkilot va kompaniyalarning barcha operatsiyalar, muolaja va vazifalarni muvofiqlashtirish asosida integratsiyalangan birgalikdagi faoliyatidir.

«Logistika» termini xorijiy va boshqa adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. «Logistika» so‘zi inglizcha (logistics) so‘z bo‘lib, «sanoq san’ati», “tafakkur qilish, hisoblash san’ati” demakdir. Bizgacha logistika tushunchasining ikki talqini yetib kelgan:

Leybnits asarlarida mazkur termindan matematik logika (mantiq) ifodalangan; harbiy sohada logistika so‘zi - moddiy-texnik ta’midot, armiyaga transport xizmati ko‘rsatish va qo‘sishlarning dislokatsiyasi (joylashtirilishi) joyini aniqlab berish kabilarni qamrab olgan qo‘sishlarni boshqarish san’atini ifodalar edi.

Bugungi kunda esa logistika boshqarish quroli, kontseptsiyasi, jarayoni kabilarni o‘z ichiga olgan alohida fan sanaladi.

Logistika – iqtisodiy tizimda, mazkur tizim maqsadlariga yetishish uchun, u vujudga kelgan joydan to u borishi lozim bo‘lgan manzilgacha imkon qadar kam xarajat bilan yetkazib berish sohasidagi moddiy va u bilan bog‘liq bo‘lgan axborot, moliyaviy va servis oqimni boshqarish to‘g‘risidagi fandir.

Logistika – iste’molchilarining talablarini to‘la qondirish va mablag‘larning optimal ishlatalishi maqsadida moddiy oqimlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan axborot, moliyaviy oqimlar, servis va uning harakatlanishini rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat qilish jarayonidir.

Biznes nuqtai nazaridan logistika – moddiy oqim va u bilan bog‘liq bo‘lgan axborot, moliyaviy oqim va servisni integratsiyalashgan boshqaruv quroli hisoblanib, optimal sarf-xarajatlar bilan maqsadga erishishga zamin yaratadi.

Logistikada moddiy va u bilan bog‘liq bo‘lgan servis, ma’lumot, moliyaviy oqimlar tadqiqot va boshqaruv ob’ekti bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlarda oqimning bir qancha ma’nolari keltiriladi, aksariyat olimlar oqim bu - bir butun kabi qabul qilinadigan, ma’lum bir vaqt oralig‘idagi jarayon kabi mavjud bo‘ladigan, ma’lum bir vaqt oralig‘ida mutlaq birlikda o‘lchanadigan ob’ektlar yig‘indisidir, degan fikrni yoqlaydilar. Oqimni tavsiflaydigan asosiy parametrlar quyidagilar: boshlang‘ich va so‘nggi punktlar; yo‘lning traektoriyasi va uzunligi, oraliqdagi punktlar; harakatlanish va tezlik vaqtisi.

Logistika ob’ekti – moddiy oqimlar, oqimlar jaraeni, iste’molchilarini buyurtmalarini bajarish jaraeni, mahsulotlarni tashish jaraeni.

Logistika predmeti – Mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish jaraenini nazorat kilish, tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish bo‘yicha logistikaning faoliyati.


Logistika – xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish korxonalarigacha yetkazib berish jarayonida amalga oshiriladigan transportda tashish, omborlarga joylashtirish va boshqa moddiy hamda nomoddiy operatsiyalarni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish, xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlarni zavod ichida qayta ishslash, tayyor mahsulotni iste’molchiga uning manfaatlari va talablariga muvofiq tarzda yetkazish, shuningdek, tegishli axborotni uzatish, saqlash va qayta ishslash to‘g‘risidagi fan.

Logistik operatsiya yoki logistika operatsiyasi – u yoki bu moddiy, axborot yoki moliyaviy oqimning iqtisodiy faoliyati jarayonida qayta o‘zgartirish tashabbusini maqsad qilib olgan harakatlar majmui.

Logistik zanjir – bu moddiy va axborot oqimi o‘tadigan, dastlabki materialni olish, tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish amalga oshiriladigan, jismoniy yoki yuridik shaxslarninig chiziqli tartibga solingan majmuini ifoda etadigan zanjir.

Odatda, har bir korxona o‘zining mahsulotini tabiiy (fizikaviy) taqsimlanishini nazorat kiladi. Logistika tizimi esa qishloq xo‘jaligida mahsulotlar moliyaviy resurslar va axborotlar oqimini boshqaradi.

Logistika umumiy xarajatlarni minimallashtirishga imkon yaratish bilan bir qatorda mahsulotni sifatini ko‘tarishga ham ta’sir qiladi, chunki faqat sifatli mahsulotlar tashqi bozordagi raqobatni ko‘tara oladi. Bunday sharoitda firmalar iste’molchilarga qiladigan xizmatlarini ham sifatini oshirishga majburlar.



1-расм. Логистикани бошқариш жараёни.

## 1.2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash logistikasi

### **fanining maqsadi va vazifalari**

#### **Logistika maqsadlari**

Logistika xo‘jalik tuzilmalari faoliyatining bozor turidagi iqtisodiyotda umumiy strategiyasi va taktikasini aks ettiradi. Ayni paytda faoliyat ko‘rsatishnig logistik tartibiga o‘tgan firmalar va korxonalarining tanlagan strategiyasi iste’molchiga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, iste’molchilarning tovar sotib olish sababi juda o‘zgaruvchan hisoblanadi. Ammo, har doim har qanday iste’molchini jalb qiluvchi doimo kerak bo‘ladigan mezonlarni ajratish mumkin.

- Aniq muddatida.
- Aniq miqdori.
- Kafolatlangan sifat.
- Yetkazib beruvchinig tezda javob berishi.
- Nisbiy eng kam harajatlar.

Bu va boshqa mezonlar logistik tizimlarni yaxshi qanoatlantirishi mumkin. Negaki, ular aynan ana shu maqsadlar uchun ishlab chiqiladi va yaratiladi. Bunda logistika maqsadi iste’molchi istaklariga moslashishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlaymizki:

Logistikaning asosiy maqsadi tegishli sifat va miqdordagi mahsulotni aniq muddatda, nisbiy kam harajatlar bilan uni ta'minlash, saqlash, ishlab chiqarish, qadoqlash, sotish va transportda tashishga, shuningdek, axborotni olish, qayta ishlash va uzatish hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, logistikaning asosiy maqsadi intilishni talab etadigan ideal holatni ifodalash hisoblanadi. Ushbu intilish mustahkam asosga ega bo'lishi uchun logistikaning asosiy maqsadi kichik maqsadlar bilan aniqlashtiriladi. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

- Foyda va tavakkalchilik, daromad va harajatlar, imkoniyatlar va ehtiyojlarning kompleks taqqoslash asosida takomillashmagan jarayonlarni ochib beradigan samarali nazorat tizimini yaratish.
- Xo'jalik tuzilishining rasmiy kelishilgan va texnologik oqilonqa tashkiliy tuzilmasini yaratish. Jami harajatlarni mavjud quvvatlardan imkon qadar foydalangan holda minimallashtirishni ta'minlaydiganmoddiy, axborot va boshqa oqimlarni takomillashtirish bo'yicha samarali boshqaruv tizimini yaratish.

Xo'jalik faoliyatini strategik va tezkor boshqarishda logistik tizimlarni yaratish raqobatchilik kurashida muvaffaqiyat garovi sifatida ko'rib chiqiladi. Bunday baholash o'zini oqlaydi. Chunki, logistik tizimlarni shakllantirish qo'yidagilar bilan bog'liq:

- bozorni, uning tafovutlari va qonunchiligin chuqur o'rganish;
- muqobil variantlarni ishlab chiqish uslubiyatini takomillashtirish va to'g'ri tanlashni amalga oshirish;
- nafaqat to'g'ri yakuniy va oraliq natijalarni, balki ikkinchi darajali holatlarni ham samarali prognozlash;
- boshqaruvning barcha darajalari va barcha sohalaridagi harakatlarni bir-biriga moslash.

Bundan tashqari, logistik kontseptsiyadan joriy tuzilmalar doirasida amaliy foydalanish quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- moddiy, axborot va boshqa oqimlarning barcha yo'nalish yo'llari tahlilining xolisligi va nazorat qilish samaradorligini oshirish;
- muqobil qarorlarni ishlab chiqish, shuningdek, to'g'ri qarorni tanlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarini yengillashtirish va tartibga solish;
- iqtisodiy-matematik va boshqa uslublarni nafaqat rejalashtirish bosqichida, balki amalga oshirish va nazorat qilish bosqichida ham qo'llash ko'lmini kengaytirish;
- xo'jalik yuritish sub'ektlarining tadqiqot va amaliy faoliyatini takomillashtirish imkonini beradigan hal etilayotgan vazifalar parametrini to'g'ri aniqlash va baholash mezonlarini moslashtirish;
- maqsadli yo'nalishlarni tanlash va rasmiylashtirish samaradorligini oshirish, shuningdek,

ularga erishish uslubiyatini takomillashtirish.

Korxonaning strategik maqsadlari va logistika maqsadlarini birlashtirish faoliyatning turli sohalari hamda boshqaruvning turli darajalarida tabiiy tarzda amalga oshiriladi. Ayni vaqtida amaliyot shuni ko'rsatadiki, logistika uslubiyatini korxonaning funktsional faoliyatidan tortib ayrim operatsiyalarigacha birlashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu faoliyatning oraliq va yakuniy samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Logistik maqsadlar - boshqaruv sarf-harajatlarini qisqartirish, vaqt yo'qotish, bajarilayotgan ishlarning ma'lum va umumiylarini oshirish, mehnatni tashkil etishni yaxshilash va hokazolarning universialligi ularga har qanday xususiyatga ega strategik va taktik maqsadlarning uzviy moslashishi imkonini beradi.

Maqsadlar birlashuvi gorizontal va vertikal holat bo'yicha amalga oshiriladi.

Gorizontal holat bo'yicha korxonalarning har bir alohida sohasida moddiy va axborot oqimlarini boshqarish jarayonida to'g'ri hamda teskari aloqalari bo'yicha harakatlarning o'zaro bog'liqligi amalga oshiriladi.

Maqsadlarning vertikal birlashuvi ularning faoliyatning barcha sohalari va boshqaruvning barcha darajalaridagi kelishuvida namoyon bo'ladi. Masalan, mavjud quvvatlardan imkon qadar foydalanishda sarf- harajatlarni kamaytirishning logistik maqsadi boshqaruv xodimlari va ijrochilarining korxonalar faoliyatining moliyaviy sohasi, ta'minot- sotish, ishlab chiqarish, kadrlarni boshqarish va boshqa sohalarda boshqaruv faoliyatini baholashning mezonlariga aylanadi.

Korxonalarni (korxonalar guruhini) boshqarish tizimining yeieraxik tuzilmasida bir qancha darajalar bor. ularning har birida strategik va taktik maqsadlar ushbu daraja mohiyatidan kelib chiqqan holda shakllanadi.

Masalan, butun bir korxonaning strategik maqsadi yuqori rahbariyat darajasidagi mezon sifatida bevosita xizmat qiladi.

O'rtacha darajada strategik maqsadlarni amalga oshirishga mo'ljallangan va ayri bo'linmalar faoliyatining o'ziga xos xususiyalarini aks ettiradigan taktik maqsadlar hamda aniq vazifalar mezon vazifasini o'taydi.

Keyingi darajalarda faoliyatni aniqlashtirish bosqichi oshadi va bunda taqsimlash, foydalanish, samardorlik, sifat, muddat va hokazolar ko'rsatkichlari mezon vazifasini bajaradi.

Logistik tizimda ham gorizontal va vertikal birlashishdagi kabi sohalar hamda darajalar o'rtasida muntazam o'zaro ta'sir va teskari aloqalar zarur. Bu boshqaruvchilik va ijrochilik qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonlarini samaradorligining eng muhim aniqlovchi shartidir.

Maqsadlar vazifalarni qo'yishni belgilaydi. Vazifalar faoliyatning mo'ayyan ko'rsatkichlariga rasmiylashtiriladi. Teskari aloqa esa xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, uning ko'zda tutilgan

maqsadlarga mosligini nazorat qilish uchun asos hisoblanadi. Olingan ko'rsatkichlarning maqsadlarga mos kelmasligi keyingilarining o'zgarishiga yoki korxonada nazorat tizimining keskinlashuviga olib kelishi mumkin.

**Maqsad va ko'rsatkichlarning bir-biriga mos kelmasligi turli sabablar bo'yicha sodir bo'lishi mumkin. Ulardan eng keng tarqalgani quyidagilar:**

- tepadan pastga teng rasmiylashtirmaslik;
- boshqaruvchilik qarorlarining yetarlicha batafsил tekshirilimagani;
- harakatlarning boshqaruvning turli darajalarida kelishilgani va hokazolar.

Logistika ushbu va boshqa kamchiliklarni eng oz miqdorga keltiradi. Birlashish jarayonida u korxona (xo'jalik birlashmasining) maqsadlari tizimini boshqaruvning barcha sohalari va barcha darajalarida yagona hal qilishga ega bir-biriga mos vazifalar majmuiga o'tishiga yordam beradi. Natijada logistika yordamida yagona, samarali mo'ljallar va barcha tuzilmaviy bo'linmalar uchun tizim orqali faoliyat yuritish qoidalarini ishlab chiqishga erishiladi.

**Logistika vazifalari**

Logistika maqsadlarini amalda amalga oshirish uchun ahamiyat darjasini bo'yicha uchta guruhga bo'linadigan qator tegishli vazifalarni mos ravishda hal etish yo'llarini topish zarur.

- dolzarb vazifalar;
- umumiy vazifalar;
- xususiy (mahalliy) vazifalar.

Logistik tizimning asosiy maqsadiga muvofiq logistikaning asosiy vazifasi, ya'ni xo'jalik yuritish sub'ektlarining (korxonalar, birlashmalar) bozor kon'yukturasiga eng kam harajatlar bilan imkon qadar moslashishga erishish, bozorda ishtirok etish ulushini ko'paytirish va raqobatchilar oldida ustunlikka erishish alohida ajratiladi.

Logistika mohiyati bo'yicha xo'jalik faoliyatini boshqarish jarayonida birlashtiruv vazifasini o'taydi. Shu sababli logistik tizimning turidan qat'i nazar quyidagilar uning dolzarb vazifalari sanaladi:

- moddiy, axborot va imkon bo'lsa boshqa oqimlarning majmuaviy birlashgan tizimini yaratish;
- ishlab chiqarish va muomala sohasining logistik quvvatlaridan foydalanish ustidan strategik kelishuv, rejalashtirish va nazoart qilish;
- logistik kontseptsiyani bozor muhitida tanlangan strategiya doirasida muntazam takomillashtirish;
- faoliyat yuritishning tashqi va ichki sharoitlarining o'zgarishlariga tez ta'sirlanish yo'li orqali yuqori tizimli moslashishga erishish.

Dolzarb vazifalarni hal etishni mahalliy vazifalarni belgilash va hal etmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Quyidagi umumiy vazifalarni hal etish barcha turdagи logistik tizimlarning rivoj topishining shartlari hisoblanadi:


- logistik tizimlarda oqimli jarayonlar ustidan mufassal nazoratni amalga oshirish;
- moddiy oqimlarni boshqarish uslublarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- ishlab chiqarish, tashishlar, zahiralar va hokazolar hajmini ko‘p variantli prognozlash;
- ishlab chiqarish ehtiyojlari va moddiy-texnika ta’minoti imkoniyatlari, shuningdek, sotishdagi logistik xizmatlar ehtiyoji hamda logistik tizim imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutannosiblik;
- logistik xizmatlar va alohida operatsiyalar sifatiga talablarni standartlash;
- xo‘jalik aloqalarini oqilona shaklantirish;
- vaqt, moddiy, mehnat va pul resurslarini yo‘qotishning paydo bo‘lish markazlarini aniqlash;
- transport-ombor majmualarining texnik va texnologik tuzilmalarini optimallashtirish;
- moddiy resurslar, yarim fabrikatlar, tayyor mahsulotni jismoniy ko‘chirishning strategiyasi va texnologiyasini aniqlash;
- dolzarblashtirilgan (joriy, tezkor) logistik maqsadlar va logistik tizimlar harakati parametrlarini rasmiylashtirish.

Dolzarb va mo‘ayyan vazifalarni hal etish uchun liniyali dasturlash, funktsional-qiyomat tahlili, yasama modelashtirish va boshqa uslublar qo‘llaniladi. Tegishli tadqiqotlar va ishlanmalar tahlili natijalari infratuzilma ob’ektlarini loyihalashtirish, ishlab chiqarish, transport- ombor jarayonlarini avtomatlashtirishning texnologiya va vositalarini ishlab chiqish, boshqaruvni kompyuterlashtirish, shuningdek, samarali tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv tizimlarini yaratishda qo‘llaniladi.

Xususiy vazifalar logistikada mo‘ayyan xususiyatga egadir. Ular yanada jadalroq va xilma-xildir.

- Barcha turdagи va barcha bosqichlardagi zahiralarni optimallashtirish;
- mahsulotni saqlash vaqtini imkon qadar qisqartirish;
- tashishlar vaqtini qisqartirish;
- iste’molchilar talablariga tez ta’sirlanish;
- logistik zanjirning barcha bo‘g‘inlarida sarf-harajatlarni pasaytirish;
- transoprt vositalarini oqilona taqsimlash;
- sotuvdan keyingi sifatli xizmatni kafolatlash;
- axborotni qabul qilishga, qayta ishlashga va berishga doim tayyorgarlikni saqlash;

- oqimlarning trasformatsiya ob'ektlari va hokazolar orqali harakati ketma-ketligi hamda bo‘g‘inliligi.



## **2-Rasm. Logistikani ta'minlash tizimi.**

Ushbu guruh vazifalarini hal etishda evristik uslublardan, ko‘plab noaniq nazariyadan foydalaniladi. Negaki, logistik tizimlar ko‘pincha tovar harakatining noaniq sharoitlarida ishlashi kerak. Shuningdek, bu borada immitatsion modellashtirishni ham qo‘llaydi, chunki uning usullari transport-ombor tizimlarida yuzaga keladigan “tromblar” va “ilojsizliklar”ni aniqlash, shu bilan birga turli zonalarning (omborga joylashtirish, ekspeditsiya, qadoqlash, texnologik va boshqa zonalar) ushbu tizimlardagi eng kam bandligini hisobga olishga yordam beradi.

### **1.3. Moddiy oqimlar tushunchasi**

Moddiy oqim tushunchasi iqtisodiy logistikada juda muhim hisoblanadi. Ushbu tushuncha mehnat mahsulotlarining muomala va ishlab chiqarish sohalarida o‘zgarishi hamda harakati uzlucksizligi, shuningdek, chiqindilarning qayta aylanishini umumlashtiradi. Moddiy oqim jarayonida ma’lum bir ob’ektga vaqtning belgilangan bir qismida turli logistik operatsiyalarni qo‘sadigan ba’zi bir hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Moddiy oqimlar xomashyo, yarim fabrikatlar va tayyor masulotlarni transportda tashish, omborlarga joylashtirish hamda boshqa moddiy operatsiyalarni bajarish natijasida shakllanadi. Moddiy oqimlar turli korxonalar o‘rtasida yoki bitta korxona ichida oqib o’tishi mumkin.

Ushbu keng ko‘lamli tushuncha “oqim” atamasi bilan bog‘liq boshqa qator tushunchalarni masalan, taqsimlash va sotish sohasida “tovar oqimi”ni, moddiy-texnika ta’minti va tansport sohasida “yuk oqimi”ni o‘z ichiga oladi.

Logistikada moddiy oqimlar logistik operatsiyalar, jarayonlar, bo‘g‘inlar, logistik tizimning umumiy maqsadlariga erishish uchun tayyor mahsulot, moddiy resusrlarni qazib olish, qayta ishslash, iste’mol qilishning (qayta taqsimlash) alohida tarzda biri-biri bilan bog‘langanligini ifoda etadi.

Moddiy oqimning mavjudlik shakli uning ta’rifi bilan bog‘liq va harakat bosqichiga qarab o‘zgaradigan moddiy-ashyoviy tuzilishlarda namoyon bo‘ladi.

Masalan, korxonaga nisbatan moddiy oqim ishlab chiqarish jarayonlarini moddiy resurslar bilan ta’minalash bosqichida xomashyo, tarkibiy qismlar, qo’shimcha materiallar oqimi, ishlab chiqarish bosqichida yarim fabrikatlar, taqsimlash, sotish bosqichida esa tayyor mahsulot, iste’moldagi mahsulot uchun ehtiyyot qismlar ko‘rinishida taqdim etiladi.

Moddiy oqimlarni o‘rganish ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini, moddiy-texnika ta’minotini, mahsulotni transportda tashish va sotishni optimallashtirish, hujjat ayriboshlashni oqilona tashkil etish, ishlab chiqarish, omor va yordamchi inshoatlarni loyihalashtirish, boshqaruvning yuqori samarali kommunikatsiya infratuzilmasi va tashkiliy tuzilmasini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Moddiy oqimlar quyidagi belgilar bo‘yicha tasniflanadi:**

1. Logistik tizimga nisbatan ichki oqimlar ajratiladi, ya’ni mazkur logistik tizim ichidagi moddiy oqimlar va tashqi, ya’ni logistik tizim ichidagi modiy oqimlar.

2. Moddiy oqimlar logistik tizim bo‘g‘inlariga nisbatan kirish va chiqish oqimlarga bo‘linadi.

Kiradigan moddiy oqimlar deganda logistik tizimga tashqi muhitdan keladigan tashqi oqim tushuniladi. CHiqadigan moddiy oqim-bu logistik tizimdan chiqadigan va tashqi muhitga kiradigan oqimdir.

Kiradigan va chiqadigan moddiy oqimlar davriy aloqalarni amalga oshirish shakli hisobalanadi, ya’ni bular bitta mikrologistik tizimdan chiqib, bir vaqtning o‘zida boshqasiga kiradigan va aksincha sanaladigan aloqadir.

3. Moddiy oqimlar nomenklatura bo‘yicha bir mahsulotli (bir turli) va ko‘p mahsulotli (ko‘p turli) oqimlarga bo‘linadi. Nomenklatura deganda statistik hisobot, hisobga olish va rejalashtirish maqsadlari uchun mahsulotlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarining tizimli ro‘yxati tushuniladi.

4. Turlar bo‘yicha moddiy oqimlar bir turli va ko‘p turliga bo‘linadi. Mahsulotning turi - bu bir-biri bilan navi, turi, hajmi, tamg‘asi, tashqi bezagi va boshqa belgilari bilan ajzralib turadigan ma’lum tur yoki nomdagagi mahsulotning tarkibi va nisbatidir.

5. Transportda tashish jarayonida yuk xususiyati bo‘yicha moddiy oqimlar o‘z ichiga transport

turi, transportda tashish uslubi, yukning o‘lchami, og‘irligi va fizika-kimyoviy xususiyati, taralash usullari, transportda tashish shariotlari kabi belgilarni oluvchi transport omili bo‘yicha alohida tasniflanadi.

6. Determinatsiya darajasi bo‘yicha moddiy oqimlar determinatsiyalangan va stoxastik oqimlarga bo‘linadi. Determinatsiyalangan moddiy oqimlar deb to‘liq ma’lum bo‘lgan (determinatsiyalangan) parametrli oqimlarni ataymiz. Agarda ushbu parametrlardan birortasi ma’lum bo‘lmasa yoki tasodifiy miqdor (jarayon) hisoblansa, unda moddiy oqimlar stoxastik deb ataladi.

7. Moddiy oqimlar vaqtida uzlucksizlik belgisi bo‘yicha uzlucksiz va diskretli moddiy oqimlarga bo‘linadi. Uzlucksiz moddiy oqimlarga masalan yopiq davrdagi uzlucksiz ishlab chiqarish (texnologik) jarayonlardagi xomashyo va materiallar oqimi, quvur yotqizish trasnporti yordamida ko‘chadigan neft mahsulotlari, gaz oqimlari va hokazolar kiradi. Ko‘pchilik moddiy oqimlar diskretli hisoblanadi.

Moddiy oqim jadallik kabi ko‘rsatkich bilan ham tushuntirilishi mumkin. Jadal moddiy oqim deganda mo‘ayyan vaqt oralig‘ida logistik tizimga krib boradigan mahsulot birligi miqdori tushuniladi. Logistika ish olib boradigan yuk birliklarining moddiy oqimlari turli belgilar bo‘yicha tasniflanishi mumkin. Bunday oqimlar tasnifi 1- jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvaldagagi oqimlar turlariga berilgan ayrim ta’riflar sifatli xususiyatga ega. Ular tushuntirishlarni talab etmaydi, chunki oqimlarning ma’nosи ularning nomilarining o‘zida ochib berilgan. Boshqa holatlarda oqimlar turlarining ta’rifi miqdoriy xususiyatga ega va tasniflangan belgining aynan qaysi ma’nosи bunday moddiy oqimlarni turlar bo‘yicha cheklash uchun xizmat qilishni tushuntirishni talab etadi.

### **1-jadval**

#### **Logistikada moddiy oqimlarning tasnif jadvali.**

Tasnif belgisi	Yuk birliklarining moddiy oqimlari turlari
Tizimga munosabati	Ichki, tashqi, chiqadigan, kiramidan
Moddiy-tovar boyliklar tarkibi	Bir xil turli Ko‘p xil turli
Ko‘lamdorligi	Ommaviy Yirik O‘rta Mayda
Yuk birliklarining xususiyati va og‘irligi	Og‘ir vaznli, Yengil vaznli
Oqim yuk birliklarining bir-biriga mos kelish darajasi	Mos keladi mos kelmaydi
Oqim yuk birliklari konsistensiyasi	To‘kib ortiladigan yuk qoplanmay-digan yuklar tovar-dona yuklar qo‘yib tashiladigan yuklar

Pastda tegishli tushuntirishlar keltirilgan bo‘lib: ular tasniflangan oqimlarning eng so‘nggi ma’nosiga asoslanadi.

Ommaviy oqim - bu bir guruh transport vositalari tomonidlan transportda tashishni, masalan, ko‘plab vagonlardan iborat temir yo‘l tarkibi, treyler kolonnasi va hokazolarni talab etadigan oqim.

Yirik oqim - bu bir nechta vagon yoki treylerlarni va hokazolarni talab etadigan oqim.

O‘rtacha oqim - bu bitta vagon, treyler va hokazolardan tashkil topgan oqim.

Mayda oqim – bu yakka transport vositasining yuk ko‘tarishiga qaraganda kam yuk oqimlari bo‘lib, trasnportda tashishda boshqa mayda oqimlar bilan qo‘shilishi mumkin.

Og‘ir vaznli oqimlar - bu yuqori zichlangan yuklardan tashkil topgan va shu og‘irlikda kichik hajmni egallaydigan oqimlardir. Bunday oqimlarga suvda tashishda 1 tonnadan oshiq yuklardan, temir yo‘llar orqali tashishda yarim tonnadan iborat yuklardan tashkil topgan oqimlar kiradi.

Engil vaznli oqimlar - bu kam zichlangan va gabaritlar tomonidan aniqlanadigan berilgan hajmda mazkur transport vositasi uchun ortish mumkin bo‘lgan kichik vaznli yuklardan tashkil topgan oqimlardir. Bunday oqimlarda 1 tonna yuk 2 kub metrdan oshiq joyni egallaydi. To‘kib ortiladigan yuklarni maxsus transport vositalari - bunkerli vagonlar, konteynerlar, treylerlar va hokazolarni talab etadigan oqimlar tashkil etadi. Bunday oqimlarga g‘alla misol bo‘la oladi.

Qoplanadigan yuklarni maxsus taralashni talab qilmaydigan va muzlab, bir-biriga yopishib qoladigan oqimlardan tashkil topadi. Bunday yuklarga ruda, ko‘mir va hokazolar misol bo‘la oladi.

Tara-dona yuklar turli xil fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega. Ular ma’lum bir tarada (yashik, qoplar va hokazolarda) va talarsiz ham donalab (uzunli o‘lchovli yuklar, prokat va hokazolar) tarsnportda tishilishi mumkin.

Quyib tashiladigan yuklar - bu tsisternalar va trasnport vositalarining boshqa turlariga quyiladigan yuklardir.

U yoki bu moddiy oqimni ta’riflaydigan asosiy parametrlar quyidagilar:

- transport massasi M;
- transport yo‘li L;
- transport vaqt T.

Logistikada skalyar va vektor transport massalari ajratiladi. Birinchi holatda yuk birligini tashkil etuvchi oqimlarni hisoblash bilan cheklanadi, transportda tashishning talab etiladigan yoki haqiqatdan ham bo‘ladigan yo‘nalishi esa ko‘rib chiqilmaydi. Ikkinci holatda qayd etilgan ma’lumotlardan tashqari, dastlabki punkt va tegishli moddiy oqimning mo‘ljallangan punkti to‘g‘risida axborot ham ko‘rib chiqiladi.

Tashishlarni tashkil etishning logistik chizmasidagi transport yo‘li odatda to‘g‘ri liniyali vektorlar bilan aks ettiriladi. Biroq ular haqiqatda yukni tashish yo‘nalishi bo‘yicha borishning real yo‘lini ifoda etadi.

Transport vaqt - bu tashish jarayonini bajarishni boshlash va yakunlash uchun kerakli vaqt hisoblanadi. Odatda transport massasi harkatining umumiy vaqt va transport massasining yo‘lda bo‘lish vaqt ajratiladi.

Shuningdek, ba’zida transport massasini vektor transport yo‘liga skalyar o‘tkazish sifatida aniqlanadigan transport ishi tushunchasidan foydalaniladi.

Moddiy oqim - bu (yuklar, detallar, tovar-moddiy boyliklar ko‘rinishidagi) mahsulot bo‘lib, ushbu mahsulot unga turli logistik (transportda tashish, omborlarga joylashtirish va boshqalar) va texnologik (mexanik qayta ishlash, yig‘ish va boshqalar) operatsiyalarni ilova qilish jarayonida ko‘rib chiqiladi hamda ma’lum bir vaqt oralig‘iga kiritilgan.

Moddiy oqimning bir maromiligi suratida yukni o‘lhashh birligi (dona,tonna va hokazo) va maxrajida vaqtini o‘lhashh birligi (kun, oy, yil va hokazo) ko‘rsatilgan kasrni ifoda etadi.

Moddiy oqim quyidagi parametrlarning mo‘ayyan to‘plami bilan ifodalanadi:

- mahsulot nomenklaturasi, turi va miqdori;
- gabarit xususiyatlari (hajm, maydon, liniyalı o‘lchamlar);
- vazn xususiyatlari (umumiy massa, /ves brutto/ idish bilan birgalikdagi og‘irlik, /ves netto/ idishsiz og‘irlik);
- yukning fizika-kimyoiy xususiyati;
- tara xususiyatlari (qadoq);
- oldi-sotdi shartnomasi sharti (shaxsiy mulkka berish, yetkazib berishlar);
- transport tashish va sug‘urtalash shartlari;
- moliyaviy (qiymat) xususiyatlari;
- jismoniy taqsimlashning mahsulot ko‘chiishi va hokazolar bilan bog‘liq boshqa operatsiyalarini bajarish sharti.

Qayd etilgan parametrlarning har biri bilan axborotning ma’lum bir hajmi, ko‘pchilik parametrlar bilan esa moliyaviy ko‘rsatkichlar (harajatlar, narxlar, tariflar) va cheklanishlar bog‘liq. Biroq shuni hisobga olish kerakki, vaqt va miqyos jihatlarida axborot va moliyaviy oqimlar moddiy oqimlar bilan to‘g‘ri kelmaydi.

Moddiy oqimlar vaqt oralig‘ida emas, balki ma’lum bir vat paytida ko‘rib chiqilgan holatlarda ular moddiy zahiralarga (xomashyo, tayyor mahsulot va hokazolar) asoslanadi.

Moddiy oqimlar ikkita qarama-qarshi holatlarda ikkita, ya’ni jadal moddiy oqim va turg‘un moddiy oqim ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Har ikki holat ham birgalikda mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yoki manbadan mo‘ljallangan punktgacha yetkazib berishni tashkil etish hamda bosharishning yagona jarayonini

tashkil qiladi. Moddiy oqimlar turli korxonalar rtasida yoki bitta korxona ichidan oqib o'tishi mumkin. Moddiy oqimlar tadqiqot ob'ekti sifatida bir necha belgilar bo'yicha tasniflanishi mumkin.

### **Moddiy oqimlar bir maromligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:**

1. Uzluksiz - ishlab chiqarish jarayonida kono'yer yoki avtomatlashtirilgan liniyalar, moddiy resurslarni quvur o'tkazish bo'yicha transportda tashish;
2. Diskretli - ehtiyojlarni omborlardan va tranzit yo'li bilan yetkazib berish shaklida ta'minlashni tashkil etish, moddiy resurslarni kichik va o'rta hajmli ishlab chiqarishda ish joyiga berish, tayyor mahsulotni doimiy kontragentlarga muntazam ortib jo'natish va hokazolar;
3. Blits-oqim - bir marta yetkazib berish, ortib jo'natish, ish joylariga kamdan-kam iste'mol qilinadigan mehnat vositalari va ashyolarini berish.

Moddiy oqimlar o'rganish vositasiga qarab quyidagi bo'lishi mumkin:

- oziq-ovqat;
- operatsiyaviy;
- uchastkali;
- tizimli.

Oziq-ovqat moddiy oqimlari - bu mo'aayyan mahsulot va mehnat vositalarining ko'chishi ushbu oqimlarning o'rganish ob'ekti (tahlil, rejalashtirish va h.k.) hisoblanadi. Masalan, metallurgiya ishlab chiqarishda temir rudasi, issiqlik elektr stantsiyasiga gaz uzatish va h.k.

Operatsiyaviy moddiy oqimlar - bu ayrim logistik operatsiyalarga nisbatan moddiy resurslar oqimidir. Masalan, yukni tushirish, poddonlarga taxlash operatsiyalari bo'yicha moddiy oqimlar. Operatsiyaviy moddiy oqimlar parametrlari ayrim vaqt oralig'iga mo'ljallangan ayrim operatsiyalar bo'yicha ishlar hajmiga mos keladi. Mazkur oqimlar uchastka moddiy oqimlarni hisobga olish uchun asos hisoblanadi.

Uchastka moddiy oqimlari - bu logistik tizimning alohida uchastkasida ko'rib chiqiladigan oqimlar jamuljami. Uchastka moddiy oqimlar parametrlari mazkur uchastkada amalgab oshirilayotgan barcha logistik operatsiyalar bo'yicha ishlar hajmi jamlash yo'li orali aniqlanadi.

Tizimli oqimlar - bu loisgtik tizim bo'yicha aylanib yuradigan moddiy oqimlardir.

Tizimli moddiy oqimlar parametrlari amalgadagi logistik tizimning uchastka oqimlarini jamlash yo'li bilan aniqlanadi. Moddiy oqimlar son va sifat ko'rsatkichlarini bilan ta'riflanadi. Ular asosiyлari moddiy oqimning kuchi va qizg'inligi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida odatda qarama-qarshi bog'liqlik kuzatiladi. Ularga yetkazib berishlar hajmi, vaqt va shakli to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Masalan, korxona katta hajmdagi xomashyo yoki moddiy oqimlar mahsulotini tranzit yetkazib berishda katta kuchga ega bo‘lishi mumkin, biroq uzoq muddatli davriylik sababli logistik kanal qizg‘inligi unchalik katta bo‘lmasligi ham mumkin. Yoki aksincha, “aniq muddatda” uslubi bo‘yicha yetkazib berishlarni tashkil etishda ko‘chib yuradigan yuklar hajmi unchalik katta bo‘lmasligi mumkin, biroq yetkazib berishlar tez-tez bo‘lishi mumkin. Bu mazkur logistik zanjirni (kanal) va tegishli ravishda moddiy oqimni ham juda qizg‘in qilishi mumkin.

Logistikada “moddiy oqimlar” tushunchasining joriy qilingani munosabati bilan ularni boshqarish jarayoni ikkita sohaga - moddiy boshqaruv va moddiy taqsimlashga bo‘linadi.

Moddiy boshqaruv - bu moddiy oqimlar va yarim fabrikatlarning korxona va uning tashqarisida ko‘chishini rejalashtirish, tashkil etish hamda boshqarishdir.

Moddiy taqsimlash - bu tayyor mahsulotni iste’molchilar o‘rtasida taqsimlash va uni mo‘ljallangan joyga yetkazib berishni tashkil etishdir.

Ushbu tushunchalar o‘z ichiga xo‘jalik, ishlab chiqarish aloqalarini o‘rnatish, transportda tashish, yuklash-tushirish ishlari, omborlarga joylashtirish, tovar massasini taqsimlash, iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal etishga kompleksli yondoshuvni oladi.

Bunday yondoshuvda moddiy boshqaruv faoliyat sohasini ancha keng, moddiy taqsimlashni esa tayyor mahsulotni sotishga nisbatan tegishli ravishda kengroq ifoda etadi.

Bunda transport faoliyati xuddi yagona jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi va bir tomondan moddiy boshqaruvga, ikkinchi tomondan esa moddiy taqsimlashga kiritiladi.

An’anaviy yondoshuvda trasnportda tashish jarayoniga transport vositasilari bilan amalga oshiriladigan moddiy resurslar va tayyor mahsulotni yetkazib berishni, shuningdek, shoxobcha yo‘llarda bajariladigan yukni ortish-tushirish ishlari kiradi.

Logistik tizimlarda esa transport ishlari materiallar va mahsulotlarning tizimning har qanday uchastkasida har qanday ko‘chib yurishini o‘z ichiga oladi. Bunday ishlar transport ishlari emas, balki transport-ko‘chib yuruvchi ishlar deyiladi. Bunga korxonaga moddiy resurslarning kelib tushayotganda, ularning ishlab chiqarish jarayonida bir ish joyidan ikkinchisiga harkatida amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar, hattoki yarim fabrikatlarning ishlab chiqarish operatsiyasi doirasida (o‘rnatish, burish, yig‘ish va hokazolar) ko‘chishi ham kiradi.

Ushbu ishlarning barchasi, shuningdek, tayyor mahsulotning korxona tashqarisida muomala sohasiga ko‘chishi va uni iste’mol sohasiga yetkazish logistik tizimlarda yagona transport-ko‘chish majmuuni tashkil qiladi. Transport-ko‘chish ishlarni moddiy boshqaruv va moddiy taqsimlash sohasiga taqsimlash jinoiy xususiyatga egadir.

#### **1.4. Logistik tizim va logistik zanjir to‘g‘risida tushuncha.**

Logistik tizim tushunchasi, logistikaning asosiy (negiz) tushunchalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy mexanizmlar faoliyatini ta'minlovchi turli xil tizimlar mavjud. Ushbu ko'plikdan aynan logistik tizimlarni, ularni tahlil qilish va yanada takomillashtirish maqsadida, ajratish lozim.

Logistik tizim xaqida gap yuritishdan oldin, «tizim» tushunchasini ta'riflab o'tamiz. Tizim (yunonchadan olingan bo'lib - qismlardan tashkil topgan bir butun; birlashma ma'nosini anglatadi) – bu muayyan bir butunlikni paydo qiluvchi, va bir-biri bilan aloqa va munosabatlarda bo'luvchi unsurlar ko'pligidir. Quyidagi 4-ta xususiyatga ega bo'lgan ob'ektni bemalol «tizim» deb atashimiz mumkin:

1. butunlik va alohidalik
2. o'zaro aloqa
3. tashkil etish, tartib
4. integrativ jihatlar (ya'ni faqat unsurlar birgaligida yuzaga keladigan xususiyatlar).

Moddiy oqimlar harakati malakali xodimlar tomonidan, turli xil texnika: transport vositalari, ortish-tushirish uskunalarini va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, logistik jarayonga turli bino va inshootlar ham jalb etilgan bo'ladi. Jarayonning kechishi esa harakatlanayotgan va yig'ilayotgan yuklarning, ushbu jarayonga tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Yuklar o'tishini ta'minlovchi ishlab chiqarish kuchlarining yig'indisi, yaxshimi yomonmi, ammo tashkil etilgan. Umuman olganda, biror-bir moddiy oqimlar mavjud bo'lsa, qandaydir tovar o'tkazuvchi tizim ham mavjud bo'ladi. Odatda, bunday tizimlar maxsus loyihamasdan, ayrim unsurlarning (turli korxonalar yoki ularning bo'limlari) faoliyati natijasida yuzaga keladilar.

Logistika, bir-biri bilan kelishilgan material o'tkazuvchi (logistik) tizimlarni loyihalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Ushbu tizimlardan chiquvchi moddiy oqimlar parametrlari oldindan berilgan bo'ladi. Bu tizimlar, ularga kiruvchi ishlab chiqarish kuchlarining yuqori darajada kelishilganligi bilan, boshqalardan farq qiladilar.

Yuqorida aytib o'tilgan tizimning 4-ta xususiyatini, logistik tizimga nisbatan ko'rib chiqamiz:

Birinchi xususiyat: tizim bu bir-biri bilan aloqador bo'lgan unsurlar yig'indisining butunligidir. Logistik tizimni unsurlarga ajratishni turlicha amalga oshirish mumkin.


Makrodarajada moddiy oqim bir korxonadan ikkinchisiga o'tadi va unsur sifatida ushbu korxonalar, hamda ularni bog'lovchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

Mikrodarajadagi logistik tizimni esa quyidagi tizimchalar ko'rinishida tasvirlash mumkin: (mukammal qaralganda ushbu tizimchalarining har biri murakkab bir tizim ekanligi ayon bo'ladi)

Xarid – ushbu tizimcha logistik tizimga moddiy oqimni kirishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish – bu tizimcha esa xarid tizimchasidan moddiy oqimni qabul qilib oladi va turli texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonida uni boshqarib turadi. Aynan ushbu texnologik operatsiyalar mehnat predmetini mehnat mahsulotiga aylantiradilar.

Realizatsiya (savdo) – bu tizimcha moddiy oqimni logistik tizimdan chiqib ketishini ta'minlaydi. (3-rasm)



### 3–Rasm. Mikrologistik tizim sxemasi.

Ko'rib turganimizdek, logistik tizim unsurlari turlicha va bir vaqtning o'zida bir-biriga mos. Ularning mosligi maqsad yagonaligi bilan ta'minlanadi, va ushbu maqsadga logistik tizimni har bir unsuri xizmat qiladi.

Ikkinci xususiyat (aloqalar): Logistik tizim unsurlari orasida muhim aloqalar mavjud. Ular biror-bir qonuniy zaruriyat bilan integrativ jihatlarini ham belgilaydilar. Makrologistik tizimlarda, unsurlar orasidagi aloqa asosini shartnomaga tashkil etadi. Mikrologistik tizimlarda esa unsurlar ichki ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi.

Uchinchi xususiyat (tashkil etish): logistik tizim unsurlari orasidagi aloqalar ma'lum tarzda tartiblashtirilgan bo'ladi, bu esa logistik tizim tashkil etilganidan dalolat beradi.

To'rtinchi xususiyat (integrativ jihatlar): logistik tizim, uning biror-bir unsuri ham alohida ravishda ega bo'lмаган jihatlarga (xususiyatlarga) ega. Bu zarur bo'lган tovari, zarur vaqtida, zarur joyga, lozim bo'lган sifatda va minimal xarajatlar bilan yetkazish qobiliyati, hamda tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga (talabning o'zgarishi, texnik vositalarning ishdan chiqishi va h.) moslashish qobiliyatidir.

Logistik tizimning integrativ jihatlari, unga materiallarni xarid qilish, uni o'z ishlab chiqarish quvvatlaridan o'tkazish hamda tashqi muhitga chiqarish imkonini beradi, va shu bilan birga oldindan belgilangan maqsadlarga ham erishiladi.

Paydo bo'lган talabga, mahsulotni tezda yetkazib berish bilan javob beradigan logistik tizim, ishlab chiqarish korxonasi hududidan to mamlakat hududigacha va undan ham katta bo'lishi mumkin. U tashqi muhit o'zgarishlariga moslashib, ko'nikib, ularga tezda javob qaytarishi mumkin.

Logistik tizimga berilgan umumiyligi ta'rif quyidagicha: logistik tizim – u yoki bu logistik funktsiyalarni bajaruvchi, teskari aloqaga ega bo'lган, tashqi muhit sharoitlariga yaxshi moslashuvchan tizimdir. U odatda bir necha tizimchalardan tashkil topgan, va tashqi muhit bilan mustahkam aloqalarga ega bo'ladi. Logistik tizim sifatida sanoat korxonasi, qishloq xo'jalik korxonasi, hududiy ishlab chiqarish majmuasi, savdo korxonasi va boshqalar ko'riliishi mumkin. Logistik tizimning maqsadi – bu xarajatlarning berilgan chegarasida, tovar va buyumlarni

belgilangan joyga, zarur bo‘lgan miqdorda va assortimentda, hamda mumkin bo‘lgan maksimal darajada ishlab chiqarish va shaxsiy iste’molga tayyorlangan holda yetkazib berishdir.

Logistik tizim chegaralari ishlab chiqarish vositalarini aylanish tsikli bilan belgilanadi. Oldin ishlab chiqarish vositalari xarid qilinadi. Ular moddiy oqim ko‘rinishida logistik tizimga kelib tushadilar, omborga qo‘yiladilar, qayta ishlanadilar, saqlanadilar, va keyinchalik, logistik tizimga kelib tushgan moliyaviy mablag‘lar evaziga, logistik tizimdan iste’molga chiqib ketadilar.

Logistik tizim (logistical system) – bu logistik vazifalar va operatsiyalar bajaruvchi teskari aloqaga ega moslashtirilgan tizimdir. U, qoidaga ko‘ra bir necha tizimlardan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega. Logistik tizim sifatida qishloq xo‘jalik korxonasi, hududiy ishlab chiqarish majmuasi, savdo korxonasi va h.k. ko‘rib chiqish mumkin.

Logistik tizimning maqsadi-tovarlar va buyurtmalarni belgilangan manzilga, kerakli miqdorda, iloji boricha ishlab chiqarish va shaxsiy iste’molga tayyorlagan holda xarakatlarning berilgan darajasida yetkazib berishdir. Vazifaviy tizimchalarga binoan bir qatorda logistik tizim taъminlovchi tizimchalarga (masalan, axborot, huquqiy, xodimlar va x.k.) ham ega. Ommaviy xizmat ko‘rsatish tizimi sifatida logistik tizim ichki aloqalarga va tashqi muhit bilan aloqalarga ega. Tizimichi aloqalar odatda davriy xarakterga ega, chunki, qoidaga ko‘ra aloqa qiluvchi tizimchalar o‘rtasidagi moddiy oqimni izchil uzatish bosqichini aks ettiradi. Logistik funktsiya (LF) – korxona logistikasini boshqarish darjasini va samaradorligini oshirish maqsadida ajratib ko‘rsatilgan logistik operatsiyalar yig‘indisi. Logistik funktsiyalar quyidagilar: buyurtmalarni boshqarish protseduralari, transportirovka, zaxiralarni boshqarish, moddiy mablag‘larni ishlab chiqarish faoliyati uchun xarid qilish, ishlab chiqarish protseduralariga ko‘maklashish, omborlarga joylashtirish, yukni qayta ishslash, mahsulotning qaytishiga ko‘maklashish va b.

Logistik zanjir (logistik chain) – bu tashqi moddiy oqimni bitta logistik tizimdan boshqasiga (ishlab chiqarish, iste’mol holida) yoki yakuniy iste’molchiga yetkazish bo‘yicha logistik operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning to‘g‘ri chiziqli tartibga solingan ko‘pchilikdir. Umumiy holda logistik zanjir ishlab chiqaruvchi, iste’molchi, vositachi va tashuvchini birlashtiradi.

Logistik tizim bilan bir qatorda logistik zanjir yoki yetkazib berish zanjiri tushunchasi (Logistical chain/supply chain) logistik tarmoq va logistik kanal (Logistical channel) tushunchasi ham muhim.

Logistik zanjir (LZ) – bir logistik tizimdan boshqasiga (ishlab chiqarishda foydalanilganda) yoki so‘nggi iste’molchigacha moddiy yoki servis oqimni yetkazish bo‘yicha logistik operatsiyalarni amalga oshiradigan logistik tizimning tartibga solingan ko‘plab bo‘g‘inlari (ishlab chiqaruvchilar, distribuyutorlar, umumiy foydalaniladigan omborlar va hokazolar)dir.

Logistik zanjirlar logistikaning funksional sohalari ichida tahlil qilinadi va loyihalashtiriladi. Ta'minotda logistik zanjir materialni yetkazib beruvchi va mahsulotni ishlab chiqaruvchini; taqsimotda

– mahsulotni ishlab chiqaruvchi va iste'molchini o'zaro bog'laydi; ishlab chiqarishda logistik zanjirlar - material oqimni materiallar omboridan yetkazib berish, tayyor mahsulot omboridan komplektlovchigacha yetkazib berishda shakllanadi. Logistikaning istalgan funksional sohasi uchun logistik zanjir shakllanishining so'nggi parametri bo'lib, iste'molchining buyurtmasi hisoblanadi.

Aksariyat xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarni logistik kanal bilan taqsimlash kanali tushunchasi bog'lab turadi (marketing kanali, distributiv kanal). Shu bilan birga, logistik kanal to'g'risida tadqiqotchilar yakdil fikrga kelgan emaslar. Olimlarning qarashlaridagi umumiylilik shundan iboratki, logistik (marketing, distributiv) kanalda tovar ayriboshlash (oldi-sotdi) yuz beradi va taqsimlash uchun xarakterli bo'lgan funksiyalar bajariladi: transportda tashish, omborlarga joylashtirish, yukni qayta ishslash, tayyor mahsulot zaxiralarini boshqarish, mahsulotga bo'lgan talabni oldindan o'rganish va b. Tovar oldi-sotdisi agentlar, dilerlar, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilar yoki boshqa vositachilar orqali amalga oshirilishi mumkin, ular orasidagi xo'jalik aloqalari tizimi logistik kanal hosil qiladi.

Logistik kanal (LK) – logistik tizimning tartibga solingan ko'plab bo'g'inalari bo'lib, u o'z ichiga yetkazib beruvchilardan tortib to so'nggi iste'molchigacha material oqimlarni, shuningdek unga bog'liq servisni o'tkazib beradigan moddiy oqim barcha logistik zanjirlar va uning uchastkalarini qamrab oladi.. Logistik kanalni farqlovchi belgilar quyidagilar: aniq mahsulotning va/yoki assortimenti tavsifi, bozor segmenti, sanoat (transport) qadog'i (o'rami), yuk birligining turi va o'lchami.

Logistik zanjir va kanallar logistik tarmoqning tarkibiy qismlari sanaladi.

Logistik tarmoq (LT) – logistik tizimning, yagona ramkalarda asosiy va yondosh oqimlar bo'yicha o'zaro bog'langan ko'plab bo'g'inalidir.

Ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimlash operatsiyalarini integratsiyalangan ko'rikdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalardan biri – logistik tsikldir (buyurtmani bajarish tsikli yoki funksional tsikl), bu tushuncha ostida buyurtmani berish va buryutma qilingan mahsulotni so'nggi iste'molchiga yetkazib berish oralig'idagi vaqt va servis tushuniladi. Logistik tsikl, odatda, buyurtma berilgan vaqt, uni qayta ishslash, joylashtirish, ishlab chiqarish va/yoki komplektlash, transport yordamida tashish va iste'molchi tomonidan tovarni qabul qilib olish vaqtini o'z ichiga oladi.

Bularning har biri uchun vaqt sarfi talab qilinadi. Bosqichlarning davomiyligi va logistik tsiklning umumiyligi vaqtiga ko'ra farqlanishi mumkin.

Logistikaning asosiy tushunchalarini ko‘rib chiqkanimizdan so‘ng, quyidagi savollarga javob beraylik: logistika qanday ustunliklarga ega va nima uchun logistika korxonalarimiz uchun dolzarb?

Mutaxassislarning fikriga asosan (ekspert bahosi), logistikani qo‘llash -

- Zaxiralar miqdorini 30-50% kamaytirish;
- Mahsulotning harakatlanish vaqtini 25-45% qisqartirish;
- Omborlarga qayta tashishni 1,5-2% qisqartirish;
- Avtotashishlar uchun xarajatlarni 7-20%, temir yo‘l orqali tashish xarajatlarini 5-12% qisqartirish kabi ustunliklarni beradi.

Logistikani qo‘llash mehnat samaradorligini muomala doirasida ham, ishlab chiqarish doirasida ham sezilarli oshiradi. Mutaxassislarning baho berishicha, 1980 yillardan boshlab, AQSHda mehnat samaradorligining yiliga umumiyligi oshishi 5-6% bo‘lsa, uning teng yarim (2,5-3%) ko‘rsatkichiga logistikaning tarqalishi hisobiga erishilar ekan. Logistik qo‘yilmalarning 1%ga qisqarishi savdo hajmining deyarli 10% ortishiga teng.

Logistik strategiya zaminida logistik missiya yoki logistikaning yetti qoidasi (7 R (right) qoidasi yoki logistik miks) yotadi. Ular korxonaning logistika sohasidagi barcha keyingi harakatlari va qarorlarini belgilab beradi: zarur mahsulot bilan kerakli miqdorda muvofiq (belgilangan) sifatda zarur joyda belgilangan vaqtda aniq iste’molchiga eng kam (minimal) xarajatlarda ta’minlash. Logistik missiyadan tashqari, korxonaning logistika strategiyasi shakllanishi uchun kontseptsiya (etakchi fikr, boshqaruvchi g‘oya)ni belgilab olish muhimdir, bu biznesni qo‘llab-quvvatlash va asosiy hamda unga yondosh oqimlarni boshqarish imkonini beradi. Logistik kontseptsiyalar va logistika evolyutsiyasini navbatdagi bo‘limda ko‘rib chiqamiz.

## **5. Agrosanoat majmuida logistik tizimi. Qishloq xo‘jalik korxonasining logistik tizimini shakllantirish asoslari.**

Agrosanoat majmuasi - bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchi, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishslash, iste’molchiga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlari majmuasidir.

Agrosanoat majmuasining maqsadli faoliyati minimal xarajatlar hisobiga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom-ashyo bilan to‘laroq qondirishga qaratilgan.

Agrosanoat majmui logistikasi quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi: ASMning barcha sohalarini resurs ta’mintini ratsionalizatsiyalash; ASMning sohalarini optimallashtirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasining tarmoq va korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tovar ayriboshlash orqali amalga oshirilar ekan, ASM tizimini hosil qiluvchi unsurlari bo‘lib, tovar va ular bilan bog‘liq moliyaviy va axborot oqimlari xizmat qiladi. ASM

kuchli iqtisodiy va ishlab chiqarishning o‘zaro aloqalariga ega, qishloq xo‘jalik mahsulotini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlashga asoslangan, qishloq xo‘jaligini va qayta ishlash sanoatini ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchi, majmua sifatida tavsiflanadi.

ASM uchta sohani o‘z ichiga oladi. Birinchi soha ASM ni ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchi tarmoqlardan iborat. Ikkinci sohaga bevosita qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar kiradi.

ASMning uchinchi sohasiga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlanishi, qayta ishlanishi va uni iste’molchilarga yetkazish bilan shug‘ullanadigan tuzilmalar va korxonalar kiradi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda mavjud sharoitlarda ASM sohalari orasida, tovar ayrboshlashni moddiy oqimlar bilan ta’riflash mumkin.

- birinchi sohadan ikkinchi sohaga yo‘naltirilgan moddiy oqim: texnika, mashina, uskuna, yoqilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘itlar va qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilarning boshqa moddiy-texnik resurslardagi (MTP) ehtiyojini qondirish uchun lozim bo‘lgan yetkazishlarni o‘z ichiga oladi. Qishloq xo‘jalik moddiy-texnika ta’minotining (MTT) o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra, ushbu moddiy oqim, odatda, tijorat vositachilari ishtirokida tashkil etiladi;

- ikkinchi sohadan birinchi sohaga yo‘naltirilgan moddiy oqim, birinchi sohada ishlatiladigan birlamchi qishloq xo‘jalik xom-ashyosi (birinchi soha korxona va tashkilotlarining umumiy ovqatlanish tizimiga), hamda barter almashuvi uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazishni o‘z ichiga oladi;

- ikkinchi sohadan uchinchi sohaga yo‘naltirilgan moddiy oqimlar, qayta ishlash sanoati korxonalariga oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlar ishlab chiqarish uchun qishloq xo‘jalik xom ashysosini (qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilari mahsulotini) (QXM) yetkazib berishini o‘z ichiga oladi:

- uchinchi sohadan birinchi sohaga yo‘naltirilgan moddiy oqim, qishloq xo‘jalik xom-ashyosini qayta ishlash natijasida olingan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarni yetkazib berishini o‘z ichiga oladi. Bu moddiy oqim, birinchi sohada band ishchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy resurslar va axborot oqimlari bilan kuzatiladigan, yuqorida aytib o‘tilgan moddiy oqimlar ASMDagi logistika tizimlarini tashkil etadi.

Moddiy oqimlar logistik zanjirning quyidagi halqalarini o‘z ichiga oladi:

-qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika ta’minoti (QXMTT);


- qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlarini tayyorlashning, ularning asosiy qismi tayyorlov va davlat ehtiyojlari uchun xaridlar bo‘yicha maxsus tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi;

- qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, maxsus omborxonalar tarmog‘i

va birlamchi qayta ishlash bo'yicha maxsus korxonalar;

- ochiq bozorga va davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik tovar mahsulotlarini yetkazib berish xaridlar tizimini tashkil etish. +ishloq xo'jalik xom-ashyosi va mahsulotini sotish bo'yicha tashkiliy bozorlar tarmog'ini yaratish ham shular jumlasidandir.

Ushbu halqalarning o'zaro logistik bog'lanishlari quyidagicha sxema tarzida ifodalash mumkin (4-rasm).



**4-rasm. ASMda moddiy oqimlarning modeli.**

ASM sohasidagi moddiy va ular bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy resurslar va axborot oqimlari iqtisodiy oqimlar yig'indisini aks ettiradi. Ushbu tizim qanchalik optimal faoliyat yuritsa, logistika ham ASM sohasida shunchalik keng va chuqur qo'llaniladi, hamda qishloq xo'jaligi samaradorligining rivojlanishi ham shunga muvofiq bo'ladi.

ASM infratuzilmasi tizimining nisbatan past darajada rivojlanganligi qishloq xo'jaligida katta yo'qotishlarga olib keladi. CHunki infratuzilma majmuasiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining moddiy-texnika ta'minoti va mahsulotlarni sotish jarayonlarida, tovar harakati logistik tizimlarining xalqalari (bo'g'inlari) vazifasini bajaradi.

ASM sohasidagi tovar harakati logistik zanjiri ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini bir-biriga to'g'ri kelmasligi oqibatida hamma zarar ko'radi: qishloq xo'jaligi uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi korxonalar ham (ish faolligini pasayishi), qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari ham (to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talabning kamayishi), qayta ishlash sanoati korxonalari ham (xom-ashyo bazasining qisqarishi va ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi), so'nggi iste'molchilar ham yetarli iste'mol qilishmasligi yuz beradi.

## 2-jadval

### ASMda logistika turlarini turkumlanishi

Turkumlanishi	Logistika turlari
Funktional	Sotib olish Taqsimlash
Sohaviy	1-soha logistikasi 2-soha logistikasi

	3-soha logistikasi
Ierarxik	Makrologistika
	Mezologistika
	Mikrologistika
Resurs bo'yicha	Moliyaviy
	Axborot
	Logistik
Tarkibiy	Logistik operatsiya
	Logistik zanjir
	Logistik tizim
Takror ishlab chiqarish	Tijorat
	Ishlab chiqarish
	Transport-ombor logistikasi

ASM resurs ta'minotining son va sifat ko'rsatkichlarini kamayishi butun agrota'minot va agroservis tizimining buzilishi bilan kuzatiladi. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha ushbu tizimning barcha bo'limlari (agrota'minot va servis korxonalari tarmog'i, ularni ishlab chiqarish bazalari) faoliyati susayadi.

Ushbu korxonalarining tashkiliy-huquqiy mavqeい xizmat ko'rsatayotgan xo'jaliklar manfaatlariiga to'g'ri kelmaydi, resurslar yetkazishni tashkil etish va xizmatlarni ko'rsatish shakllari ham kamchiliklarga ega bo'ladi, iste'molchilarining yetkazib beruvchilar va agroservis korxonalari bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaxshi ishlab chiqilmagan bo'ladi. ASMda logistika xususiyatlari, birinchi navbatda, iqtisodiy oqimlarni tashkil etish xususiyatlariga bog'liqdir. Ular esa qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining joylashuvi va ixtisoslashuvi bilan bog'liq quyidagi omillar ta'siri ostida bo'ladir:

- qishloq xo'jalik korxonalarining joylashuvi qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bozorlari, gayta ishslash quvvatlari, qishloq xo'jalik xom ashyosi va tovarmahsulotlarini saqlash idishlari, transport kommunikattsiyalari va infratuzilma majmuasining boshqa tarkibiy qismlari mavjudligi bilan aniqlanadi. Bunda yirik aholi punktlarining mavjudligi qishloq xo'jalik korxonalari ixtisoslashuvini belgilaydi.

- qishloq xo'jaligida MTPlarning hajmi, tuzilmasi va yo'nalishi qishloq xo'jalik ekinlari maydoni, ularning tuzilmasi (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ekin maydoni o'lchami), qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining ixtisoslashuvi va boshqalar bilan aniqlanadi. Ularning to'lov qobilyatiga ega bo'lgan talabi bundan mustasno;

- ASM uchun ichki va tashqi transaktsiyalarning intensivligiga qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi samaradorligi va natijaviylicha bevosita bog‘liq. Bunda qishloq xo‘jalik mahsulotni ishlab chiqarilishi va yer maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadni, moddiy va mehnat xarajatlari birligini, ishlab chiqarish daromadliliginini va boshqalarni hisobga olish lozim;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha mintaqalararo va xalqaro aloqalarning rivojlanishi. Bunda o‘z qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilariga nisbatan bo‘lgan proteksionizm va hududga olib kirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga nisbatan bo‘lgan diskriminatsiya hududlararo tovar ayriboshlashning to‘xtab qolishiga va mamlakatdagi butun qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin;

- qishloq xo‘jaligi uchun MTPlariga va aholi, hamda iqtisodiyotning qolgan tarmoqlari uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan narxlar mutonosibligini o‘rnatish va saqlab turish. Narxlar nomutonosibligi qanchalik chuqur bo‘lsa, qishloq xo‘jaligiga MTPlarni yetkazish hajmi shunchalik past bo‘ladi va demak, QXM ishlab chiqarish ham kamayadi;

- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini kontsentratsiyalanish darjasida va qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining kooperatsiya darjasida.

Boshqa sharoitlar bir xil bo‘lgan taqdirda, qishloq xo‘jalik korxonasi qanchalik kichik bo‘lsa, uning faoliyat natijaviylicha bevosita bo‘ladi. Bu qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish texnika va texnologiyasiga ham, qishloq xo‘jaligiga MTPni yetkazish va mahsulotlarni sotish bo‘yicha bozor tamoyillarini samaradorligini tashkil etishga ham bog‘liq.

Bundan kelib chiqqan holda, ASMda logistikani qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari sifatida, majmua barcha ishtirokchilari va unsurlarining tizimli integratsiyasini va barcha logistik zanjir va tizimlarning tuzilmali optimallashtirishini tan olish lozim bo‘ladi. ASMda logistikani qo‘llashning funktsiyalaridan biri, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish omillarining o‘zaro aloqalarini to‘g‘ri aniqlashdan iboratdir.

Har bir ishlab chiqarish, zamонавий hamda, umumiy jihatlari bilan tavsiflanishi mumkin. U bir xil asosiy tarkibiy qismalarga ega bo‘lib, insonning mehnat predmetlari va qurollariga, o‘z ehtiyojini qondirish maqsadidagi ta’siri jarayonidir.

Ishlab chiqarish omillarini resurslar (tarkibiy, moddiy va mehnat) sifatida emas, balki ishlab chiqarishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi parametrlar sifatida ko‘rib chiqish taklif etiladi. Bunday yondoshuv ishlab chiqarish omillari ro‘yxatiga, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonini kiritib uni kengaytiradi.

Bu nuqtai-nazardan, ishlab chiqarish, shaxsiy yoki jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida yo‘naltirilgan jarayon sifatida ko‘rilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda u ishlab chiqarish omillarini tayyor mahsulotga aylantiruvchi, ishlab chiqarish jarayoni sifatida qaralishi mumkin.

## **Nazorat savollari**

1. Logistikada predmeti va ob'ekti nima ?
  2. Logistikaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
  3. Logistika mezonlari.
  4. Qanday oqimlar moddiy va servis oqimlariga yondosh oqimlar hisoblanadi?
  5. Logistika tizimi deganda nima tushuniladi?
  6. Logistik tizim bo‘g‘ini deganda nima tushuniladi?
  7. Logistik tizimlar qanday turlarga bo‘linadi?
  8. Logistik operatsiyalar haqida gapiring, ularga misollar keltiring.
  9. Logistik funktsiya deganda nima tushuniladi?
  10. Asosiy logistik funktsiyalarni sanab bering.
  11. Logistik zanjir deganda nima tushuniladi?
  12. Logistikaning turli funksional sohalaridagi logistik zanjirlarga misollar keltiring.
  13. Logistik kanal deganda nima tushuniladi?
- Logistikaning qoidalarini aytib bering.

## **2-MAVZU. LOGISTIKA KONSEPSIYASI**

### **Reja:**

1. Logistik tizim kontseptsiyasining nazariy asoslari.
2. Logistika kontseptsiyasi evolyutsiyasi.
3. Logistika ilmiy yo‘nalish sifatida.
4. Logistikani rivojlanish bosqichlari.
5. Logistikani boshqarishning uslubiy jihatlari.

### **1.1. Logistik tizim kontseptsiyasining nazariy asoslari.**

Logistika kontseptsiyasi evolyutsiyasi. «Logistika» so‘zi ilgarilari harbiy soha bilan bog‘liq holda tushunilgan. Logistika tushunchasi o‘zining tarixiga ega. Qadimiy Gretsiyada logistika «hisoblash san’ati» yoki «hisoblash va fikr yuritish san’ati» deb atalgan. Rim imperiyasida esa oziq-ovqatlarni taqsimlash qoidasi deb tushunilgan. Tarixda «Logistika» iborasining ikki xil ta’riflanishi mavjud. Birinchisi logistikani harbiy sohada qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. Harbiy logistikani rivojlanishiga asos solgan harbiy nazariyachi baron A.A.Jomini (1779-1869 yillar) hisoblanadi. U logistikani rivojlantirish, boshqarish, ta’minot, transport ta’minoti va qo‘sishlarni joylashtirish va boshqa ko‘pgina masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan armiyani boshqarish san’ati deb ta’riflagan.

«Logistika»ning ikkinchi xil ta’rifi matematik logika bilan bog‘liq bo‘lib, taniqli matematik G.Leybnitsning (1646-1716 yillar) ishlarida keng foydalanilgan.

1905 yilda mayor CHonsi B.Beyker “Urushish san’ati armiyaning xarakati va ta’mnoti bilan bog‘liq bo‘lim logistika deb ataladi” degan edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida logistik modellar va tizimli tahlil usullari materiallarni kerakli joyga talabga qarab yetkazishda foydalanilgan.

Logistika iborasining ahamiyatini kundan-kunga oshib borganligining misoli sifatida A+SH harbiy–dengiz kuchlarining Bosh qo‘mondoni admirall Ernest X.Kingning quyidagi so‘zlarini keltirish mumkin: “Men bilmayman logistika o‘zi bu qanday shayton, uni menga Marshall (AQSH armiyasining shtab boshlig‘i Djordj Marshall) doimo eslatadi, ammo u menga ham kerak”.

1958 yilda jahonda yuz bergan iqtisodiy tanazzul logistikaning ahamiyatini oshirib uni nafaqat harbiy sohaga balki boshqa sohalarga ham qo‘llash imkoniyatlarini olimlar qidira boshladilar.

Amaliy matematikaning boshqa sohalari singari logistika ham asta- sekin harbiy sohadan xo‘jalik amaliyotiga tadbiq etila boshlandi.

Foya miqdorining kamayishi shunday iqtisodiy holatni yuzaga keltirdiki, ishbilarmonlar xarajatlarni kamaytirishni jilovlaydigan samarali tizimni qidira boshladilar. Shunda juda ko‘p firmalar moddiy taqsimot va logistikaga ketadigan xarajatlarni baholamaslik salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini angladilar.

Logistikaning rivojlanishi va ahamiyatini tahlil etib, Donald Baursoks qo‘yidagi fikrni bildirgan edi: «Moddiy oqimlar harakatini muvofiqlashtirish xarajatlar tarkibini va iste’molchiga xizmat ko‘rsatish narxini aniqlashga imkon berdi».

Dj.Kolinning fikriga ko‘ra: “Logistika taqsimot, ishlab chiqarish va taqsimlanishni o‘zaro bir maromda amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi; o‘zaro kelishtiruvchi bu logistik tizim ilg‘or firmalar- ishlab chiqaruvchilar tomonidan keng qo‘llanilmoqda”. Kundalik hayotda yirik korxonalarining boshqaruvchilar “birgalikdagi umumiy xarajatlar” kontseptsiyasidan keng foydalana boshladilar. Bu kontseptsiya shunga asoslanganki ishlab chiqarish, moddiy oqimlar harakati, sotish va boshqa jarayonlar har biri alohida-alohida emas, balki bir butunlikda qaraladi. Shuning uchun, masalaning mohiyati ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va iste’mol qiluvchilarining talablarini eng kam «birgalikdagi umumiy xarajatlar» bilan qondirish bilan bog‘liqdir va logistikaning bosh masalasidir.

Hozirgi davrda logistika-keng tarqalgan, ko‘pchilik tomonidan tan olingan biznes faoliyatidir. Shu munosabat bilan «Volvo» kompaniyasining bo‘lim boshlig‘i Run Svenson: «Logistika mablag‘larni oqilona ishlatish qurolidan strategik quroqga aylandi. Kompaniyaning umumiy strategiyasida logistikani qo‘llash-bu halqaro ko‘lamda raqobatbardoshlikni oshirishning shartidir», degan edi.

Umumiy sharhlardan korxonalar faoliyatini optimallashtirish uchun logistik tamoyillarni qo'llashning samaradorligi misollari tahlili amalga oshirilsa ushbu tamoyillarning naqadar afzallik jihatlari mavjudligi ayon bo'ladi.

1993 yilda AQSHning Block & Decker kompaniyasining Household Products Group bo'limi faoliyati tahlil etilganda omborxonalarda 152 kunlik tovarlar zaxirasi mavjudligi aniqlangan, vaholanki ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun atigi 2 kun kerak bo'lgan. Kompaniya logistik xizmat ko'rsatuvchi, ta'minlovchi, mijozlar va boshqa kompaniyalar bilan o'z munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lgan. Chunki mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ta'minotchilar, transportchilar, sotuvchilar va xaridorlarning alohida-alohida qaror qabul qilishlari, logistik tamoyillarga e'tibor bermasligi salbiy oqibatlarning asosiy sababchisi bo'lgan. Rejalashtirish va bashoratlar qilish tizimli ravishda amalga oshirila boshlandi. Natijada 1994-1995 yillarda Block & Decker kompaniyasi logistik xarajatlarni 150 mln AQSH dollariga tejab qoldi, zaxiralar uchdan ikki qismga kamaydi, buyurtmalarni bajarish tezligi 50 %ga oshdi.

“Nike” kompaniyasi 1980 yillarda butun Yevropa bo'y lab o'zining mahsulotlarini tarqatish tizimini barpo etdi. Har bir davlatda alohida biznes faoliyatiga ega bo'lgan distrib'yuter-firmalar va omborlar tashkil etildi. 1992 yilda Yevropada sotuvlar hajmi 1,0 mlrd A+SH dollariga yetganda taqsimlash tizimining samarasizligi bilinib qoldi. Chunki, masalan Germaniyada muvaffaqiyat bilan sotilayotgan poyafzallar Frantsiya omborlarida saqlanib qolgandi. Natijada kompaniya har yili 10 millionlab dollarni faqat poyafzallarni saqlashga sarflardi.

Kompaniyaning menedjerlari mahsulotlarni bir davlatda sotilmayotgan mahsulotni shu tovar tanqis bo'lgan va talab kuchli bo'lgan ikkinchi qo'shni davlatga o'tkazish mumkinligini tan olmadilar.

Shulardan kelib chiqib «Nike» kompaniyasining bosh rahbariyati Antvergen va Rotterdam portlaridan uzoq bo'limgan Lakdaaleda (Belgiya) juda yirik markazlashgan taqsimlash omborxonasini ishga tushirdi. Natijada transport xarajatlarining birmuncha oshishiga qaramasdan tovarlarni omborxonalarda turib qolishi birmuncha qisqardi.

«Tajribalardan ma'lumki ikkita ombor bittaga birlashtirilsa tovarlar zaxirasi 30%ga kamayadi. Ushbu misolda 25ta ombor bir omborga birlashtirildi,» deydi J.Riley.

Butun dunyoda kichik batareyachalarga bo'lgan talab 20 mlrd donadan oshib ketadi. Batareyachalar bozori butun dunyoga tarqalgan va tarqoq holda. Ulardan bir nechtafigina bozorda yetakchilik qiladi. Shulardan biri AQSHning «Duracell» kompaniyasidir. Ushbu korxonaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning logistik strategiyasi bilan bog'liqdir. Barcha jarayonlar logistik tamoyillar asosida amalga oshadi. «Duracell»ning logistika bo'limi vitse prezidenti Vil'iyam Ginsli «Logistika biz uchun transport va tashishga nisbatan bir muncha chuqurroq ma'noni anglatadi» deb ta'kidlaydi.

Muhitning noaniq va o‘zgaruvchan sharoitlarida yetarli darajada shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar xo‘jalik faoliyatini boshqarishning yuqori samarali usul hamda uslublarni talab etadi. Boshqaruvning an’anaviy kontseptsiyalari endilikda o‘zini oqlamay qo‘ydi. Logistika - eng istiqbolli ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri sanaladi. Logistika marketing bilan o‘zaro bog‘liq holda bugungi kunda iqtisodiyotda boshqaruv tizimining nihoyatda ma’qul variantini ifoda etadi.

Jadal sur’at iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyatining har qanday sohasining majburiy xususiyati hisoblanadi. Oqim jarayonlari esa jadal sur’at asosidir. Aynan ana shu jarayonlar logistikani o‘rganish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, moddiy, tovar, yuk, axborot, pul, energetika, yo‘lovchi “oqimi” tushunchasi har doim va hamma joyda uchraydi. Ayni paytda faqat logistikagina mazkur tushunchani birorta moddiylashtirilgan narsalar harakatlanishining mavhum shakli sifatida emas, balki xususiyatli parametrlarga ega va moddiy-ashyoviy resurslar kabi sifat uchun kurashni talab etadigan mo‘ayyan qonunlar bo‘yicha paydo bo‘ladigan hamda rivojlanadigan aniq ob’ekti kabi ko‘rib chiqadi.

Amaliyotda tashkil etishga ham transport-ko‘chish jarayonlariga bo‘lgani kabi ta’midot, ishlab chiqarish, taqsimlash va sotishning barcha tizimlariga logistik yondoshuv ajoyib natijalar bermoqda. Bunda ishlab chiqarish- xo‘jalik faoliyatining nafaqat oxirgi, balki oraliq ko‘rsatkichlari ham sinergik samaralar bilan kechadi va ular har qanday sharoitda imkon qadar istiqbolga erishish imkonini beradi. Bu esa bozorning “girdobli” harakati sharoitida har qanday korxona uchun ma’lum darajada va makroiqtisodiy voqealar uchun ham katta ahamiyatga egadir.

“Logistika” va “Mantiq” ilmiy fanlari ming yillik tarixga ega umumiy ildizga borib taqaladi. Logistika mantiqning fikrlash xususiyatlari va uslublari, shuningdek, rasmiylashtirilgan tizimlarni tuzishga yondoshuvni qulaylashtirish to‘g‘risidagi fanlar kabi qonuniy rivojlanishi hisoblanadi. Qadimiy Gretsya logistika tushunchasining paydo bo‘lish manbai sanaladi. Qadimgi greklar uchun logistika hisob- kitoblarni bajarish san’atini ifodalagan. Xo‘jalik, savdo va moliyaviy faoliyat ustidan nazorat ishlarini amalga oshirgan oliv davlat amaldorlarini logistlar, deb atashgan. Arximedning guvohlik berishicha, eramizdan avvalgi IV-asrda Gretsiyada 10 nafar logist bo‘lgan .

Qadimgi greklarda “logistika” atamasi rimliklardan olingan. Biroq ular unga biroz boshqacha ma’no - mahsulotlarni taqsimlash yoki oziq-ovqat taqsimoti ma’nosini bergen. Rim imperiyasining shahar va qishloqlarida ushbu vazifani bajarish bilan bog‘liq odamlar shunga muvofiq logistiklar (logistlar), deb atalgan.

Bizning eramizda esa logistika haqida fikr-mulohazalar Vizantiya taxtida “Donishmand” nomiga ega bo‘lgan Leon VI (866-912 yy.) hukmronligi davriga ta’luqli bizgacha yetib kelgan manbalarda uchraydi. Logistika tushunchasi mazmuniga yana bir bor ba’zi o‘zgarishlar kiritildi. Vizantiya shohi logistikadan o‘zining harbiy san’at darsligida foydalandi. U logistikani armiyani moddiy ta’minlash va uni boshqarishni tashkil etish bo‘yicha fan sifatida izohladi. O‘sanda Leon

Donishmand armiyani boshqarish san'atida nafaqat askarlar soni, armiyani tuzish va uning oldiga qo'yilgan maqsadlar, balki askarlarni mo'ayyan hududga taqsimlash va joylashtirish, joylar xususiyatlarining intendant ta'minoti va aloqaga ta'siri omillarini ham ajratdi. U harbiy ishda qurollanish sifati va turlarini hisobga olishni, g'alaba uchun o'z armiyasi haqida g'amxo'rlik qilish, har qanday sharoitda unga raqib oldida ustunlik, birinchi navbatda moddiy ustunlik va hokazolarni yaratishga intilish juda muhimligini o'rgatdi.

Vizantiya imperiyasi armiyasida maxsus "logistas" lavozimi bor edi. Logistas harbiylar turadigan joylarni tashkil etish, harbiy yurishlarni tayyorlash, armiya ta'minoti bilan shug'ullanardi, shuningdek, uning vakolati doirasiga kirmaydigan ko'plab masalalarni nazorat qilardi.

Logistikaning ijobjiy xususiyatlarini ongli ravishda qo'llashni boshlagan olimlar va amaliyotchilar qatorida, birinchi navbatda, atrof muhitning tahlili, amaliy hisob yuritish, oziq-ovqatlarni taqsimlash, inson faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni bashorat qilish va boshqa sohalarda ish yuritgan qadimgi va o'rta asrlardagi yirik mutaxassislarni tilga olish lozim. Ammo ularning ko'pchiligining nomlari bizgacha yetib kelmagan. Frantsuz olimi V'bett (16 asr), rus olimi Jomini (19 asr), nemis olimi Ryustov (19 asr) kabilar birinchilardan bo'lib, logistika, uning xususiyatlari va uslublari haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, rivojlantirib, ularni yetarlicha butun bo'lgan ilmiy-amaliy tizim ko'rinishiga keltirganlar. O'sha paytlarda atrof muhit tahlili, inson hayotiy faoliyatining eng ahamiyatli jarayonlarini boshqarish hamda tizimli ravishda aniq hisob-kitoblar asosida bashorat qiluvchilarni logistika bo'yicha mutaxassis deb hisoblashgan.

Logistika bo'yicha birinchi muallif Frantsiyaning harbiy nazariyachsi Antuan Anri Jomini (1779-1869 yy.) hisoblanadi. U o'z ishlarida logistika rejorashtirish, boshqarish, moddiy, texnika va oziq-ovqat ta'minoti, qo'shnlarni joylashtirish joyini aniqlash, shuningdek, yo'llar, ko'priklar qurish, mustahkamlash va hokazolarni o'z ichiga oluvchi keng ko'lami masalalarni qamrab olishini isbot qilgan.

Ma'lumki, Napoleon ham logistikaning qator qoidalardan armiyani boshqarish va frontning orqa tomonini ta'minlashda foydalangan.

Logistika shakllangan harbiy fan sifatida XIX asr o'rtalarida rivojlandi.

Logistikaning harbiy ishdagi tartib va yondoshuvlari Ikkinchi jahon urushida Yevropada joylashgan Amerika armiyasi va ittifoqdoshlar qo'shnlarini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash sohasida keng ko'lama tatbiq etilgan. Harbiy-sanoat majmui, trasport tizimi va ta'minot bazalarining kelishilgan o'zaro harakati tufayli ittifoqdoshlar qo'shnlarini oziq-ovqat, qurol-aslahan, anjomlar va harbiy texnika bilan barqaror ta'minlashni tashkil etishga erishildi. Ushbu murakkab vazifani hal etishda transportda tashishning istiqbolli uslub va usullarini ommaviy qo'llash, xususan, o'sha paytda yangilik hisoblangan konteynerda yuk tashishdan foydalanish katta ahamiyatga ega edi.

Shunday qilib, harbiy logistika deganda odamlar, texnikalar va qurol-yarog‘larni harbiy harakatlar joyiga yetakazish uchun muhim bo‘lgan vositalar va uslublar majmui, shu bilan birga, ushbu jarayon bilan bog‘liq tayyorgarlik va amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirish hamda tashkil etishni tushungan.

Bunday kontseptsiya birinchi marta armiya muhitida paydo bo‘lgani tushunarlidir. Armiya qat’iy va aniq tashkil etilgan tuzilmani ifoda etadi va unda ayrim individual hamda guruh manfaatlari butun tizim manfaatlariga bo‘ysinadi. Bu shart logistika kontseptsiyasini amalgaga oshirish uchun aniqlovchi hisoblanadi. Harbiy harakatlar davrida odamlar, texnika va qurol-yarog‘larni harbiy topshiriqlar bajarilayotgan joylarga yetkazishda operatsiyalarning sinxronligi va izchilligi talab etiladi. Ularni yetkazib berish o‘z vaqtida, avvaldan topshirilgan davriylik bilan tashqi va ichki sharoitlar jadal rivojlangan holatda kelishilgan paytdan kech ham erta ham bo‘lmasligi kerak. Boshqacha qilib aytganda, har qanday vaziyatda dasturni bajarish “aniq muddatda” ta’rifi bilan ifodalanishi lozim. Noharbiy sohada logistika ancha keyinroq qo‘llanila boshladи. Ma’lum bo‘lishicha, yetkazib berishni rejalashtirish, taqsimlash va boshqarish maqsadida, shuningdek, yetkazib berishlarni tashkil etish va axborot oqimlarini boshqarishda logistikadan kompleks tarzda foydalanish urinishlari SHveytsariyada qayd etilgan.

“Logistika” atamasi Yevropaning barcha asosiy tillarida mavjud. Uzoq vaqt undan ikkita muhim ahamiyatda foydalanilgan:

1. Matematik logistika.
2. Harbiy yoki fuqarolik sohasida transport-ombor ishlari texnika va texnologiyasi.

Nemis faylasuf-idealisti, matematigi, fizigi va tilshunosi Gotfrid Vil’gelim Leybnits (1646-1716 y.) “logistika” atamasini izohlashning birinchi variantini ommalashtiruvchisi hisoblanadi. U logistikani matematika mantiqi deb atadi. Keyinroq ushbu atama 1904 yilda Jenevada faylasuflar konferentsiyasida mustahkamlandi.

Har ikkala ma’noda ham mazkur atamadan nemis va frantsuz tillarida foydalaniladi. Bunda frantsuz lo‘g‘atlarida (“Larousse” lo‘g‘ati) ikkinchi ma’no “neologizm” belgisiga ega. Ikkinchi ma’nosи esa asosan ispan, italyan va ingliz tillarida qabul qilingan.

“Logistika” atamasining shartli sinonimlari sifatida (ushbu so‘zning ikkinchi ma’nosida) “materialarni boshqarish”, “umumiylarini taqsimlash”, “roxrematika”, “jismoniy taqsimlash” kabi atamalardan foydalaniladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mantiqning matematik tadqiqotlarda qo‘llanishi logistika yo‘nalishlaridan biridir. Bunday holatda undan matematik qonunchilikni o‘rganishda, hisoblash texnikasining texnik tizimini tashkil etishda, robot-texnika va hokazolarda keng foydalaniladi. Ayni paytda iqtisodiyotning jiddiy matematik asoslaridagi rivojlangan ehtiyoji logistikani taqsimlash,

transport, sotish va boshqarish xususiyatiga ega qator vazifalarni hal etish uchun qo'llashni yuzaga keltirdi.

Logistikani ishlab chiqarish va muomala sohasida qo'llash moddiy, pul va axborot oqimlarini boshqarish san'ati shakliga ega bo'ldi. Undan foydalanish sohalari juda tez kengaydi - o'zaro bog'liq bo'lgan va turli, qarama-qarshi manfaatlar hamda maqsadlarga amal qiladigan mikrologik tizimning ayrim jarayonlari va bo'g'inlaridan tortib sohaviy, sohalararo va davlat jabhalarida foydalanish boshlandi.

Logistikani noharbiy sohada rivojlantirishni jadallashtirish 70 yillarning boshiga to'g'ri keladi. Shu davrda (1971-1975 yy.) deyarli /arbiy Yevropa va Amerikaning barcha mamlakatlari og'ir energetik tanazzulni boshdan kechirdi. Ishlab chiqarishning pasayib ketishi, ishsizlikning o'sishi, bozorlar faoliyatining pasayishi, natijada milliy va transmilliy ko'lamda iqtisodiyot ahvolining birdaniga chuqur yomonlashuvi /arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Siyosatshunoslar, hukumat va mutaxassislar ijtimoiy portlash xavfini va u yanada yomon oqibatlarga olib kelishini istisno qilmadi. Bularning barchasi iqtisodiyot sohasida vaziyatni barqarorlashtirish va yaxshilash borasidagi tezkor chora-tadbirlarning jadal ishlanmalari uchun katalizator vazifasini o'tadi. Shu paytda olimlar, iqtisodchilar va tadbirkorlar logistikaga moddiy-texnika ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimlash, transport, kommunikatsiya infratuzilmasi va bozorning o'zaro ta'sirini eng samarali muvofiqlashtiruvchi fan sifatida murojaat qildi.

Logistik yondoshuvning jiddiy yangiligi shundan iborat ediki, xo'jalik faoliyatining yuqorida qayd etilgan sohalarini yagona resurs o'tkazuvchi tizimga birlashtirish imkonini ochildi. Logistik kontseptsiya moddiy oqimlarni diskret boshqaruvidan mufassal boshqaruvga o'tish imkonini berdi.

Yana shu davrda, ya'ni 60-yillar oxiri 70-yillar boshida moddiy oqimlarni xomashyo manbaidan oxirgi iste'molchigacha boshqarishni muvofiqlashtirish muammosini hal etish ana shu payt amalga oshirib bo'lmasligi aniq bo'ldi. O'sib borayotgan moddiy va axborot oqimlarini boshqarishni tashkil etish uchun rivojlangan, oson moslashadigan moddiy- texnika bazani yaratish talab etildi. Keng rivojlangan infratuzilmani shakllantirish, tegishli tashkiliy-tuzilmaviy shakllarni ishlab chiqish, talab etilgan asosli, yuqori malakali ma'muriy-xo'jalik apparatini shakllantirish zarurati paydo bo'ldi. Shu bilan birga, yangi jabha ilmiy asoslar va qoidalarni yanada chuqurroq nazariy qayta ishslashga majbur edi.

Bu yo'naliishda fikrlar va hatti-harakatlarni har tomonlama jadallashtirish natijasida logistika "fikrlash tarzi" yoki boshqacha aytganda kontseptual strategiya maqomiga ega bo'ldi. Amaliyotda asosiy e'tibor muayyan vazifalarni hal etishga qaratildi. Birinchi galda katta say'-harakatlar ombor va tara-qadoqlash majmularini rivojlantirishga, shuningdek, maqsadga muvofiq transport-ombor tizimlari, axborot tarmoqlari va ma'lumotlar banklarini yaratishga yo'naltirildi.

Ilmiy ishlanmalar pragmatik yo‘nalishga ega bo‘ldi. Ishlab chiqarish va muomala sohasining ayrim yo‘nalishlarida moddiy va axborot oqimlarini boshqarish uslublarini ishlab chiqish bo‘yicha har tomonlama tadqiqotlar olib borildi. Qariyb qator mamlakatlar iqtisodiyotida zamonaviy kompyuter texnikasi va axborot texnologiyasidan keng va kompleks tarzda foydalangan holda kuchli va yuqori samarali infratuzilma yaratildi.

Bir talay xususiy loyihalarni muvaffaqiyatli muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirish, shuningdek, 80-yillarning birinchi yarmida moddiy va axborot oqimlari harakatini optimallashtirish borasida moddiy- texnika bazasini rivojlantirish butun ishlab chiqarish davri (nafaqat mikro, balki makro darajada ham) bo‘yicha moddiy oqimlarni boshqarish muammosini hal etishga yana qaytish imkonini berdi. Shu davrdan boshlab “logistika”ning iqtisodiy tushunchasi biroz boshqacha, yanada puxta ilmiy va amaliy yutuqlar asosida kengroq tarqaldi.

Logistika majmuaviy ilmiy fanni ifoda etadi. Logistik tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha taxminan bir vaqtning o‘zida bir qancha yetakchi markazlar tashkil etilgani bois, logistika tomonidan o‘rganiladigan muammolar ko‘lamni o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

80-yillarning boshida frantsuz mutaxassislari logistik elementlar majmuini “mahsul” deb atadi. Ushbu atama mahsulotning korxonada moddiy oqimlarni avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish, o‘zgartirish nuqtai nazaridan aniq ishlab chiqarish jarayonlari bilan aralashib ketishi muammosini hal etishga tizimli yondoshishga asoslangan ishlanmalarni anglatadi.

Atamashunoslik nuqtai nazaridan avval taniqli bo‘lgan va 80-yillar o‘rtalarida hamma joyda foydalaniladigan “logistika” atamasi juda muvaffaqiyatli nomga ega bo‘ldi.

Dastlab fuqarolik faoliyatida ushbu tushuncha faqat ombor va transport xo‘jaligining o‘zaro ta’siri hamda o‘zaro bog‘liqligi jarayonlarini umumlashtirish uchun ishlatildi. Lekin keyinroq shu narsa aniq bo‘ldiki, tadqiqotlarning cheklanish doiralari ishlab chiqarish va muomala sohasini yanada rivojlantirish muammolar ko‘lamini hal etishga kompleks tarzda yondoshish imkonini bermaydi. Xo‘jalik faoliyatini moslashtirishning yangi darjasini nafaqat moddiy resurslarning trasnport- ombor tizimlar tashqarisida ko‘chish jarayonlarini, balki asosiy ishlab chiqarishda qator funktional yo‘nalishlar bo‘yicha infratuzilmaiy jarayonlarni sinxronlashtirishni talab qildi. Korxona xo‘jalik faoliyati strategiyasini ishlab chiqishning birinchi bosqichlaridayoq ba’zi masalalarning yuzaga kelishi bunga sabab bo‘ldi va ular hal etilmasa kelgusidagi barcha harakatlar shartliligi ancha o‘sadi. Masalan, korxonaning transport-ombor ta’minoti ehtiyojini asosiy ishlab chiqarish texnologiyasi, iste’molchilar buyurtmalari bajarilishining xususiyatlari va izchilligini, ularning hajmi, amalga oshirish muddatlari, qo‘yilayotgan qo‘sishimcha talablar va hokazolarni hisobga olmasdan aniq rejalashtirish mumkin emas.

Bu va boshqa holatlar “logistika” maqsadlarini tarqatishda bir nechta nuqtai nazarlarning paydo bo‘lishini aniqladi. Ayni paytda mazkur atama “marketing” atamasi ko‘lamni bilan tenglasha

olmasada, doimiy kengayib turadigan izohlash ko‘lamiga ega. Shunga qaramay ularning barchasi logistikaning kontseptual mohiyatiga qarshilik qilmaydi, ularning ko‘pligi esa ko‘pincha yangi ilmiy-amaliy yo‘nalishlarning tuzilishi hamda rivojlanishi bilan kechadigan qonuniy hodisa hisoblanadi. Mutlaqo yangi nomoddiy ob’ekt - oqim jarayonlari tadqiqotlar vositasi sifatida tanlanganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, muammolarni hal etishga noan’anaviy yondoshishdagi ehtiyoj ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha jabhalarida yuzaga keldi.

Logistika tushunchasi ta’rifining turliligi birinchidan, uni mutaxassislarning faoliyati turidan qat’i nazar qabul qilish xilma- xilligi bilan izohlanadi. Masalan, marketolog, moliyachi, menejerning logistika muammosiga ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha fikri jiddiy tafovutlarga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, oqim jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha har bir logistik yo‘nalish fanda qabul qilinganidek, keng va qisqa izohga ega.

Uchinchidan, logistik kontseptsiyani tushunish va rivojlantirish xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda fikrlashning yangi obrazini shakllantirgan holda nazariy-amaliy tadqiqotlarning afzalliklarini ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni dialektik rivojlantirishning ob’ektiv sharoitlariga bog‘liq holda to‘g‘irlashi muqarrar. Bu bir tomondan logistika har doim yashirin amaliy imkoniyatlar oldida yuruvchi dinamik fan hisoblanishining tasdig‘idir. Shu bois u har doim dolzarbdir. Ikkinci tomondan, tadqiqot ob’ektining, tartib va yondoshuvlarning o‘ziga xosligi logistikaning fan sifatida cheksizligida, yangi ta’riflar paydo bo‘lishida ishonchli bo‘lish imkonini beradi.

## **2.2. Logistika ilmiy yo‘nalish sifatida.**

Logistika mutaxassislar tomonidan faoliyatning talab, ishlab chiqarish, foydalanish, transport va axborotni chuqur birlashtirishga asoslangan sohasi kabi izohlanadi.

Shuningdek, logistika ilmiy yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu yo‘nalishning maqsadi mahsulotga (tovar, xizmat, axborot, energiya) bo‘lgan talabni imkon qadar qondirish va uni iste’molchiga eng kam harajatlar bilan kelishilgan muddatda yetkazish uchun oqim jarayonlarini boshqarish uslublari hamda shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

Logistikaning moddiy oqimlari masalalariga bag‘ishlangan 1-Evropa kongressida (1974 y.) quyidagi ta’rif berilgan edi:

“Logistika - bu moddiy oqimlar, energetika, axborot, shuningdek, yo‘lovchilar oqimini tizimli rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish to‘g‘risidagi ilmiy ta’limot”.

Mavjud resurslarni boshqarish faoliyati insoniyat tomonidan ming yillab amalga oshirilgan. Biroq xo‘jalik faoliyatini qo‘llashning asosiy nuqtasi har doim moddiy mahsulot (tovar, pul va hokazo) bo‘lgan. Aniq son ko‘rsatkichlar esa uning samardorligi mezonlari bo‘lgan. Yakuniy

natijaga (masalan, daromad) “Har qanday yo‘l bilan, har qanday vositalar bilan” tamoyili asosida erishilgan.

Resurslarni boshqarishda logistik yondoshuvning yangiligi xo‘jalik faoliyati afzalliliklarini alshamashtirishdan iborat. Bunda asosiy o‘ringa mahsulot emas, oqim shaklidagi (moddiy, axborot va hokazo) jarayon qo‘yiladi. Oqimli jarayonlarni boshqarish, ularni qayta tuzish va birlashtirish an’anaviy boshqarishdan ijodiy salohiyat va yakuniy natijalar samaradorligi darajasi bo‘yicha ustun keladigan boshqarishning yangi shakli hisoblanadi. Iqtisodiyotda oqimli jarayonlarni faqatgina xo‘jalik faoliyatini baholashning miqdor mezonlaridan sifat mezonlariga mo‘ljallash tufayligina optimallashtirish mumkin bo‘ldi.

Ilmiy yo‘nalish hisoblangan logistikaning ko‘lami yanada keng tarqalmoqda. Ayni paytda u matematika, kibernetika, statistika va iqtisodiyotning qator fanlari bilan chambarchas bog‘liq maxsus fan sifatida ajraldi.

Logistikaning nazariy qoidasi va aniq tavsiyalari ko‘plab mamlakatlarda firma va kompaniyalarning amaliy faoliyatiga faol tatbiq etilayotir. Amaliy sohada teskari foydali ish koeffitsenti sezilarli iqtisodiy samarada ishlab chiqarish va muomala sohasida sarf-harajatlar hamda vaqt ni qisqartirish sifatida namoyon bo‘ladi.

Moddiy resurslarning ombor zahiralari miqdoridagi umumiy tejamkorlik sarf-harajatlarni pasaytirishda katta ulushni tashkil qiladi.

Logistik jarayonlarda vaqt ni tejash aniq mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida yoki uni manfaatdor xaridorga yetkazib berishda tez hamda aniq ko‘chishining oshishi hisobidan tashkil etiladi.

Oqimlarni boshqarishning shakliy tizimining o‘zgarishi va ularning logistik asoslarga o‘tishi moddiy, pul va boshqa oqimlar elementlari va jarayonlari ega bo‘lgan logistik kuchni bo‘shatish xususiyatiga egadir.

Logistikaga nafaqat sanoatda, qishloq xo‘jaligi, savdo va transportda, balki xizmatlar sohasi, bank va sug‘urta ishida, sotuvdan keyingi xizmatni tashkil etish, kommunal xo‘jalikda, sayyoqlik va faoliyatning boshqa sohalarida ham oqimli jarayonlarni boshqarishning ilmiy asosi sifatida murojaat qiladi.

Logistika iqtisodiy va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish uslubiyati sifatida ko‘pincha keng ma’noda qo‘llanadi hamda tushuniladi.

Logistikaning yuqori sur’atda rivojlanishi ma’lum darajada produtsentlarning raqobat va bozor konyuvturasiga o‘z vaqtida ta’sir ko‘rsatishi, tez o‘zgaradigan ahvolga moslashishga intilish zarurati bilan tushuniladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, logistika nazariyasidan amaliy sohada kompleks tarzda to‘liq foydalanishni faqatgina iqtisodiyot va fikrlashning rivojlanishining mo‘ayyan darajasiga

yetgandagina amalga oshirish mumkin. Logistikani yuz yillikning birinchi yarimda ham keng qo'llashning iloji yo'q edi. Shuday qilib, logistikani qo'llash darajasi jamiyatni rivojlantirish darajasining bilvosita mezoni hisoblanadi.

Ayni paytda amaliyot shuni ko'rsatadiki, logistikaning ayrim elementlari, usullari va uslublaridan foydalanish imkoniyatini ishlab chiqarish hamda foydalanish jarayonlarni tashkil etishning birlamchi bosqichlarida ham inkor etib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishda logistik kontseptsiyalarni qo'llash iqtisodiy jarayonlar hamda holatlarni boshqarish bo'yicha tizimli yondoshuvni tushunish va amaliy bajarish borasida yangi sifatli daraja hisoblanadi. Asosida ilgari e'tiborga olinmagan tartib va yondoshuvlar yotgan ishlab chiqarish va foydalanishni logistik tashkil etishga o'tish zaruratini anglash amaliyotda nazariy jihatdan samarali, biroq avval xo'jalik faoliyatini kompleks tarzda tashkil etishning bir-biri bilan bog'lanmagan ishlanmalar, loyihalar hamda dasturlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Logistik kontseptsiyaning inqilobligi logistik tizimlarni real qurishda boshqarishning eski, an'anaviy mexanizmining o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Bunda samarasiz va kam samarali elementlar bartaraf etiladi. Logistik tizim doirasida barcha ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlar tubdan o'zgartiriladi. Qisqa vaqt ichida ichki va tashqi muhit sur'atiga yuqori darajada moslashuvchan yangi tuzilma shakllanadi.

Logistikaning rivojlanishi xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning tegishli darajasiga o'tishda butun tizimni kelgusida taraqqiy ettirishga mo'ljallangan tabiiy tanlashni tartibga solishga qo'shilishida namoyon bo'ladi.

Ushbu jarayonlar amaldagi tuzilmani murakkablashtirish va tabaqlashtirish yo'li bilan hamda katta, biroq o'zgarishlarni qabul qilmaydigan aloqa va munosabatlar tizimini soddalashtirish yo'li bilan o'tkaziladi.

Son va sifat o'zgarishlarini toplash, ularni namoyon etishni birlashtirish hamda tabaqlashtirish logistik tizimlarni muntazam takomillashtirishga yordam berib, ularni qabul qilinayotgan qarorlarni optimallashtirish va xo'jalik aloqalarini oqilona tashkil etish yo'llarini izlashni faollashtiradi.

Logistik tizim tirkibiy qismlarining zanjir reaktsiyasi orqali biri-biriga bog'liqligi uning barcha qismlari va elementlari ishlashining muvofiqligini kafolatlash imkonini beradi. Logistik tuzilmalarning yuqori regeneratsiyasi bozor kon'yukturasi jadalligi va ichki hamda ayniqsa tashqi muhit noaniqligi omillarining ta'siriga qaramay, maqsadli yo'nalishlarga erishish mumkinligini oshiradi.

Oqimli jarayonlar va holatlarning paydo bo'lishiga ma'lum omillar ta'siri ham sabab bo'ladi. Ularning jadalligi o'z navbatida jamoat hayotining turli sohalarida sodir bo'ladigan ba'zi bir

voqealar oqibati hisoblanadigan yuzaga kelgan sharoitlarga bog‘liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada bo‘ladigan jarayonlar va hodisalarning katta qismi moddiy, pul va axborot oqimlarining paydo bo‘lishi hamda ularni boshqarishga sabab bo‘ladi. Ushbu oqimlar xalq xo‘jaligiga o‘tadi va ifodali qilib aytganda jamoatchilik ishlab chiqarish sohasining oziq-ovqat (moddiy), qon (pul) hamda asab (axborot) tizimi hisoblanadi. Logistika esa ushbu tizimlarni saqlash hamda “davolash” uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasida amortizator hisoblangan muomala sohasida rivojlangan infrazuilmani yaratish jamiyatning deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat sohalarini birlashtirishga yordam beradi.

Keyingi yillarda ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotida jamoatchilik ishlab chiqarish samaradorligini aynan muomala sohasida sarf-harajatlarni kamaytirish hisobidan oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, tovar ishlab chiqarish, xomashyoni iste’molchiga yetkazib berish va tayyor mahsulotni transportda tashishni o‘z ichiga oladigan jami vaqtning 98 foizi uning moddiy-texnika ta’minoti va sotishning turli kanallari bo‘yicha o‘tishiga, asosan saqlashga to‘g‘ri keladi. Tovarlarni bevosita ishlab chiqarish esa faqat jami vaqtning bor-yo‘g‘i 2 foizini, transportda tashish esa 5 foizni egallaydi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ayni paytda moddiy resurslar zahirasi hajmi mamlakatga qarab milliy yalpi mahsulotning 10-18 foizi atrofida turibdi, moddiy-texnika ta’minoti va sotish bo‘yicha faoliyatni tashkil etishga ketadigan harajatlar o‘rtacha 13 foizni tashkil qiladi. Sanoat va savdoda ishlab chiqarish sarf-harajatlari umumiy mablag‘ining o‘rtacha 30 foiziga yaqini logistika ulushiga to‘g‘ri keladi. Bunda logistik chiqimlardagi sarf-harajatlar quyidagi tarzda taqsimlanadi: 41 foiz transportga, 21 foiz saqlashga, 23 foiz moddiy zahiralarga va ma’muriy harajatlarga 15 foiz.

Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oxirgi iste’molchiga tushgan mahsulot qiymatining 70 foizga yaqinini logistikaga ketgan sarf-harajatlar (transportda tashish, saqlash, qadoqlash va hokazolar) tashkil qiladi.

Shu sababli ko‘pgina mamlakatlarda logistika sohasida sarf-harajatlarni kamaytirish yo‘llarini jadal izlash ishlari olib borilayotir. Birinchi navbatda mutaxassislar e’tibori quyidagilarga qaratilgan:

- moddiy resurslar bilan ta’minlash, ularni sotish va saqlashni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish;
- marketing faoliyatini va yetkazib beruvchilar, iste’molchilar va vositachilarining birgalikdagii harakatini yaxshilash;
- moddiy va axborot oqimlari harkati texnologiyasini o‘zgartirish.

Ma'lumki, ishlab chiqarish-texnik yo'nalishdagi mahsulot oqimi tashilayotgan yuklar umumiylajmining 3/2 qismini tashkil qiladi. Ushbu mahsulotning asosiy turlari yetkazib beruvchilar va iste'molchilarining vositachilik tuzilmalari ishtirokisiz o'rnatiladigan to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalari bilan aniqlanadigan yo'nalishlarda o'zgaradi. Taqsimlash kanallarini to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalari asosida shakllantirishda qarshi, uzoq, takroriy va boshqa noma'qul yuk tashishilar ehtimoli yo'q emas. Bu mahsulotni transportda tashishda o'zini qoplamaydigan narxning oshishiga olib keladi va oxir oqibat produtsentlarning xo'jalik faoliyati hamda marketing siyosati samaradorliginini pasaytiradi.

Bundan tashqari, moddiy-texnika ta'minoti va sotishni tashkil etish jarayonida moddiy resurslarni transportda tashish paytida ko'pincha ularni tushirish va omborlarga joylashning belgilangan joylari orqali ko'chirish ketma-ketligining oldini olish qiyin.

Shu bois logistik zanjirni oqilona tuzish va ko'chirish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillarga boshqaruv ta'sirini ko'rsatish ichki muhitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga sezilarli iquisodiy samara berishi mumkin.

Bugungi kunda logistika moddiy va unga mos keladigan axborot oqimlarini boshqarish sohasida yanada rivojlandi. Ushbu jihatda xorijiy va mahalliy manbalar tahlili logistikani quyidagicha tushunishni ko'rsatdi:

- moddiy va axborot oqimlarini boshqarishning maqsadga muvofiq uslublarini ishlab chiqish bilan bog'liq yangi ilmiy yo'nalish;
- inson-mashina tizimlarida turli oqimlarni rejalashtirish va boshqarish tizimi;
- ishlab chiqarish va muomala sohasida xo'jalik faoliyatini oqilona tashkil etish shakli;
- moddiy resurslarni jismoniy taqsimlash va ko'chirishni boshqarish tizimi;
- ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotni ko'chirishni birlashtirishning yangi darajasi;
- iqtisodiyotda infratuzilmaviy elementlarning alohida majmui;
- faoliyatning turli xil turlarini yukning zarur miqdorini kerakli joyga va o'z vaqtida yetkazib berishni tashkil etishda sarf-harajatlarni kamaytirish maqsadida boshqarish uslubi;
- mahsulotni ishlab chiqarilgan joyidan iste'molchiga samarali yetkazib berish tizimi;
- moddiy-texnika ta'minoti, ishlab chiqarish, taqsimlash, transport, talab va ehtiyojning o'zaro ta'siri bilan ifodalanadigan iqtisodiyotnig aniq sohasi.

Izohlash shakli bo'yicha ta'riflarning hammasini ikki yo'nalishga bo'lish mumkin.

Birinchisi ishlab chiqarish va muomala sohasida moddiy va axborot oqimlarini boshqarish bo'yicha xo'jalik faoliyati sohasi sifatidagi logistika izohiga to'g'ri keladi.

Ikkinchisi logistikani pragmatik xususiyatga ega va har qanday xususiyatli oqimli jarayonlar samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlar izlash bilan bog'liq ilmiy yo'nalishni ifoda etadi.

Bugungi kunda birinchi yo‘nalish bo‘yicha logistikaning quyidagi ta’riflari juda mashhur:

### **1. Menejment muammolari bo‘yicha Amerika kengashi .**

“Logistika - bu yuklar, materiallar, yarmifabrikat va tayyor mahsulotni ko‘chirish hamda omborlarga joylashning texnologik va iqtisodiy samarali jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish, shuningdek, tegishli axborotni ishlab chiqarish joyidan iste’mol joyiga iste’molchi manfaatlariga mos ravishda berishdir”.

### **2. Xarid qilish faoliyatini tashkil etish muammolari bo‘yicha Britaniya instituti.**

“Logistika - bu ta’minot-ishlab chiqarish-sotish, yetkazib beruvchini tanlash, ishlab chiqarish moddiy ta’minotini tashkil etish, zahiralarni joylashtirish va tayyor mahsulotni iste’molchiga taqsimlash kanallari bo‘yicha yetkazib berish zanjiri doirasida boshqarish va muvofiqlashtirish”.

### **3. Professor G.Pavellek tushunchani quyidagicha ta’riflaydi:**

**“Logistika - bu korxonaga kelib tushadigan, shu yerda qayta ishlanadigan va ushbu korxonani tark etadigan moddiy oqim hamda unga mos keladigan axborot oqimini boshqarish va nazorat qilish”.**

### **4. Taniqli mutaxassis V.Kilxof (Germaniya)**

“Logistika - bu materiallar va tayyor mahsulotning korxona ichida va tashqarisida harakati tizimini muvofiqlashtirishdir. U moddiy oqimlarni tayyorlashdan boshlab uni jismoniy, axborot va tashkiliy ma’nolarda sotishgacha boshqarish imkonini beradi”, deb hisoblaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, amaliyot “logistika” tushunchasi qisqa izohining asosli ekanligini tasdiqlamaydi. Aksincha, rivojlanish dialektikasi uning keng talqin qilishning qonuniyligini ta’minlaydi. Shu ma’noda logistikaning nafaqat jihatlarini, balki rivojlanish istiqbollarini aniqlaydigan talqinlar mavjud. Bunday ta’riflar ikkinchi yo‘nalishga tegishli.

“Logistika - bu inson-mashina tizimlarida moddiy, mehnat, energetika va axborot oqimlari harakati jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish nazariyasi”.

Mazkur ta’rifda moddiy oqimlar jarayoni bilan qatorda boshqa oqimli jarayonlarni o‘rganish ham qayd etilgan. Bu istiqbolli yondoshuv. Amaliyot axborot oqimlarini kompyuter texnologiyalari yordamida oqilona tashkil etish moddiy resurslar harakati va ulardan ishlab chiqarishda foydalanish samaradorligini ancha oshirishini bir necha bor isbotladi. Tovar aylanish jarayonini axborot bilan ta’minlashning yangi uslublarisiz ishlab chiqarish va muomala sohasida samaradorlikni sezilarli ravishda oshirishga erishib bo‘lmashligi avvaldan ma’lum bo‘lgan edi. Ixtisoslarning turliligi va turli shakllarning birlashuvi sharoitida zamonaviy bozorning faoliyat yuritishi shu darajada murakkablashdiki, ana’naviy uslublar bilan ko‘plab iqtisodiy-xo‘jalik elementlarini boshqarishni tashkil etib bo‘lmay qoldi.

Logistika manfaatlari sohasini pul, mehnat va energetika oqimlarini boshqarish sohalarga tarqatish maqsadga muvofiq sanaladi.

Mavjud fikrlar tarqoqligini tahlil qilgan holda, oqimli jarayonlarni boshqarishga logistik yondoshuvni an'naviy yondoshuvdan tubdan ajralib turishini ifodalaydigan barcha g'oyalarni birlashtiradiganini ajratish lozim. Bu - oqim o'tkazuvchi zanjirning ayrim bo'g'inlarini ichki va tashqi muhitda bo'layotgan o'zgarishlarga tez moslashadigan yagona tizimga birlashtirish, shuningdek, oqimli jarayonlarni rejalashtirish hamda boshqarishnining barcha jihatlarini umumlashtirishdir.

Bizningcha, yuqori qayd etilganlarga tayangan holda, ushbu tushunchaning quyidagi ta'rifi ma'qulroqdir.

**Logistika** - bu oqimli jarayonlarni foydali resurslar bilan (moddiy, axborot, moliyaviy, energetika) ta'minlash, ularni ishlab chiqarish, taqsimlash va sotishni istiqbolli ishlab chiqarish, tijorat, kommunikatsiya infratuzilmasi bazasida axborot texnologiyalaridan foydalangan tarzda birlashtirish sharoitida prognozlash, boshqarish va nazorat qilishning alohida tizimidir.

### 2.3. Logistikani rivojlanish bosqichlari.


Zamonaviy iqtisodiyotda logistika fanini rivojlanishining quyidagi bosqichlarini ajratadilar<sup>1</sup>:

Birinchi bosqich – 60 chi yillarga to'g'ri keladi, va muomala sohasida moddiy oqimlarni boshqarish uchun logistik yondashishni qo'llash bilan tavsiflanadi.

Ushbu davrda ikkita asosiy qoidaga rioya qilish boshlandi:

- Ishlab chiqarish va tashishdagi alohida mavjud bo'lgan moddiy oqimlar boshqaruvning yagona tizimi bilan o'zaro bog'lik ekanligi.
- Moddiy resurslar jismoniy taqsimotining ayrim funksiyalarini integratsiyalashuvi sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkinligi.

Jismoniy taqsimotning optimallashuvi masalalari hamma vaqt kun tartibida turgan. Masalan, yetkazilayotgan partiylar chastotasi va o'lchamining optimallashuvi, omborlar joylashishi va amal qilishining optimallashuvi, transport yo'nalishlari va grafiklarining optimallashuvi va hokazo. Odatda ushbu masalalar alohida-alohida tarzda yechiladi, va bu tizimli samaradorlikni ta'minlamaydi. Logistik yondashishning xususiyati esa, ularni tizimli yechimini topishdan iboratdir. Logistika rivojlanishining birinchi bosqichida, tovar mahsulotlarnii shlab chiqarishning barchajarayonlari mustahkam o'zaro aloqalarga ega bo'ladilar. Masalan logistika rivojlanishining birinchi bosqichidagi moddiy oqimlar harakati jarayoni ishtirokchilarining logistik integratsiyalashuvi darajasi, 5-rasmda ko'rsatilgan.




5-Rasm. Logistika rivojlanishining birinchi bosqichi – transport-ombor jarayoni integratsiyasi.

Logistika rivojlanishi nuqtai nazaridan 80chi yillar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- jismoniy taqsimot qiymatining tez o'sishi;
- logistik jarayonlar boshqaruvini amalga oshiruvchi menejerlarning kasbiy mahorati darajasini oshishi;
- logistika sohasidagi uzoq muddatli rejalashtirish;
- axborot to'plash va logistik jarayonlarni nazorat qilish uchun kompyuterlarning keng miqyosda qo'llanilishi;
- jismoniy taqsimotning markazlashishi;
- material o'tkazuvchi zanjirlarda zaxiralarning keskin kamayishi;
- taqsimotning haqiqiy xarajatlarini to'g'ri aniqlanishi;
- moddiy oqimning oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakati qiymatini pasaytirish bo'yicha tadbirdilarni belgilash va amalga oshirish.

80chi yillarda erishilgan logistik integratsiya darajasi 6- rasmda namoyish etilgan.




6-Rasm. Logistika rivojlanishining ikkinchi bosqichi: ishlab chiqarish tsexi, transport va ombor yagona mexanizm sifatida ish yurita boshlaydi.

Ko‘rib turganimizdek bu yerda, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish ombor va transportning o‘zaro faoliyatiga ishlab chiqarishni rejalashtirish ham qo‘shiladi. Bu zaxiralarni kamaytirish, buyurtmalarni o‘z vaqtida bajarilishi hisobiga xaridorlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, uskunalardan foydalanishni yaxshilash imkonini beradi.

*Uchinchi bosqich* esa hozirgi vaqtga tegishli bo‘lib, u quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- butun jahon iqtisodiyotidagi bozor jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda fundamental o‘zgarishlar sodir bo‘ladi;
- material o‘tkazuvchi sub’ektlar yig‘indisi umumiylashib boradi (7- rasm)
- moddiy va axborot oqimlarini tezda o‘tishini ta’minlovchi, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar, mahsulot harakatining barcha bosqichlari monitoringini amalga oshirishga imkon beradi;
- logistika sohasida xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tarmoqlar rivojlanadi;
- logistika kontseptsiyasi (uning asosiy qoidasi bu integratsiyadir), ta’mint, ishlab chiqarish va taqsimot zanjirlari ishtirokchilarining ko‘pchiligi tomonidan tan olina boshlaydi.



7-Rasm. Logistika rivojlanishining uchinchi bosqichi: logistik jarayon ishtirokchilarining yig‘indisi umumiylashib bormoqda.

### 3-jadval

#### Logistika sohalarining va logistik funktsiyalarni bajarishning maqsad va vazifalari

Logistik funksiya yoki logistika sohasining nomi	Maqsad va vazifalar

Funktsional soha - ta'minot	<p><b>Maqsad</b> – ishlab chiqarishning moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini mumkin bo‘lgan maksimal samaradorlik bilan qondirish</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash</li> <li>• xaridlar bozorini tadqiq etish</li> <li>• etkazib beruvchilarni baholash va tanlash</li> <li>• xaridlarni amalga oshirish</li> <li>• xaridlar amalga oshirilishini nazorat qilish va baholash</li> <li>• xaridlar byudjetini tayyorlash</li> <li>• boshqa vazifalar</li> </ul>
-----------------------------	--

Funktsional soha – taqsimot (taqsimot logistikasi; savdo logistikasi, distributsiya va jismoniy taqsimot)	<p><b>Maqsad</b> – logistik funksiyalar va tayyor mahsulot hamda unga xizmat ko‘rsatishni ishlab chiqaruvchilardan yoki ulgurji savdo kompaniyalaridan so‘nggi yoki oraliq iste’molchilargacha bo‘lgan harakatlanishi operatsiyalarini integratsiyalashgan boshqaruvi</p> <p><i>Mikro darajadagi vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• buyurtmani qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etish</li> <li>• qadoq turi, komplektatsiya va h. tanlash</li> <li>• etkazib berishni tashkil etish va tashishni nazorat qilish</li> <li>• sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatishni tashkil etish</li> </ul> <p><i>Makro darajadagi vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• taqsimot tizimini (taqsimot kanallarini) tanlash va barpo etish</li> <li>• xizmat ko‘rsatilayotgan hududdagi omborxonalarning optimal sonini aniqlash</li> <li>• xizmat ko‘rsatilayotgan hududda taqsimot markazlari (omborxonalar)ning optimal joylashuvini aniqlash</li> </ul>
---	--

<p>Funktsional soha – ishlab chiqarish operatsiyalarini boshqarish (<i>Operation management</i>)</p>	<p><b>Maqsad</b>– ishlab chiqarish operatsiyalarini boshqarishni logistik yordam bilan ta’minlash</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• tayyor mahsulot (TM)chiqarishni tezkor- kalendar rejalashtirish</li> <li>• ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini tezkor boshqarish</li> <li>• umumiy sifat nazorati, standartlar va tegishli servisni uzluksiz ta’minlash</li> <li>• moddiy resurslar (MR) yetkazib berishni strategik va tezkor rejalashtirish</li> <li>• ichki ishlab chiqarish ombor xo‘jaligini tashkil etish</li> <li>• ishlab chiqarishda MR xarajatini prognozlash, rejalashtirish va me’yorlashtirish</li> <li>• ichki ishlab chiqarish texnologik transporti ishini tashkil etish</li> <li>• barcha pog‘onalarda MR, tugallanmagan ishlab chiqarish (TICH), TM zaxiralarini boshqarish</li> <li>• MR va TM ni jismoniy taqsimlash (ishlab chiqarish ichida) va boshqalar</li> </ul>
<p>Logistik funksiya omborxonaga qo‘yish</p>	<p><b>Maqsad</b>– Omborxona tarmog‘ini shakllantirish, omborxona xo‘jaligini samarali faoliyati va omborxonada logistik jarayonni boshqarish jarayonlarini qamrab oladi</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Omborxona turini tanlash, omborxona quvvatini hisoblash</li> <li>• Omborga qo‘yish tizimini tanlash ta’milot va taqsimotda talab va taklifni tenglashtirish</li> <li>• Yuklarni birlashtirish, ajratish va tashish</li> <li>• omborxonada logistik jarayonni boshqarishni tashkil etish va ta’minlash</li> <li>• omborxonada saqlash va yuklarni qayta ishlashni tashkil etish va b.</li> </ul>

Logistik funksiya – zaxiralarni boshqarish	<p><b>Maqsad</b>–Korxona biznesining turli sohalarini zaxiralarga nisbatan, ayrim xollarda qarama-qarshi bo‘lgan, maqsadlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xaridlarda tejash (chegirmalar hisobiga)</li> <li>• Tashish xarajatlarini qisqartirish</li> <li>• ishlab chiqarish va taqsimot uzlusizligini ta’minlash</li> <li>• Talabning mavsumiy o‘zgarishlarini hisobga olish</li> <li>• Logistik servis sifatini yaxshilash</li> <li>• boshqalar</li> </ul>
Logistik funksiya – tashish	<p><b>Maqsad</b>– Ortish-tushirish, ekspeditorlik va boshqa logistik operatsiyalar jarayonlarining yig‘indisi</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• transport jarayoni ishtirokchilarining texnik va texnologik bog‘liqligini ta’minlash, ularning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish, hamda omborxonaga qo‘yishning yagona tizimlaridan foydalanish</li> <li>• transport tizimlarini yaratish (shu jumladan transport yo‘laklari va transport zanjirlarini ham) transport-ombor xo‘jaligining texnologik birligini ta’minlash</li> <li>• ishlab chiqarish, transport va omborxona jarayonlarini birgalikda rejalashtirish</li> <li>• transport vositasi (TV) turini tanlash</li> <li>• etkazib berishning ratsional yo‘nalishini aniqlash</li> <li>• tashuvchi va ekspeditorni tanlash</li> </ul>

Mutaxassislarning fikri bo‘yicha (ekspert baholash), logistikani qo‘llash<sup>2</sup>:

- zaxiralar darajasini 30-50% ga kamaytirish;
- mahsulot harakatlanish vaqtini 25-45% ga qisqartirish;
- takroriy ombor tashishlarini 1,5-2 marotaba qisqartirish;
- avtomobilda tashish xarajatlarini 7-20% ga, temir yo‘lda tashish xarajatlarini 5-12% ga qisqartirish imkonini beradi.

Logistikani qo'llash servis sohasida ham, ishlab chiqarish sohasida ham mehnat unumdorligini ancha oshiradi. Mutaxassislarining baholashicha, 1980 yillarning boshlaridan AQSH dagi yillik mehnat unumdorligi oshishining (5-6%) yarmi (2,5-3%) logistika hisobiga erishiladi. Logistik xarajatlarning 1 foizga qisqarishi esa, sotuvlar hajmining 10 foizga oshishiga ekvivalentligi aniqlangan.

Logistikani joriy qilish, o'zbek korxonalari uchun ham dolzarb hisoblanadi.

#### **2.4.Logistikani boshqarishning uslubiy jihatlari.**

##### **Logistikani ta'minlash asoslari, tartiblari va tizimi.**

Mahalliy, ba'zi holatlarda xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda amalga oshirilgan transport-ombor xo'jaligini rivojlantirishga jalb qilingan sarmoyalarga qaramasdan, kutilayotgan natijaga erishilmayapti. Infratuzilmaviy majmua yuqori salohiyatli imkoniyatga ega bo'lsada, shunga qaramay unga yuklanayotgan ishonchni oqlamayapti. Asosiy ishlab chiqarish va mahsulotni sotishga kuchsiz birlashtirilgan kapitalni passiv jamlash kelgusida rivojlantirishnig ekstensiv omiliga asoslangan yondoshuvar ertami kechmi tugashiga olib keladi. Bu borada yangi tartiblarga tayangan va chuqr ilmiy asosga ega logistika kontsetsiyasi talab etiladi.

Logistikaning ilmiy asoslariga quyidagilar kiradi:

- tizimli yondoshuv;
- iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-statistik uslublar majmui;
- axborot texnologiyalari.

##### **Quyidagi tarkibiy qismlar logistika iqtisodiy asoslari hisoblanadi:**

- mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning borligi;
- infratuzilmani rivojlantirish;
- tabiiy narxni tashkil etish;
- bozorda talab kon'yukturasi.

Logistik tizimlar uchun talab avvalambor yetkazib berish shartnomasi, so'ngra buyurtma shaklida paydo bo'ladi.

Evristik yondoshuvar, ya'ni qaror qabul qiluvchi professional shaxslarga asoslangan ekspert baholarini qo'llash logistik tizimlarning uslubiyat asoslari sanaladi. Aniq xo'jalik topshiriqlarini hal etish jarayonida matematik hisob-kitoblar va logistik davomiylikdan tashqari shu kabi vazifalarni hal etish tajribasi hamda o'xhash xo'jalik vaziyatlarga asoslangan norasmiy, sezgirlik mulohazalari ham kata rol o'ynaydi.

Logistik tizimlarni ishlab chiqish va yaratishda o'zaro xatti- harakatning butun mexanizmini va uning ayrim tarkibiy qismlarining xususiyati hamda tabiatini aniqlovchi tamoyillar muhim ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatidagi muammolarni hal etishga logistik yodoshuvni aks ettiruvchi bir nechta asosiy tamoyillar mavjud.

**Sinergiyalik tamoyili.** U ko‘zlangan maqsadlarga erishishda majmuaviy tizimli yondoshuvni ifoda etadi. Ushbu tamoyil asosida ishlab chiqarish va muomala jarayonlari birlashishi hisobga olingan holda, logistik tizimlarning ayrim tarkibiy qismlarining faoliyatini yaxshilashdan ko‘ra tuzilma bo‘yicha harakatlarning barcha o‘zaro bog‘liq jarayonlarda kelishiganligi hisobidan katta samaraga erishish mumkin.

**Jadallik tamoyili.** Logistik tizimlar tashkiliy-iqtisodiy ta’lim bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular qamrab olinayotgan jarayonlar mohiyatini aks ettirishi lozim. Ushbu mohiyat takomillashtirishni rivojlantirish, unga intilish bilan ifodalanadigan istiqbolli jadallikdan iborat. Jadallik harakat shakli sifatida ishlab chiqarish va ta’mnot-sotish operatsiyalari, mehnat vositalari, shuningdek, rivojlanishning navbatdagi bosqichida aniqlangan maqsad hamda vazifalarning diskretligini birlashtiradi.

**To‘liqlik tamoyili.** Bu logistikadagi tizimlar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bir qancha yoki ko‘plab tarkibiy qismlar majmui sifatida tuzilishi kerak. Logistik tizim doirasida birorta ayrim tarkibiy qismlarning muntazam mustaqil faoliyat ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmaydi va bu notuzilmaviy hisoblanadi. Bundan faqat favqulotda va nostandart holatlarga mustasno.

**Moslashuvchanlik tamoyili.** Ushbu tamoyilga amal qilgan holda, logistik tizimlar va zanjirlar shunday tuzilishi kerakki, bunda tuzilmaviy tarkibiy qismlar har doim bir-birini almashtirish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Ushbu tamoyilga rioya qilish tizimga ichki yoki tashqi sharoitlarda moslashishga yordam beradi. Bu bilan boshqa tamoyil ham chambarchas bog‘langan.

**Tashabbuskorlik tamoyili.** Logistik tizimlarni ushbu tamoyil bo‘yicha tuzish shakllanayotgan tuzilmalar tomonidan yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealarga ogohlantiruvchi ta’sir qobiliyatining, shuningdek, xo‘jalik faoliyati jarayoniga ijobjiy ta’sir qiluvchi sub’ektiv sharoitlarni yaratish va tartibga solish imkoniyatining namoyon bo‘lishini ko‘zda tutadi.

**Maqsadga muvofiqlik tamoyili.** Bu tamoiyl ko‘zlangan maqsadlarga erishishda ijobjiy rol o‘ynaydigan imkoniyatni jalb qilishga mo‘ljallangan. Shunday qilib mo‘ayyan vazifalarning qarorlar variantining ko‘pligi ko‘chish sarf-harajatlari yoki vaqtini imkon qadar kamaytirishga intilish xususiyatiga ega tishkiliy, texnik va texnologik tuzilmalarni tanlashda saylash xususiyati namoyon bo‘ladi. Logistika tamoyillarini amalga oshirish birinchi navbatda, yagona rahbarlik ostida birlashgan tuzilmalarda omborchilik va transport xo‘jaligi bo‘yicha bir-biriga bog‘langan vazifalar to‘plashni yuzaga keltiradi.

Agar yuk tashish va omborchilik xo‘jaliklarini boshqarishning an’anaviy uslublari diskret, ko‘pincha esa alohida xususiyatga ega bo‘lsa, logistik yondoshuvda kompleks boshqaruvga o‘tish amalga oshiriladi.

Logistika nuqtai nazaridan xo‘jalik tizimlarining istiqbolliligi nafaqat ularning moddiy-texnika bazasini ko‘ypaytirish, balki uni takomillashtirish, ya’ni u o‘z ichiga olgan va u bilan bog‘liq barcha narsalarning kelishilgani bilan erishilishini nazarda tutish kerakki.

Chet elda xo‘jalik faoliyatini tashkil etishning eng samarali ko‘rsatkichiga nafaqat transport-omborchilik xo‘jligini ekstensiv rivojlantirish, yaxshi jihozlangan omor majmualarini ommaviy ravishda qurish, istiqbolli texnologiyalar, konstruktsiyalar va asbob-uskunlardan foydalanish tufayli, balki ishlab chiqarish, transportda tashish, ta’milot va sotishni logistik tamoyillaridagi barcha o‘zaro bog‘liq tizim va kichik tizimlarni imkon qadar birlashtirish orqali moslashtirish natijasida erishilgan.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish barcha turdag'i zahiralar miqdorini kamaytirish, moddiy oqimlar nomutannosibligini pasaytirish, moddiy resusrlar va tayyor mahsulotni saqlash hamda ko‘chirishga ketadgan harajatlarni qisqartirishga olib keladi. Bundan tashqari, xo‘jalik faoliyatini boshqarishda balanslashtirishni oshiradi. Logistik tizimga kiruvchi tuzilma va bo‘linmalar bir maromda faoliyat yuritishi barqaror xususiyatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, logistika tamoyillari uslubiyatni takomillashtirish va tashkiliy loyihalashtirish sifatini oshirish, transport-omborchilik, ishlab chiqarish, kommunikatsiya va axborot kichik tizimlarini loyihalashtirishga tizimli yondoshuvni ta’minalash imkonini beradi.

Loyihaviy-izlanish ishlarida logistik yondoshuvni qo‘llash ishlab chiqarish tizimi va infratuzilmaviy kichik tizimlar loyihalarini ushbu tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan voqealarni bashorat qilishning yuqori darajali loyihalarini ishlab chiqish, harakat tuzilmasini shakllantiruvchi ishlab chiqarish-iqtisodiy tarkibiy qismlar majmui samaradorligini oshiradigan kutilayotgan aniq natijalarga erishishni kafolatlash imkonini beradi.

Logistik vazifalar va tamoyillarni amalda o‘zgartirish turli- tumanligi bilan ajralib turadi va mo‘ayyan vaziyatga bog‘liq.

Logistikaning maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini amalga oshirish uchun nafaqat iqtisodiy, uslubiy va ilmiy asoslarga, balki tegishli tizimli ta’milotga ham ega bo‘lish lozim. Ushbu tizimli ta’milot to‘rtta yo‘nalishga ega. (1.1-rasm)

Ta’kidlanganidek, ijtimoiy-iqtisodiy ta’milotga bozor, talab, ishlab chiqarish va muomala sohalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy hayotida asoslar majmui kiradi.

Moddiy-texnika ta’milotiga logistik maqsadlarni (transport vositalari, ko‘tarish-transport uskunlari, binolar, inshoatlar, shoxobcha yo‘llari, hisoblash mashinalari, aloqa vositalari, omor uskunlari, tara, qadoqlash va hokazolar) jismoniy amalga oshirish bo‘yicha moddiy va texnik vositalar majmui kiradi.

Logistikaning makro va mikroiqtisodiyotdagi texnologik ta'minoti ishlab chiqarish jarayonlarini aniq moslashtirish va moddiy hamda axborot oqimlarini ularni ko'chirishning barcha bosqichlarida boshqarish orqali namoyon bo'ladi.

Matematik ta'minot esa matematika hamda kibernetika uslublari va asboblarini qo'llashga asoslangan. Logistikani ta'minlash tizimi **1.1- rasmda aks ettirilgan**.

### **Logistik boshqaruv talablari va vazifalari.**

Xo'jalikni boshqarishning logistik maqsadlari, vazifalari va tamoyillari tegishli tizimlar va kichik tizimlarga qo'yiladigan qator talablarga bog'liq. Ushbu talablarga rioya qilish iqtisodiy munosabatlarning barcha sub'ektlari uchun majburiy hisoblanadi. Ularning soni har bir mo'ayyan holatda amaldagi omillarga bog'liq. Biroq muntazam xususiyatga ega qator talablar ham mavjud. Ularning bajarilishi logistik zanjirning barcha ishtirokchilari va bo'g'lnlari o'rtasida ishbilarmonlik aloqalarni shakllantirishda logistik kontseptsiyalar mohiyatini aks ettiradi. Ya'ni:

- moddiy va axborot oqimlarini oqilona tashkil etish;
- ishlab chiqaruvchi va vositachilik tuzilmalarining buyurtmalarni bajarishga tayyorgarligini ta'minlash;
- nisbiy va umumiylarini minimallashtirish;
- moddiy resurslar va tayyor mahsulotni omborda qayta ishslash hamda transportda tashishda buzilmaganligini ta'minlash;
- dolzarb ma'lumotga ega bo'lish, qayta ishslash va taqdim etish imkoniyati;
- logistik elementlar va boshqalarning mos kelishi.

Logistika uslubiyatini amalda amalga oshirish uning funktional richaglari orqali namoyon bo'ladi. Logistik vazifalar mo'ayyan logistik tizimlar maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan logistik operatsiyalarning ma'lum majmuini ifoda etadi.

Logistik vazifa ko'rsatkichlarning rasmiy ahamiyati bilan beriladi. Ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimlash va sotish moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha logistik vazifalar namoyon bo'lishining eng muhim sohalari hisoblanadi.

Logistikada nazariy tushunchalar va amaliy harakatlarni umumlashtiradigan ushbu atama ko'p uchraydi.

Transport-ekspeditsiya korxonalari, ulgurji va chakana savdo korxonalari, tijorat-vositachilik tashkilotlari, tayyorlovchi korxonalar va qaysidir darajada iste'molchi korxonalar hisoblanadi makrodarajada logistik vazifalar produtsentlari. Ushbu sub'ektlar moddiy va axborot oqimlarini shakllantiradi. Ular tovarlar siljishini bevosita amalga oshiradi va nazorat qiladi.

Korxonalarining tegishli tuzilmaviy bo'linmalari mikrodarajada logistik vazifalar produtsentlari sanaladi.

Logistik vazifalarining to‘liq ro‘yxatini keltirish maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda ularning asosiyalarini bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlar ko‘laming kengligini ko‘rsatish uchun ham eslab qolish joizdir.

### **Logistik vazifalar ro‘yxati qo‘yidagilar:**

- moddiy-texnika ta’minotini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish, tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha xo‘jalik aloqalarini shakllantirish, ularni rivojlantirish, to‘g‘irlash va ratsionlashtirish;
- omborchilik xo‘jaligini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;
- ishlab chiqarish jarayonida moddiy va axborot oqimlarini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;
- logistik xususiyatli ishbilarmonlik xizmatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;
- sarmoyalarni logistik tuzilmalarni tashkil etish va rivojlantirish uchun rejalashtirish hamda nazorat qilish;
- moddiy va tovar zahiralarini boshqarish;
- axborot tizimlarini boshqarish;
- taqsimlash va yetkazib berish jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;
- sifatli parametrlar va ularning standartlashni nazorat qilish;
- moddiy va axborot oqimlarini hajmi va yo‘nalishlarini aniqlash;
- tashishda ehtiyojlarni prognozlash;
- logistik tizimlarda infratuzilmaviy elementlarni loyihalashtirish.

Ko‘plab logistik vazifalar quyida aks ettirilgan marketing vazifalari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

- mahsulot turlarini boshqarish;
- bozor hajmini prognozlash;
- firma (korxona) bozori ulushini prognozlash;
- narx-navo siyosatini va hokazolarni shakllantirish.

Logistikada bevosita vazifalardan tashqari teskari logistik vazifa tushunchasi ham ajratib ko‘rsatiladi.

Vazifalarining ushbu turi moddiy oqim va axborotning boshlang‘ich qarama-qarshi yo‘nalishdagi harakatini ko‘zda tutadi. Biroq bunda shuni ta’kidlash kerakki, agarda ishlab chiqarish-texnik va iste’molga mo‘ljallangan tovarlar iste’molchidan yetkazib beruvchiga qaytarilsa, unda ular yetkazib beruvchidan iste’molchiga yetkazib berilgan logistik zanjirdan o‘tishi shart emas. Pul mablag‘lariga nisbatan ham ana shunday deyish mumkin.

Teskari logistik vazifalarni amalga oshirishning eng keng tarqalgan namunalari qo‘yidagilar:

- savdo vositachilari tomonidan muddati o‘tgan tovarlarni yetkazib beruvchiga qaytarish;
- savdo vositachisiga iste’molchi tomonidan kamchiligi bor tovarni qaytarish;
- iste’molchi tomonidan taraning yetkazib beruvchiga qaytarilishi va hokazo.

Shuni ta’kidlash kerakki, logistik vazifalarning majmui alohida va birgalikda korxona yoki korxonalar guruhi strategiyasi tomonidan aniqlanadigan yagona maqsadga bo‘ysinadi.

Jahon va milliy bozorlar munatazam o‘zgarishlarga uchramoqda. Bozorlarda an’anaviy tovarlar xizmatlarning stagnatsiyasi yangi bozorlarning paydo bo‘lishi hamda kengayishiga olib keladi. Bunda yangi ishlanmalar, ishlab chiqarish, sifatni oshirish va yetkazib berishlar qiymati oshadi.

Yangi mahsulot ishlab chiqish davri yana qisqaradi. Ayniqsa ishlab chiqarishga mo‘ljallangan tovarlarning ma’naviy eskirishining tezlashganligi bois ulardan foydalanish davri ham qisqaradi. Iqtisodiy tavakkalchilik oshadi. Iste’molchilar kam harajat qilib qisqa vaqt ichida ko‘p mahsulot olishga intiladi. Xaridorning bozor sharoitidagi vaqt omili muhim ahamiyat kasb etadi. Ertami kechmi yetkazib beruvchilarning takliflarida iste’molchi xususiyatlari, mahsulot sifati va narxini baravarlashtirish ko‘rsatiladi. Shuning uchun mahsulotlarning ko‘plab turlariga, yo‘lga qo‘yilgan texnik xizmat ko‘rsatish tizimiga ega va talab etilgan sifatli tovarni buyurtmachi uchun kerakli joyga hamda kerakli vaqtida eng kam harajatlar bilan yetkazib bera oladigan yetkazib beruvchigina ustunlikka ega bo‘ladi. Bu sharoitlarda logistika tovar ishlab chiqaruvchilarning raqobatli kurashida hal qiluvchi omilga aylanadi.

Moddiy, axborot, pul va boshqa oqimlarni logistik boshqarish ishlab chiqarish va muomala sohasida oqimli jarayonlarni tartibga solish bo‘yicha vazifalar majmuini kompleks tarzda ishlab chiqish bilan bog‘liq iqtisodiy tuzilmalar faoliyatida eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Oqimli jarayonlarni boshqarishning uyg‘unligiga turli usullar bilan erishiladi va turli shakllarga ega bo‘ladi. Ushbu shakllar asosini qo‘yidagilar tashkil qiladi:

- umumiy boshqaruv jarayonlarining universal vazifalari bilan kelishilgan moddiy, pul, axborot va boshqa oqimlarini boshqarishning o‘ziga xos vazifalarini rivojlantirishda tizimli yondoshuv. Bunda ularni gorizontal va vertikal yo‘nalish bo‘ylab oqilonqa taqsimlash, shuningdek, tegishli tuzilma va bo‘linmalarda to‘plash hamda ixtisoslashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.
- oqimli jarayonlarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishga oid vazifalar bilan xo‘jalik aloqalarini shakllantirish bo‘yicha vazifalarni birlashtirish;
- xo‘jalik yuritish sub’ektlari strategiyasi va taktikasini muvofiqlashtirish;
- omborchilik, transport va ishlab chiqarish tizimlarida moddiy, axborot, lozim bo‘lsa boshqa oqimlarni boshqarishning o‘zaro bog‘liqligi;
- rejalashtirilayotgan jarayonlarni amaldagi tizimning transport, ta’minot-sotish, ishlab

chiqarish va boshqa tuzilmalari manfaatlari hisobga olingan holda optimallashtirishga asoslangan boshqarishning iqtisodiy-matematik uslublarini rivojlantirish.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, kompleks tarzda boshqarish mexanizmi avvalambor, mikro va makroiqtisodiyotda ishlab chiqarish, tijorat va kommunikatsiya tuzilmalari o‘rtasidagi ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlarning istiqbolli shakllari hamda uslublarini rivojlantirishdan iborat, degan fikrga kelish mumkin. Bunda bozor mexanizmini takomillashtirish sharoitida birgalikda ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirishda nafaqat tezkor, balki strategik xususiyatli harakatlarni moslashtirish alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Natijada esa xo‘jalik tuzilmasining samaradorligi va chidamliligiga erishiladi. Ushbu xo‘jaliklar uchun o‘ziga logistik tizimni yaratish emas, balki raqobatchilari oldida logistik tizimni joriy qilishda erishiladigan ustunlik yakuniy maqsad hisoblanadi.

Boshqarishning logistik kontseptsiyasini qo‘llash bir tomondan barcha oqimli jarayonlarni boshqarish bo‘yicha funktional vazifalarni qamrab oladigan kompleksli logistik tizimlarni yaratish uchun zamin yaratadi. Ikkinci tomondan, ushbu funktional vazifalar logistik tizimlar doirasida aynan tizimli yondoshuv hisobidan samarali hal etiladi. Misol uchun buyurtmalarni qayta ishslash tizimini yanada rivojlantirish vazifalarini umumlashtirilishini ko‘rib chiqish mumkin (1.1-rasm).

Shuni ta’kidlash kerakki, logistik tizimlar maqsadlari, vazifalari va tamoyillaridan kelib chiqqan holda, unda boshqaruv vazifalari soni oshadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi esa ancha murakkablashadi. Biroq ushbu murakkablik istiqbolli xususiyatga ega va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida sifatli kafolatga aylanadi. Ayni paytda logistikada qo‘llanilayotgan yondoshuvlar va uslublar majmui boshqaruv qarorlarini amalga oshirishning muhim va kerakli vositasi hisoblanadi.

### **Logistikada qo‘llanilayotgan asosiy yondoshuvlar va uslublar**

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va operatsiyalarning ko‘lami logistikada qo‘llanilayotgan yondoshuvlar va uslublar majmuiga bog‘liq. Ushbu sohaning deyarli barcha ishlanmalari majmui makro va mikroiqtisodiyotda logistik xususiyatlar hisobga olingan holda u yoki bu darajada xo‘jalik jarayonlarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun uslubiy vosita sifatida jalb qilingan.

Oqimli jarayonlarni mufassal boshqaruvning uslubiy asosi tizimli yondoshuv hisoblanadi. U voqealar, holatlar yoki ob’ektlarni tizimli tahlil qilish nuqtai nazaridan kompleks tarzda yaxlit holda o‘rganishni ifoda etadi.

Shuningdek, tizimli yondoshuv logistikadagi har qanday tadqiqot ob’ektini alohida, bir-biridan ajralgan kichik tizimlardan tarkib topgan bo‘lsa ham, birlashgan logistik tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Logistik tizimning elementlari va qismlarining yaqin o‘zaro aloqasi uning xususiyati asosi bo‘lgani bois, ishlab chiqarish va mumola jarayonlarini tahlil qilishda, tegishli qarorlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishdagi tizimli yondoshuv ushbu o‘zaro

bog‘liqlarni hisobga olishni anglatadi. Ayrim xo‘jalik ob’ektlari yoki hodisalarni o‘rganish yanada murakkab tuzilmalar yoki jarayonlarning tarkibiy qismini ifoda etishidan kelib chiqadi.

Butun bir ob’ektning samarali faoliyatida ushbu qismlarning har birining rolini uni mustahkamlash bo‘yicha tegishli tadbirdilar majmui aniqlaydi. Tizimli yondoshuv esa o‘rganilayotgan ob’ektni umumiylar maqsadga birlashgan o‘zaro bog‘liq kichik tizimlar majmuu sifatida ko‘rib chiqishga, uning birlashgan xususiyatlari, ichki va tashqi aloqlarini ochib berishga yordam beradi. Iqtisodiy jarayonlarning matematik tahlili tuzilmaviy qismlar hamda logistik tizimlarni optimallashtirish imkoniyatlari va shartlarini tasdiqlaydi. Majmuaviy logistik dasturlar boshqaruv sohasida tizimli yondoshuvning muhim pragmatik ilovasi hisoblanadi.

Tizimli yondoshuv aniq qat’iy uslubiy kontseptsiya ko‘rinishida namoyon bo‘lmaydi. Uni mo‘ayyan tamoyillar majmuu sifatida ta’riflash mumkin. Ushbu ta’riflarga amal qilish esa nazariy tadqiqotlar va amaliy faoliyatni maqsadga muvofiq yo‘naltirish imkonini beradi.

Shuningdek:

- makro yondoshuv;
- mikro yondoshuv;
- deterministik yondoshuv;
- stoxastik yondoshuv;
- statistik yondoshuv;
- dinamik yondoshuv;
- funktsional yondoshuv;
- tajriba yondoshuvi ham logistikada keng qo‘llanilmoqda.

Makro yondoshuvda logistik tizim bir butun sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu holatda ayrim xo‘jalik tuzilmasida va jarayonlarida ichki tuzilma hamda o‘zaro bog‘liqlik e’tiborga olinmaydi. Bunda faqat tizimning yaxlit tuzilmasiga chiqish va kirish, shuningdek, logistik muhitda umumtuzilmaviy darajada kechadigan jarayonlar o‘rganiladi, xolos.

Mikro yondoshuv esa logistik ob’ektni ichki tomondan o‘rganish va boshqarish imkonini beradi. Uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi ichki tuzilma va ichki aloqalar tekshiriladi.

Tizimning determinlashgani logistik jarayonlar natijalarining to‘liq bashoratini ko‘zda tutadi. Buni ta’sir qiluvchi omillarining yakuniy natijaga salbiy ta’siri logistik tamoyillarga rioya qilish asosida yuqori moslashuvchanlik hisobidan eng kam miqdorga keltirilganda logistik tizim qayta ishlansagina amalga oshirsa bo‘ladi.

Stoxastik yoki ehtimollik yondoshuv tashqi va ichki omillar hamda tasodifiy ta’sirlar ostida yakuniy, kutilayotgan natijalar o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lishini anglatadi. Aniq logistik tizimlarning ishlashi murakkab stoxastik aloqlarning ushbu tizimlar ichida va atrof-muhitga

bo‘lgan munosabatda mavjudligi bilan bog‘liq. Shu sababli qaror qabul qilish jarayonida logistik tizimning umumiyligi maqsadlari va uning funksional kichik tizimlarining bozor ahvoliga muvofiqlik darajasi hamda ularning tashqi ta’sirlarga bog‘liqligini inobatga olish zarur. Tashqi muhitga muvofiqlik va birlashish darajasi qanchalik past bo‘lsa, kutilayotgan natijalarining rejalahtirilganidan ko‘ra xatolari hamda og‘ishishi ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi.

Statistik yondoshuv. Ushbu yondoshuv logistika muammolarini vaqtning aniq paytidagi holat bo‘yicha tekshirish imkonini beradi. Ko‘pincha u faoliyat ko‘rsatishning tahlili uchun, shuningdek, logistik bo‘g‘inlarni joylashtirish va logistik zanjirlarni shakllantirish bo‘yicha hisob-kitoblarda qo‘llaniladi.

Dinamik yondoshuv. Dinamik yondoshuv statistik yondoshuvdan farqli ularoq logistik tizimlar, kichik tizimlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini tashqi va ichki muhitda amaldagi yo‘nalishlar ta’siri ostida rivojlanishda, uzluksiz harakatda o‘rganishni anglatadi.

Funksional yondoshuv. Bu yondoshuv logistik tizimlar va kichik tizimlar faoliyati tahlili samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Undan foydalanishda ikkita asosiy kompleks tushunchaga tayanadi: tizimning ishlash jarayoni va qonuni.

Jarayon yoki boshqacha qilib aytganda, logistik tizimning ishlash tartibi ushbu tizimni ta’riflaydigan har qanday hajm o‘zgarishlarini ifoda etadigan o‘zgarishni ko‘rsatadi. Ishlash qonunini esa qoidalar majmui va harakatlarning uzviyigini ifoda etadi. Rejalahtirish va boshqarish jarayonida logistik tizimlarning ishlash qoidalarini, ularning dastlabki holatini bilib hamda yakuniy xulosalarga kelgan holda, kelgusida rivojlantirish modellalari va taxminlari ishlab chiqiladi.

Logistikada tajriba yondoshuvi kerakli tadqiqotlarni logistik jarayonlarning borishiga faol aralashish va natijalarini kuzatish orqali o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu yondoshuvdan logistik tizimlar va kichik tizimlar ishlashining berilgan parametrlaridan og‘ishishi paydo bo‘lganda foydalaniladi. Ushbu yondoshuvga mos keladigan usullar va uslublar o‘rganilayotgan muamolar mohiyatini yaxshiroq tushunish, logistik dasturlarni sabab va oqibat aloqalari hamda turli manfaatlarni yo‘lga qo‘yish hisobga olingan holda tahrir qilishga yordam beradi.

An’anaviy yondoshuvlari xususiyidan umumiyya /induktsiya/ o‘tishni yuzaga keltiradi. Shu bois ular induktivlar deb ataladi. Funksional tizimlar va kichik tizimlarni induktiv sharotilarda yaratish mavjud bo‘lgan yoki alohida ishlab chiqilayotgan ayrim elementlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Logistik yondoshuv esa umumiydan xususiyga birin-ketin o‘tishni ko‘zda tutadi. Bu holatda boshqarish jarayonida tadqiqotlarning dastlabki nuqtasi va mezoni oxirgi maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa logistik tizim tashkil etiladi. Mabodo logistik tizim tashkil etilmagan bo‘lsa, buning uchun harakatlar algoritmini to‘rtta bosqichga kiritish mumkin:

Birinchi bosqichda bulg‘usi logistik tizimning umumiy maqsadlari belgilanadi, hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar va vazifalar doirasi aniqlanadi, butun bir tizimning ishlashinining yakuniy hamda oraliq natijalarini aks ettiradigan mo‘ayyan ko‘rsatkichlar hisob-kitob qilinadi.

Ikkinci bosqichda tizimli maqsadlar, tashqi va ichki omillarga ta’sir qilish vazifalari tahlil qilinib, logistik tizim va uning elementlariga mos keladigan talablar, shuningdek, ushbu tizim ishlaydigan sharoitlar va cheklanishlar aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda maqsadlar, vazifalar, talablarga tayanib, logistik tizimlar va uning kichik tizimlari modellarining variantlari loyihalashtiriladi. So‘ngra eng samarali modellar tanlab olinadi.

To‘rtinchi tashkiliy bosqichda esa avval umumtizimli ahamiyatga ega, so‘ngra tizimchali ahamiyatga ega tuzilmaviy elementlar yaratiladi va o‘zgartiriladi. Keyin yagona logistik tizim shakllantirilib, kichik tizimlarga strukturalashtiriladi.

Yondoshuvlarning aniqlashtirilgan ifodasi tizimdagи logistik jarayonlarni boshqarish bo‘yicha tegishli uslublarni yuzaga keltiradigan qoida va usullarda namoyon bo‘ladi.

Har qanday tadqiqot, shu jumladan logistik tadqiqotning asosiy ish tartibi ilmiy uslub hisoblanadi. Ushbu uslub uch bosqichdan iborat.

Hisob-kitob yo‘llari turli ishlab chiqarish, transport, omborchilik, ekspeditsiyaviy va boshqa bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladigan logistik zanjirlardan tashkil topgan. Induktsiyaviy yondoshuvlardan foydalanishda oqimli jarayonlarni boshqarish bo‘yicha vazifalar odatda asoslangan bo‘ladi. Ishlab chiqarish-xo‘jalik tizimining ayrim uchastka va bo‘g‘inlari yagona iqtisodiy tizimda o‘zaro bog‘langan ob’ektlardan kelib chiqadigan tashqi ta’sirlardan xolis yopiq kichik tizimlar kabi ko‘rib chiqiladi. Ishlab chiqarish-xo‘jalik jarayonlarini yopiq kichik tizimlar doirasida tartibga solishda chegaralangan miqdordagi, odatda eng oddiy va ma’lum uslublardan foydalaniladi. Biroq shartli mustaqil kichik tizimlarni muxtor boshqaruvdan birlashgan lotistik tizimga o‘tish oqimli jarayonlarni boshqarishning uslubiy bazasini kengaytirish va murakkablashtirishni talab etadi.

Iqtisodiyot, kibernetika, menejment, psixologiya va jamiyatshunoslikning tutashgan nuqtasidagi fan sifatidagi logistikada ishlab chiqarish va muomala sohasida umumiy yoki o‘ziga xos vazifalarni hal etish uchun ishlab chiqilgan hamda qo‘llanilayotgan uslublar, nazariyalar va tahlil turlari majmuidan keng foydalaniladi. Ular orasida u yoki bu darajada muhimlarini ajratib bo‘lmaydi. Ulardan har biri ma’lum bir vaziyatda ko‘zlangan maqsadlarga erishishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.

Logistika nuqtai nazaridan bir qator o‘ziga xos xususiyatga ega barcha uslublarni shartli ravishda uchta guruhga birlashtirish mumkin:

- iqtisodiy-matematik uslublar;
- prognozlash uslublari;

- norasmiy uslublar.

Logistika uchun ushbu guruhda eng maqbul qarorlarni ishlab chiqish uslubi alohida ahamiyatga egadir. Ular logistikani boshqarishda qabul qilinayotgan qarorlarning sifatini oshirish uchun qo'llaniladi. Ushbu uslublarni modellashtirish turlari sifatida ko'rib chiqish mumkin. Aynan mana shu uslublar guruhlarining maxsusligi mavjud bir nechta muqobil variantdan bittasini tanlash zarurligi bilan bog'liq. To'lov qolipi va qarorlar to'plami mazkur majmuuaning eng keng tarqalgan uslubi hisoblanadi.

Logistikani boshqarishda ko'pincha noaniqlik sharoitlarida qaror qabul qilishga to'g'ri keladi. Bu vazifalar to'liq noaniq vaziyatda harakat qilish zarurati to'g'ilganda yuzaga keladi. +aror qabul qilayotgan sub'ekt odatda strategiyani tanlash huquqiga ega bo'ladi.

U ushbu huquqdan foydalanib, tanlash jarayonida ma'lum bir strategiyani qo'llashi yoki vaziyatga qarab strategiyani tanlagan holda, qura yo'li orqali qaror qabul qilishi mumkin. +abul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar natijalari "tabiat strategiyasi"ga ta'lulqi noma'lum parametrlarga bog'liq yoxud

qabul qilinayotgan qarorga qarshilik qilayotgan shaxs tomonidan aniqlanadi. Birinchi holat uchun statistik qarorlar nazariyasini va tasodifiy jarayonlarni boshqarish nazariyasini qo'llash, ikkinchi holat uchun esa o'yinlar nazariyasini qo'llash katta samara beradi.

Prognozlash uslublari. Ushbu uslublar o'rganilayotgan jarayonlarni rejalashtirish uchun kerakli turli xil farazlarni yoki nazorat qilinmayotgan istiqbol sharoitlaridagi voqiyliklarni qabul qilishga asoslangan. Ayni paytda prognozlash uslublari ma'lum farazlardan tashqari avvalgi tajribalarga tayanadi. Ularning logistik tadqiqotlarda amalda qo'llanishi katta ahamiyatga ega, qamrab olinayotgan muammolar ko'لامi esa nihoyatda keng.

Masalan, makroiqtisodiyot darajasida prognozlash iqtisodiyotning umumiy ahvolini, shuningdek, bozor kon'yukturasining yetakchi yo'nalichlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu manfaatdor sub'ektga kelgusi davrda strategiya va taktikani to'g'ri tanlashga yordam beradi. Logistik tizimni kutilayotgan sharoitlarda samarali faoliyat yuritishi uchun tuzish yoki to'g'irlash olingan natijalar ta'siri hisoblanadi.

Texnologiya sohasida rivojlantirish prognozlari ularni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligini barvaqt hisob-kitob qilishga va logistik tizimlarni, xususan ishlab chiqarish logistikasi sohasida tashkil etish hamda boshqarishda to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradi.

Raqbotani rivojlantirish prognozlari strategiyani ko'rib chiqish, notuzilmaviy jarayonlarni oldindan baravarlashtirishni amalga oshirish va salbiy ta'sirlarni logistik tizimda tegishli o'zgartishlar sharoitida eng oz miqdorga keltirish hamda ularni yangi sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi.

So‘rovlар va tadqiqotлar asosidagi prognozлar murakkab jadal vaziyatlarda nima sodir bo‘lishini aniqlash imkonini beradi. Bunda hayotiy faoliyatning ko‘plab sohalari axborotlaridan foydalaniladi. Masalan, bozor konъyukturasini mahsulotlarning ko‘plab turlari bo‘yicha faqatgina iqtisodiyot ahvoli, siyosiy vaziyat, texnologiya, ekologik standartlar yoki ijtimoiy qadriyatlar ustunligida, an’analalar, urf-odatlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda aniqlash mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, mazkur holatda ham logistik tizim mexanizmi tuzatishlarni haqiqiy voqelik va kutilayotgan vaziyatlarning yangi talablariga moslashtirish uchun qabul qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy prognozlash logistik tizim uchun ko‘plab sabablarga ko‘ra foydalidir. Zero, jamiat ahvoli va ijtimoiy guruхlar, odamlarning ijtimoiy maqsadlaridagi o‘zgarishlar iqtisodiyot hamda bozorda ham muqarrar o‘zgarishlarga poydevor bo‘ladi. Albatta, kutilayotgan o‘zgarishlarga oldindan tayyorlangan firma o‘z faoliyatida logistika uslubiyati va vositalarini qo‘llash hisobidan raqobatchilari oldida ustunlikka ega bo‘ladi.

Prognozlash uslublari majmuini ikkita toifaga - son va sifat uslubiga ajratish mumkin.

#### **Son uslubining o‘ziga xos vakillari quyidagilar hisoblanadi:**

- davriy qatorlarni tahlil qilish;
- sababli modellashtirish.

#### **Quyidagilar sifat uslubining eng keng tarqalganlari sanaladi:**

- hakamlar fikri;
- ekspert baholar uslubi;
- iste’molchining kutish modeli;
- sotuvchilar fikrining jamuljamligi va boshqalar.

Logistikada sifat uslublari mavjud axborotlar soni yetarli darajada bo‘lmaganda yoki son uslubi o‘zini oqlamaydigan darajada qimmat bo‘lgan holatlardagina qo‘llanadi. Ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini boshqarishning yuqorida sanab o‘tilgan rasmiy uslublaridan tashqari logistika norasmiy uslublarga ham amal qiladi.

- Oqzaki axborot uslubi (axborotni so‘zlashuvlar, radio, televidenie, odamlar bilan muloqot va hokazolar orqali olish va berish).
- Yozma axborot uslubi (axborotni gazeta, jurnallar, yillik hisobotlar va hokazolar orqali olish va berish).
- Norasmiy uslublarga shuningdek, sanoat ayg‘oqchiligi va boshqalar kiradi.

Boshqaruvning logistik tizimini yaratishda logistik yondoshuvlar va uslublar samaradorligi manfaatlar hamda vazifalarning turli darajada ma’lum qarama-qarshiliklari sharoitida ayniqsa, kuchli namoyon bo‘ladi. Logistik tizimni modellashtirish va birlashtirishga asoslangan qarama-

qarshiliklarni hal etish korxonaning asosiy maqsadga erishishning hamda tegishli vazifalarni hal etishning to‘g‘ri strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda logistikani qo‘llash korxona rahbariyatiga o‘z siyosatining nafaqat asosiy yo‘nalishini ishlab chiqish, balki mikrotizim faoliyatini boshqarish, tanlangan strategiyaga binoan uning ishlashi samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun logistika kontseptsiyasi aynan armiya muhitida paydo bo‘lgan?
2. Nazariya va amaliyotda “logistika” atamasining qanday shartli sinonimlari qo‘llaniladi?
3. Logistik yondoshuvning asosiy yangiliklari nimadan iborat?
4. Makro va mikro darajada logistika kontseptsiyasini joriy qilish uchun qanday shartsharoitlar yaratish talab qildi?
5. Logistikning ilmiy yo‘nalish sifatida maqsadi qanday?
6. Faoliyatning qaysi sohalarida logistikaga oqimli jarayonlarni boshqarishning ilmiy asosi sifatida murojaat qilinadi?
7. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada oqimli jarayonlarning paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘ladi?
8. Logistika sohasida harajatlarni pasaytirish yo‘llarini izlash jarayonida mutaxassislar e’tibori nimaga qaratildi?
9. Logistika xo‘jalik tuzilmalari faoliyatida nimani aks ettirishi kerak?
10. Logistik kontseptsiyadan faoliyat ko‘rsatayotgan tuzilmalar doirasida amaliy foydalanish nima beradi?
11. Makro va mikro darajada logistik vazifalar produtsentlari kimlar hisoblanadi?
12. Tizmli yondoshuv mohiyatini ochib bering.
13. Logistikada makro va mikro yondoshuvlar mohiyatini ochib bering.

### **3-MAVZU. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MAKROLOGISTIK VA MIKROLOGISTIK TIZIMI**

**Reja:**

1. Makrologistika tushunchasi. Makrologistik tizim vazifalari.
2. Mikrologistika tushunchasi. Mikrologistik tizim vazifalari. Makrologistik tizimda transport xarakati yo‘nalishi.
3. Makro va mikrologistikada umumiy axborot tizimi.

#### **3.1. Makrologistika tushunchasi. Makrologistik tizim vazifalari.**

Logistika moddiy, axborot va boshqa oqimlarni boshqarish bo‘yicha fan sifatida jamiyat iqtisodiy hayoti sohasining ma’lum bir qismini o‘z manfaatlari doirasiga oladi. Shu munosabat bilan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalarni rasmiylashtirish uchun u bir necha yo‘nalishlarda rivojlanadi.

Logistika ishlab chiqilayotgan muammolar ko‘لامи bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

- mikrologistika;
- makrologistika;
- mezologistika.

Makrologistik tizim - bu hududiy yoki ma’muriy-hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, harbiy va shu kabi vazifalarni hal etish uchun tuzilgan tizim bo‘lib, uning maqsadi foyda olish hisoblanadi. Makrologistik tizimlar quyidagi belgilar bo‘yicha tasniflanadi:

Mamlakatni ma’muriy-hududiy bo‘lish belgisi bo‘yicha logistika tizimi tumanlar, tumanlararo, shahar, viloyatlar, vohalar, hududiy, hududlararo, respublika va respublikalararo turlarga bo‘linadi.

Ob’ktiv-funksional belgi bo‘yicha makrologistik tizimlar bitta yoki bir nechta sohalar korxonalari, idoralar, sohalar, idoralararo (sohalararo), harbiy, institutsional va hokazo guruhlarga ajratiladi.

#### **Umumiy holatda makrologistika quyidagi vazifalarni hal etishi kerak:**

- etkazib beruvchilar va iste’molchilar bozorini tahlil qilish;
- iste’mol va taqsimlash kotseptsiyasini ishlab chiqish;
- omborlarga joylashtirish tuzilmasi va omborlarni joylashtirish o‘rnini tanlash;
- transport turlarini tanlash;
- transport jarayonini tashkil etish;
- moddiy oqimlar harakatining oqilona yo‘nalishlarini aniqlash;
- xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va butlovchi qismlarni yetkazib berish punktini

tanlash;

- tayyor mahsulotni yetkazib berish va taqsimlash chizmasini tanlash;
- umumiy axborot tizimini, axborotni taqdim etish va kodlashning yagona shaklini, uni shakllantirish, saqlash, qayta ishslash va foydalanish uslubini yaratish.

Makrologistik tizimlarni yaratish maqsadi mikrologistik tizimlarni tuzish maqsadlari va mezonlaridan ancha farq qilish mumkin. Firma uchun uning bozor muhitida biznes faoliyatini optimallashtirish mezonlari va tegishli ravishda logistik tashkilotni shakllantirish hamda boshqarish sifatida umumiy logistik harajatlar minimumi, tayyor mahsulotni sotishning (yoki foydaning) maksimum hajmi, bozorning eng ko‘p ulushiga erishish, bozorda sotish o‘rnini saqlab qolish, aktsiyalarning kurs qiymatining maksimal hajmi kabi va boshqa mezonlari qo‘llanilishi mumkin. Bunda iste’molchilar ehtiyojini mahsulot sifatiga, buyurtmalarni o‘z vaqtida bajarish, logistik xizmat ko‘rsatish darajasiga qarab to‘liq qondirish majburiy shart hisoblanadi.

Odatda makrologistik tizimlarni shakllantirish mezonlari ekologik, ijtimoiy, siyosiy va boshqa maqsadlar bilan aniqlanadi. Masalan, mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash uchun hududiy transport (yuklar) oqimlarini optimallashtirishning makrologistik tizimi yaratishlishi mumkin. Yo‘nalishlarni qulaylashtirish, transport oqimlarini taqsimlash, tashishlarni transportning bir turidan ikkinchi turiga o‘tkazish va hokazolar mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Makrologistik tizimlarda sohalararo moddiy balanslarni shakllantirish, mahsulot ta’minoti va uni sotish turlari hamda shakllarini tanlash, belgilangan hududda ombor, yuk terminallari, dispetcherlik (logistik) markazlarni joylashtirish, ko‘plab moddiy oqimlar turlari uchun ma’muriy-huduviy taqsimlashni optimallashtirish kabi vazifalar hal etilishi mumkin.

### **3.2. Mikrologistika tushunchasi. Mikrologistik tizim vazifalari. Makrologistik tizimda transport xarakati yo‘nalishi.**

Mikrologistik tizimlar biznesni aniq tashkil etish sirasiga kiradi va ishlab chiqarish, ta’minot, sotish jarayonida moddiy hamda unga bog‘liq oqimlarni boshqarish va optimallashtirish uchun mo‘ljallangan.

Ichki (ishlab chiqarish ichidagi), tashqi va birlashgan mikrologistik tizimlar ajralib turadi.

Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar moddiy oqimlarni mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik davri doirasida boshqarishni optimallashtiradi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlarning asosiy vazifalari moddiy resurslar zahiralarini va tugallanmagan ishlab chiqarishni kamaytirish, firmaning oborot kapitalining aylanishini tezlashtirish, ishlab chiqarish davrining davomiyligini kamaytirish, moddiy resurslar zahiralari miqdorini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) taransporti ishini optimallashtirish hisoblanadi. Mahsulotning eng kam tannarxi

va tayyor mahsulot sifati darajasini ta'minlashda ishlab chiqarish davrining minimal davomiyligi esa ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar ishslashini optimallashtirishning mezonlari sanaladi.

Tashqi logistik tizimlar moddiy va unga hamrohlik qiluvchi oqimlarni ularning manbalaridan ishlab chiqarishdan tashqari texnologik davrning mo'ljallangan punktlariga boshqarish va optimallashtirish bilan bog'liq masalalarni, umumiy harajatlar va logistik tizimning ayrim bo'g'inalining logistik operatsiyalari bilan bog'liq harajatlarni optimallashtirish, moddiy resurslar va tayyor mahsulotni yetkazib berish vaqtini hamda iste'molchilar buyurtmalarini bajarish vaqtini qisqartirish masalalarini hal etadi. Ta'minot va taqsimlash tarmoqlari, tovar o'tkazish tarmoqlari tarkibiy qismlari esa tashqi logistik tizimlar bo'g'inalari sanaladi.

Etkazib beruvchilarning tovar ishlab chiqarish tarmog'i bilan birga yukni transportda tashish, omborlarga joylashtirish, saqlash va qayta ishslash bo'yicha turli logistik operatsiyalarni bajaruvchi va tashqi logistik tizimni tashkil etuvchi logistik tizimlar, bo'g'indan tashkil topgan tuzilmalar ishlab chiqaruvchi firma ta'minotining (xaridlar) tashqi logistik tizimlari hisoblanadi. Bunday tizimda logistik boshqaruvning muhim vazifalaridan biri logistik vazifalarni muvofiqlashtirish hamda yetkazib beruvchilar, vositachilar va iste'molchilar maqsadlarini o'zaro moslashtirish hisoblanadi.

Birlashgan mikrologistik tizimlar chegaralari moddiy resurslarni sotib olish, tayyor mahsulotni iste'molchiga sotishni tashkil etish, sotishdan keyingi servis xizmatini ko'rsatish chog'ida taqsimlash tizimidagi ta'minotni, ishlab chiqarish ichidagi logistik vazifalarni va logistik operatsiyalarni tashkil etish jarayonlarini o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish-taqsimlash davri tomonidan aniqlanadi.

Birlashgan logistik tizimdagagi logistika menejmenti firma ishlarini va uning logistik sheriklarini tashkil etishga erishish uchun moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni optimallashtirish jarayonlarida vaqt hamda kenglik omillarini to'liq hisobga olishni ta'minlaydigan boshqaruvchilik yondoshuvini ifoda etadi. Umumiy logistik sarf-harajatlarni minimallashtirish kontseptsiyasi va ishlab chiqarish- taqsimlash davrining barcha bosqichlarida sifatni boshqarish kontseptsiyasi birlashgan logistik tizimlarni shaklantirishni belgilovchi omil hisoblanadi.

Ba'zida ishlab chiqarish ichidagi va tashqi logistik tizimlar birlashgan logistik tizimlarning kichik tizimlari sifatida ko'rib chiqiladi. Bazisli logistik operatsiyalar (ta'minot, ishlab chiqarish, sotish) logistik tizim oldiga qo'yilgan optimallashtirish maqsadlari va mezonlariga bog'liq holda moddiy, moliyaviy, axborot oqimlarini va logistik tizimning ko'plab bo'g'inalarini muvofiqlashtiradigan va birlashgan boshqaruvni amalga oshiradigan maxsus tashkiliy-funksional tuzilmalarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Firma ichidagi bo'linmalar (transoprt, ishlab chiqarish, omborlar va hokazolar) va u yoki bu logistik operatsiyalar hamda vazifalarni bajaruvchi

jalb qilingan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalar logistik tizimlar bo‘g‘inlari bo‘lishi mumkin.

Mikrologistik tizimlarning umumiy tuzilmasi bazis operatsiyalar va logistik tizimlar maqsadlarini qamrab olish darajasidan qat’i nazar birlashgan, tashqi yoki ishlab chiqarish ichidagi logistik tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

**Mikrologistika bitta korxona doirasida quyidagi vazifalarni hal etadi:**

- kirish zahirlari darajasini prognoz qiladi va nazorat etadi;
- oraliqdagi zahrilar darajasini prognoz qiladi va nazorat etadi;
- tayyor mahsulot zahiralari darajasini prognoz qiladi va nazorat etadi;
- sanoat korxonalari ichidagi ishlab chiqarish jarayonida buyumlar sotishni prognoz qiladi, boshqaradi va ularning ko‘chishini nazorat qiladi;
- transport-ombor va yuklash-tushirish ishlarining bajarilishini boshqaradi.

Logistik tizimda logistik boshqaruv jarayonlarini qo‘llab- quvvatlash uchun odatda ta’midotning axborot, tashkiliy, iqtisodiy, texnik, huquqiy, ergonomik va boshqa turlardan tashkil topgan kichik tizimlari majmui shakllantiriladi.

Mikro va makrologistika o‘rtasida fundamental farq bor.

Yuridik maqomga ega korxonalar makrologistika tomonidan nazorat qilinadigan ob’ektlar hisoblanadi. Ular orasidagi o‘zaro harakat tovar- pul munosabatlarga asoslanadi va huquqiy kuchga ega tegishli shartnoma hamda bitimlar bilan qat’iy belgilanadi.

*Nazorat savollari*

1. Makrologistika tushunchasiga ta’rif bering.
2. Makrologistik tizim vazifalari nimalardan iborat.
3. Mikrologistika tushunchasiga ta’rif bering.
4. Mikrologistik tizim vazifalari nimalardan iborat.
5. Makrologistik tizimda transport xarakati yo‘nalishi nimalardan iborat
6. Makro va miqrilogistikada umumiy axborot tizimi nimalardan iborat.

## **4-MAVZU. ISHLAB CHIQARISH LOGISTIKASI**


**Reja:**

- 1.** Ishlab chiqarish logistikasi tushunchasi.
- 2.** Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning an’anaviy va logistik konsepsiyalari.
- 3.** Ishlab chiqarish tizimlarining sifat va miqdor egiluvchanligi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag‘batlantiruvchi tizimlari.
- 4.** Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi logistikasida moddiy oqimlar boshqaruving yetaklovchi tizimlari.

### **4.1 Ishlab chiqarish logistikasi tushunchasi**

Moddiy oqim, xom-ashyoning birinchi manbasidan oxirgi iste’molchigacha bo‘lgan yo‘lida qator ishlab chiqarish bo‘g‘inlaridan o‘tadi. Bu bosqichda moddiy oqimlarni boshqarish, o‘ziga xos xususiyatlariga ega, va *ishlab chiqarish logistikasi* deb ataladi.

«Ishlab chiqarish» atamasining ma’nosini eslatib o‘tamiz. Ma’lumki jamiyat ishlab chiqarishi moddiy va nomoddiy qismlarga bo‘linadi (4.1-rasm). Ishlab chiqarish logistikasi, moddiy ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan jarayonlarni ko‘rib chiqadi.



4.1-Rasm. Jamiyat ishlab chiqarishining tuzilmasi

Ishlab chiqarish logistikasining maqsadi bu moddiy boyliklar yaratuvchi yoki saqlash, qadoqlash, joylash kabi moddiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar ichidagi moddiy oqimlarni optimizatsiyalashtirishdir. Ishlab chiqarish logistikasida o‘rganiladigan ob’ektlarning tavsifiy

belgisi – bu ularning hududiy ixcham joylashishidir. Adabiyotlarda ularni «logistikaning orol ob'ektlari» deb ham atashadi.

Ishlab chiqarish logistikasi doirasidagi logistik jarayon ishtirokchilarini ichki ishlab chiqarish munosabatlari bog'lab turadi (tovar-pul munosabatlari bilan bog'langan makrodarajadagi logistik jarayon ishtirokchilaridan farqli ravishda).

Ishlab chiqarish logistikasida ko'rildigan logistik tizimlar, ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari nomi bilan yuritiladi. Ularga: sanoat korxonalarini, ombor inshootlariga ega ulgurji savdo korxonalarini, xo'jalik hamda fermer xo'jaliklarini va boshqalarni kiritish mumkin.

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarini mikro va makro darajalarda ko'rib chiqish mumkin.

Makrodarajada ishlab chiqarish logistik tizimlari makrologistik tizimlarning unsurlari sifatida namoyon bo'ladilar. Ular moddiy oqimlar manbalari bo'lib, ushbu tizimlar ishining bir tekis borishini ta'minlaydilar. Makrologistik tizimlarni tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvi, ularning ichidagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari ishlab chiqaradigan mahsulotning assortimenti va miqdorini tez o'zgartira olish qobiliyatiga bog'liq.

Mikrodarajadagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari, bir-biri bilan o'zaro munosabatda va aloqalarda bo'lib, ma'lum birlikni, butunlikni vujudga keltirgan tizimchalar qatoridir. Bu tizimchalar: xaridlar, omborlar, zaxiralar, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, transport, axborot, sotish va kadrlardir. Ular moddiy oqimni tizimga kirishi, undan o'tishi va chiqib ketishini ta'minlaydilar. Logistika kontseptsiyasiga muvofiq ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarining yaratilishi, korxona ichidagi ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bo'g'inlarining rejalarini va ishlarini doimiy ravishda o'zaro kelishilishi va to'g'rilanib borishi imkoniyatini ta'minlashi lozim.

## **4.2 Ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy va logistik konsepsiyalari**

Ishlab chiqarishni tashkil etishning logistik kontseptsiyasi quyidagi assosiy holatlarni o'z ichiga oladi:

- ortiqcha zaxiralardan voz kechish;
- asosiy va transport-ombor operatsiyalarini bajarish uchun ortiqcha vaqtdan voz kechish;
- iste'molchi buyurtmasi bo'limgan mahsulotlarni ishlabchiqarishdan voz kechish;
- uskunalar to'xtab turishini yo'q qilish;
- sifatsiz mahsulotlarni yo'q qilish;
- xo'jalik ichidagi noratsional tashishlarni yo'q qilish;
- yetkazib beruvchilarni hamkorlarga aylantirish.

Logistikadan farqli o'laroq ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy kontseptsiyasi quyidagilardan iborat:

- mahsulotni iloji boricha yirik partiyalarda ishlab chiqarish;

-«har extimolga qarshi» moddiy resurslarning maksimal katta zaxirasiga ega bo‘lish.

Kontseptual hollarning mazmuni shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy kontseptsiyasi «sotuvchi bozori» sharoitlari uchun eng qulay bo‘lsa, logistik kontseptsiya «xaridor bozori» sharoitlari uchun eng qulaydir.


Talab taklifdan ko‘p bo‘lsa, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, bozor konъyukturasini hisobga olib ishlab chiqarilgan mahsulot to‘liq sotiladi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari maksimal yuklash ustuvorlikga ega bo‘ladi. Shu bilan birga ishlab chiqarilgan partiya qancha yirik bo‘lsa mahsulot birligining tannarxi shuncha kam bo‘ladi. Mahsulotni sotish birinchi darajali muammo bo‘lmaydi.

Bozorga iste’molchi «diktaturasi» kelishi bilan vaziyat o‘zgaradi. Raqobat sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi. Bozor talabini muntazam emasligi va oldindan bilib bo‘lmasligi sharoitida katta zaxiralar yaratish va saqlash maqsadga muvofiq emasdir. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi bitta buyurtmani ham qo‘yib yubormaydi. Bundan, paydo bo‘lgan talabga tez javob qaytara oladigan, egiluvchan ishlab chiqarish quvvatlariga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

#### **4.3. Ishlab chiqarish tizimlarining sifat va miqdor egiluvchanligi**

Ishlab chiqarish o‘z mahsuloti assortimenti va miqdorini tez o‘zgartira olgan taqdirdagina, bozor sharoitida faoliyat yuritishi mumkin. 70-chi yillargacha, butun dunyo, bu masalani ombordagi tayyor mahsulot mavjudligi hisobiga yechardi. Bugungi kunda esa logistika, talab o‘zgarishiga, ishlab chiqarish quvvatlarining zaxiralari hisobiga moslashishni taklif etadi.

Ishlab chiqarish quvvatlari zaxirasi, ishlab chiqarish tizimlarining sifat va miqdor egiluvchanligi mavjudligi yuzaga keladi. Sifat egiluvchanligi universal xizmat ko‘rsatuvchi personal (xodimlar) va egiluvchan ishlab chiqarish mavjudligi hisobiga ta’minlanadi. Miqdor egiluvchangligi har xil usullar bilan ta’minlanishi mumkin. Masalan, xo‘jaliklarda asosiy ishchilarining maksimal sonini 20% dan oshmasligi qolgan 80%-mavsumiy ishchilar bo‘lishi mumkin. Shunday qilib xo‘jalik 200ta xodimga ega bo‘lib, lozim bo‘lganda, 1000ta kishigacha jalb etish imkoniyatiga ega. Ish kuchi rezervi (zaxirasi) mehnat vositalari rezervi (zaxirasi) bilan to‘ldirilib turadi (4.2 rasm)




4.2-Rasm. Ishlab chiqarish quvvati egiluvchangligi

#### **4.4 Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag‘batlantiruvchi tizimlari**

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari doirasidagi moddiy oqimlarning boshqaruvi har xil usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu usullardan, bir-biridan printsipial farq qiluvchi, ikkita asosiysini alohida ko‘rib chiqish lozim, bular itaruvchi va yetaklovchi boshqaruv usullaridir.

Birinchi variant «rag‘batlantiruvchi tizim» deb nom olgan, va uning ishlab chiqarishni tashkil etish tizimi 4.3-rasmda ko‘rsatilgan. Moddiy oqim, ishlab chiqarishni boshqarishning markaziy tizimidan kelgan buyruqga binoan oldingi bo‘g‘indan iste’molchi tomon «itarib chiqariladi».



4.3-Rasm. Ishni ishlab chiqarish logistik tizimi doirasidagi moddiy oqim boshqaruvini rag‘batlantiruvchi tizimining printsipial sxemasi.

Oqimlarni boshqarishning rag‘batlantiruvchi modellari, ishlab chiqarishni tashkil etishning an‘anaviy uslublari uchun xarakterlidir. Ishlab chiqarishning logistik tashkil etilishi uchun ularni qo‘llashning qulay imkoniyati, hisoblash texnikasini ommaviy tarqalishi munosabati bilan paydo bo‘ldi. Ularning birinchilari 60-chi yillarda ishlab chiqargan, xo‘jalikning barcha bo‘limlari (ta’minot, ishlab chiqarish va sotish) reja va xarajatlarini, kelishilishi va operativ to‘g‘irlanishi imkonini beradi (real vaqtidagi doimiy o‘zgarishlarni hisobga- olgan xolda). Ushbu tizimlar kiritilishi natijalarini bitta jumlada ifoda etish mumkin: «Bir necha haftada ishlab chiqariladigan ishlab chiqarish rejasini, endilikda bir necha soatda ishlab chiqarishimiz mumkin».

Mikroelektronika yordamida murakkab ishlab chiqarish mexanizmini bir butun qilish imkoniyatiga ega itaruvchi tizimlar, unga qaramasdan o‘z imkoniyatlarining tabiiy chegaralariga

ega. Boshqaruv tizimi, bo‘limdagi ishlab chiqarish vaziyatiga ta’sir etadigan omillarni qay darajada hisobga olsa va baholasa, ushbu bo‘limdagi «itarib chiqariladigan» moddiy oqim parametrlari ham shunchalik optimal bo‘ladi. Ammo boshqaruv tizimi korxona ko‘p sonli bo‘limlarining har biri bo‘yicha qancha ko‘p omillarni hisobga olishi lozim bo‘lsa, uning dasturiy, axborot va texnik ta’minoti ham shunchalik takomillashgan va qimmat bo‘ladi.

Amaliyotda, rag‘batlantiruvchi tizimlarning turli xil variantlari mavjuddir. Ularning yaratilish imkoniyati hisoblash texnikasini ommaviy qo‘llanilishiga bog‘liqdir. Itaruvchi tizimlari boshqaruv avtomatizatsiyasining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, va bu avtomatizatsiya quyidagi asosiy funktsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ishlab chiqarish zaxiralarining joriy boshqaruvi va nazoratini ta’minlash;
- korxonaning ta’minot, ishlab chiqarish, sotish xizmatlari rejalarini va harakatlarini, real vaqt miqyosida, kelishilishi va operativ to‘g‘irlanishi.

Rag‘batlantiruvchi tizimlarning zamonaviy, rivojlangan variantlarida bashorat qilishning ham turli xil masalalari yechiladi.


#### **4.5 Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlar boshqaruvining yetaklovchi tizimlari**

Ishlab chiqarishdagi logistik jarayonlarni tashkil etishning ikkinchi varianti, moddiy oqimlarni boshqarishning printsipial boshqacha usuliga asoslangan. U «etaklovchi tizim» deb nomlanadi. Bu ishlab chiqarishni tashkil etishning shunday tizimiki, unda zarur mahsulotlar keyingi bo‘g‘indan oldingisiga lozim bo‘lgan taqdirdagina yetkaziladi.

Bu yerda markaziy boshqaruv tizimi korxonaning har xil bo‘limlari orasidagi moddiy oqimlar almashinuviga aralashmaydi, va ular uchun joriy ishlab chiqarish vazifalarini belgilamaydi. Ayrim texnologik bo‘g‘in ishlab chiqarish texnologik zanjirining oxirgi bo‘g‘ini oldida vazifa qo‘yadi.

Etaklovchi tizimning amal qilish mexanizmini tushunish uchun, 3.4-rasmdagi misolni ko‘rib chiqamiz.

Faraz qilaylik meva qayta ishslash korxonasi 1500 birlik mahsulot (meva Sharbati) ishlab chiqarishga buyurtma qabul qildi. Bu buyurtmani boshqaruv tizimi qadoqlash (tayyor mahsulot) bo‘limiga jo‘natadi. +adoqlash bo‘limi buyurtmani bajarish uchun Sharbat bo‘limidan 1500ta qadoq mahsulotga ketadigan Sharbat so‘raydi. Sharbat bo‘limi o‘z zaxirasidan so‘ralgan mahsulotni yetkazadi va uni o‘rnini to‘ldirish uchun qayla bo‘limidan 1500ta qadoq Sharbat ishlab chiqarish uchun qayla so‘raydi. Qayla bo‘limi o‘z zaxiralaridan so‘ralgan mahsulotni yetkazadi va uni o‘rnini to‘ldirish uchun ombordan meva so‘raydi. Shunday qilib moddiy oqim har bir oldingi bo‘g‘in tomonidan «tortib olinadi».



Shartli belgilashlar:

	- moddiy oqim,		- axborot oqimi,
a	- meva yetkazilishi	b	- qayla yetkazilishi
v	-Sharbat yetkazilishi	g	- tayyor mahsulot
d	- mevaga buyurtma	e	- qaylaga buyurtma
j	- Sharbatga buyurtma		

4.4-Rasm. Ishlab chiqarish logistik tizimi doirasidagi moddiy oqim boshqaruvini yetaklovchi tizimining printsipial sxemasi.

Bunda ayrim bo'lim xodimlari, markaziy boshqaruv tizimiga nisbatan, optimal buyurtma o'lchamini aniqlovchi, ko'proq o'ziga xos omillarni hisobga olish imkoniyatiga ega.

#### **4.6 Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashuvni qo'llashning samaradorligi**

Ma'lumki, ishlab chiqarish korxonasidagi materialning 95-98% vaqtin ortish-tushirish va transport-ombor ishlariga to'g'ri keladi.

«Bosh», «Simens», «Mitsubishi» va «Djeneral motors» firmalari ma'lumotlariga ko'ra, korxonada moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashish, logistik operatsiyalar majmui bajarilishini maksimal optimallashtirishga imkon beradi.

Korxonada moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashuvni qo'llashdan vujudga keladigan umumiy samaraning tarkibiy qismlari quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish bozorga mo'ljallangan. Kam hajmdagi va individual ishlab chiqarishga samarali o'tish mumkin bo'ladi.
2. Etkazib beruvchilar bilan hamkorlik munosabatlari o'rnatiladi.
3. Uskunalar to'xtab turishi qisqaradi. Bu, ish joylarida kerakli materiallar doimo mavjud bo'lishi bilan, ta'minlanadi.
4. Ishlab chiqarayotgan mahsulot sifati oshadi.
5. Ishlab chiqarish tsikli kamayadi va xarajatlar minimallashtiriladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan sabablarga to‘laroq to‘xtalib o‘tamiz.

❖ Zaxiralar optimizatsiyasi – logistikaning markaziy muammolaridan biri. Zaxiralarni saqlash, moliyaviy mablag‘lar ajratilishini, moddiy texnika baza va mehnat resurslarining katta qismining ishlatalishini talab qiladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy logistik uslublarini qo‘llayotgan qator /arbiy Yevropa firmalari tajribalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, logistikani qo‘llanilishi ishlab chiqarish zaxiralarini 50% ga kamaytirish imkonini beradi.

❖ Yordamchi ishchilar sonini kamayishi. Tizimlilik (ishni tizimli amalga oshishi) darajasi qancha past bo‘lsa, mehnat jarayoni shunchalik aniqlanmagan bo‘ladi, bu esa ishning katta hajmlarini bajarishda yordamchi ishchilarga bo‘lgan ehtiyoj shunchalik ortishiga olib keladi.

❖ Materiallar yo‘qotilishini kamayishi. Istalgan logistik operatsiya – bu potentsial yo‘qotishlar. Logistik operatsiyalar optimizatsiyasi – bu yo‘qotishlarnig kamayishidir.

❖ Ishlab chiqarish va ombor maydonlari ishlatalishini yaxlitlash. Oqim jarayonlarining noaniqligi ko‘proq qo‘shimcha maydonlarni oldindan egallab qo‘yishga undaydi. Masalan, ulgurji savdo bazalari loyihasida, oqim jarayonlarining noaniqligi ombor maydonlarini 30%ga oshirilishiga majbur qilgan.

❖ Jarohatlarning kamayishi. Logistik yondashuv o‘z ichiga mehnat xavfsizligi tizimini ham kiritadi.

## **5-MAVZU. XARID LOGISTIKASI**

**Reja:**

1. Xarid logistikasining mohiyati va vazifalari.
2. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ta’minot funksiyalarini amalga oshirish.
3. Xarid logistikasida «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» masalasi.
4. Etkazib beruvchini tanlash masalasi
5. Xarid logistikasida «aniq muddatga» yetkazish tizimi
6. Tez amal qilish uslubi

### **5.1. Xarid logistikasining mohiyati va vazifalari.**

Xarid logistikasi – bu, korxonani moddiy resurslar bilan ta’minlash jarayonida, moddiy oqimlarni boshqarishdir.

Mikrologistik tizimning katta ahamiyatga ega unsurlaridan biri bu xarid tizimchadir, u moddiy oqimni logistik tizimga kirib borishini tashkil etadi. Bu bosqichda moddiy oqimlarni boshqarish ma’lum o‘ziga xos xususiyatlarga ega, aynan shu holat xarid logistikasini ayrim bob sifatida o‘rganilishiga sabab bo‘ladi.

Moddiy oqimlarni qayta ishlovchi har bir korxona, jumladan qishloq xo‘jalik korxonalari ham, o‘z tarkibida, mehnat buyumlarini (urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i moylash materiallari va b.) sotib olishni, yetkazishni va vaqtinchalik saqlashni amalga oshiruvchi bo‘limga egalar. Bu bo‘lim faoliyatini uchta pog‘onada ko‘rib chiqishimiz mumkin, chunki bu bo‘lim bir vaqtning o‘zida;

- ❖ korxona kiruvchi makrologistik tizim maqsadlarini aloqasini va amalga oshishini ta’minlovchi unsuri;
- ❖ mikrologistik tizim unsuri, ya’ni korxona maqsadlarini ro‘yobga chiqishini ta’minlovchi korxona bo‘limlaridan biri;
- ❖ o‘z unsurlari, tuzilmasi va maqsadlariga ega mustaqil tizim ham bo‘lishi mumkin.

Har bir belgilangan pog‘onada ta’minot bo‘limi faoliyatining maqsadlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Makrologistik tizim unsuri sifatida, ta’minot bo‘limi mahsulot yetkazib beruvchilar bilan, tovarlarni yetkazishga doir texnik-texnologik, iqtisodiy va uslubiy (metodologik) muammolar bo‘yicha kelishib, xo‘jalik aloqalarini o‘rnatadi. Ta’minot bo‘limi yetkazib beruvchining savdo bo‘limlari va transport korxonalari bilan aloqada bo‘lib, korxonani makrologistik tizimga kirishini ta’minlaydi. Logistika g‘oyasi – barcha ishtirokchilar o‘zaro kelishgan holda faoliyat ko‘rsatishidan qo‘sishimcha daromad olish uchun, ta’minot bo‘limi xodimlari o‘z korxonasi maqsadlarini ro‘yobga chiqishini ta’minlashda ushbu korxonani alohida ob’ekt tarzida emas, balki butun bir logistik tizimning bo‘g‘ini sifatida ish ko‘rishlari lozim. Ya’ni, ta’minot bo‘limi, o‘z korxonasiga ishslash bilan birga, butun makrologistik tizim faoliyatining samaradorligi oshishini ham nazarda tutishi lozim. Bunday yondashuvda o‘z korxonasiga butun makrologistik tizim unsuri sifatida qaraladi: tizim ahvoli yaxshilansa – uning bo‘g‘ini bo‘lmish korxonaning ahvoli ham yaxshilanadi. Masalan qishloq xo‘jaligida ham, agarda har bir pudratchi o‘z manfaatini ko‘zlash bilan birga boshqa pudratchilarga ziyon yetkazmaslik, iloji bo‘lsa yordam berishni ham o‘ylasa, unda butun xo‘jalikning ishi ham a’lo darajada bo‘ladi.

Etkazib beruvchilar bilan logistik integratsiya iqtisodiy, texnik, texnologik va uslubiy xarakterdagi tadbirlar majmui hisobiga erishiladi. Integratsiya, ishonchli hamkorlik munosabatlariga, agarda daromad bo‘lmasa ham hamkorga qo‘l uzatishga, asoslangan bo‘lishi kerak. «Menga baribir...» falsafasini ilgari suruvchilar, hozirgi tadbirkorlar dunyosida o‘z o‘rnini topa olmaydilar.

Logistikada yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar quyidagi tamoyillarga asoslangan bo‘lishi kerak.

1. Etkazib beruvchilar bilan xuddi mijozlar bilan bo‘lgandek munosabatda bo‘lish.
2. Maqsadlar birligini amalda namoyon qilishni unutmaslik.
3. Etkazib beruvchini o‘z maqsadlari bilan tanishtirish va uni ishidan ham xabardor bo‘lish.
4. Etkazib beruvchida muammolar paydo bo‘lsa unga yordam berishga tayyor turish.
5. Olgan majburiyatlariga amal qilish.
6. Ish amaliyotida yetkazib beruvchi maqsadlarini ham hisobga olish.

Ta'minot bo'limi, yangi mahsulotni ishlab chiqish yo'llarini izlash bosqichidan boshlab, korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlash masalasini yechishga kirishadi. Logistik tashkil etilgan tizimlarda esa, bu bosqichda yetkazib beruvchi ham ishtirok etishi mumkin.

1. Ta'minot bo'limi, uni tashkil etgan korxonaning unsuri bo'lishi bilan birga, *ta'minot – ishlab chiqarish - sotish* zanjiridagi moddiy oqimni o'tib ketishini ta'minlovchi makrologistik tizimga ham mos tarzda kirib borishi lozim. Ta'minot bo'limining ishlab chiqarish va sotish bo'limlari bilan, moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha, faoliyatlarini yuqori darajada o'zaro kelishilgan bo'lishini ta'minlash, butun korxonani logistik tashkil etishning vazifasidir. Zamonaviy ishlab chiqarish va moddiy-texnik ta'minot tizimlari, korxona miqyosidagi ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bo'g'lnlari rejalarining o'zaro kelishilgan bo'lishi va ularga operativ tarzda o'zgartirishlar kiritilishi imkoniyatini ta'minlaydilar. Bunda real vaqtdagi doimiy o'zgarishlar ham hisobga olinadi.

*Ta'minot - ishlab chiqarish - sotish* zamonaviy marketing kontseptsiyasi asosida barpo etilishi lozim, ya'ni birinchi navbatda sotish strategiyasi, keyinchalik undan kelib chiqqan xolda ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasi va undan keyingina ishlab chiqarishni ta'minlash strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki marketing bu masalani faqatgina kontseptual nuqtai nazardan belgilaydi. Sotish bozorlarini har tomonlama tekshirishga mo'ljallangan marketing ilmiy qurollari, mos talablarga bog'liq bo'lgan, yetkazib beruvchilarni texnik-texnologik kelishishi masalalarini yechishga imkon beradigan uslublarni ishlab chiqmagan. Shuningdek marketing, xom ashyoning birlamchi ishlab chiqaruvchisidan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan materiallar harakati jarayonidagi barcha ishtirokchilarning tizimli tashkil etish uslublarini ham taklif etmaydi. Bu nuqtai nazardan logistika ishbilarmonlik faoliyatiga marketing yondashuvini rivojlantiradi, marketing kontseptsiyasini amalga oshirish imkonini yaratuvchi usullarni ishlab chiqadi, kontseptsianing o'zini ham sezilarli darajada kengaytiradi va to'ldiradi.

2. Ta'minot bo'limining samarali faoliyat yuritishi, korxona miqyosida ham, makrologistika miqyosida ham sanab o'tilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish, bularning barchasi ta'minot bo'limini tizimli tashkil etishiga bog'liqdir.

### Xarid logistikasining vazifalari

Qishloq xo'jalik korxonalarini mehnat buyumlari bilan ta'minlash jarayonidagi asosiy savollar an'anaviy va ta'minot logikasi bilan belgilanadi:

- ❖ nima xarid qilish;
- ❖ qancha xarid qilish;
- ❖ kimdan xarid qilish;
- ❖ qaysi shartlarda xarid qilish.

Bu an'anaviy ro'yxatni logistika o'z savollari bilan to'ldiradi:

- ❖ qanday qilib xaridlarni ishlab chiqarish va sotish bilan tizimli bog'lash;
- ❖ qanday qilib korxona faoliyatini yetkazib beruvchilar bilan tizimli bog'lash;

Aynan ushbu savollar xarid logistikasining amaliy sohasidagi vazifalarini va qilinadigan ishlarini belgilaydi.

Xarid logistikasiga doir vazifalar va ishlarni ko'rib chiqamiz.

1. *Moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.*

Moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash jarayonida qishloq xo'jaligi korxonasi ichidagi, moddiy resurslar iste'molchilarini aniqlash zarur. Keyinchalik moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj hisoblanadi. Bunda mahsulot yetkazishning og'irligi, o'lchami, va boshqa parametrlariga, hamda servisiga talablar o'r ganiladi. Bundan keyin nomenklatura va (yoki) nomenklatura guruhlarining har bir pozitsiyasiga reja-grafiklar va maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Iste'mol qilinadigan moddiy resurslar uchun «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» muammosi ko'rib chiqilishi mumkin.

2. *Xarid bozorini tekshirish.*

Xarid bozorini tekshirish, yetkazib beruvchilar bozorining hatti-harakatlari tahlilidan boshlanadi. Bunda, bevosita bozorlar, o'rmini bosadigan bozorlar va yangi bozorlar bo'yicha barcha mumkin bo'lgan yetkazib beruvchilarni aniqlash lozim. Keyinchalik, sotib olinayotgan moddiy resurslarning barcha mumkin bo'lgan manbalarini boshlang'ich baholash, hamda muayyan bozorga chiqish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni tahlil qilish lozim.

3. *Etkazib beruvchilarni tanlash.*

Etkazib beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashni, ularning ma'lumotlari bankini yaratishni, optimal yetkazib beruvchini izlashni, tanlangan yetkazib beruvchi bilan olib borilgan ish natijalarini baholashni o'z ichiga oladi.

4. *Xaridlarni amalga oshirish.*

Ushbu funktsiyani ro'yogga chiqishi muzokaralar olib borishdan boshlanadi va shartnoma imzolanishi bilan yakunlanishi lozim. SHartnoma munosabatlari xo'jalik aloqalarini shakllantiradi, ularning ratsionallashuvi esa logistikaning vazifasidir. Xaridlarni amalga oshirishni, xarid qilish uslubini tanlashni, yetkazish va pul to'lash shartlarini ishlab chiqishni, hamda moddiy resurslarni tashishni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bunda yetkazishlar grafigi tuziladi, ekspeditsiya ishlari amalga oshiriladi, va, lozim bo'lsa, bojxona ishlari ham tashkil etilishi mumkin. Xaridlar, qabul qilish nazoratini tashkil etish bilan nihoyasiga yetadi.

5. *Etkazib berishlarning nazorati.*

Etkazib berishlarning nazoratini eng muhim vazifalaridan biri bu sifat nazoratidir, ya'ni sifatli va brak mahsulotlar sonini hisoblab borish. Shuningdek yetkazib berishlar nazoratiga yetkazishlar muddatini kuzatish (erta yoki kech yetkazishlarni soni), buyurtmani qabul qilinishi muddatlarini, tashish muddatlarini kuzatish, hamda moddiy resurslar zaxiralari holatining nazorati ham, kiradi.

## *6. Xaridlar byudjetini tayyorlash.*

Xarid qilish faoliyatining muhim qismi bu iqtisodiy hisob-kitoblardir, chunki har bir ish bo‘yicha xarajatlar qancha bo‘lishini aniq bilish lozim. Bunda xarajatlarning quyidagi turlari aniqlanadi:

- ❖ moddiy resurslarning asosiy turlari bo‘yicha buyurtmalarni bajarish xarajatlari;
- ❖ tashish, ekspeditsiya va sug‘urta xarajatlari;
- ❖ yukni qayta ishslash xarajatlari;
- ❖ etkazib berish shartnomasi shartlari bajarilishini nazoratiga bo‘lgan xarajatlar;
- ❖ moddiy resurslarni qabul qilish va tekshirishga bo‘lgan xarajatlar;
- ❖ potentsial yetkazib beruvchilar xaqida ma‘lumot izlashga bo‘lgan xarajatlar;

Iqtisodiy hisob-kitoblar qilish doirasidagi xarid logistikasi vazifalariga, moddiy resurslar tanqisligi tufayli yuzaga kelgan chegirmalarni ham kiritish lozim.

## *7. Xaridlarning ishlab chiqarish, sotish, omborga qo‘yish va tashish, hamda yetkazib beruvchilar bilan tizimli o‘zaro aloqasi.*

Xarid logistikasining ushbu o‘ziga xos masalasi, yuqorida qayd etilganidek, xaridlarning ishlab chiqarish va sotish bilan tizimli o‘zaro aloqalarini tashkil etish vositasi orqali, hamda rejalashtirish, iqtisodiyot, texnika va texnologiya sohalarida yetkazib beruvchilar bilan aloqalar o‘rnatish orqali yechiladi.


### **5.2 Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ta’minot funktsiyalarini amalga oshirish**

Listika kontseptsiyasiga muvofiq, korxonani mehnat buyumlari bilan ta’minlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarishga tizimli yondashishni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar ham bo‘lishi lozim.

Xarid logistikasining oldingi paragrafdagi vazifalarini bajarishning, O‘zbekiston sharoitida murakkablashuviga yaqin o‘tmishimiz sabab. Ilgari korxonalar oldida bunday vazifalar umuman turmasdi, chunki resurslar qayta taqsimlanardi.


Ta’minotni tashkil etishning ikki variantini ko‘rib chiqaylik. Ular, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonani xom ashyo bilan ta’minlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarishga tizimli yondashish imkoniyatlari borasida bir-biridan printsipial tarzda farqlanadilar.

5.1-rasmda, tepada qayd etilgan masalalar har xil funktsional bo‘limlar o‘rtasida taqsimlangan korxonaning tashkiliy tuzilmasi taqdim etilgan. Bunda ko‘rinib turibdiki, nima sotib olish va qancha sotib olish masalasi ishlab chiqarish bo‘yicha masala rahbariyat tomonidan yechiladi.



5.1-Rasm. Ta'minot funktsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq ishlar va masalalar

5.2-rasmda keltirilgan variantda, korxona ta'minoti bo'yicha barcha funktsiyalarni bir qo'lda, masalan moddiy-texnikaviy ta'minot bo'limiida, mujassamlanishi ko'zda tutiladi.



5.2-Rasm. Ta'minot funktsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq ishlar va masalalar.

Xarid qilingan mehnat buyumlarini omborga qo'yish ishlari ham shu yerda bajariladi.

Ta'minot ishlari ham shu yerda bajariladi, ya'ni shartnomalar tuziladi, ularning bajarilishi nazorat qilinadi, sotib olingan mahsulotlarni yetkazish tashkil etiladi. Natijada ta'minot jarayonidagi moddiy oqimlarni boshqarish funktsiyasi har xil bo'limlar orasida taqsimlangan va uni samarali amalga oshirilishi qiyinlashgan vaziyatga duch kelamiz.

Bunday tuzilma, mehnat buyumlarini xarid qilish bosqichida moddiy oqimlarni logistik optimallashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

### **5.3. Xarid logistikasida «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» masalasi**

Xarid logistikasida «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» kabi masalaga ikki xil alternativ (muqobil) variantdan birini tanlash kiradi:

- bevosita ishlab chiqaruvchidan tovar resurslarini sotib olib, mustaqil ravishda assortimentni shakllantirish;
- yirik partiyalarini maydalashtirish, keng assortimentni shakllantirish va iste'molchilarga butun holda yetkazish bilan shug'ullanadigan vositachilardan tovar resurslarini sotib olish;

Bevosita ishlab chiqaruvchidan ko'ra vositachidan sotib olish qulay bo'lgan hollarning sabablarini ko'rib chiqamiz.

1. Tovar resurslarini vositachidan xarid qilib, korxona, odatda, keng assortimentni kichik partiyalar bilan olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, zaxiralarga, omborlarga bo'lgan ehtiyoj kamayadi, assortimentni ayrim turlarini ishlab chiqaruvchilar bilan ishlar hajmi ham kamayadi.?

2. Mahsulotning vositachidagi narxi, ishlab chiqaruvchinikidan past bo'lishi mumkin. Faraz qilaylik, ishlab chiqaruvchi quyidagi narxlarda o'z mahsulotini sotadi:

- A) kichik hajmdagi xaridorlar uchun – 10 so'm (bir birlik mahsulotga)
- B) yirik hajmdagi xaridorlar uchun – 8 so'm (bir birlik mahsulotga)

Vositachi, yirik partiyani 8 so'mdan sotib oladi, va uni mayda xaridorlarga, ustiga 12% qo'shib, 8so'm 96 tiyindan sotadi. Vositachi bu ishni amalga oshirishi mumkin, chunki u aynan yirik partiyalarini maydalashtirish bilan shug'ullanadi. Ishlab chiqaruvchiga esa bu ish qimmatga tushadi, va u 10 so'mdan sotishga majbur.

3. Mahsulot ishlab chiqaruvchi, vositachidan ko'ra uzoqroqda joylashgan bo'lishi mumkin. Bu degani transport xarajatlari ham qo'shilib, narx orasidagi farq yanada oshib ketadi.

### **5.4. Yetkazib beruvchini tanlash masalasi**

«Ishlab chiqarish yoki xarid qilish» masalasi yechilgandan, va korxona qaysi xom ashyo va qaysi mahsulotlarni xarid qilish zarur ekanligi belgilab olganidan so'ng, yetkazib beruvchini tanlash masalasini hal qilishga kirishiladi. Bu ishning asosiy bosqichlarini sanab o'tamiz va tavsiflaymiz.

### *1. Potentsial yetkazib beruvchilarni izlash.*

Bunda quyidagi uslublar qo'llanilishi mumkin:

- tender e'lon qilinishi;
- reklama ma'lumotlarini: firma kataloglarini; ommaviy axborot vositalaridagi e'lonlarni va boshqalarni, o'r ganib chiqish;
- ko'rgazma va yarmarkalarga tashrif buyurish;
- potentsial yetkazib beruvchilar bilan aloqada bo'lish.

Sanab o'tilgan tadbirlar natijasida potentsial yetkazib beruvchilar ro'yxati shakllanadi, va u doimo yangilanib turiladi.

### *2. Potentsial yetkazib beruvchilarning tahlili.*

Potentsial yetkazib beruvchilarning tuzilgan ro'yxati, talablarga mos keladigan yetkazib beruvchilarni tanlash imkoniyatini beradigan maxsus mezonlar asosida tahlil qilinadi. Bunday mezonlar soni bir necha o'ntagacha bo'lishi mumkin. Ammo ko'pgina hollarda yetkazilayotgan mahsulotning narxi va sifati bilan, hamda yetkazib beruvchining ishonchliligi (bunda yetkazib beruvchining mahsulotni yetkazish muddati, assortimenti, butligi, sifati va miqdori bo'yicha olgan majburiyatlarini bajarish tushuniladi) bilan cheklanadilar.

Etkazib beruvchini tanlashda e'tibor berilayotgan boshqa mezonlarga quyidagilar kiradi:

- etkazib beruvchini iste'molchidan yiroqda joylashishi;
- joriy va tezkor buyurtmalarni bajarish muddatlari;
- zaxira quvvatlari mavjudligi;
- etkazib beruvchida sifat boshqaruvini tashkil etilishi;
- etkazilayotgan uskunalarining butun xizmat muddati davomida ehtiyoj qismlarini yetkazib berish qobiliyati;
- etkazib beruvchining moliyaviy ahvoli va boshqalar.

Potentsial yetkazib beruvchilarni tahlili natijasida aniq yetkazib beruvchilar ro'yxati shakllanadi, va ular bilan shartnoma munosabatlarini o'rnatish bo'yicha ish olib boriladi.

### *3. Etkazib beruvchilar bilan olib borilgan ish natijalarini baholash.*

Imzolangan shartnomalar bo'yicha ish natijalari yetkazib beruvchini tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun maxsus baholar shkalasi ishlab chiqiladi, u yetkazib beruvchini reytingini hisoblash imkonini beradi.

Reytingni hisoblashdan oldin xarid qilinayotgan mehnat buyumlarini farqlanishini (differentsiatsiya) amalga oshirish lozim.

Xarid qilinayotgan tovarlar, xom ashyo va butlovchi mahsulotlar, odatda, ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan bir xil qimmatga ega emas. Masalan, urug'ning yo'qligi qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayonini to'xtab qolishiga olib keladi (xuddi savdoda ayrim tovarlarning

tanqisligi – savdo korxonasi daromadining kamayishiga olib kelgani kabi), xuddi shunday o‘g‘it, yoqilg‘i va ehtiyyot qismlarning o‘z vaqtida yetkazilmasligi ham yig‘im-terim mavsumini ancha orqaga surishi yoki yetishtirilayotgan mahsulotni umuman nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Mehnat buyumlarining ushbu kategoriyasida yetkazib beruvchi tanlashning asosiy mezoni yetkazishlarning ishonchliligi hisoblanadi.

Etkazib beruvchining reytingini hisoblashga misol keltiramiz (4.1-jadval). Faraz qilaylik, korxona A mahsulotni xarid qilishi lozim, va uni tanqisligiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Demak, yetkazib beruvchini tanlashda birinchi navbatda yetkazishning ishonchliligi mezoni e’tiborga olinadi. Boshqa mezonlarning ahamiyati esa, ta’minot bo‘limi xodimlari tomonidan ekspert yo‘li bilan aniqlanadi (5.1-jadval).

Agarda xarid qilinayotgan mehnat buyumlari ishlab chiqarish yoki savdo jarayoni nuqtai-nazaridan ahamiyatsiz bo‘lsa, u holda yetkazib beruvchilarни tanlashda asosiy mezon bo‘lib sotib olish va tashish xarajatlari xizmat qiladi.

Reytingni jami ifodasi, mezon bahosi va ahamiyatlilik darajasini ko‘paytmalari summasidan kelib chiqadi. Har bir yetkazib beruvchi uchun reyting hisoblanib eng yaxshi yetkazib beruvchi aniqlanadi.

Noma’lum yetkazib beruvchilar bilan xo‘jalik aloqalari o‘rnatib, korxona ma’lum tavakkalchilikga yo‘l qo‘yadi. Agarda yetkazib beruvchi o‘z majburiyatlarini bajara olmasa, iste’molchi ishlab chiqarishida uzilishlar yoki moliyaviy yo‘qotishlar bo‘lishi mumkin. Ko‘rilgan zararlarni qoplash esa, odatda, ma’lum qiyinchiliklarga duch keladi.

Shunday ekan korxonalar noma’qul bo‘lgan yetkazib beruvchilarni aniqlashning turli usullarini izlaydilar, masalan chet el firmalari yetkazib beruvchilar to‘g‘risida ma’lumot yig‘uvchi maxsus firmalarga murojaat etadilar, ular esa norasmiy manbalardan ham foydalanadilar.

### **5.1-jadval.**

#### **Etkazib beruvchining reytingini hisoblash**

Etkazib beruvchini tanlashning mezoni	Mezonning ahamiyatlilik darajasi	Berilgan yetkazib beruvchida mezonni baholash (10 ballik shkala bo‘yicha)	Mezon bahosini uning axamiyatatlilik darajasi-ga ko‘paytmasi
1. Yetkazib berishning ishonchliligi	0,30	7	2,1
2. Narx	0,25	6	1,5
3. Mahsulot sifati	0,15	8	1,2
4. To‘lov shartlari	0,15	4	0,6

5. Rejadan tashqari yetkazishlar imkonii	0,10	7	0,7
6. Yetkazib beruvchining moliyaviy ahvoli	0,05	4	0,2
Jami:	1,00		6,3

Bu ma'lumotlar yetkazib beruvchining moliyaviy ahvoli to'g'risida quyidagi axborotlarni berishlari mumkin:

- etkazib beruvchi likvidligining qarz majburiyatlariga nisbati to'g'risida;
- sotuvar hajmini debitor qarzlarga nisbati to'g'risida;
- sof foydaning sotuvar hajmiga nisbati to'g'risida;
- naqd pul harakati to'g'risida;
- zaxiralar aylanmasi va boshqalar to'g'risida;

O'zbekistondagi korxonalar, hozirgi kunda, yetkazib beruvchi tanlashda asosan o'z axborotlaridan foydalanadilar. Ko'p yetkazib beruvchilar bilan ish olib boradigan korxonada yaxshi ma'lum bo'lgan, obro' qozongan yetkazib beruvchilar ro'yxati mavjud. Bunday yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalar tezda imzolanib ishlay boshlaydi. Agarda notanish yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuziladigan bo'lsa, u holda shartnoma tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlovchi chora-tadbirlar bilan, mukammallashadi. +ishloq xo'jaligiga to'xtaladigan bo'lsak hozirgi kunda bu ish umuman yo'lga qo'yilmagan, va barcha xo'jaliklar mavjud yetkazib beruvchidan (u odatda bitta) foydalanadilar xolos.

Etkazib beruvchi tanlash bo'yicha misol keltiraylik.

Tasavvur qilamiz, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, ikkita xo'jalik xo'jaligi mavjud (A va V). Ularning mahsulotlarini sifati ham bir xilda. Har ikkala xo'jalik ham yaxshi tanish va ishonchli. A xo'jalikning kamchiligi shuki u iste'molchidan Vga nisbatan 200km yiroqroqda joylashgan (A xo'jalikgacha 500km, V xo'jalikgacha 300km). Ammo, A xo'jalik o'z mahsulotini avtomobillar yordamida ortish-tushirish mumkin bo'lgan qadoqlarda jo'natadi. V xo'jalikning mahsulotini esa qo'lda tushirish lozim. 500 km-ga yukni tashish uchun har kilometriga 50 so'm sarflanadi. 300 km-ga yukni tashish esa qimmatroq bo'lib har kilometriga 70 so'mga teng.

A xo'jalikning mahsulotini tushirish vaqt - 30 daqiqa, V xo'jalikning mahsulotini tushirish vaqt - 10 soat. Har bir ishchining tushirish uchun stavkasi soatiga 600 so'mni tashkil etadi.

Agarda faqat tashish xarajatlarini e'tiborga oladigan bo'lsak V xo'jalikni tanlash lozim. Ammo ortish-tushirish ishlarini ham hisoblab A xo'jalikni tanlash ma'qul ekanligini ko'ramiz. (5.2-jadval).

## 5.2-jadval.

### Mahsulotni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni hisoblash.

Ko‘rsatkich nomi	A xo‘jalik	V xo‘jalik
Transport xarajatlari	$50\text{so‘m}/\text{km} \times 500\text{km} = 25000\text{ so‘m}$	$70\text{so‘m}/\text{km} \times 300\text{km} = 21000\text{ so‘m}$
Tushirish xarajatlari	$600\text{so‘m}/\text{soat} \times 0,5\text{soat} = 300\text{ so‘m}$	$600\text{so‘m}/\text{soat} \times 10\text{soat} = 6000\text{ so‘m}$
Jami xarajatlar:	25300 so‘m	27000 so‘m


Shunday qilib, barcha shart-sharoitlar bir xil bo‘lganda V xo‘jalikdan ko‘ra A xo‘jalikdan xarid qilish ma’qul, chunki bu har bir yetkazib berishda 1700 so‘m tejash imkonini beradi.


### 5.5. Xarid logistikasida «aniq muddatga» yetkazish tizimi

«Aniq muddatga» yetkazish tizimi, logistik tizimning biror-bir bo‘g‘inida qandaydir mahsulotga o‘tkir ehtiyoj paydo bo‘lmasa unga hech qanday mahsulot kirib bormasligiga asoslangan. Masalan: o‘g‘itlarni aynan sepiladigan vaqtiga yetkazish yoki yem-xashakni aynan chorva iste’mol qiladigan vaqtga yetkazish.

Bu tizimning mohiyati shundaki, uning har bir bo‘g‘inidagi talab zanjirning so‘ngi bo‘g‘ini talabi bilan aniqlanadi. Agarda zanjir oxirida talab paydo bo‘lmasa mahsulot ishlab chiqarilmaydi va yig‘ilmaydi. Bundagi mahsulot harakati xuddi daryoga o‘xshaydi. Talab daryoning pastki nuqtasidan oqimga qarshi uzatiladi, unga javoban moddiy oqim qaytariladi. Talab kamaysa oqim tezligi pasayadi, va aksincha. (4.3-rasm)

Bu tizimga qarama-qarshi bo‘lib talabni kutgan holda mahsulotlarni omborlarda yig‘ish tizimi chiqadi. (6.3a-rasm).






5.3-Rasm. Bozor talabini qondirishning ikki varianti.

- a) «aniq muddatga» tizimi bo'yicha yetkazish sxemasi
- b) moddiy resurslar bilan ta'minlashning oddiy sxemasi

Ushbu tizimning odatdagи ta'minotdan printsipial farqi 4.4-rasmida ko'rsatilgan.



5.4-Rasm. Oddiy ta'minot bilan «aniq muddatga» tizimi bo'yicha ta'minot sxemalarining taqqoslama tavsifi.

Shunday qilib, «aniq muddatga» yetkazish tizimi – bu ehtiyyot qismlar yoki tovarlarni, ishlab chiqarish uchun ishlataladigan joyga yoki savdo korxonasida sotish vaqtiga, talab qilingan miqdorda va kerak bo'lgan vaqtida, ishlab chiqarish va yetkazib berish tizimidir.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, iste’molchida sifat nazorati yo‘q. Demak, bu ishni yetkazib beruvchi o‘z zimmasiga olishi lozim. Bunday sharoitlarda yetkaziladigan partiyada sifatsiz mahsulot bo‘lishi mumkin emas.

Etkazib beruvchi va xaridor orasidagi, «aniq muddatga» tizimini qo‘llash imkonini beruvchi munosabatlar uzoq muddatli xo‘jalik aloqalari va shartnomalar asosida barpo etiladi. Shundagina barcha masalalar bo‘yicha ikkala tomonni ham qoniqtiradigan yechimlarni topish mumkin.

«Aniq muddatga» tizimi yetkazib beruvchilarni, oddiy ta’midot sharoitidagiga nisbatan, kamroq zaxira bilan ishlashini ko‘zda tutadi. Demak, logistik jarayonning barcha ishtirokchilariga qo‘yilgan talab yanada kuchayadi, shu jumladan transportchilarga ham. Shuning uchun ham oddiy sharoitda tashuvchi tanlayotganda asosiy e’tibor tashish narxiga qaratilsa, «Aniq muddatga» tizimida tashuvchini belgilangan muddatga yetkazib bera olish kafolatiga e’tibor beriladi.

«Aniq muddatga» tizimini qo‘llash ishlab chiqarish va tovar zaxiralarini keskin kamaytirishga imkon yaratib, ombor quvvatlari va xodimlariga bo‘lgan talabni kamaytiradi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishda bu tizim quyidagi sxemalarning biri bo‘yicha amalga oshadi:

- ❖ CHakana savdo korxonasi ombori – do‘kon
- ❖ Ulgurji savdo korxonasi ombori – do‘kon
- ❖ Xo‘jalik xo‘jaligi – do‘kon

«Aniq muddatga» tizimini qo‘llash juda ham mashaqqatli ishdir. Uni qo‘llashdan oldin, «Aniq muddatga» tizimi uslubi bo‘yicha ishlash eng katta samara berishi mumkin bo‘lgan ahamiyatli pozitsiyalarni aniqlash maqsadida, yetkazib berilayotgan tovar yoki ishlab chiqarish resurslari assortimentini differentsiatsiyalash kerak. Differentsiatsiya quroli sifatida turli tahlil usullarini qo‘llash mumkin.

«Aniq muddatga» tizimini qo‘llashdan olinadigan asosiy samarani quyidagicha ifodalasak bo‘ladi:

- etkazib berishlarning texnologik zanjiridagi bir qator operatsiyalar chiqarib tashlanadi;
- joriy zaxiralar kamayadi, chunki mehnat buyumlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tsexga yoki do‘konga borib tushadi;
- yaxshi ma’lum bo‘lgan yetkazib beruvchilar va tashuvchilar bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatalishi hisobiga yetkazib berishlarning ishonchliligi oshadi, bu esa sug‘urta xarajatlari kamayishiga olib keladi;
- yaqin masofada joylashgan yoki omborlari mavjud yetkazib beruvchilar bilan ishslash natijasida yo‘l xarajatlari ham kamayadi;
- mahsuloti sertifikatlangan yetkazib beruvchilar bilan ishslash natijasida, mahsulot sifati ham oshadi;

- «aniq muddatga» tizimini qo'llashdan ikki tomonlama manfaat ko'zlanadi, bu esa yetkazishlar ishonchlilining oshishiga olib keladi.

«Aniq muddatga» tizimini qo'llash oldida turgan ayrim muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim.

**Iste'molchining sifatga bo'lgan talablari**, yetkazib beruvchi xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

**Iste'molchining yiroqligi**, kichik partiyalarini tez-tez tashib turilishi yetkazib beruvchi uchun foydasiz bo'lishi mumkin.

**Etkazish muddatlari jadvali**, «aniq muddatga» tizimida mahsulotlar ularga ehtiyoj paydo bo'lgandagina olib kelinadi, yetkazib beruvchi uchun esa yagona bir jadval bo'yicha (belgilangan vaqt va hajmda) yetkazish qulayroq.

**Etkazishlar hajmi va davriyiliqi**. Yetkazib beruvchi va iste'molchi uchun ushbu ikkita parametr bir-biridan farqli o'lchamlarda foydali bo'lishi mumkin.

Mavzu yakunida «aniq muddatga» tizimini loyihalash va kiritish jarayonida yechilishi lozim bo'lgan ayrim masalalarni sanab o'tamiz.

1. Etkazib beruvchilar bilan munosabatlar sohasida:

- yaqin joylashgan yetkazib beruvchilarni izlash;
- uzoq muddatli xo'jalik aloqalariga o'tish;
- tekshirilgan yetkazib beruvchilar bilan shartnoma munosabatlarini uzaytirish (prolongatsiya);
- etkazib beruvchilarni «aniq muddatga» tizimini qo'llashga qiziqtirish va ularning yetkazib beruvchilariga ham bu tizimni yoyish;
- uzoq muddatli rejalashtirish va xaridlar kafolati hisobiga yetkazib beruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- yiroqdagi yetkazib beruvchilarni uyuştirish (toplash);
- xarid narxlarini har ikkala tomonga ham qulay darajaga olib kelish;
- qog'ozsiz axborot almashinuvini tashkil etish;
- etkazib beruvchi kuchi va vositalari yordamida markazlashgan yetkazishni tashkil etish;
- moddiy oqimlar bilan ishslashda texnologik kartalardan foydalanish.

2. Etkazishlar hajmi bo'yicha:

- ishlab chiqarish tezligi bilan kelishilgan xaridlar tezligini quvvatlash (savdo korxonasi uchun sotish tezligi);
- kichik hajmlardagi tez-tez yetkazishlarni ta'minlash;
- shartnoma umumiy hajmi o'zgarmasdan, har bir yetkazish hajmining o'zgarishi bilan ishslash;

- etkazib beruvchilar talab qilinayotgan miqdorda mahsulotni qadoqlashga tayyorgarligi uchun ularni mukofotlash.

3. Etkazilayotgan mahsulot sifati sohasida:


- sifat uchun javobgar bo‘lgan ishlab chiqaruvchi va iste’molchi xodimlarining o‘zaro aloqada bo‘lishi.

4. Ortish sohasida:

- yuklar kelishini aniq jadvalini tuzish va unga rioya qilish;
- doimiy, tekshirilgan tashuvchilardan foydalanish;
- omborga qo‘yish va tashishni o‘z ichiga oladigan majmuaviy logistik xizmat ko‘rsatishga uzoq muddatli shartnomalar tuzish.

### 5.6. Tez amal qilish uslubi

Tez amal qilish uslubi «aniq muddatga» tizimining rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan. Bu uslub – chakana savdo korxonalariga va taqsimot markazlariga mahsulot yetkazib berishlarni rejalashtirish va tartibga solish uslublarini o‘z ichiga oladi. Uning asosida esa, savdo korxonasi, uning yetkazib beruvchisi va transport o‘rtasidagi logistik o‘zaro aloqa yotadi. Uslub mazmuni uning nomida aks ettirilgan: bozorda paydo bo‘lgan talabga qarab logistik tizimning tez amal qilishi (3.5-rasm).



5.5-Rasm. Bozor talabiga qarab amal qiluvchi logistik tizim

Agarda yetkazib beruvchi ishlab chiqarish korxonasi bo‘lsa, u operativ tarzda o‘z ishlab chiqarishini, yangi mahsulot chiqarish maqsadida, qaytadan tashkil etishi lozim. Yetkazib beruvchi bozordagi real talab xaqidagi axborotni tezda olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqaruvchi korxonadan savdo korxonasiga biror-bir mahsulot, o‘scha mahsulotga real ehtiyoj paydo bo‘lishi extimoli yuqori bo‘lgandagina yetkazib beriladi. Buyurtmani topshirish va mahsulotni yetkazish hech qanday utilishsiz amalga oshishi kerak. Masalan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonani oladigan bo‘lsak, u o‘z ishlab chiqarishini tezda bir mahsulotdan ikkinchi mahsulotga o‘tkaza olsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tez amal qilish uslubi uchta texnologiya va biznesning yangi kontseptsiyasini qo'llashga asoslangan:

Birinchi texnologiya: mahsulot shtrix kodlarini avtomatik ravishda aniqlash. Xozirgi vaqtida nima sotilayotgani to‘g‘risida aniq ma’lumotni tez yig‘ishga imkon beradi.

Ikkinci texnologiya: ma’lumotlarning elektron almashinushi. Bu nafaqat internet, balki korxonalariga hujjatlangan ma’lumotlar bilan operativ almashish imkonini beruvchi boshqa standartlar majmuasi hamdir.

Uchinchi texnologiya: yuk birliklarini (masalan, tashish konteynerlarini) avtomatik aniqlanishi.

Biznesning yangi kontseptsiysi, bu tovar harakatida ishtirok etuvchi tashkilotlar orasidagi hamkorlik tuyg‘usidir. Ishtirokchilarning o‘zaro kelishuvi nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Masalan, 80chi yillarning oxirida A+SHda 90% tovarlarda shtrix kod mavjud edi. Ammo tez amal qilish texnologiyasi bilan atigi bir necha yuzta hamkorlar o‘zaro bog‘langan edilar xolos. Joriy etishning sekinligiga texnologiya yangiliqi emas, balki ishtirokchilar (chakana savdogarlar, distribuyutorlar, ishlab chiqaruvchilar) orasidagi bir-biriga bo‘lgan ishonchsizlik tuyg‘usi sabab. Tarixan shunday bo‘lganki har bir tashkilot ko‘proq foyda olishni, va bu ishni boshqa tashkilot foydasi hisobiga amalga oshirishni ko‘zlaydi. Ushbu raqiblik munosabatlarini yengish, texnik-texnologik masalalarni yechishdan ham murakkabroqdir.

## **6-MAVZU. TAQSIMOT LOGISTIKASI**

### **Reja:**

1. Taqsimot logistikasi tushunchasi.
2. Taqsimot logistikasining vazifalari.
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlari va qishloq xo‘jaligi korxonalarini tovarlar bilan ta’minlovchi infratuzilmalarining rivojlanishi.
4. Xizmat ko‘rsatish va tarqatishni taqsimlashni logistik tashkil etish.

### **6.1. Taqsimot logistikasi tushunchasi**

«Taqsimot» so‘zi juda keng qo‘llaniladi, uning lug‘aviy ma’nosи – biror-bir narsani kimlargadir (nimalgadir) bo‘lib berish, unda har biriga o‘ziga tegishli qismi taqdim etilishi tushuniladi.

Iqtisodiyotdagi taqsimot – bu ishlab chiqarish jarayonining bir bosqichidir, oldin moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, keyin esa taqsimlash, ya’ni yaratilgan mahsulotdagi har bir ishlab chiqaruvchining ulushini aniqlash, lozim. Bunda ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotga bo‘lgan egalik xuquqi taqsimlanadi. Mahsulotlarning o‘zi esa, masalan ombordagi sabzavotlar, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari orasida taqsimlanmaydi.


Logistikada taqsimot deganda ushbu jarayonning buyumlashgan, seziladigan bir ma’nosi tushuniladi. Egalik xuquqlari taqsimoti bilan bog‘liq qonuniyatlar ham e’tiborga olinadi, ammo ular tekshirish va optimallashtirishning asosiy predmeti hisoblanmaydi. Taqsimot logistikasida o‘rganiladigan asosiy predmet – mavjud materiallar zaxirasining jismoniy taqsimot jarayonini ratsionallashuvdir. Mahsulotni qanday qadoqlash lozim, qaysi yo‘nalish bo‘yicha jo‘natish kerak, omborlar tarmog‘i kerakmi (kerak bo‘lsa, qanday?), qanday vositachilar kerak – aynan shu masalalarni taqsimot logistikasi yechishi lozim bo‘ladi.

Logistika moddiy oqimlarning to‘liq boshqaruvini o‘rganadi va amalga oshiradi, shuning uchun ham barcha bosqichlarda taqsimot masalalarini yechish, ya’ni nimanidir kimgargadir bo‘lib berish zarur bo‘ladi:

- ❖ tovarlar xarid qilinganda yetkazib beruvchilar orasida buyurtmalar taqsimlanadi;
- ❖ yuklar korxonaga kelib tushgandan so‘ng, ular saqlash joylari bo‘yicha taqsimlanadi;
- ❖ ishlab chiqarishning har xil bo‘limlari o‘rtasida moddiy zaxiralar taqsimlanadi;
- ❖ savdo jarayonida moddiy oqimlar taqsimlanadi va hokazo.

Taqsimot logistikasi chegaralarini belgilab olish uchun, kapital ishlab chiqarish jarayonining chizmasini ko‘rib chiqamiz (7.1-rasm), ma’lumki u uchta bosqichdan iborat.

Ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish bosqichidagi moddiy oqimlar xarid logistikasining o‘rganish va boshqarish ob’ekti bo‘lsalar, ishlab chiqarish bosqichidagi moddiy oqimlar- ishlab chiqarish logistikasi ob’ekti hisoblanadi. Tayyor mahsulotlarning taqsimoti va realizatsiyasi bosqichidagi moddiy oqimlar esa - taqsimot logistikasining ob’ekti bo‘ladilar.



6.1-Rasm. Kapital ishlab chiqarish jarayoni va logistikaning funksional sohalari.

Taqsimot logistikasi bu iste’molchining talab va manfaatlariga muvofiq tayyor mahsulotni ungacha yetkazish jarayonidagi tashish, omborga qo‘yish va boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish to‘g‘risidagi bilimlar majmuidir. Shu bilan birga ushbu axborotni uzatish, saqlash va qayta ishslash ham taqsimot logistikasi doirasiga kiradi.

Taqsimot logistikasi quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- moddiy va axborot oqimlarini boshqarish jarayonini marketing maqsadlari va vazifalariga bo‘ysunishi;
- taqsimot jarayonining ishlab chiqarish va xarid jarayonlari bilan tizimli o‘zaro aloqasi (moddiy oqimlarni boshqarish nuqtai- nazaridan);
- taqsimot ichidagi barcha funktsiyalarning tizimli o‘zaro aloqasi.

Taqsimot logistikasining ta’rifi quyidagicha ifodalanadi: taqsimot logistikasi – bu xar xil ulgurji xaridorlar o‘rtasidagi, ya’ni ulgurji savdo jarayonida amalga oshiriladigan, o‘zaro aloqador funktsiyalar majmuasidir.

Chakana savdo jarayoni, odatda, logistikada tadqiqot etilmaydi. Bu jarayon samaradorligi, logistika doirasidan tashqaridagi omillarga bog‘liq, masalan iste’molchilar psixologiyasini bilishga, savdo zalini bezash mahoratiga, reklamani tashkil etishga va boshqalarga. CHakana savdo jarayonida moddiy oqimlarning ratsional tashkil etilishi albatta zarur, ammo uning ahamiyati moddiy oqim harakatining oldingi bosqichlaridagiga nisbatan ancha kam.

Shuni ham aytish lozimki yuqorida aytilganlarning barchasi butun chakana savdo jarayoniga emas, (u o‘z ichiga ulgurji xarid va chakana savdolarni oladi), balki faqatgina chakana savdoga, ya’ni iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishga, tegishli.

Taqsimot logistikasining o‘rganish ob’ekti – yetkazib beruvchidan iste’molchigacha bo‘lgan harakat bosqichidagi moddiy oqimlardir.

Moddiy oqim taqsimoti anchadan buyon faoliyatining axamiyatli tomoni bo‘lib kelmoqda edi, ammo nisbatan yaqindagina u eng muxim funktsiyalardan biri mavqeiga ega bo‘ldi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda 50-60chi yillargacha taqsimot tizimlari hech qanday boshqaruvsız rivojlanib keldi. Taqsimot kanallarini tanlash, tovarlarni qadoqlash, ularni tashish va iste’molchiga yetkazishga tayyorlash, ishlab chiqarish va materiallarni xarid qilish masalalari bir-biri bilan o‘zaro aloqada yechilar edi. Birgalikda taqsimot funktsiyasini tashkil etuvchi ayrim kichikroq funktsiyalar, mustaqil funktsiyalar sifatida ta’riflanar edi. 60-70chi yillarning boshlaridagina, ishlab chiqilgan mahsulot taqsimotiga doir barcha funktsiyalarni yagona boshqarish funktsiyasiga birlashtirish samaradorligini oshirishga olib kelishini angladilar. Buning natijasida taqsimot funktsiyalarini korxona va tashkilotlarning funksional boshqaruvi tuzilmasiga kiritildi.

Savdodagi taqsimotning har xil funktsiyalarini integratsiyasiga, do‘konlarni ta’minlovchi maxsus tuzilmalarini bo‘linishi va rivojlanishi misol bo‘lishi mumkin. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, 70-chi yillarda, bunday taqsimot tuzilmalarini yirik chakana savdo tashkilotlari barpo etib, ularni rivojlantirishga kirishdilar. Taqsimot markazlarining samaradorligiga tovarlarning yirik partiyalarini olish munosabati bilan beriladigan chegirmalar hisobiga, yetkazib berish samaradorligi hisobiga, hamda bir taqsimot markazida xizmatlardan foydalanuvchi do‘konlar zaxirasi to‘planishi hisobiga erishiladi.

## **6.2. Taqsimot logistikasining vazifalari**

Taqsimot logistikasi, yetkazib beruvchi – iste’molchi munosabatlarida moddiy oqimni boshqarish bo‘yicha barcha vazifalar majmuuni o‘z ichiga oladi. Bunda tayyor mahsulotni iste’molchigacha harakati jarayonida yechiladigan moddiy oqimlar boshqaruvi vazifalari asosiy o‘rinni egallaydi.

Taqsimot logistikasi vazifalarini yechish jarayonida quyidagi savollarga javob topish lozim:

- qaysi kanal bo‘yicha mahsulotni iste’molchiga yetkazish;
- mahsulotni qanday qadoqlash;
- logistikaga omborlar tarmog‘i kerakmi, agarda kerak bo‘lsa, qanday, qancha va qaerda;
- xizmat ko‘rsatishning qaysi darajasini ta’minalash, va boshqa qator masalalar.

Mikro va makro darajadagi logistik taqsimot vazifalari tarkibi har xil. Korxona darajasida, ya’ni mikro darajada logistika quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi:


- realizatsiya jarayonini rejalashtirish;
- buyurtma qabul qilishni va qayta ishlashni tashkil etish;
- qadoq turini tanlash, butlash haqida qaror qabul qilish, va yuklashdan oldingi boshqa operatsiyalar bajarilishini ta’minalash;
- mahsulot yuklashni tashkil etish;
- etkazib berishni tashkil etish va tashishni nazorat qilish;
- realizatsiyadan keyingi xizmat ko‘rsatishni tashkil etish.

Makro darajadagi logistika vazifalari quyidagilar:

- moddiy oqimni taqsimlash chizmasini tanlash;
- xizmat ko‘rsatiladigan hududdagi taqsimot markazlarning (omborlarning) optimal miqdorini aniqlash;
- xizmat ko‘rsatiladigan hududda taqsimot markazi (ombor) joylashuvining optimal joyini aniqlash, hamda moddiy oqimni tuman, viloyat, mamlakat hududidan o‘tish jarayonining boshqaruvi bilan bog‘liq boshqa qator vazifalar.

### 6.3. Logistik kanallar va logistik zanjirlar.

Moddiy oqim xom - ashyo manbaidan, yoki ishlab chiqarishdan, yoki taqsimot markazidan chiqib, ishlab chiqarishga, taqsimot markaziga yoki oxirigi iste’molchiga borib tushadi (6.2-rasm).



6.2-Rasm. Moddiy oqimni iste’mol tizimiga tushish variantlari

Barcha xollarda moddiy oqim iste'molga borib tushadi, u esa ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish bo'imasligi mumkin.

Ishlab chiqarish iste'moli – bu jamiyat mahsulotini ishlab chiqarish ehtiyojlarida, mehnat vositasi yoki predmeti (buyumi) sifatida joriy ishlatilishidir. Noishlab chiqarish iste'moli – bu jamiyat mahsulotini noishlab chiqarish sohalarining korxona va muassasalaridagi shaxsiy yoki aholi iste'moliga joriy ishlatilishidir.


Moddiy oqimning logistika chegaralarida harakatlanishining barcha bosqichlarida uni ishlab chiqarish iste'moli sodir bo'ladi. Logistik zanjirni yakunlovchi so'nggi bosqichdagina, moddiy oqim noishlab chiqarish iste'moli sohasiga tushadi.

Logistik zanjir ishlab chiqarish iste'moli bilan yakunlanishi xam mumkin. Masalan: mehnat qurollari oqimi, zavodda ishlab chiqarilgan traktorlar keyinchalik yana ishlab chiqarishda «iste'mol» qilinadi. Shuningdek, ishlab chiqarish iste'moliga, moddiy oqimlarning taqsimot markazidagi shakllanishi jarayoni ham kiradi. Bu yerda saralash, qadoqlab yuk partiylarini shakllantirish, saqlash, butlash kabi operatsiyalar amalga oshiriladi. Bu operatsiyalar majmui aylanish sohasidagi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi.

Harakatlanishning barcha bosqichlarida, moddiy oqim logistik jarayon ishtirokchilarining mehnat predmeti sifatida xizmat qiladi. Ishlab chiqarish texnik maqsadlarda ishlatiladigan mahsulot harakati bosqichida bu qayta ishlanmagan xom-ashyo materiallari, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Tovar harakati bosqichida moddiy oqim tayyor istemol mollari harakatidan iborat bo'ladi.


Umumiy holda, moddiy oqimlarning yetkazib beruvchisi va iste'molchisi ikkita mikrologistik tizim sifatida nomoyon bo'ladi, ular logistik kanal, yoki boshqacha qilib aytganda taqsimot kanali bilan o'zaro bog'langanlar. **Logistik kanal** – bu moddiy oqimni muayyan ishlab chiqarishdan uning iste'molchisigacha yetkazishni amalga oshiruvchi, qisman tartibga solingan har xil vositalar ko'pligidir.

Moddiy oqimni yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bo'lgan harakati jarayonining muayyan ishtirokchilari tanlanmaguncha bu ko'plik qisman tartibga solingan bo'lib qolaveradi. Bundan keyin esa logistik kanal logistik zanjirga aylanadi (4.3-rasm). Masalan mahsulotni vositachi firma orqali realizatsiya qilish xaqida qaror qabul qilinganligi, bu iste'molchi bilan bevosita ishlashni rad etib, taqsimot kanalini tanlashdir. Muayyan vositachi firmasini, muayyan tashuvchini, muayyan sug'urta korxonasini tanlash esa – bu logistik zanjirni tanlashdir. **Logistik zanjir** – bu tashqi moddiy oqimni bir logistik tizimdan ikkinchisigacha yetkazish bo'yicha logistik operatsiyalarni amalga oshiruvchi, logistik jarayon ishtirokchilarining chiziqli tartibga solingan ko'pligidir.



$T_1 - D - T_n$

a)



b)

shartli belgilashlar:

$T_1 \dots T_n$  – tovarlarni yetkazish bo‘yicha xizmatlar majmuini ko‘rsatuvchi, transport-ekspeditsion firmalar ko‘pligi;

$D_1 \dots D_n$ -distribbyuterlar ko‘pligi;



6.3-Rasm. Logistik kanalning logistik zanjirga o‘tishi.

Iste’mol mollari taqsimot kanallarining ayrim variantlari 5.4-rasmida keltirilgan.

Makro logistika darajasida, logistik kanallar va logistik zanjirlar bu makro logistik tizimlar orasidagi aloqalardir. Makrologistik tizimnmng turiga bog‘liq holda taqsimot kanallari har xil ko‘rinishga egadirlar. To‘g‘ri aloqalarga ega bo‘lgan logistik tizimlarda taqsimot kanallari hech qanday ulgurji – vositachi firmalarga ega emas. Egiluvchan tizimlarda esa bunday vositachilar mavjud.


Taqsimot kanalini tanlashda, tovar harakati shaklini – tranzit yoki ombor – tanlash amalga oshiriladi. Logistik zanjir tanlanganda – muayyan distribbyutor, tashuvchi, sug‘urtalovchi, ekspeditor, bankir va hokazolar tanlovi amalga oshiriladi. Bunda turli xil ekspert baholari uslubiyotlari, operatsiyalarni tekshirish uslubiyotlari va boshqalar ishlatilishi mumkin.

Logistik kanalni tanlash imkoniyati, logistik jarayonlar samaradorligi oshishini muhim rezervi (zaxirasi) hisoblanadi.



6.4-Rasm. Iste'mol mollari taqsimoti kanallarining turli xil variantlari

Taqsimot kanallarini ko'rib chiqamiz, ular bo'yicha tovarlar so'nggi ishlab chiqarishdan taqsimot markazlari orqali oxirgi iste'molchiga borib tushadilar (6.5-rasm).



6.5-Rasm. Iste'mol mollarini taqsimot kanallarining tuzilmaviy chizmasi

Ikkinchchi yo'naliish 1-6 aynan shu sabablarga ko'ra noqulay. №1 taqsimot markazi ishlab chiqarish to'plangan joyda joylashgan, va, odatda, bir xil tovarning katta hajmlarini olib-sotadi. Vositachilarning bu turi ham keng assortimentni shakllantirmaydi. Keng assortimentni, iste'mol to'plangan joyda joylashgan, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi №2 taqsimot markazi shakllantiradi. Bu vositachi, iste'molchiga maksimal xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Shunday qilib, 1-7-5 kanali iste'molchiga eng yaxshi xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi, lekin o'z ichiga ikkita vositachini ham oladi, ya'ni tovar narxi ham eng yuqori bo'ladi.

## 7-MAVZU. QISHLOQ XO'JALIGI LOGISTIKASIDA ZAHIRALAR

**Reja:**

1. Moddiy zahira tushunchasi.
2. Zahiralar hosil qilishning mohiyati.
3. Zahiralarning asosiy turlari.
4. Zahira o'lchamlarini aniqlash

## **7.1. Moddiy zaxira tushunchasi**

Moddiy zaxira tushunchasi logistikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Tabiatdan olingan xom-ashyo, oxirgi iste'molchiga tayyor mahsulot ko'rinishida yetib borgunga qadar, harakatlanadi, boshqa materiallar bilan birikadi va ishlab chiqarishda qayota ishlanadi. Moddiy zanjir bo'yab harakatlanayotgan xom-ashyo (keyinchalik esa yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ham) u yoki bu ishlab chiqarish yoki logistik operatsiyaga kirish navbatini kutib to'xtalib turadi.

Moddiy zaxiralar – bu ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida turgan, shaxsiy yoki ishlab chiqarish iste'moli jarayoniga kirishishni kutayotgan, ishlab chiqarish – texnik maqsadda, aholi iste'molida va boshqalarda ishlatiladigan tovarlardir.

Agarda, birlamchi xom-ashyoni aholi iste'moli mollariga aylanishini va uni harakatlanishini ta'minlovchi ishtirokchilarning butun zanjiri yagona mexanik konveyer kabi ishlaganda, kutish vaqtini deyarli nolga tushirish mumkin bo'lar edi. Ammo hayotda bunday kutishlarsiz bo'lmaydi.

Zaxiralarni yaratish doimo xarajatlar bilan bog'liq. Zaxiralarni yaratish va saqlash bilan bog'liq bo'lgan, xarajatlarning asosiy turlarini sanab o'tamiz:

- «muzlatib qo'yilgan» moliyaviy mablag'lar;
- maxsus jihozlangan xonalarga bo'lgan xarajatlar;
- maxsus xodimlarning ish xaqi;
- nosozliklar, o'g'irliklarning doimiy xavfi;

Zaxiralar mavjudligi – bu xarajatlardir. Ammo zaxiralar yo'qligi – bu ham xarajat, faqatgina ular turli xildagi yo'qotishlar ko'rinishida bo'ladilar. Zaxiralar yo'qligi bilan yuzaga keladigan yo'qotishlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarishdagi to'xtalishlardan bo'lgan yo'qotishlar;
- talab qilingan vaqtida omborda tovar bo'lmanidan yuzaga kelgan yo'qotishlar;
- tovarlarning kichik partiyalarini yuqori bahodan sotib olgandan yuzaga kelgan yo'qotishlar;

Zaxiralar mavjudligi muayyan xarajatlar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, ishbilarmonlar ularni yaratishga majburdirlar, chunki zaxiralar yo'qligi undan kattaroq foydani yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Zaxiralarni ratsional boshqaruvi, zaxiralarga bo'lgan minimal xarajatlarda, ishlab chiqarish va savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlashga imkon beradi.

## **7.2. Zaxiralar hosil qilishning zarurligi**

Ishbilarmonlar moddiy zaxiralarni yaratayotganda tayanadigan asosiy omillar quyidagilar.

Talabning o'zgarish ehtimoli (chiquvchi moddiy oqim intensivligini bashorat qilib bo'lmaydigan pasayishi). Tovarga bo'lgan talab o'zgarib turadi, va uni o'zgarishini har doim ham oldindan bilib bo'lmaydi. Shuning uchun, agarda yetarlicha zaxiraga ega bo'lmasa to'lov

qobiliyatiga ega bo‘lgan talab qondirilmasligi mumkin, ya’ni ishbilarmonda tovar bo‘lmasidan keyin mijozning puli o‘zida qolib u xaridsiz ketib qoladi.

Tovarlarning ayrim turlariga bo‘lgan talabni mavsumiy o‘zgarishi. Bu ayniqsa qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga tegishlidir. Masalan, O‘zbekistonda kartoshka hosili yig‘iladi. Ammo kartoshka oqimlari tovar o‘tkazuvchi zanjirlar (bozorlar, do‘konlar) bo‘ylab yil davomida harakatlanadi. Demak, qaerdadir zaxira yig‘ilishi lozim bo‘ladi.

Tovarlarning yirik partiyalarini xarid qilganlarga beriladigan chegirmalar ham zaxiralar yaratishning sababchisi bo‘lishi mumkin (ayrim yurtdoshlarimiz aynan shu sababli uylarida oziq-ovqatlarning nisbatan katta zaxiralarini saqlaydilar).

Mahsulotlarni olib-sotish. Ayrim tovarlarning narxi keskin oshib ketishi mumkin. Bu oshishni oldindan ko‘ra bilgan korxona, bozor narxini o‘zgarishi hisobiga foyda olishni ko‘zlab zaxira yaratadi.

Buyurtmani joylashtirish va yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning kamayishi.

Har bir yangi buyurtmani rasmiylashtirish va yetkazish jarayoni qator xarajatlar bilan kuzatiladi:

- ma’muriy xarajatlar: yetkazib beruvchini izlash, u bilan muzokaralar olib borish, xizmat safarları, shaharlararo telefonda so‘zlashuvlar va hokazolar;
- buyurtmani tashishga bo‘lgan xarajatlar;

Bu xarajatlarni, buyurtmalar miqdorini kamaytirgan xolda, pasaytirish mumkin. Bu esa buyuriladigan partiya hajmini oshishiga, va zaxira ko‘payishiga olib keladi.

Etkazishlarning belgilangan grafigini buzilish ehtimoli (kiruvchi moddiy oqim intensivligini bashorat qilib bo‘lmaydigan pasayishi). Bunday holda, savdo jarayoni to‘xtab qolmasligi uchun, zaxiralar zarur bo‘ladi. Bu ayniqsa korxona daromadini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydigan tovarlar uchun muhimdir.

Ishlab chiqarishda esa, jarayonlarning rejalahtirilmagan to‘xtab qolishi, ishlab chiqarishning uzluksiz tsikliga ega bo‘lgan korxonalar uchun ayniqsa xavflidir.

Mahsulot birligini ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish. Mahsulotlarni talab paydo bo‘lgan sari kichik partiyalar bilan ishlab chiqarish mumkin. Unda zaxiralar kichik bo‘ladi, ammo bir birlik mahsulot tannarxi oshadi. Ikkinci variant – bitta katta partiya ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni zaxirada saqlab turish. Bunday holda, zaxira oshgan taqdirda ham, bir birlik mahsulot tannarxi pasayishi mumkin.

Ishlab chiqarish va taqsimot operatsiyalarini bir tekisda amalga oshirish imkoniyati. Faoliyatning bu ikkita turi o‘zaro bog‘langan bo‘ladi: ishlab chiqarilgan narsagina taqsimlanishi mumkin. Zaxiralar yo‘qligida, taqsimot tizimidagi moddiy oqimlar intensivligi ishlab chiqarish intensivligini o‘zgarishlariga muvofiq ravishda o‘zgarib turadi. Taqsimot tizimida zaxiralarning

mavjudligi, ishlab chiqarishdagi vaziyatdan qat'iy nazar, realizatsiya jarayonini yanada tekisroq amalga oshirishga imkon beradi.

O‘z navbatida, ishlab chiqarish zaxiralarining mavjudligi, xom-ashyo yetkazishdagi o‘zgarib turishlarni tekislab, ishlab chiqarish jarayonining bir tekisligini ta’minlaydi.

Xaridorga tezda xizmat ko‘rsatish imkoniyati. Xaridor buyurtmasini quyidagi usullarning biri bilan bajarish mumkin:

- buyurilgan tovarni ishlab chiqarish;
- buyurilgan tovarni sotib olish;
- buyurilgan tovarni mavjud zaxiradan tezda olib berish;

Oxirgi usul, odatda, eng qimmat bo‘ladi, chunki u zaxiralarni saqlashni talab etadi. Ammo raqobat muxitida aynan ushbu omil hal qiluvchi bo‘lishi mumkin.

Ehtiyyot qismlar bo‘limganligi uchun yuzaga keladigan ishlab chiqarishdagi to‘xtashlarni kamaytirish. Asbob-uskunalarni ishdan chiqishi, ehtiyyot qismlarning zaxirasi bo‘limgan taqdirda, ishlab chiqarish jarayonining to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqa uzluksiz ishlab chiqarish jarayoniga ega bo‘lgan korxonalar uchun muhimdir, chunki ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi ular uchun qimmatga tushishi mumkin.

Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining soddalashuvi. Bunda korxona ichidagi ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida yarim tayyor mahsulotlar zaxiralarini yaratish tushuniladi. Ushbu zaxiralarning mavjudligi har xil uchastkalardagi ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro kelishuvchanligiga bo‘lgan talablarni pasaytirish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarda ta’kidlanishicha ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalarda ham zaxiralarni yaratish maqsadga muvofiqdir, aks holda xarajatlar oshib ketadi. Shu bilan birga zaxiralarning optimal kattaligini topish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jarayonlarni logistik tarzda tashkil etilishi, zaxiralar darajasini oshirmsandan bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni kamaytirishga, extiyot qismlarining yo‘qligi sababli, ishlab chiqarishda yuzaga kelgan to‘xtashlarni minimallaashtirishga, va zaxiralarning qator boshqa funktsiyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

### **7.3. Zaxiralarning asosiy turlari**

Ta’kidlab o‘tilganidek, zaxira tushunchasi moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalariga tegishlidir. CHunki moddiy oqim xom-ashyo manbaidan so‘nggi iste’molchigacha bo‘lgan «zanjirni» istalgan bo‘g‘inida zaxira ko‘rinishida to‘planishi mumkin. Har bir bo‘g‘indagi zaxiralarni boshqarish esa o‘z xususiyatlariga egadir.

Yuqorida tilga olingan «zanjir» bo‘ylab harakatlanish chog‘ida zaxiralarning 2ta asosiy turi yaratiladi (7.1-rasm):

- ishlab chiqarish zaxiralari;

- tovar zaxiralari;

O‘z navbatida ularning har biri ham uchta turga bo‘linadi:

- joriy zaxiralar;
- ehtiyot zaxiralar;
- mavsumiy zaxiralar;

Ishlab chiqarish zaxiralar – bu ishlab chiqarish iste’moli uchun mo‘ljallangan, moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari korxonalarida mavjud bo‘lgan zaxiralardir. Bu zaxirani yaratishdan maqsad – ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta’minlashdir. Misol tariqasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonasiagi ushbu mahsulotlar zaxirasini keltirish mumkin.

Tovar zaxiralar – bu ishlab chiqaruvchi korxonalardagi tayyor mahsulot zaxiralar, va shuningdek yetkazib beruvchidan iste’molchiga qadar bo‘lgan yo‘ldagi zaxiralardir (ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi).

Tovar zaxiralar o‘z navbatida ishlab chiqarish vositalarining tovar zaxiralarini va iste’mol buyumlarining tovar zaxiralariga bo‘linadi. Masalan, traktor ishlab chiqarish uchun lozim bo‘lgan qismlar (shina, motor va x.) zaxirasi bu ishlab chiqarish vositalari tovar zaxirasidir. Turli xil Sharbatlar, yog‘, sut mahsulotlarining zaxirasi esa bu iste’mol buyumlarining tovar zaxiralariga kiradi.

Aytib o‘tilganidek ishlab chiqarish zaxiralarini ham joriy, ehtiyot va mavsumiy larga bo‘linadi.

Joriy zaxiralar – ishlab chiqarish va tovar zaxiralarining asosiy qismini tashkil etadi. Zaxiralarning bu kategoriyasi, keyingi yetkazishlarga bo‘lgan davr ichida ishlab chiqarish yoki savdo jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Joriy zaxiralar hajmi doimo o‘zgarib turadi.

Ehtiyot zaxiralar – turli xil ko‘zda tutilmagan hollarda ishlab chiqarish yoki savdo jarayonini uzluksizligini ta’minlash uchun mo‘ljallangandir. Bunday hollarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- etkazishlar davriyligi va kattaligi shartnomadagidan farq qilishi;
- materiallar va tovarlarning turli sabablar bilan yo‘lda to‘xtab qolishi;
- talabni kutilmagan oshib ketishi;


Shunday qilib, ehtiyot zaxiralar yaxshi rivojlanmagan xo‘jalik munosabatlari va noto‘g‘ri bashoratlardan o‘zini asrash uchun yaratiladi.

Ehtiyot zaxiralarining hajmi, odatda, o‘zgarmas bo‘ladi.

Mavsumiy zaxiralar – ishlab chiqarish, iste’mol yoki tashish mavsumiy xususiyatga ega bo‘lganda paydo bo‘ladilar. Bu ayniqsa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishslash va tashish uchun ayniqsa muhimdir. Misol tariqasida yig‘im-terim mavsumida yoqilg‘i iste’molini keltirish mumkin. +ishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligini hisobga olgan holda unga tegishli deyarli barcha zaxiralar mavsumiy deb hisoblanishlari mumkin.

Bundan tashqari moddiy zaxiralarining quyidagi turlari mavjud:

- o‘tuvchi;
- tayyorgarlikli;
- nolikvid;
- yo‘ldagi zaxiralar va b.;



#### 7.1-Rasm. Moddiy zaxiralarning asosiy turlari

O‘tuvchi zaxiralarga hisob davrining oxiridagi moddiy vositalar resurslarining qoldiqlari kiradi. Zaxiralarning ushbu turi hisob davridan keyingi davrdagi yetkazishgacha bo‘lgan vaqt ichida uzlusizlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Tayyorgarlikli zaxiralar – bu ishlab chiqarish jarayonida ishlatishdan oldin qo‘sishma tayyorgarlikni talab qiluvchi ishlab chiqarish zaxiralarining bir qismidir.

Nolikvid zaxiralar – bu uzoq vaqt davomida ishlatilmaydigan ishlab chiqarish yoki tovar zaxiralaridir. Ular, saqlash jarayonida tovarlar sifatining yomonlashishi, ma’naviy eskirishi munosabati bilan paydo bo‘ladilar. Shuningdek bu zaxiralarga, endilikda ishlab chiqarilmaydigan mahsulot uchun mo‘ljallangan zaxiralar ham kiradi.

Yo‘ldagi zaxiralar – bu hisob vaqtida tashilayotgan, ya’ni yo‘lda bo‘lgan zaxiralardir. Zaxiralarni yo‘ldagi vaqtiga deganda, transportga ortilganidan to manzilgacha yetib kelishi uchun sarflangan vaqt tushuniladi. Bu ko‘rsatkich shartnomada kelishilgan, hamda turli transportlar uchun mavjud me’yorlar bo‘yicha belgilanadi.

#### 7.4. Zaxira o‘lchamini aniqlash


- Buyurtma qilinadigan partiyaning optimal o‘lchamini aniqlash.

Zaxiralarni to‘ldirish tizimi tanlangandan so‘ng, buyurtma kattaligini va takrorlanish vaqtini miqdoran aniqlash lozim bo‘ladi.

Buyurtmaning optimal kattaligi va chastotasi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- talab hajmi;
- transport-tayyorlov xarajatlari;
- zaxirani saqlashga bo‘lgan xarajatlar.

Buyurtma o‘lchami oshganda transport-tayyorlov xarajatlari kamayadi, chunki tovarlarni sotib olish va tashish katta partiyalarda, va demak kamroq amalga oshiriladi. Bu bog‘liqlikning grafigi 7.2-rasmda tasvirlangan.




7.2-Rasm. Transport-tayyorlov xarajatlarini buyurtma o‘lchamiga bog‘liqligi.

Optimallik mezoni sifatida transport-tayyorlov va saqlashga bo‘lgan xarajatlar summasining minimumi olinadi.


Ushbu ikkala xarajatlar ham buyurtma o‘lchamiga bog‘liq, ammo ularning bog‘liqlik darajalari turlicha.

Saqlashga bo‘lgan xarajatlar esa buyurtma o‘lchamiga to‘g‘ri proportionaldir. Bu bog‘liqlikning grafigi 7.3 rasmda keltirilgan.

Yuqoridagi ikkita grafikni qo‘sib, transport-tayyorlov va saqlash xarajatlarini buyurtma o‘lchamiga bog‘liqligini aks ettiruvchi egri chiziqqa ega bo‘lamiz. Ko‘rib turganimizdek bu egri chiziq minimum nuqtasiga ega, aynan shu nuqtada xarajatlar yig‘indisi minimumga teng bo‘ladi. Ushbu nuqtaning abstsissasi esa buyurtmaning optimal o‘lchami qiymatini aks ettiradi.



7.3.-Rasm. Zaxiralarni saqlashga bo‘lgan xarajatlarni buyurtma o‘lchamiga bog‘liqligi.



7.4-Rasm. Transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari summasini buyurtma o‘lchamiga bog‘liqligi.

sort. – buyurtmaning optimal o‘lchami.

Buyurtmaning optimal o‘lchamini aniqlash masalasi analitik usul bilan ham yechilishi mumkin. Buning uchun transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari summasini aks ettiruvchi funktsiyani minimumga intilishi shartlarini aniqlash lozim, ya’ni:

$$S_{\text{um}} \cdot q S_{\text{saq.}} + S_{\text{tr.}} \quad \min \longrightarrow \quad (7.1)$$

bu yerda:

$S_{\text{um.}}$  – tashish va saqlashga bo‘lgan umumiylar;

$S_{\text{saq.}}$  – zaxirani saqlashga bo‘lgan xarajatlari;

$S_{\text{tr.}}$  – transport-tayyorlov xarajatlari;

Tasavvur qilaylik, aniq bir davr ichidagi aylanma kattaligi Qni tashkil etsin. Bitta buyuriladigan va yetkaziladigan partiyaning o‘lchami  $S$ . Oldingi partiya tugab bo‘lgandan so‘nggina keyingisi olib kelinadi. Unda zaxiraning o‘rtacha qiymati  $S/2$  ga teng bo‘ladi.

Zaxirani saqlash uchun ( $M$ ) tarifni kiritamiz.  $M$ - T davr ichidagi saqlash xarajatlarini o'sha davrdagi o'rtacha zaxira qiymatidagi ulushi bilan o'lchanadi. Masalan,  $M=0,1$  bo'lsa, demak zaxirani saqlash bo'yicha xarajatlar, uning o'rtacha qiymatini 10%ni tashkil etadi. Shuningdek, bir birlik tovarni saqlash xarajatlari ham, uning qiymatini 10%ni tashkil etadi.

Endi T davr ichida tovarlarni saqlashga bo'lgan xarajatlarni hisoblash mumkin:

$$C_{cak} = M \cdot \frac{S}{2} \quad (7.2)$$

T davr ichidagi transport-tayyorlov xarajatlarining o'lchami, buyurtmalar sonini, bitta buyurtmani olib kelish bilan bog'liq xarajatlarga ko'paytmasi bilan aniqlanadi.

$$C_{tp} = K \cdot \frac{Q}{S} \quad (7.3)$$

bunda:

$K$ -bitta buyurtmaga bo'lgan transport-tayyorlov xarajatlari;

$Q/S$ - T davrdagi buyurtmalar miqdori;

Olingan ifodalarni joy-joyiga qo'yib chiqib, olib kelinadigan partiyaning optimal o'lchamini topamiz. ( $S_{opt}$ )

$$S_{um} \cdot q \quad S_{saq.} + S_{tr.} \quad \min \rightarrow$$

$$C_{ymymu\ddot{u}} = M \cdot \frac{S}{2} + K \cdot \frac{Q}{S} \quad (7.4)$$

$S_{um}$ , uning  $S$  bo'yicha birinchi hosilasi nolga teng, ikkinchisi esa noldan katta bo'lgan nuqtada, minimumga erishadi. Birinchi xosilani topamiz:

$$C_{ym}^! = \left( \frac{M}{2} - K \cdot \frac{Q}{S} \right)^!, \quad (7.5)$$

$$C_{ym}^! = \frac{M}{2} - K \cdot \frac{Q}{S^2} \quad (7.6)$$

Maqsadli funktsiya hosilasini nolga olib keluvchi  $S$ ning qiymatini topamiz:

$$\frac{M}{2} - K \cdot \frac{Q}{S_{opt}^2} = 0, \quad (7.7)$$

bundan

$$S_{onm} = \sqrt{\frac{2 \cdot K \cdot Q}{M}} \quad (7.8)$$

Tekshiruv, ikkinchi hosilani noldan katta ekanligini ko'rsatadi. Demak, topilgan  $S_{opt}$  yetkazish va saqlashga bo'lgan xarajatlar summasini minimumini ta'minlaydi.

Buyurtmaning optimal o'lchamini hisoblashga imkon beruvchi ushbu formula, zaxiralarni boshqarish nazariyasida *Uilson* formulasi deb nomlanadi.[Gadjinskiy]

Buyurtmaning optimal o‘lchamini hisoblashga doir misolni ko‘rib chiqamiz. Boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida quyidagi kattaliklarni olamiz.

Bir birlik tovar qiymati – 40 so‘m (0,04 ming so‘m)

Berilgan tovar pozitsiyasi bo‘yicha omborning oylik aylanmasi (oboroti):

$Q'q = 500$  birlik/oy , yoki  $Q = 20$  ming so‘m/oy

Tovarni saqlash xarajatlari, uning qiymatini 10%ga teng, ya’ni  $M=0,1$ .

Bitta buyurtmani joylashtirish va yetkazish bilan bog‘liq transport-tayyorlov xarajatlari:  $Kq=0,25$  ming so‘m

Bunda yetkazilayotgan buyurtmaning optimal o‘lchami:

$$S_{onm} = \sqrt{\frac{2 \cdot 20 \cdot 0,25}{0,1}} = 10 \text{ ming.so‘m}$$

Agarda aylanma (oborot) hajmini natural birliklarda ifodalaganda, hisob boshqacha shaklga ega bo‘ladi:

$$S_{onm} = \sqrt{\frac{2 \cdot Q^! \cdot K}{M \cdot P}} \quad (7.9)$$

bu yerda:

$Q^!$  – natural birliklarda ifodalangan aylanma hajmi (bizning misolimizda  $Q^! = 500$  birlik)

$R$  – bir birlik tovarning qiymati (bizning misolimizda  $R = 0,04$  ming so‘m)

$$S_{onm} = \sqrt{\frac{2 \cdot 500 \cdot 0,25}{0,1 \cdot 0,04}} = 250 \text{ birlik}$$

Ravshanki, tovarni bir oy ichida ikki marotaba yetkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi: 20 m.s. : 10 m.s. = 2 marta

Bu xolda transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari:

$$C_{ymym} = \frac{0,1 \cdot 10}{2} + \frac{0,25 \cdot 20}{10} = 1 \text{ ming so‘m}$$

Olingan natijalarni e’tiborga olmaslik, xarajatlarni oshib ketishiga olib keladi. Masalan: 12 ming so‘mga teng bo‘lgan partiya olib kelinganda (ya’ni  $S=12$ )

$$C_{ymym} = 0,1 \cdot \frac{12}{2} + 0,25 \cdot \frac{20}{12} = 1,02 \text{ ming so‘m}$$

8 ming so‘mga teng bo‘lgan partiya olib kelinganda (ya’ni  $S=8$ ) esa:

$$C_{ymym} = 0,1 \cdot \frac{8}{2} + 0,25 \cdot \frac{20}{8} = 1,025 \text{ ming so‘m}$$

Buyuriladigan partiya hajmini aniqlashdagi 20%lik xatolik, bizning misolimizda korxonaning tashish va saqlash bo‘yicha oylik xarajatlarini 2% ga oshiradi. Buni depozit jamg‘armasining

stavkasi bilan tenglashtirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, logistika menedjerining ushbu xatosi, pullarni depozitda «ishlatmasdan», ushlab turgan moliyachi xatosi bilan baravardir.

## 2. Buyurtmaning optimal o'lchami formulasining qo'llanilishi

Uilson formulasidagi K va M kattaliklarini hisoblash, transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari smetalarini tuzish asosida amalga oshiriladi. Ushbu hisoblashlarning har biri bilan tanishib chiqamiz:

1. Bitta buyurtmaga bo'lgan transport-tayyorlov xarajatlari (K kattaligi), o'tgan davrdagi transport-tayyorlov xarajatlarini ushbu davrda qabul qilingan buyurtmalarga nisbati bilan aniqlanadi.

Transport-tayyorlov xarajatlarining smetasi, quyidagi xarajat turlarini o'z ichiga oladi:

$K_1$  – yetkazish shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni xizmat safarlariga, muzokaralar olib borishga va b. bo'lgan xarajatlar;

$K_2$  – yetkazish jarayonida yukni qo'riqlashga bo'lgan xarajatlar;

$K_3$  – sug'urta xarajatlari;

$K_4$  – tashish xarajatlari;

$K_5$  – buyurtmani joylashtirish va bajarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Umumiy transport-tayyorlov xarajatlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K = \frac{\sum_{i=1}^n K_i}{L} \quad (7.10)$$

bu yerda:

L – belgilangan davrda joylashtirilgan (qabul qilingan) va bajarilgan buyurtmalar miqdori.

2. Davr ichidagi saqlash xarajatlarini, ushbu davrdagi o'rtacha zaxira qiymatidagi ulushini ( $M$  kattaligi) hisoblash ham bir necha moddalarni o'z ichiga oladi:

$m_1$ -zaxiralar qiymatini to'lash uchun zarur bo'lgan kredit bo'yicha foizlar.

U quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$m_1 = \frac{S}{2} \cdot p \cdot \alpha \quad (7.11)$$

bu yerda:

$S$  – buyurtmaning natural ko'rinishidagi hajmi;

R – bir birlik tovarni sotib olish bahosi, so'm;

$\alpha$  – kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi;

$m_2$  – zaxiralarni saqlash bilan bog'liq xodimlarning ish xaqi;

$m_3$  – zaxiralarni saqlashda ishlatiladigan binolar va uskunalar amortizatsiyasi;

$m_4$  – ma'muriy xarajatlar va kommunal xizmatlar;

$m_5$  - qo‘riqlash, yo‘qotishlar va zaxiralarni saqlash bilan bog‘liq boshqa joriy xarajatlar;

M kattaligi, ya’ni T davrdagi zaxiralarni saqlash xarajatlarining ushbu davrdagi o‘rtacha zaxira qiymatidagi ulushi, quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$M = \frac{2 \cdot \sum_{i=1}^{m_i} m_i}{S_{\text{бюджет}} - P} \quad (7.12)$$

## 8-MAVZU. QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIK SERVIS XIZMATI KO‘RSATISH

### Reja:

1. Logistik xizmat ko‘rsatish tushunchasi.
2. Xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish.
3. Xizmat ko‘rsatish sifatining mezonlari.

#### 8.1. Logistik xizmat ko‘rsatish tushunchasi

«Xaridor bozori» sharoitida, sotuvchi, xaridor talabidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirishiga to‘g‘ri keladi. Bunda talab tovarga bo‘lgan talab bilan cheklanmaydi. Xaridor ushbu tovarni yetkazib berish jarayonida unga ko‘rsatiladigan xizmatlar tarkibi va sifati bo‘yicha ham o‘z talablarini ilgari suradi.


Xizmat, atamasining asl ma’nosi, biror-bir kimsaga foyda keltiruvchi yoki yordam beruvchi hatti-harakatlarni anglatadi. Birovlar ehtiyojlarini qondirish, ya’ni ularga xizmat ko‘rsatish esa servis deb ataladi.

Logistik faoliyat, moddiy oqim iste’molchisiga turli xildagi logistik xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini nazarda tutadi. Logistik servis taqsimot jarayoni bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, tovarni yetkazish jarayonida ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuidan iboratdir.

Logistik servisning ob’ekti bo‘lib moddiy oqimning turli iste’molchilari xizmat qiladi (8.1 rasm). Logistik servis yetkazib beruvchining o‘zi tomonidan, yoki logistik servisiga ixtisoslashgan ekspeditorlik firmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Logistik xizmat ko‘rsatish sohasidagi barcha ishlarni uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

- sotuvdan oldingi, ya’ni logistik servis tizimini shakllantirish bo‘yicha ishlar;
- tovarlar sotish jarayonida amalga oshiriladigan, logistik xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha ishlar;
- sotuvdan keyingi logistik servis.



#### 8.1-Rasm. Iste'molchi tizimiga moddiy oqimni kelib chushish variantlari.

Realizatsiya jarayonidan oldingi logistik servis sohasidagi ishlar, asosan, xizmat ko'rsatish sohasidagi firma siyosatini belgilash, va xizmatlarni rejalashtirishni o'z ichiga oladi.

Tovarlarni realizatsiyasi jarayonida turli xil logistik xizmatlar ko'rsatilishi mumkin:

- omborda tovar zaxiralarining mavjudligi;
- buyurtmani bajarish, shu jumladan assortimentni tanlash, qadoqlash, yuk birliklarini shakllantirish va boshqa operatsiyalar;
- etkazish ishonchlilagini ta'minlash;
- yuklar o'tishi to'g'risida axborot taqdim etish.

Sotuvdan keyingi xizmatlar – bu kafolat xizmati, xaridorlar e'tirozlarini ko'rib chiqish bo'yicha majburiyatlar, almashinish va boshqalardir.

#### 8.2. Xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish

Iste'molchi yetkazib beruvchi tanlaganda uning logistik servis sohasidagi imkoniyatlarini ham e'tiborga oladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda yetkazib beruvchining raqobatdoshligiga u taklif etayotgan xizmatlarning assortimenti va sifati ham ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi bir tomonidan, xizmatlar safini kengaytirish qo'shimcha xarajatlarga olib keladi.

Logistik servis tizimini shakllantirishga imkon beruvchi harakatlar ketma-ketligini ko'rib chiqamiz (8.2-Rasm).

Logistik xizmatlar raqobatdoshlikka o‘z ta’sirini o‘tkazar ekan, har bir xo‘jalik, firma yoki korxona iste’molchilarga logistik xizmat ko‘rsatish sohasida aniq belgilangan strategiyaga ega bo‘lishi zarur.

Istemolchi bozorning segmentasiyasi, ya’ni istemolchilarning muayyan guruxlariga bo’linishi, bunda istemolchining xususiyatlari muvofiq ularning (guruhlarning) har biriga aniq bir xizmatlar kerak bo’lib qolishi mumkin.



Xaridor uchun eng ahamiyatli bo’lgan xizmatlar ro’yxatini aniqlash




Tuzilgan ro’yxatga kiruvchi xizmatlarni turkumlarga bo’lish, xaridor uchun eng ahamiyatli bo’lgan xizmatlarga e’tiborini qaratish



Bozorning ayrim segmentlari kesimida xizmatlar standartlarini aniqlash



Ko’rsatilayotgan xizmatlarni baxolash, servis darajasi va ko’rsatiladigan xizmatlar qiymati orasida o’zaro aloqa o’rnatish, kompaniyaning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun zarur bo’lgan servis darajasini ta’minlash



Xizmatlarni xaridor ehtiyojlariga muvofiq bo’lishini ta’minlash uchun xaridorlar bilan teskari aloqani o’rnatish.

8.2.-Rasm. Firmada logistik servis tizimini shakllantirish bo‘yicha harakatlar ketma-ketligi.

Iste’molchi bozorining segmentatsiyasi, jo‘g‘rofik omil bo‘yicha, servis jihatlari bo‘yicha yoki boshqa bir omil bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Xaridorlar uchun ahamiyatli xizmatlarni tanlashni, ularning turkumlanishini, xizmatlar standartini aniqlashni, turli xil so‘rovlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin. Ko’rsatiladigan xizmatlarni baholash turli xil usullar bilan amalga oshiriladi. Masalan, yetkazishning ishonchlilik darjasini o‘z vaqtida yetkazilgan partiyalar ulushi bilan o‘lchash mumkin.

Kompaniya resurslari esa xaridor uchun eng ahamiyatli bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatishga yo‘naltiriladi.

### **8.3. Xizmat ko‘rsatish sifatining mezonlari**

Logistik servis sifatini baholash uchun quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

- etkazish ishonchliligi;
- buyurtma qabul qilgandan to tovarlar partiyalarini yetkazishgacha bo‘lgan to‘liq vaqt;
- etkazish egiluvchanligi;
- etkazib beruvchi omborida zaxiralar mavjudligi;
- kredit olish imkoniyati, va qator boshqa mezonlar.

Bulardan birinchi uchtasini tavsiflab o‘tamiz.

**Etkazish ishonchliligi.** Umumiy holda, ishonchlilik deganda, belgilangan cheklanishlarda o‘z tavsiflarini saqlagan holda berilgan funktsiyalarni bajarish qobiliyatini o‘z ichiga olgan, tizimning majmuaviy xususiyati tushuniladi.

Etkazish ishonchliligi – bu yetkazib beruvchining belgilangan chegaralarda, shartnomada kelishilgan yetkazish muddatlariga rioya qilish qobiliyatidir. Yetkazish ishonchliligi, yetkazish jarayoni tarkibiga kiruvchi ayrim turdagи ishlarni bajarish muddatlariga rioya qilishning ishonchliligi bilan aniqlanadi.

Etkazish ishonchliligiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan bo‘lib, shartnomada ko‘zda tutilgan majburiyatlar (kafolatlar) mavjudligi xizmat qiladi, yetkazish muddatlarini buzganlik uchun javobgarlik aynan shu majburiatlarda belgilanadi.

Buyurtma qabul qilgandan to tovarlar partiyalarini yetkazishgacha bo‘lgan to‘liq vaqt, u o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- buyurtmani rasmiylashtirish vaqt;
- ishlab chiqarish vaqt (agarda buyurilgan tovarlarni ishlab chiqarish lozim bo‘lsa, bu vaqt yetkazish muddatiga qo‘shiladi)
- qadoqlash vaqt;
- yuklash vaqt;
- etkazish vaqt;

Shartnomada ko‘rsatilgan yetkazish muddatlariga rioya qilish, yuqorida sanab o‘tilgan ushbu muddatning tarkibiy qismlariga qanday rioya qilinishiga bog‘liq. Masalan, tovari ishlab chiqarishga rejalashtirilgan muddatlarga yoki ekspeditor ta’kidlagan yetkazish muddatlariga rioya qilinmasligi mumkin.

**Etkazish egiluvchanligi** – yetkazuvchi tizimni mijozning alohida istaklarini (qidalarini) e’tiborga olishi qobiliyatini bildiradi. Bunga quyidagilarni kiritadilar:

- buyurtma shaklini o‘zgartirish imkoniyati;

- buyurtmani yetkazib berish turini o‘zgartirish imkoniyati;
- qadoq turini o‘zgartirish imkoniyati;
- etkazib berishga bo‘lgan talabnomani qaytarib olish imkoniyati;
- mijozni uning buyurtmasi holati to‘g‘risida axborot olishi imkoniyati;
- butlanmagan yetkazishlarda bo‘lgan e’tirozlarga munosabat.

## **9-MAVZU. TRANSPORT LOGISTIKASI**

### **Reja:**


1. Transport logistikasining mohiyati va vazifalari.
2. Qishloq xo‘jaligiishlab chiqarishini tashkil etish jarayonlarida transport vositalarining turlarini va sonini tanlash uslubiyoti.
3. Transport tariflari va ularni qo‘llash qoidalari. Etkazib beruvchini tanlash masalasi.
4. Logistikada «aniq muddatga» yetkazish tizimi.


### **9.1 Transport logistikasining mohiyati va vazifalari**

Transport – bu odamlar va yuklar tashishni amalga oshiruvchi, moddiy ishlab chiqarish tarmog‘idir. Jamiyat ishlab chiqarishi tuzilmasida, transport moddiy xizmatlar ishlab chiqarish sohasiga mansubdir.(9.1 rasm)

Moddiy oqimning birlamchi xom-ashyo manbaidan oxirgi iste’molchigacha bo‘lgan harakati davomidagi logistik operatsiyalarning anchagina qismi, turli xil transport vositalari yordamida amalga oshiriladi. Bu operatsiyalarning xarajatlari, umumiy logistika xarajatlarining 50%gacha tashkil etishi mumkin.

Transport ishlab chiqarish va savdo jarayonlariga juda yaxshi kirib borgan. Shuning uchun ham transport, logistikaning ko‘pgina masalalarida ishtirok etadi. Shu bilan birga logistikaning yetarlicha mustaqil bo‘lgan transport sohasi ham mavjud. Unda transport jarayoni ishtirokchilari orasidagi kelishuvlar, ularga mos moddiy oqim harakatining ishlab chiqarish-ombor bo‘limlariga aloqasi bo‘lmagan tarzda ko‘rib chiqilishi ham mumkin.






9.1 rasm. Transportning jamiyat ishlab chiqarishidagi o‘rni

Transport logistikasi vazifalariga, birinchi navbatda, o‘z yechimi bilan, transport jarayonining bevosita ishtirokchilari harakatlarini o‘zaro kelishilganligini kuchaytiruvchi, vazifalar kiradi. Bunday vazifalarni yechishning dolzarbliji, transport ishlari alohida bir sohaga aylanganida paydo bo‘ladi.

Transport jarayonlarini tashkil etishga logistik yondashuv xususiyatlarini, aralash tashishdagi transport zanjiri bo‘g‘inlarining o‘zaro ta’siri misolida tushuntirishimiz mumkin. (9.2 rasm)



9.2-Rasm. Bir necha transport turlari ishtirokida tashishning ana’naviy tashkil etilishi.

9.2 rasmdan ko‘rinib turibdiki butun moddiy oqimni boshqarishning yagona funksiyasi mavjud emas. Axborot va moliya mablag‘larining harakati jarayonida bo‘g‘inlarning o‘zaro kelishuvi darajasi past, chunki ularning xarajatlarini hech kim boshqarmaydi.

9.3 rasmda tasvirlangan aralash tashishni tashkil etish butunlay boshqacha xususiyatga ega.


Tranportda logistikaning qo‘llanilishi, ishlab chiqarish yoki savdodagi kabi raqobatchilarni transport jarayonida bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi hamkorlarga aylantiradi.

Logistika, aytib o‘tilganiday, bu yagona texnika, texnologiya, iqtisod va rejalashtirishdir. Bunga muvofiq transport logistikasi vazifalariga transport jarayoni ishtirokchilarining texnik va texnologik ta’motini, ularning iqtisodiy manfaatlari o‘zaro mos kelishini, hamda rejalashtirishning yagona tizimlarini ishlatishni kiritish lozim. Bu vazifalarning har biriga qisqacha tavsif berib o‘tamiz.

Butun yagona tashish jarayonining moddiy oqimini loyihalash va chiqib ketishda berilgan parametrlarga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Aralash tashishlarni tashkil etishga an'anaviy va logistik yondashuvlarning taqqoslama tavsifi 9.1-jadvalda keltirilgan.

Transport majmuidagi o'zaro bog'langan transport turlarining ayrimlari ichida va turlararo qismida parametrlarning kelishilmaganligini bildiradi.



9.3.-Rasm. Bir necha transport turlari ishtirokida tashishning logistik tashkil etilishi.

Bu kelishilmaganlik modal tashishni qo'llashga, konteynerlar va yuk paketlari bilan ishlashga imkon yaratadi. Texnologik tashishning yagona texnologiyasini to'g'ridan-to'g'ri yuk ortish-tushurishlarni, yuk ortish-tushishrislarsiz aloqalarni bildiradi. Iqtisodiy bog'liqlik -bu bozor kon'yukturasini tekshirishni va tarif tizimini barpo etishni umumiy metodologiyasidir. Birgalikdagi rejalashtirish – bu grafiklarning yagona rejalarini ishlab chiqish va qo'llashni bildiradi. Shu munosabat bilan transport logistikasi vazifalariga quyidagilar kiradi.

- transport tizimlarini yaratish;
- transport–ombor jarayonining texnologik yagonaligini ta'minlash;
- transport jarayonining ombor va ishlab chikarish jarayonlari bilan birgalikda rejalashtirish;
- transport vositasi turini tanlash;
- tranport vositasi tipini tanlash;
- etkazishlarning ratsional yo'naliishlarini aniqlash va boshqalar.

## 9.1-jadval.

### Aralash va intermodal tashishlarning taqqoslama tavsifi.

Arlash tashish	Intermodal tashish.
Transportning 2 va undan ko‘p turi.	Transportning 2 va undan ko‘p turi.
Tashish jarayoni yagona operatorining yo‘qligi.	Tashish jarayoni yagona operatorining mavjudigi.
Bir necha transport hujjatlari.	Yagona transport hujjati.
Yagona tarif stavkasining yo‘qligi.	Yagona tarif stavkasining mavjudligi.(fraxt)
Ishtirokchilar o‘zaro faoliyati-ning ketma ket sxemasi	Ishtirokchilar o‘zaro faoliyati-ning ketma ket markaziy sxemasi.
Yuk majburiyati tarqalgan va buning natijasi past.	Yuk majburiyati yagona va buning natijasi yuqori.
Natija: «Logistikaning oltita qoidasi» bajarilishining ehtimoli pastligi.	Natija: «Logistikaning oltita qoidasi» bajarilishining ehtimoli yuqoriligi.
Kerakli yuk kerakli joyda, kerakli vaqtda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda, minimal xarajatlar bilan.	Kerakli yuk kerakli joyda, kerakli vaqtda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda, minimal xarajatlar bilan.

### 9.2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish jarayonlarida transport vositalarining turlarini va sonini tanlash.

Transport vositalarining turlari va sonini aniqlash vazifasi logistikaning boshqa masalalari bilan aloqadorlikda yechiladi. Muayyan bir tashish uchun optimal bo‘lgan transport turini tanlash asos bo‘lib bo‘lib, transportning xar xil turlarining xususiyatlari to‘grisidagi axborot xizmat qiladi. Logistika nuqtai nazaridan transportning asosiy turlarini ustunlarini va kamchiliklarini ko‘rib chiqamiz.

**Avtomobil transporti. Qisqa masofalarga** (200-300km) tashishlarni amalag oshirish uchun avtomobil transporti ishlataladi. Asosiy usutunliklardan biri – yuqori harakatchanligidir. **Avtomobil** transporti yordamida yuk «eshikdan eshikgacha» zaruriy tashishning tezkorlik bilan yetkazishi mumkin. Transportning bu turi yetkazishlar mutazamligini hamda kichik hajmlardan yetkazishlar imkoniyatini ta’minlaydi. Bu yerda, boshqa turlarga nisbatan mahsulot qadoqiga u daraja qattiq talablar qo‘yilmaydi.

Avtomobil transportining asosiy kamchiligi bu tashishlar tannarxining nisbatan yuqoriligi. Odatda tashish uchun to‘lov avtomobilning maksimal yuk kutara olishi buyicha olinadi. Bu turning boshqa kamchiliklariga quydagilarni kiritish mumkin: yukni tushirishni shoshilinchligi, yukni va

avtotransportni o‘g‘irlash mumkinligi, nisbatan kam yuk ko‘tara olishi. Avtomobil transporti ekologiya jihatdan ham noqulay, bu esa uni ishlatalish imkoniyatini kamaytiradi.

**Temir yul transporti.** Transportning bu turi yuklarning turli hajmlarini (partiyalarini) barcha ob-havo sharoitlarida tashish uchun qulaydir. Temir yul transporti yukni nisbatan tez vaqtida masofalarga yetkazish imkoniyatini ta’minlaydi. Tashishlar muntazam amalga oshiriladi. Bu yerda ortish-tushirish ishlarining samarali bajarilishini tashkil etish mumkin.

Temir yo‘l transportining muhim ustunligi, bu yuklarni tashishning nisbatan past narxi va chegirmalar mavjudligidir.

Temir yo‘l transportining kamchiliklariga tashuvchilar sonining cheklanganligini va iste’mol joylariga yetkazish imkoniyati pastlidir, ya’ni temir yul o‘tkazilmaganda avtomobil transportidan foydalanishga tug‘ri keladi.

**Dengiz transporti.** Xalqaro tashishlarda eng yirik tashuvchi hisoblanadi. Uning asosiy ustunliklari-Yuk tariflarining pastligi va yuqori yuk o‘tkazish qobiliyatidir.

Dengiz transportining kamchiliklariga uning past tezligini, yuklarni qadoqi va o‘rnatalishiga bo‘lgan qatiq talablar, jo‘natishlarini kamligini kiritadilar. Dengiz transporti ob-havo va navigatsiya sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, murakab port infrostrukturasini yaratishni talab qiladi.

**Ichki SUV transporti.** Bu yerda yuk tariflari past. 100 t. dan ortiq yukni 250 km dan uzoqroq masofaga tashishda transpotning bu turi eng arzon .

**Havo transporti.** Asosiy ustunliklari – eng yuqori tezlik, uzoq hududlarga yetib borish imkoniyati, yuklarning yuqori darajada saqlanishi.

Kamchiliklariga yuqori yuk tariflari va iqlim sharoitlariga bog‘liqligi kiradi, bu esa yetkazish grafigiga rioya qilishni kamaytiradi.

**Quvur transporti.** Yuqori o‘tkazish qobiliyatida kam tannarxni ta’minlaydi. Transportning ushbu turiga yuklarni saqlash darajasi ham yuqori. +uvur transportning kamchiligi bu tashishga mo‘ljallangan yuklarning tor nomenklaturasi. Transport turining tanlashga ta’sir etuvchi oltita asosiy omillarni ajratadilar. 11.2 jadvalda ushbu omillarning har biri bo‘yicha transportning har xil turlarining bahosi berilgan. «1» ga eng yaxshi qiymat mos keladi.

Har xil omillarning muhimligining ekspert bahosi, transport turini tanlashda quyidagi larda amal qilishni muhimligini ko‘rsatadi:

- yetkazish grafigiga rioya qilish ishonchliligi.
- yetkazish vaqt.
- tashish narxi.

## 9.2 jadval.

**Transport turini tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi.**

Transport turi	Transport turini tanlashga ta'sir etuvchi omillar					
	Etkazish vaqtı	Jo'natishlar chastotasi	Yuk yetkazish grafigiga rioya qilishning ishonchliligi	Turli yuklarni tashish qobiliyati	Yukni xududning istalgan nuqtasiga yetkaza olish qobiliya ti	Tashish qiymati
Temir yo'l	3	4	3	2	2	3
Suv	4	5	4	1	4	1
Avtomobil	2	2	2	3	1	4
Quvur	5	1	1	5	5	2
Havo	1	3	5	4	3	5

Ta'kidlab o'tish kerkakki 9.2 jadval ma'lumotlari faqatgina u yoki bu transport turini muayyan tashish sharoitlariga muvofiqligi darajasini tahliliy bahosi uchun ishlatalishi mumkin. Tanlovning to'g'riligi har xil transport turlari bilan tashishga bog'liq xarjatlari tahlili asosidagi texnik –iqtisodiy hisoblar bilan tasdiqlanishi lozim.

### 9.3. Transport tariflari va ularni qo'llash qoidalari.

Transport korxonalarini ko'rsatgan xizmatlar hisobi tariflar yordamida amalga oshiriladi. Tariflar ichiga quyidagilar kiradi:

- Yukni tashish uchun olinadigan to'lovlar.
- Yukni tashish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha operatsiyalar uchun yig'ilmlar.
- To'lov va yig'ilmlar hisoblanish qoidalari.

Iqtisodiy kategoriya sifatida transport tariflari bu transport mahsulotiga bo'lgan narx shaklidir. Ularning tuzilishi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- Transport korxonasiga ekspluatatsiya xarajatlarini va foyda olish imkoniyatlarini;
- Transport xizmatlarini xaridorga transport xarajatlarini qoplashini va foyda olish imkoniyatini.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tashuvchi tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillaridan biri bu tashish narxidir. Raqobat sharoitida yuzaga keluvchi mijoz uchun kurash transport tariflariga ham o'zgartirish kiritadi.

Har xil yig'imlar tarif stavkalarini mohirona boshqarilishi, yuk tashish bilan qo'shimcha xizmatlarga (yuklarni ko'riqlash, kuzatish,) talabni oshirishi mumkin.

Transportning har xil turlaridagi tariflar tizimlari o‘z xususiyatlariga ega. Ularning qisqacha tavsifiga to‘xtalib o‘tamiz.

Temir yo‘l transportiga yuklarning tashishni tashishining qiymatini belgilash uchun umumiy, maxsus, imtiyozli, mahalliy tariflar qo‘llaniladi.

Umumiy tariflar- bu tariflarning asosiy turidir. Ularning yordamida yuklarining asosiy massasini tashish qiymati aniqlanadi.

Maxsus tariflar deb-Maxsus ustamalar yoki chegirmalar bilan umumiy tariflarni farqlanuvchi tariflarga aytildi. Bu tariflar oshirilgan yoki kamaytirilgan bo‘lishi mumkin. Ular odatda faqat muayyan yuklarga nisbatan qo‘llaniladi. Maxsus tariflar tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning joylashuviga ta’sir etishiga imkon beradilar, CHunki ular yordamida qiymatlarni tartibga solish mumkin.

Imtiyozli tariflar muayyan maqsadlar uchun yuklarni tashishda o‘zlariga mo‘ljallangan yuklarni tashishda qo‘llaniladi.

Mahalliy tariflarni ayrim temir yo‘llarning boshliqlari o‘rnatadi. Bu tariflar ushbu temir yo‘l chegralarida amal qiluvchi yuklarni tashish uchun to‘lovlar o‘lchamini va turli yig‘imlar stavkalarini o‘z ichiga oladi. Tashish to‘lovlaridan tashqari, temir yo‘l yuk oluvchi va jo‘natuvchilaridan yuklarning tashish bilan bog‘liq qo‘sishimcha xizmatlar uchun ham xaq oladi. Bu to‘lovlar yig‘imlar deb aytildi, va temiryo‘l tomonidan quyidagi operatsiyalarni bajargani uchun olinadi:saqlash, yuk og‘irligini tekshirish, vagonlarni olib kelish va olib tashlash, ortish tushirish ishlari va boshqalar.

Temir yulda yuklarni tashish to‘lovlariga ta’sir etuvchi asosiy omilarni sanab o‘tamiz.

Jo‘natish turi. Temiryo‘l bo‘ylab yuk vagonli, konteynerli kichik tonnali – 25 t gacha og‘irligi va hajmi yarim vagongacha, va mayda tonnajli og‘irligi 10 t gacha va xajmi 1/ 3 vagon hajmigacha, jo‘natishlar bilan jo‘natilgan bo‘lishi mumkin.

Tashish tezligi. Temiryo‘l bo‘ylab yuk: Yuk , katta yoki yo‘lovchi tezligida tashilishi mumkin. Tezlik turi yuk sutkasiga necha km bosib o‘tishi lozimlini belgilaydi.

Tashish masofasi. Tashish to‘lovi yuk va katta tezlikda tashilganda tarif masofasi uchun, katta hajmga ega bo‘lmagan yuklarni tashishda, yoki yuklarni yo‘lovchi tezligida tashishda xaqiqatdan bosib o‘tilgan masofa uchun olinadi.

Vagon yoki konteynerlarning mansubligi. Vagon, platforma yoki konteynerni, temir yo‘lni , yuk oluvchini yoki yuk jo‘natuvchini mulki bo‘lishi mumkin.

Tashiladigan yuk miqdori-tashish qiymatiga muxim ta’sir etuvchi omil. Avtomobil transportida yuk tashishlar qiymatini aniqlash uchun tariflarni quyidagi turlarini qo‘llaydilar:

-yuk tashishga bo‘lgan kelishilgan tariflar.

-yuk tashishga bo‘lgan to‘lanadigan avtotonna – soat shartlaridagi tariflar.

- yuk avtomobillarini ishlatishi vaqt bo‘yicha tariflar.
  - km hisobi bo‘yicha tariflar.
  - harakat vositasining tarkibning boshqa joyga jo‘natish uchun tariflar.
  - shartnomaviy tariflar.
- Tarif to‘lovi o‘lchamiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi.
- tashish masofasi.
  - avtomobil yuk ko‘tarishini ishlatish imkoniyatini tavsiflovchi yukningt xajmi va og‘irligi.
  - avtomobil yuk ko‘tara olishi.
  - umumi bosib o‘tilgan yo‘l.
  - avtotmobilni ishlatish vaqti.
  - avtomobil turi.
  - tashish amalga oshiriladigan hudud va bir qator boshqa omillar.

Avtomobil transportidan yuklarni tashishga bo‘lgan tariflarning har biri barcha omillar yig‘indisini emas balki muayyyan tashish uchun ahamiyatli bo‘lganlarinigina hisobga oladi.

Masalan: Kelishilgan tarif bo‘yicha yuklarni tashish qiymatini hisoblash uchun tashish masofasini, yuk massasini va avtomobil yuk ko‘tar olishi darajasini tavsiflovchi, yuk sinfini e’tiborga olish lozim. Yuk avtomobilalrini ishlatish vaqt tarifi bo‘yicha hisoblarni olib borishda avtomobil yuk ko‘tara olishini, avtomobildan foydalanishi vaqtini va umumi bosib o‘tgan yo‘lini hisobga olish kerak. Barcha hollarda avtomobillardan foydalanish uchun bo‘lgan to‘lov kattaligiga, tashish amalga oshirayotgan hudud ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu hududlar bo‘yicha yuk tashishlar tannarxi darajasidagi barqaror farqlanishlar bilan tushuntiriladi. Hududiy kooeffitsentlar yordamida tarif qiymatiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Daryo transportida yuk tashish tariflari va qo‘srimcha xizmatlar uchun yig‘imlar bozor konyukturasini hisobga olgan xolda mustaqil ravishda belgilanadi.

Dengiz transportida yuklarni tashish uchun to‘lovlar tarif bo‘yicha, yoki FRAXT stavkasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Agarda yuk muntazam amalga oshirayotgan yuk oqimi bo‘yicha harakatlansa, unda tashish chiqimi kemalar yurishi tizimi bilan amalga oshiriladi. Bunda yuk jaddval bo‘yicha va e’lon qilingan tarif bo‘yicha hisoblanadi.

Yuk muntazam yuk oqimi bo‘yicha harakatlanmagan hollarda tashish FRAXT stavkasi bo‘yicha to‘lanadi. FRAXT stavkasi bozorning kon'yukturasidan kelib chiqib belgilanadi va uning tansport tavsiflariga yo‘nalish sharoitlariga va xarajatlariga bog‘liq.

Har kanday uskuna yoki jixozlarning unumdoorligi deyilganda ularning vaqt birligida ishlab chiqargan mahsuloti tushiniladi. Avtomobillar yuk ma'lum masofaga tashib berishni hisobga olib, ularning unumdoorligi vaqt birligida tashilgan yuk miqdori va tonna kilometrlarda o‘lchanuvchi transport ishidan iboratdir.

Masalan, avtomobilning yuk bilan bir qatnovidagi yuk miqdorida o‘lchanuvchi unumdorligi:

$$Q = q_H \cdot \gamma_{CT}, t \quad (9.1)$$

bo‘lsa, tonna-kilometrda bajargan transport ishi:

$$P_{IOK} = Q_{IOK} \cdot L_{IOK}, \text{ tkm} \quad (9.2)$$

iborat bo‘ladi.

Aytilganlarga ko‘ra, bir ish kuni davomida avtomobilning unumdorligi:

$$Q_k = Q_{IOK} \cdot Z_{IOK} = q_H \cdot \gamma_{CT} \cdot Z_{IOK}, t \quad (9.3)$$

$$P_k = P_{IOK} \cdot Z_{IOK} = q_H \cdot \gamma_g \cdot Z_{IOK} \cdot L_{IOK}, \text{ t.km} \quad (9.4)$$

bo‘ladi.

Bundagi  $Z_{yuk}$  – bir ish kuni davomida yukli katnovlar soni.

O‘z navbatida nolinchi katnovga ham sarflangan vaqtini hisobga olingan bir ish kuni davomida yukli qatnovlar soni.

$$Z_{IOK} = \frac{T_{III}}{t_{a\ddot{u}t}} \quad (9.5)$$

bo‘ladi.

Bunda  $T_{ish}$  – avtomobilning ishda bo‘li shvaqt, soat:

$t_{ayl}$  – bir to‘liq qatnov uchun zarur vaqt, soat.

Bir to‘liq qatnov uchun zarur vaqt, avtomobilning yuk ortish punktidan uni tushirish punktigacha yukli qatnovi, yuk tushirish punktidan navbatdagi yuk ortish punktigacha bo‘sh qatnov vaqtini hamda ortish-tushirish vaqtini yiqindisidan iborat bo‘ladi:

$$t_{a\ddot{u}t} = t_k^{IOK} + t_k^{\delta,K} + t_{o-t}, \text{ soat} \quad (9.6)$$

bunda  $t_k^{IOK}$  – avtomobilning yukli qatnovi xarakat vaqt;

$t_k^{\delta,K}$  – bo‘sh qatnovi xarakat vaqt;

$t_{o-t}$  – transport vositasini yuk ortish-tushirish vaqt.

Xarakat vaqtini aniqlashlik uchun yukli va bo‘sh qatnovlar masofasini, xarakat tezligiga bo‘lishlik lozim:

$$t_x = \frac{l_M}{V_T} = \frac{l_{IOK} + l_{\delta K}}{V_T} = \frac{l_{IOK}}{\beta \cdot V_T}, \text{ soat} \quad (9.7)$$

Bunda  $t_{yuk}$  – avtomobilning yukli qatnovi masofasi;

$l_{b,k}$  – avtomobilning bo‘sh qatnovi masofasi.

Amalda bo‘sh qatnovlar avtombilning orqasiga yoki navbatdagi ortishgacha bo‘ladi;

$V_t$  – avtombilningsh texnik xarakat tezligi.

Amalda bo'sh qatnov masofasining aniq miqdoriga ko'ra, uning yukli qatnoviga nisbatan tutuvchi o'rni aniqlanishini hisobga olinib, qatnov masofalaridan unumli foydalanish, ya'ni yukli qatnov koeffitsienti ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu koeffitsient umum qatnovdan qay darajada unumli foydalanganini xarakterlab, uning miqdorini qatnovlar davomidagi yukli qatnovlar umumiyligini, barcha masofalariga nisbati qilib aniqlaniladi va uni texnika adabiyotlarida  $\beta$  (betta) harfi bilan belgilanadi.

Agar avtomobilning yukli qatnovlar masofasi va yo'l qatnovidan foydalanish koeffitsienti ma'lum bo'lsa, avtomobilning xarakat vaqtini yukli qatnovlar miqdorini, uning texnik xarakat tezligi (km/soat) va marshrutdagi yo'ldan foydalanish koeffitsienti ko'paytmasiga nisbati qilib aniqlanadi:

$$t_k = \frac{l_{IOK}}{\beta_M \cdot V_T} \quad (9.8)$$

bir aylanish vaqt esa:

$$t_{a\underline{u}t} = t_k + t_{o-t} = \frac{l_{IOK}}{\beta_M V_T} + t_{o-t} = \frac{l_{IOK} + \beta_M \cdot V_T \cdot t_{o-T}}{\beta_M \cdot V_T} \quad (9.9)$$

bo'ladi.

Aylanish vaqt iva avtomobilning marshrutda bo'lish vaqtini ( $T_m$ ) ma'lum bo'lsa, ish kuni davomidagi qatnovlar miqdorini kuyidagi formula Bilan hisoblab topish mumkin:

$$Z_{IOK} = \frac{T_m}{t_{a\underline{u}t}} = \frac{T_m \cdot \beta_M \cdot V_T}{l_{IOK} + \beta_M \cdot V_T \cdot t_{o-T}} \quad (9.10)$$

No'linchi qatnovni ham hisobga olinganda

$$Z_{IOK} = \frac{T_{uu} \cdot \beta_M \cdot V_T}{l_{IOK} + \beta_M \cdot V_T \cdot t_{o-T}} \quad (9.11)$$

bo'ladi.

Bundagi  $\beta$  - kun davomidagi, no'linchi qatnovi ham hisobga oluvchi yo'ldan foydalanish koeffitsientidir.

Demak, kun davomidagi yukli qatnovlar sonini oshirish uchun yoki avtomobilning ish kuni (i shvaqtin, yoki kasr suratini) uzaytirishlik, yoki bir aylanish vaqtini (kasrning mahrajiji)ni kamaytirish, yoki bir mahalning o'zida kasr suratini oshirish va mahrajini kamaytirish zarur.

Tashish masofasi beridgan holda bir aylanish vaqtini kamaytirish uchun avtomobilning texnik xarakat tezligini oshirish va avtomobilning ortish va tushirish operatsiyalarida bekor turi shvaqtini kamaytirishlik lozim bo'ladi.

Transport vositasining kunlik ish unumdarligi, bu bir qatnovda tashilgan yuk hajmi ( $t$ ) va bajarilgan transport ishi (yuk oboroti) (tkm). Ular quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_K = \frac{T_{III} \times q_H \times \gamma_{CT} \times \beta \times V_T}{l_{IOK} + \beta \times V_T \times t_{O-T}}, \text{t} \quad (9.12)$$

$$P_K = \frac{T_{III} \times q_H \times \gamma_{CT} \times \beta \times V_T \times l_{IOK}}{l_{IOK} + \beta \times V_T \times t_{O-T}}, \text{tkm} \quad (9.13)$$

bunda,

$q_n$ - nominal yuk ko‘taruvchanligi;

$T_{ish}$ - ish vaqt;

$v_t$ - o‘rtacha texnik tezlik;

$\beta$  - bosib o‘tilgan yo‘ldan foydalanish koeffitsienti;

$\gamma_{st}$ - yuk ko‘taruvchanlikdan statik foydalanish

koeffitsienti;

$t_{o-t}$  - yuk ortish-tushirishda bo‘sh turish vaqt.

#### **9.4 Yetkazib berishning asosiy bazalariga jahon narxlari. Inkoterms-2000.**

Inkotermsning maqsadi tashqi savdo sohasida keng qo‘llanilayotgan savdo atamalarini izohlash bo‘yicha xalqaro qoidalar to‘plami bilan ta’minlashdan iborat. Shunday qilib, turli mamlakatlarda bunday atamalardan saqlanish yoki hech bo‘lmaganda turli talqinlar noaniqligini ma’lum darajada qisqartitish mumkin.

Inkotermsning ta’sir qilish sohasi oldi-sotdi shartnomasi tomonlarining sotilgan tovarlarni yetkazib berishga nisbatan (bu yerda “tovar” deganda “moddiy tovarlar” tushuniladi, bundan kompyuter dasturiy ta’mint kabi “nomoddiy tovarlar” mustasno) huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq masalalar bilan cheklanadi.

Amaliyotda Inkotermsni noto‘g‘ri tushunishning ikkita varianti ko‘p uchraydi. Birinchisi – bu Inkotermsni oldi-sotdi shartnomasiga emas, balki tashish shartnomasiga ko‘proq munosabatga ega sifatida noto‘g‘ri tushunish. Ikkinchisi – bu ba’zida ular tomonlar shartnomaga kiritishni istagan barcha majburiyatlarni qamrab olishi kerak, degan tasavvurning noto‘g‘riliği hisoblanadi.

Xalqaro savdo palatasi tomonidan har doim ta’kidlab kelinganidek, Inkoterms oldi-sotdi shartnomalari doirasidagi faqat ma’lum jihatlarda sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan aloqa qiladi.

Eksportchilar va importchilar nafaqat oldi-sotdi, balki tashishlar, sug‘urta va moliyalash shartnomalari muhim bo‘lgan xalqaro sotish bitimlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan turli shartnomalar o‘rtasidagi haqiqiy munosabatlarni hisobga olishi kerak. Bunda Inkoterms ushbu shartnomalarning biriga, ya’ni aynan oldi-sotdi shartnomasiga taaluqlidir.

Inkoterms shartnomani buzish oqibatlari va turli to‘siqlar natijasida javobgarlikdan ozod etish bilan shug‘ullanmaydi. Ushbu masalalar oldi-sotdi shartnomasining boshqa shartlari va tegishli qonunlar tomonidan hal etilishi kerak.

Inkoterms boshidan tovarlar milliy chegaralar orqali yetkazib berilishi uchun sotilayotgan holatlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan: shunday qilib - bu xalqaro savdo atamalaridir. Biroq Inkoterms amaliyotda ko‘pincha tovarlarni faqat ichki bozorlar doirasida sotish uchun shartnomalarga kiritiladi.

“E” atamasi sotuvchiga eng kam majburiyatlar yuklaydi: sotuvchi tovarni faqat xaridor ixtiyoriga kelishilgan joyda – odatda sotuvchining shaxsiy binosida taqdim etishi lozim. Ikkinci tomonidan, amaliyotda ko‘p uchraydigan narsa – bu sotuvchi ko‘pincha xaridorga tovarni xaridorning transport vositasiga yuklashga yordam beradi. Agarda sotuvchi majburiyatları kengaytirilib, yuklashni ham o‘z ichiga olganda, sotuvchining EXW atamasi shartlariga muvofiq eng kam majburiyatlarining an’anaviy tamoyillarini ulardan sotuvchi tovarni yuklashga nisbatan hech qanday majburiyatlarni qabul qilmagan holatlar uchun foydalanish maqsadida saqlash qarorini qabul qilinganida edi EXW atamasi buni yaxshiroq aks ettirgan bulur edi. Mabodo xaridor sotuvchi ushbu vazifani ham bajarishini istasa, bu oldi-sotdi shartnomasida ko‘rsatilishi kerak.

“F” atamasi sotuvchi tovarni xaridor ko‘rsatmalariga muvofiq tashishini ko‘zda tutadi. Tomonlar FCA atamasiga ko‘ra yetkazib berishni amalga oshirishni ko‘zda tutadigan punkt majburiyatlarning turli xilligi tufayli ushbu atama bilan tuzilgan shartnomada uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Masalan, tovar xaridor tomonidan twoarni sotuvchi binosidan olib ketish uchun yuborilgan transport vositasiga ortilishi mumkin; ikkinchi holatda tovar xaridor tomonidan tovarni terminal, ya’ni xaridorga yetkazib berish uchun yuborilgan transport vositasidan tushirishni talab qilishi mumkin. Inkoterms 2000 shartnomada ko‘rsatilgan yetkazib berish joyi sifatida sotuvchi binosi hisoblanib, yetkazib berish yakunlangan, tovar xaridorning transport vositasiga yuklangan holatlar shartlashgan bo‘lsa, boshqa holatlarda yetkazib berish yakunlangan va tovar xaridor ixtiyoriga sotuvchi transport vositasidan tushirilmasdan yetkazib berilgan bo‘lsa ushbu variantlarni hisobga oladi. Transportning turli turlari uchun qayd etilgan variantlari FCA atamasida keltirilgan.

### 9.3-jadval

#### INKOTERMS-2000 (Savdo atamalari tasnifi)

E guruhi	EXW	Franko zavod (.....kema nomi)
F guruhi Asosiy tashish to‘lanmagan	FCA	Franko tashuvchi (.....tayinlangan joy nomi)
	FAS	Kema borti bo‘ylab franko (.....yuklash porti nomi)
	FOB	Franko bort (.....yuklash porti nomi)
S guruhi Asosiy tashish to‘langan	CFR	Narx va yuk (.....tayinlangan port nomi)
	CIF	Narx, sug‘urta va yuk (.....tayinlangan port nomi)
	CPT	Yukni tashish gacha to‘langan (.....tayinlangan joy nomi)
	CIP	Yukni tashish va sug‘urta gacha to‘langan (.....tayinlangan joy nomi)
V guruhi Yetib kelishi	DAF	CHegaragacha yetkazib berish (.....etkazib berish joyi nomi)
	DES	Kemadan yetkazib berish (....tayinlangan port nomi)
	DEQ	Pirstandan yetkazib berish (....tayinlangan port nomi)
	DDU	Boj to‘lamasdan yetkazib berish (....tayinlangan joy nomi)
	DDP	

CFR va CIF atamalari bo‘yicha yetkazib berish punktlariga mos keladigan yetkazib berish punkti FOB atamasiga muvofiq ma’lum tortishuvlarga qaramasdan Inkoterms 2000da o‘zgarishlarsiz qoldi. Garchi FOB atamasi bo‘yicha “tovarni kema bandiga yetkazib berish” tushunchasi hozir ko‘pchilik holatlarda to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Biroq shunga qaramay savdogarlar tomonidan ushbu atama tushuniladi va tovarlar hamda yuklash qurilmalari hisobga olingan holda qo‘llanilmoqda. Yetkazib berish punktini FOB atamasiga ko‘ra o‘zgartirish ayniqsa dengiz yo‘li bilan odatda charter-to‘plarda keltiriladigan tovarlarni sotishga nisbatan keraksiz chalkashliklarni yuzaga keltiryapti.

Afsuski, FOB so‘zi ayrim savdogarlar tomonidan faqatgina har qanday yetkazib berish punktini – masalan “FOB fabrika”, “FOB zavod”, “FOB sotuvchi zavodidan” punktlarini belgilash uchun foydalanilmoqda. Bunda “Franko bort” qisqartma so‘z tushunchasiga e’tibor berilmayapti. “FOB”dan bu kabi foydalanish chalkashlikni yuzaga keltirish moyilligiga ega bo‘lgan vaziyatlar saqlanib qolmoqda va bundan saqlanish kerak.

“S” atamasi sotuvchiga tashishlarni o‘z hisobidan oddiy sharoitlarda tashish shartnomasini tuzishni yuklaydi. Shu bois u transport sarf-harajatlarini to‘lashi lozim bo‘lgan punkt tegishli “S” atamasidan so‘ng ko‘rsatilishi shart. CFR va CIF atamalariga muvofiq sotuvchi tovari sug‘urtalashi va sug‘urta harajatlarini ko‘tarishi kerak. CHunki harajatlarni taqsimlash nuqtasi tovar yetkazib berilishi mumkin bo‘lgan mamlakatda ro‘yxatga olinadi. “S” atamasi ko‘pincha yetib kelish shartnomalari bilan noto‘ri hisob-kitob qiladi. Bunda sotuvchi tovar kelishilgan punktgacha yetib kelmasa barcha tavakkalchilik va harajatlarni ko‘taradi. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, “S” atamasi sotuvchi tovar yuklanadigan yoki jo‘natiladigan mamlakatda shartnomani bajarishi nuqtai nazaridan “F” atamasi ega bo‘lgan xususiyatga ega bo‘ladi. Shunday qilib, “S” atamasiga muvofiq oldi-sotdi shartnomalari “F” atamasi bo‘yicha shartnomalar kabi yuklash shartnomasi toifasiga kiradi.

Yuklash shartnomalari xususiyatida tovarlarni odatiy yo‘nalishlar bo‘yicha oddiy usulda kelishilgan joygacha tashishning odatdagи transport sarf-harajatlari sotuvchi tomonidan to‘lanishi kerak. Bunda xaridor tovari yo‘qotishi yoki aynishi bo‘yicha tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oladi, shuningdek, tovar tegishli ravishda tashish uchun yetkazib berilganidan so‘ng ham ahamiyatga ega voqealar natijasida paydo bo‘ladigan qo‘sishmcha sarf-harajatlarni ko‘taradi. Shunday qilib, “S” atamasi boshqa atamalardan o‘z ichiga ikkita “keskin” nuqtani olishi bilan ajralib turadi. Ulardan biri sotuvchi ungacha transport tashkil qilishi va tashish shartnomasiga ko‘ra sarf-xarajatlarni ko‘tarishi kerak bo‘lgan nuqta, ikkinchisi esa tavakkalchiliklardan o‘tish uchun xizmat qiladi. Shu sababli sotuvchiga majbkriyatlarni qo‘sishda imkon qadar ehtiyojkorlikka riosa qilinishi kerak. Ushbu majburiyatlar sotuvchi tavakkalchilikning yuqorida qayd etilgan nuqtadan tashqariga chiqqanda yuklatiladi. Sotuvchi tashish shartnomasini tuzib, tovari tashuvchiga topshirib, CFR va CIF atamalariga muvofiq sug‘urtalashni ta’minlab oldi-sotdi shartnomalarini tegishli ravishda bajarganidan so‘ng uni har qanday keyingi tavakkalchilik va sarf-harajatlardan xalos etish “S” atamasining mohiyati hisoblanadi.

“S” atamasining mohiyati yuklash shartnomalari singari hujjalli kreditlardan bunday holatlarda ishlatiladigan asosiy to‘lov uslubi sifatida keng foydalanish orqali izohlanishi ham mumkin. Oldi-sotdi tomonlari sotuvchi hujjalli kredit bo‘yicha kelishilgan yuklash hujjalarni taqdim etganidan so‘ng haq olishini kelib oladi. Bunda hujjalli kreditning asosiy maqsadlari sotuvchi hujjalli kreditlar bo‘yicha yoki tovari yuklab, jo‘natganidan so‘ng haq olganidan keyin ham tavakkalchilik va harajatlarni o‘z zimmasiga olishini to‘liq inkor etadi. Albatta, sotuvchi tashish shartnomasi bo‘yicha yuk haqi oldindan to‘langan, u yuklanganidan so‘ngmi yoki tayinlangan joyda to‘lanishidani qat’iy nazar (yuk haqi yuk oluvchi tomonidan belgilangan portda to‘lanishi kerak) barcha sarf-harajatlarni to‘lashiga to‘g‘ri keladi. Biroq yuk ortilib jo‘natilganidan so‘ng ahamiyatga ega voqealar natijasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘sishmcha harajatlar xaridor tomonidan to‘lanadi.

Agarda sotuvchi o‘z ichiga boj, soliq va boshqa to‘lovlarni oladigan tashish shartnomasini ta’minlashi shart bo‘lsa, bunday harajatlar albatta shartnomaga ko‘ra sotuvchiga yuklanadi.

Agarda odatda tovarni oraliq punktlarda tayinlangan joyga yetish uchun qayta yuklash bilan bog‘liq bir qancha tashish shartnomalari tuzilsa, sotuvchi ushbu barcha sarf-harajatlarni, shuningdek, tovarni bitta transportdan boshqasiga qayta yuklash natijasida yuzaga keladigan harajatlarni ham to‘lashi kerak. Biroq agarda tashuvchi o‘z huquqlaridan kutilmagan to‘siqlardan (masalan, muz, ish tashlash, mehnat buzilishlari, hukumat qarorlari, urush yoki harbiy harakatlar) saqlanish uchun tashish shartnomasiga muvofiq foydalansa, bundan kelib chiqadigan barcha qo‘sishimcha sarf-harajatlar xaridor hisobiga yoziladi. CHunki sotuvchi majburiyatları oddiy tashish shartnomasini ta’minlash cheklanadi.

Ko‘pincha oldi-sotdi shartnomasini tuzgan tomonlar sotuvchi qay darajagacha tashish shartnomasini, qayta yuklash sarf-harajatlarini ta’minlashi kerakligini aniq aniqlashni istaydi. Negaki, bunday sarf-harajatlar odatda tovar doimiy kema liniyalari bo‘yicha tashilsa, oldi-sotdi shartnomasi ko‘pincha tovar shu tarzda yoki “yuklarni reys kemalarida tashish shartlari”ga muvofiq tashilishini ko‘zda tutsa, yuk hisobidan to‘lanadi. Boshqa holatlarda esa CFR va CIF atamalaridan so‘ng “qayta yuklashni qo‘shib” so‘zi qo‘shiladi. Shunga qaramay, qisqartma so‘zni “S” atamasidan so‘ng u tegishli savdo sohasida aniq tushinilmasa va kelishayotgan tomonlar yoki tegishli qonunda yoxud savdo odatlarida qabul qilinmasa qo‘sishi tavsiya etilmaydi.

Chunonchi, sotuvchi “S” atamasi xususiyatini o‘zgartmasdan o‘z zimmasiga tovarning mo‘ljallangan joyga yetib kelishi bo‘yicha hech qanday majburiyatni olmasligi kerak. CHunki tashish paytida kechikishni xaridor o‘z zimmasiga oladi. Shunday qilib, har qanday majburiyat yuklash yoki jo‘natish joyiga tegishlidir.

Tovar bilan savdo qilishda tovarni dengizdagiligidan sotib olish hollari uchrab turadi. Bunday hollarda savdo shartidan so‘ng “suzishda” so‘zi qo‘shiladi. Negaki, bunday holatlarda CFR va CIF atamalariga ko‘ra tovarni yo‘qotish yoki buzilish xavfi sotuvchidan xaridorga o‘tgan bo‘ladi, izohlashda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bu borada imkoniyatlardan biri CFR va CIF atamalari odatiy ma’nosini xavfni sotuvchi va xaridor o‘rtasida tasqsimlashga nisbatan saqlash hisoblanadi, ya’ni aynan xavf yuk ortilganidan so‘ng. Bu xaridor oldi-sotdi shartnomasi kuchga kirganidan so‘ng bo‘ladigan voqealar oqibatlarini o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘lishini anglatadi. Xavfning o‘tish paytini aniqlaydigan ikkinchi imkoniyat yangi oldi-sotdi shartnomasini tuzish vaqtি hisoblanadi. Birinchi imkoniyat haqiqatga yaqinroq, chunki odatda tovar holatini tashish paytida aniqlash mumkin. Shu sababli BMTning 1980 yildagi tovarlar bilan savdo qilish xalqaro shartnomasi to‘g‘risidagi Konventsiyasining 68-moddasida “agarda ahvol shuni taqozo etsa, xavf xaridor tomonidan tovar tashish shartnomasida tuzilgan hujjatni bergen tashuvchiga topshirilayotgan paytdan boshlab qabul qilinishi” ko‘zda tutilgan. Biroq bu qoidada “sotuvchi tovar yo‘qotilgan yoki

ayniganligini bilgan yoki bilishi shart bo‘lgan va bu haqda xaridorga xabar bermaganligi” istisno qilinishi mumkin. Shunday qilib, CFR va CIF atamalarini “suzishda” so‘zini qo‘sghan holda sharhlash mazkur oldi-sotdi shartnomasiga qo‘llaniladigan qonunga bog‘liq. Tomonlarga qo‘llanilayotgan qonun va har qanday qarorga ishonch hosil qilish tavsiya etiladi. Shubha tug‘ilganda esa tomonlarga ushbu masalani o‘zlarining shartnomasida aniqlashtirib olish tavsiya etiladi.

“D” atamasiga muvofiq DDPdan tashqari sotuvchi mo‘ljallangan mamlakatga import uchune tozalangan tovari yetkazib berishga majbur emas.

An’anaviy tarzda DTQ atamasiga ko‘ra sotuvchi tovari tozalashiga majbur, negaki ushbu tovar pristanga yuklanishi kerak va shu tarzda import qilinayotgan mamlakatga chiqib ketishi lozim. Bojxona tozalashlar tartiblaridagi o‘zgarishlar oqibatida ko‘pgina mamlakatlardla hozir manfaatdor mamlakatda muntazam yashab kelayotgan tomon tozalashni amalga oshirib, boj va yuboshqa to‘lovlarni to‘lashi maqsadga muvofiqli. Shu sababli FAS atamasidagi o‘zgartishlar DEQ atamasiga ham kiritildi.

Ko‘pgina mamlakatlarda Inkotermsga kiritilmagan savdo atamalaridan asosan yuklarni temir yo‘lda tashishlarda (franko chegara) foydalanilmoqda. Biroq bunday sharoitlarda odatda sotuvchining tovari chegaragacha tashish paytida uni yo‘qotish yoki buzilishi bo‘yicha tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olishi ko‘zda tutilmaydi. Ushbu holatlarda chegara ko‘rsatilgan holda SRT atamasidan foydalanish maqsadga muvofiqli. Ikkinci tomondan esa, agarda tomonlar sotuvchi tovari tashishda tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olishini nazarda tutsa, bunda chegara ko‘rsatilgan holda DAF atamasidan foydalanish lozim.

## **10-MAVZU. QISHLOQ XO‘JALIGI LOGISTIKASIDA OMBOR XO‘JALIGI**

**Reja:**

1. Omborlar, ular to‘grisida tushunchalar va ularning logistikadagi o‘rni
2. Omborlarning turlari
3. Omborlarning funktsiyalari

### **10.1. Omborlar, ular to‘grisida tushunchalar va ularning logistikadagi o‘rni**

Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash, xom-ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni logistik zanjirining u yoki bu bo‘g‘inida biror vaqtga jamlab turish sharoitida, optimal yechimga ega bo‘ladi. Umumiyligi loyiha, jamlash joyida yukni nima qilish kerakligini ko‘rsatib beradi. Balki, kelib tushgan yuk birliklarini qayta shakllantirib, tovarlarni qayta qadoqlab, biror vaqt saqlab, keyinchalik yangi yuk birliklarini shakllantirib, lozim bo‘lgan vaqtida iste’molchiga yetkazib berish talab qilinishi mumkin. Aynan shu maqsadda logistik tizimlarda omborlar tashkil etiladi.

Omborlar – bu kelib tushgan tovarlarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash, ularni iste'molga tayyorlash va iste'molchiga uzatish uchun mo'ljallangan binolar, inshooatlar va turli xildagi uskunalar majmuidir.

Mahsulot ishlab chiqaruvchiga xom-ashyo va birlamchi materiallarning omborlari lozim bo'ladi. Ularning yordamida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Tayyor mahsulot omborlari sotuv uzluksizligini ta'minlovchi zaxiralarni saqlab turishga imkon beradilar. Savdo omborlarida tayyor mahsulotlar jamlanib o'z iste'molchisini kutib turadilar.

To'g'ri tashkil etilgan logistik tizimni, omborlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Logistikada ombor faqatgina logistik jarayon ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin bo'lgan holdagina ishlataladi. Shunday qilib, omborning asosiy roli bu moddiy oqimni optimallashtirish uchun sharoit yaratishdir.

Logistika, ombor ichidagi jarayonlarni to'g'ri tashkil etilishini, hamda texnik, texnologik va boshqa jarayonlarni iqtisodiy muhit jarayonlari bilan bog'liqligini ta'minlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Logistikada omborlarni tovar harakati tizimining unsurlari sifatida, va shu bilan birga, mustaqil tizim sifatida ko'radilar. Bunga muvofiq masalalarning ikkita guruhini ajratadilar:

- tovar harakati tizimini loyihalashda, omborlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar;
- omborlar bo'yicha, mustaqil tizim sifatidagi, masalalar.

## 10.2 Omborlarning turlari

Omborlar logistik tizimlarning muhim unsurlaridan biri bo'lib hisoblanadilar. Zaxiralarni saqlash uchun maxsus jihozlangan joylarga bo'lgan ob'ektiv zaruriyat moddiy oqim harakatining barcha bosqichlarida kuzatiladi. Turli xildagi omborlar ko'pligini aynan shu bilan izohlash mumkin.

Omborlarning o'lchamlari ham har xil bo'lishi mumkin: kichkina xonalardan to bir necha yuz ming kvadrat metr maydonga ega bo'lgan gigant omborlargacha.

Omborlar yuklarni joylash balandligi bo'yicha ham farqlanadilar. Bir omborlarda yuklar odam bo'yidan baland bo'lмаган joyda saqlansa, ikkinchi bir omborlarda maxsus uskunalar yukni 24m balandlikga joylashtiradilar.


Omborlar tuzilishi (konstruktsiyasi) ham turlicha bo'lishi mumkin: ochiq va yopiq.

Omborlarda, agarda lozim bo'lsa, maxsus harorat, namlik va boshqa sharoitlar yaratilishi mumkin. Ombor bitta korxona tovarlarini saqlash uchun mo'ljallangan bo'lishi (individual foydalanish ombori) yoki lizing shartlarida yuridik yoki jismoniy shaxslarga ijara beriladigan bo'lishi (jamoaviy foydalanish ombori) mumkin.

Shuningdek omborlar, ombor operatsiyalarini mexanizatsiya darajasi bo'yicha ham farqlanadilar: mexanizatsiya-lashtirilmagan, majmuaviy - mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan, avtomatik.

Omborlarni moddiy oqimning umumiy harakat jarayonidagi joylashish belgisi bo'yicha turkumlanishini mukammalroq ko'rib chiqamiz (10.1 rasm).

Omborlar turkumlanishining muhim belgisi bu yuklarni temir yo'l yoki suv transporti orqali yetkazish va olib chiqish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bunga muvofiq stantsiyalardagi yoki portlardagi omborlar (temir yo'l stantsiyasi yoki port hududida joylashgan), rel'sli omborlar (vagonlarni berish va olishga mo'ljallangan rel'slarga ega) va chuqurdagi omborlar mavjud. Yukni stantsiyadan yoki portdan chuqurdagi omborga olib borish uchun avtomobil transportidan foydalaniladi.



10.1-rasm. Omboylarni joylashishi bo'yicha turkumlanishi.

Saqlanayotgan yukning assortimentiga qarab, maxsus omboylar, aralash va universal omboylar bo'lishi mumkin.

Ushbu belgi bo'yicha omboylarni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Ishlab chiqarish – texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar harakati uchastkasidagi omboylar;

Xalq iste'moli mollari harakati uchastkasidagi omboylar.

1 guruhga kiruvchi omboylar quyidagilar:

- ishlab chiqaruvchi korxonalarining tayyor maxsulot omboylari;


- ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo‘ljallangan mahsulotlarni iste’mol qiluvchi korxonalarining xom-ashyo va birlamchi materiallar omborlari;
- ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo‘ljallangan mahsulotlarni muomala sohasidagi omborlar.

2 guruhga kiruvchi omborlar quyidagilar:

- xalq iste’moli mollari bilan ulgurji savdo qiluvchi korxonalar omborlari:

  - a) ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish joyida joylashgan;
  - b) ushbu mahsulotlarni iste’mol joyida joylashgan.

Moddiy oqimni turli korxonalar omborlaridan o’tishining printsiplial chizmasi 10.2 rasmda keltirilgan.



10.2-rasm. Moddiy oqimning, xom-ashyo manbasidan to so‘nggi iste’molchigacha bo‘lgan, yo‘lidagi omborlarni printsiplial chizmasi (sxemasi).

### 10.3. Omborlarning funktsiyalari

Turli omborlarda bajariladigan ish hajmi taxminan bir xil. Chunki omborlar turli logistik jarayonlarda quyidagi o‘xshash funktsiyalarni bajaradilar:

- moddiy zaxiralarni vaqtinchalik joylashishi va saqlanishi;
- moddiy oqimlarni qayta shakllanishi;
- xizmat ko‘rsatish tizimida logistik servisni ta’minalash.

Har bir ombor kamida uch xil moddiy oqimlarni qayta ishlaydi: kiruvchi, chiquvchi va ichki.

Kiruvchi oqimning mavjudligi transportdagi yukni tushirish, uning miqdori va sifatini tekshirish lozimligini bildiradi. Chiquvchi oqim bo‘lsa yukni ortish, ichkida esa omborlar ichida yukni harakatlantirish nazarda tutiladi.

Moddiy zaxiralarni vaqtinchalik saqlash funktsiyasini amalga oshirilishi, yuklarni saqlashga joylashtirish, saqlash uchun zaruriy sharoitlarni ta’minalash, saqlash joylaridan yuklarni olish bo‘yicha ishlarni bajarish zaruriyatini bildiradi.

Moddiy oqimlarning o‘zgarishi bir yuk partiyalari yoki yuk birliklari o‘rniga boshqalarini tashkil etish yo‘li bilan amalga oshadi. Bu yuklarni o‘z qadoqlaridan olib, yangi yuk birliklarini tashkil etish va ularni qadoqlash zarur ekanligini anglatadi.

Ammo bu omborlar to‘g‘risida umumiy tushunchadir xolos. Yuqorida sanab o‘tilgan funktsiyalarning har biri keng miqyosda o‘zgarib turishi mumkin. Bu esa ayrim logistik operatsiyalarning amalga oshirilish intensivligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bundan keyin, ombordagi logistik jarayonning ko‘rinishi umuman boshqacha tus oladi.

Moddiy oqimni birlamchi xom-ashyo manbaidan to oxirgi iste’molchigacha bo‘lgan harakatida uchraydigan turli xil omborlarning funktsiyalarini ko‘rib chiqamiz.

Ishlab chiqaruvchi korxonalarning tayyor mahsulot omborlarida:

- omborga qo‘yish;
- saqlash;
- navlarga (turlarga) ajratish;
- qo‘sishma qayta ishlash (lozim bo‘lsa);
- belgilash (markirovka);
- ortishga tayyorlash;
- ortish operatsiyalari.

Iste’molchi korxonalarning xom-ashyo va birlamchi materiallar omborlarida:

- yukni qabul qilish;
- tushirish;
- navlarga ajratish;
- saqlash;
- ishlab chiqarish iste’moliga tayyorlash.

Ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo‘ljallangan mahsulotlar muomalasi sohasidagi ulgurji-vositachi firmalar omborlarida, yuqorida qayd etilganlardan tashqari:

- tovarlar to‘planishi (kontsentratsiyasi)ni ta’minlash;
- lozim bo‘lgan assortimentni butlash;
- tovarlarni kichik partiyalarda yetkazish (iste’molchi korxonalar va boshqa ulgurji-vositachi firmalar omborlariga);
- rezerv partiyalarni saqlashni tashkil etish.

Ishlab chiqarish to‘plangan joylardagi savdo korxonalari omborlarida:

- ishlab chiqarish korxonalaridan tovarlarni yirik partiyalarda qabul qilish;
- iste’mol joylardagi xaridorlarga tovarlarni yirik partiyalarini butlash va jo‘natish;

Iste’mol joylaridagi omborlarda:

- ishlab chiqarish assortimenti tovarlarini qabul qilish;
- keng savdo assortimentini shakllantirish;
- chakana savdo korxonalarini tovarlar bilan ta’minlash.

## **11-MAVZU. AXBOROT LOGISTIKASI.**

### **Reja:**

1. Axborot oqimlari tushunchasi.
2. Axborot tizimlari.
3. SHtrix-kodlarni avtomatik aniqlash usullarini qo‘llash

#### **11.1. Axborot oqimlari tushunchasi.**

Moddiy oqimlarni boshqarish jarayoni asosida, logistik tizimlardagi axborotni qayta ishslash yotadi. Shunday ekan, logistikaning asosiy tushunchalaridan biri bu axborot oqimidir.

Axborot oqimi -bu logistik tizim ichida, logistik tizim va tashqi muhit orasida harakatlanuvchi, logistik operatsiyalarning boshqaruvi va nazorati uchun zarur bo‘lgan xabarlar va ma’lumotlar yig‘indisidir. Axborot oqimi qog‘oz va elektron hujjatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Logistikada axborot oqimlarining quyidagi turlarini ajratadilar.

- oqim bilan bog‘lanuvchi tizimlar turiga ko‘ra: gorizontal va vertikal;
- o‘tish joyiga ko‘ra: ichki va tashqi;
- logistik tizimga nisbatan yo‘nalishiga ko‘ra: kiruvchi va chiquvchi.

Axborot oqimi joriy oqimdan oldin, u bilan birga, yoki undan keyin harakatlanishi mumkin. Bunda axborot oqimi moddiy oqim bilan bir tomonga yoki qarama-qarshi tomonga yo‘naltirilgan bo‘lishi ham mumkin.

- qarama-qarshi yo‘nalishdagi, moddiy oqimdan oldin keluvchi axborot oqimi, odatda, buyurtma to‘g‘risidagi ma’lumotlardan iborat bo‘lishi mumkin;
- to‘g‘ri yo‘nalishdagi, moddiy oqimdan oldin keluvchi axborot oqimi, kelishi kutilayotgan tovarlar to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlardan iborat bo‘lishi mumkin;
- to‘g‘ri yo‘nalishda moddiy oqim bilan birgalikdagi axborot oqimida, moddiy oqimning miqdor va sifat parametrlari to‘g‘risidagi axborotlar kelishi mumkin;
- qarama-qarshi yo‘nalishdagi moddiy oqimdan keyin kelgan axborot oqimida, tovarlarni, moliyaviy mablag‘larni qabul qilinganligi natijalari, sifati va miqdori to‘g‘risidagi, turli xil e’tirozlar to‘g‘risidagi axborotlar o‘tishi mumkin.

Umuman olganda axborot oqimining harakatlanish yo‘li, moddiy oqim harakati yo‘nalishi bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin.

Axborot oqimi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

- kelib chiqish manbai;
- oqim harakati yo‘nalishi;
- jo‘natish va qabul qilish tezligi;

-oqim intensivligi va boshqalar.

Axborot tizimlarining shakllanishi oqimlarining ayrim ko'rsatkichlari kesimidagi tekshirishlarsiz amalga oshmaydi. Misol uchun, biror korxonani hisoblash texnikasi bilan ta'minlash masalasini, ushbu ish joyi orqali o'tadigan axborot hajmi va qayta ishslashining zaruriy tezligini bilmasdan hal qilib bo'lmaydi.

Moddiy oqimni quyidagi tarzda boshqarish mumkin:

-oqim yo'nalishini o'zgartirib;

-jo'natish tezligini, unga muvofiq bo'lgan qabul qilish tezligigacha cheklab;

-oqim hajmini ayrim bo'lim yoki tarmoqning o'tkazish qobiliyati kattaligigacha cheklab.

Axborot oqimi bir vaqt birligi ichida qayta ishlanadigan yoki o'tkaziladigan axborot miqdori bilan o'lchanadi.

Biror-bir ma'lumotdagi axborot miqdorini tashish usullari, kibernetika fanining axborot nazariyasi bo'limida o'r ganiladi. Ushbu nazariyaga muvofiq axborot miqdori birligi sifatida, ikkilangan birlik –Bit qabul qilingan. Elektron hisoblash texnikasini qo'laganda axborot baytlarda o'lchanadi. Bundan kelib chiqan xolda kilobayt, megabayt va gigabaytlardan ham foydalaniadi.

Xo'jalik faoliyati amaliyotida axborot quyidagicha o'lchanishi mumkin:

- qayta ishlagan yoki uzatilgan hujjatlar miqdori bilan\*

- qayta ishlanadigan yoki uzatiladigan hujjatlardagi hujjat qatorlarining umumiyligi soni bilan.

Shuni ham etiborga olish lozimki, iqtisodiy tizimlarda, logistik operatsiyalardan tashqari, axborot oqimi sodir bo'lishi va uzatilishi bilan kuzatiladigan, boshqa operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Ammo logistik axborot oqimi umumiyligi axborot oqimining eng ahamiyatli qismini tashkil etadi. Ayniqsa ishlab chiqarish korxonalari va ulgurji savdo korxonalarida bu xol yaqqol sezilib turadi.


## 11.2. Axborot tizimlari.

Har bir logistik tizimining muhim unsuri bo'lib, ahborot o'tishi va qayta ishlanishini ta'minlovchi tizimcha xizmat qiladi. O'z navbatida bu «tizimcha» ham turli xil tizimchalardan tashkil topgan murakkab axborot tizimidan iboratdir. Boshqa tizimlar singari, axborot tizimi ham tartibli o'zaro bog'langan unsurlardan tashkil topishi va integrativ jihatlarning biror- bir birligiga, «yig'indisiga» ega bo'lishi lozim. Ko'p hollarda ahborot tizimlarini ikkita tizimchaga ajratadilar: funksional va ta'minlovchi (11.1 - rasm)

Funksional tizimcha, maqsadning umumiyligi belgisi bo'yicha guruhlangan, yechiladigan masalalar yig'indisidan iborat. Ta'minlovchi tizim esa, o'z navbatida, quyidagi unsurlarni o'z ichiga oladi:

- texnik ta'minot, ya'ni axborot oqimlarini qayta ishslashni va uzatishni ta'minlovchi texnik vositalari yig'indisi;

- ahborot ta'minoti, u o'z ichiga turli ma'lumotlar, klassifikatorlar, kodifikatorlar, ma'lumotlarni rasmiy izohlash vositalarini oladi;
- matematik ta'minot, ya'ni funktsional masalalarni yechishning uslublari yig'indisi.



Shartli belgilar:

A- texnik ta'minot

B- axborot ta'minoti

V- matematik ta'minot

G- boshqa ta'minot vositalari


#### 11.1.-Rasm. Axborot tizimi tuzilmasi

Logistik axborot tizimlari, odatda logistik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi sifatida namoyon bo'ladilar. Shuning uchun ham logistik axborot tizimlaridagi matematik ta'minot – bu dasturlar majmui va moddiy oqimlar boshqaruvi masalalari yechilishini, matnlarni qayta ishlashni, so'rov ma'lumotlarini olishni va texnik vositalar amal qilishini ta'minlovchi dasturlash vositalari yig'indisidir.

Logistikaning axborot tizimlaridagi unsurlar orasidagi aloqalarni tashkil etilishi, ana'naviy ahborot tizimlarinikidan sezilarli ravishda farq qilishi mumkin. Logistikada axborot tizimlari barcha unsurlarni har tomonlama integratsiyasini, ta'minlashlari lozim. «*Logistik tizimlarning axborot texnik ta'minoti, axborot jihatlari va uni qayta ishslashning texnik vositalari to'plami bilan emas, balki ularni barpo etish uchun qo'llaniladigan uslublar va tamoyillar bilan farq qiladi*».

Axborot tizimi ta'rifini quyidagicha ifodalash mumkin: axborot tizimi – bu u yoki bu funktsional masalalar (logistikada – moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha masalalar) yechimini ta'minlovchi, o'zaro bog'langan hisoblash texnikasi vositalarining muayyan tarzda tashkil etilgan yig'indisi birligidir. *Logistikada axborot tizimlari turlari*

Logistikada axborot tizimlari ayrim korxona miqyosidagi moddiy oqimlarni boshqarish maqsadida, yoki mintaqa, mamlakat va hattoki mamlakatlar guruhlari hududidagi logistik jarayonlarni tashkil etishga yordam berish uchun tashkil etilishlari mumkin. (11.2- rasm).



11.2-Rasm. Logistikada qo'llaniladigan axborot tizimlari turlari.

Ayrim korxona miqyosidagi axborot tizimlarini o'z navbatida uch guruhga ajratadilar:

- rejali;
- dispozitiv (yoki dispatcherlik);
- bajaruvchi (yoki operativ).

Har xil guruhlarga mansub bo'lgan logistik axborot tizimlari, o'zlarining funksional va ta'minlovchi tizimchalari bilan farqlanadilar. Ta'minlovchi tizimchalar o'zlarining barcha unsurlari, ya'ni texnik, axborot va matematik ta'minoti bilan bir-biridan farq qilishlari mumkin. Ayrim axborot tizimlarining xususiyatlariga bat afsil to'xtalib o'tamiz.

**Rejali axborot tizimlari.** Bu tizimlar boshqaruvning ma'muriy darajasida (bosqichida) barpo etiladilar va strategik uzoq muddatli qarirlarni qabul qilishga yordam beradilar. Yechiladigan masalalar orasida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- logistik zanjir bo'g'inlarini yaratish va ularni optimallashtirish;
- shartli-muntazam, ya'ni kam o'zgaradigan ma'lumotlarni boshqarish;
- ishlab chiqarishni rejaliashtirish;
- zaxiralarni umumiy boshqaruvini amalga oshirish;
- rezervlarni boshqarish va boshqa masalalar.

**Dispozitiv axborot tizimlari.** Bu tizimlar ombor yoki tsexni boshqarish darajasida (bosqichida) barpo etiladilar va logistik tizimlarning yaxshi yo'lga qo'yilgan ishini ta'minlash uchun xizmat qiladilar. Bunda quyidagi masalalar o'z yechimini topishlari mumkin:

- zaxiralarni (omborga qo‘yishni) ... boshqarish;
- ombor (q.x. korxonasi) ichidagi transportni boshqarish;
- buyurtmalar bo‘yicha yuklarni tanlash, butlash, jo‘natiladiganlarini hisobga olish va boshqalar.

**Boshqaruvchi axborot tizimlari** ma’muriy yoki operativ boshqaruv darajasida (bosqichida) barpo etiladilar. Bu tizimlarda axborotlarni qayta ishlanishi, ularni EHMga kelib tushishi tezligida amalga oshiriladi. Bu ishlarning barchasi birdaniga amalga oshiriladi, hamda ishlab chiqarish va xizmatlarining hozirgi holati to‘g‘risida ma’lumot olish, hamda boshqaruv ob’ektlariga nisbatan tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish imkonini beradi. Ushbu tizimlar moddiy oqimlar nazorati, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatishni operativ boshqaruvi, harakatlanishlar boshqarilishi va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xildagi masalalarni yechishlari mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ta’minlovchi tizimchalarda ham farqlar mavjud. Rejali, dispozitiv va bajaruvchi axborot tizimchalari dasturiy ta’minotining tavsifiy xususiyatlariga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Moddiy oqimlarni boshqarishning ko‘p bosqichli avtomatlashgan tizimlarini yaratish, dasturiy ta’minot ishlab chiqish sohasidagi katta xarajatlar bilan bog‘liqdir. Dasturiy ta’minot bir tomondan tizimning ko‘p funktsionalliligini, ikkinchi tomondan esa uning yuqori darajadagi integratsiyasini ta’minlashi lozim. Shu munosabat bilan, logistika sohasida boshqaruvning avtomatlashgan tizimlarini yaratishda nisbatan arzon bo‘lgan, mahalliy sharoitlarga moslashgan, standart dasturiy ta’minotni ishlatish imkoniyatlari izlanishi kerak.

Hozirgi kunda yetarlicha takomillashgan dasturlar paketlari yaratilmoqda. Ammo ular axborot tizimlarining barcha turlarida qo‘llanilavermaydi. Bu moddiy oqimlar boshqaruvida yechiladigan masalalarning standartlashish darajasiga bog‘liq. Rejali axborot tizimlaridagi masalalarni yechishda standartlashish darjasini eng yuqori, bu esa standart dasturiy ta’minotni deyarli qiyinchiliklarsiz moslashtirish imkonini beradi. Dispozitiv axborot tizimlarida standart dasturlar paketini moslashtirish imkoniyati past. Bu bir qator sabablarga bog‘liq:

- korxonalardagi ishlab chiqarish jarayoni tarixan shakllanib kelgan va biror-bir o‘zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi;
- turli foydalanuvchilardagi qayta ishlanadigan ma’lumotlar tuzilmasi keskin farqlanadi.

Bajaruvchi axborot tizimlaridagi boshqaruvning operativ darajasida, ko‘p hollarda, individual dasturiy ta’minot qo‘llaniladi.

### **11.3. Shtrix-kodlarni avtomatik aniqlash usullarini qo‘llash.**

Logistik zanjirning har bir bo‘g‘ini orqali katta miqdordagi tovar birliklari o‘tadi. Har bir bo‘g‘in ichida ham tovarlar bir necha marta saqlash va qayta ishlash joylari bo‘ylab

harakatlanadilar. «Tovarlar harakatining butun tizimi – bu uzlusiz harakatdagi diskret oqimlardir, ularning tezligi ishlab chiqarish salohiyatiga, yetkazishlar muntazamligiga, mavjud zaxiralar o‘lchamlariga, va shuningdek realizatsiya va iste’mol tezligiga bog‘liqdir.» Bunday dinamik logistik tizimi samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun unga kiruvchi va undan chiquvchi, hamda uni ichida aylanib turuvchi moddiy oqimlarning assortimenti to‘g‘risidagi axborotga doimiy ravishda ega bo‘lish zarur.

CHet el tajribalariga qaraganda, bu muammoni yechish uchun moddiy oqim bilan bo‘lgan logistik operatsiyalarda alohida yuk birligini aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lgan mikroprotsessorli texnikani ishlatish zarur. Gap, albatta, turli xildagi shtrix-kodlarni «o‘qiy oladigan» uskunalar xaqida. Ushbu uskunalar, logistik operatsiya xaqidagi axborotni, u amalga oshirilayotgan vaqtda va joyda – xo‘jaliklar, sanoat korxonalari, ulgurji bazalar, do‘konlar omborlarida, transportda – olish imkonini beradilar. Olingan axborot vaqtning real miqyosida qayta ishlanadi, bu esa boshqaruv tizimiga optimal muddatlarda javob qaytarish imkonini beradi.

Axborotni avtomatik to‘plash turli xildagi shtrix-kodlarni ishlatishga asoslangan, ularning har biri o‘z texnologik ustunliklariga ega. Masalan 13.3-rasmdagi ITF-14 kodi o‘z ixchamliligi bilan ajralib turadi va tovar partiyalarini kodlash uchun ishlatiladi.


11.1-jadvalda turli mamlakatlar kodlari keltirilgan.

### **11.1-jadval.**

#### **EAN assotsiatsiyasi tomonidan mamlakatlarga berilgan kodlar.**

Mamlakat	EAN kodi	mamlakat	EAN kodi
AQSH va Kanada	00-13	Iordaniya	625
Frantsiya	30-37	Eron	626
Bolgariya	380	Finlyandiya	64
Sloveniya	383	Xitoy	690-692
Xorvatiya	385	Norvegiya	70
Bosniya va Gertsegovina	387	Isroil	729
Germaniya	400-440	SHvetsiya	73
Yaponiya	45,49	Gvatemala	740
Rossiya	460-469	Salvador	741
Tayvan	471	Gonduras	742
Estoniya	474	Nikaragua	743
Latviya	475	Kosta-rika	744
Litva	477	Panama	745
Uzbekistan	478	Dominik Resp	746

SHri-Lanka	479	Meksika	750
Fillipin	480	Venesuela	759
Belarus	481	SHveytsariya	76
Ukraina	482	Kolumbiya	770
Moldova	484	Urugvay	773
Armeniya	485	Peru	775
Gruziya	486	Boliviya	777
Kazaxstan	487	Argentina	779
Gonkong	489	CHili	780
Buyuk Britaniya	50	Paragvay	784
Gretsiya	520	Ekvador	786
Livan	528	Braziliya	789
Kipr	529	Italiya	80-83
Makedoniya	531	Ispaniya	84
Mal̄ta	535	Kuba	850
Irlandiya	539	Slovakiya	858
Bel̄giya,	54	CHexiya	859
Portugaliya	560	Yugoslaviya	860
Islandiya	569	Turkiya	869
Daniya	57	Niderland	87
Pol̄sha	590	Janubiy Koreya	880
Ruminiya	594	Tailand	885
Vengriya	599	Singapur	888
JAR	600-601	Indiya	890
Mavrikiiy	609	V̄ietnam	893
Marokko	611	Indoneziya	899
Aljir	613	Avstriya	90-91
Tunis	619	Avstraliiya	93
Suriya	621	Yangi Zelandiya	94
Misr	622	Malayziya	955




0 5 4 1 2 3 4 5 6 7 8 9 0 8

### 11.3-Rasm. ITF-14 kod.


Logistikada boshqa kodlarga qo'shimcha ravishda 128-kodi ishlatilishi ham mumkin (11.4 rasm). Ushbu kod bilan partiya raqami, ishlab chiqarish sanasi, realizatsiya muddati va boshqalar kodlangan bo'lishi mumkin.

Muomala sohasida esa EAN kodi (11.5 rasm) keng tarqalgan, uni ommaviy iste'mol tovarlarida tez uchratib turish mumkin.



1 6 9 0 1 2 C X 3 4

### 11.4 –Rasm. 128-kod. Qo'shimcha axborot kodlash uchun boshqa kodlar bilan ishlatiladi.



4 7 8 0 3 0 0 0 0 0 7 3 9

11.5 – Rasm EAN-13 kod. Birinchi 3ta raqam mamlakat kodi, ikkinchi 6ta raqam korxona kodi va keyingi 3ta raqam mahsulot kodi. Oxirgi 1ta raqam kontrol kodi. Kodni to'g'ri hisoblanganini ko'rsatadi.

Logistikada shtrix kodlarni avtomatik aniqlash texnologiyasini qo'llash, logistik jarayonning barcha bosqichlarida moddiy oqimlarni boshqarishni yaxshilash imkonini beradi. Uning asosiy ustunliklarini aytib o'tamiz.

Ishlab chiqarishda:

- mahsulotlar va ularni butlovchi qismlarini har bir uchastkadagi harakatini va shuningdek umuman korxonadagi logistik jarayonning holatini, hisobga olish va nazorat qilishning yagona tizimi barpo etilishi;
- yordamchi personal va hisobot hujjatlar sonini kamayishi, xatolar yo'qolishi;

Ombor xo'jaligida:

- moddiy oqimni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashdirilishi;
- moddiy zaxiralarni inventarizatsiyalash jarayonini avtomatlashdirilishi;
- moddiy va axborot oqimlari bilan bo'ladigan logistik operatsiyalar vaqtini qisqarishi;

Savdoda:

- moddiy oqimni hisobga olishni yagona tizimini yaratilishi;
- tovarlar buyurtmasi va inventarizatsiyasini avtomat-lashtirilishi;

xaridorlarga xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqarishi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning ichki va xorij bozorlarida raqobatbatdoshligini oshirish, tovar ishlab chiqaruvchini tovar raqami xalqaro tizimi doirasida identifikatsiyalash, iste’molchi huquqlarini himoya qilish, tovarlarni ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 21 sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasida shtrixli kodlashni joriy qilish to‘g‘risida” 438-sonli qaror qabul qildi.

Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan tovarlari “EAN” shtrixli kod bilan markalanadigan tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini ro‘yxatga olish, tovarlarni xalqaro talablarga muvofiq identifikatsiyalash tizimidan foydalanuvchilar faoliyatini uslubiy boshqarish uchun tovar va xizmatlarni avtomatik tarzda identifikatsiyalash “EAN UZBEKISTAN” markazi tashkil etilganligi qayd etilgan.

Tovar va xizmatlarni avtomatik tarzda identifikatsiyalash “EAN UZBEKISTAN” markazi EAN International a’zosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni raqamlash bo‘yicha yagona tashkilot - EAN International vakili hisoblanadi.

## **12-MAVZU. MOLIYAVIY LOGISTIKA**

**Reja:**

1. Moliyaviy logistika oqimlari tushunchasi, mohiyati va tasnifi.
2. Moliyaviy oqimlarni boshqarish. Raqobatbardosh iqtisodiy oqimlar va ularni logistikatsiyalash.
3. Logistikada iqtisodiy-matematik modellashtirish.

### **12.1. Moliyaviy logistik oqimlar tushunchasi, mohiyati va tasnifi.**

Logistikada moddiy oqimlarga moliyaviy xizmat ko‘rsatishning asosiy maqsadi ularning harakatini eng samarali moliyaviy manbalardan foydalangan holda kerakli miqdorda, kerakli muddatda moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hisoblanadi. Hech bo‘lmaganda bunday holatda har bir moddiy oqimga o‘zining yagona moliyaviy oqimi to‘g‘ri keladi.

SHakllanayotgan va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tovar oqimlarining harakati samaradorligini oshirish ko‘pincha ularga moliyaviy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash hisobidan erishiladi. Bu esa o‘z navbatida logistik moliyaviy oqimlarni ajratish va o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tovar oqimlariga moliyaviy xizmat ko‘rsatish mexanizmi ayni paytda hali unchalik o‘rganilmagan soha hisoblanadi va ko‘plab masalalarga turlicha qarashlar mavjud. Shuningdek,

bunday tafovut moliyaviy oqimlar mohiyatini aniqlashda ham kuzatiladi. Mazkur muammoni o‘rganishda ikkita asosiy yondoshuvni ajratish mumkin:

1. moliyaviy oqim deganda moliyaviy mablag‘larning makro va mikro logistik muhitdagi har qanday ko‘chishi tushuniladi;

2. moliyaviy mablag‘larning faqat logistik tizimlar yoki ular o‘rtasidagi harakati.

Birinchi nuqtai nazarga amal qiladigan olimlar moliyaviy oqim mohiyatini avvalambor, moliyaviy mablag‘lar umumiyligining vaqtdagi o‘zgarishlari bilan bog‘laydi. Masalan, makroiqtisodiy nazariya bo‘yicha katta mutaxassis hisoblangan Lourens Xarris oqim va zahira tushunchalari o‘rtasida farqni quydagicha tushuntiradi: “Zahiraning o‘zgaruvchanligi faqatgina ma’lum bir paytda aniqlanishi mumkin, uning hajmi esa vaqt ko‘lamiga ega emas. Oqimning o‘zgaruvchanligi esa faqat davriy aylanish (vaholanki ushbu davr juda kam bo‘lishi mumkin) sifatida aniqlanishi mumkin, uning hajmi vaqt o‘lchamiga ega”.

Ushbu nuqtai nazar A.V.Popov tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Muallifning fikricha, pul oqimi harakatni, ya’ni korxonada pul oqimlarining kelishi va ketishini ifoda etadi.

Oqimning hajmi har qanday vaqt oralig‘iga mo‘ljallanishi va ushbu davrda amalga oshirilgan pul mablag‘larining kelib tushishi hamda to‘lovlariga teng bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi nuqtai nazarga amal qiluvchi olimlar hozircha moliyaviy oqim mohiyatiga nisbatan yagona fikrga kelganicha yo‘q. Ko‘pchilik olimlar moliyaviy oqimni tijorat logistikada boshqaruv ob’ektining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Masalan, A.U.Albekov va D.D.Kostoglodov o‘zlarining o‘quv qo‘llanmasida O.A.Novikov va S.A.Uvarov kabi olimlarning qarashlarini ko‘rib chiqadi. Ushbu olimlar “korxonaning moliyaviy yutug‘i faqatgina moddiy resurslar harkati bilan ta’milanishi mumkin emas, tijorat logistikada boshqaruv ob’ekti moddiy resurslar, xizmatlar va moliya jammuljamligi hisoblanadi”, deb hisoblaydi. B.K.Plotkin ham xuddi shunday fikrda. U logistik kontseptsiya mohiyatini tadqiq etar ekan, “mazkur kontseptsiya tovar ishlab chiqarish sharoitlarida moddiy resurslarning harakati tabiiy-ashyoviy shaklda moliyaviy mablag‘lar harakatini keltirib chiqaradi va ushbu harakat bilan kechishiga asoslanadi. Buning ustiga har ikki oqim ham dialektik birlikda bo‘ladi. Shunday qilib tijorat logistikasida bir butun ob’ekt - tovarlar+pul yoki mahsulot+moliya boshqaruv ob’ekti hisoblanadi”, deb ta’kidlagan.

Logistikada moliyaviy oqimlar mohiyati va o‘rniga nisbatan Ye.V.Nushtaeva ham o‘z nuqtai nazarini keltiradi. U moddiy resurslar harakatini logistik tizim doirasida boshqarish zarurligini ushbu harakatni ta’minlovchi moliyaviy resurslarni boshqarish bilan chambarchas bog‘liqlikka asoslaydi. Shu sababli Ye.V.Patusheva “moliyaviy resurs”, “kapital” va “moliyaviy oqim” kabi tushunchalar mohiyatini ko‘rib chiqadi. Muallifning fikriga ko‘ra, moliyaviy resurs - bu xo‘jalik yuritish sub’ekti ixtiyoridagi pul mablag‘lari, kapital - bu oborotga yo‘naltirilgan va shu oborotdan foyda keltiradigan moliyaviy resurslarning bir qismi, **moliyaviy oqim** - bu moliyaviy resurslarning

logistik tizimda va ular o‘rtasida moddiy oqimlar harakatini ta’minlash uchun kerak bo‘lgan yo‘naltirilgan harakati.

Shunday qilib, logistik moliyaviy oqimlar tovar oqimlarining samarali o‘tishi uchun yaratiladi va foydalaniladi. Bunda ularning xususiyatlari birinchi galda aynan tegishli moddiy oqimning kenglik va vaqt bo‘ylab ko‘chishi jarayoniga xizmat ko‘rsatishdan iborat.

Demak, **logistik moliyaviy oqim** - bu moliyaviy mablag‘larning logistik tizim, shuningdek, muayyan moddiy oqimning samarali harakatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan logistik tizim va tashqi muhit o‘rtasida aylanib yuradigan yo‘ltirilgan harakatidir.

Logistik moliyaviy oqimlar tarkibi, harakat yo‘nalishlari, belgilangan maqsad va boshqa qator belgilar bo‘yicha bir xil emas. Logistik moliyaviy oqimlarni eng samarali boshqaruvi usulini aniqlash ehtiyoji ularni batafsil tasniflashga sabab bo‘ladi. Logistikada moliyaviy oqimlari tasniflash uchun quyidagi asosiy belgilar ajratilgan (35-rasm).

1. Logistik tizimga nisbatan quyidagilar farqlanadi:

- tashqi muhitda mavjud, ya’ni logistik tizimning ko‘rib chiayotgan chegarasidan tashqaridagi tashqi moliyaviy oqimlar;

- logistik tizim ichidagi va moddiy oqimlarga mos keladigan qator logistik operatsiyalarni bajarish hisobidan turini o‘zgartiruvchi ichki moliyaviy oqimlar.

2. Tashqi logistik moliyaviy oqimlar harakat yo‘nalishi bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:


- kiruvchi, ya’ni bunda moliyaviy oqim ko‘rib chiqilayotgan logistik tizimga tashi muhitdan kelib tushadi;

- chiquvchi moliyaviy oqim o‘z harakatini ko‘rib chiqilayotgan logistik tizimdan boshlaydi va tashqi muhitda mavjudligini davom ettiradi.

### **35- rasm. Logistikada moliyaviy oqimlarning tasnifli chizmasi.**

3. Logistik moliyaviy oqimlar belgilangan maqsadi bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- tovarlar sotib olish jarayoni bilan bog‘liq moliyaviy oqimlar;
- investitsiyaviy moliyaviy oqimlar;
- ishchi kuchini ishlab chiqarish bo‘yicha moliyaviy oqimlar;
- korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida moddiy sarf- harajatlarni shakllantirish bilan bog‘liq moliyaviy oqimlar;
- tovarlarni sotish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy oqimlar.



4. Logistik moliyaviy oqimlar tovarlarga bo‘nak qimaytiga o’tkazish uslubi bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

- korxonaning asosiy jamg‘armalari harakatiga hamrohlik qiladigan (ularga investitsiyaviy moliyaviy oqimlar va moddiy harajatlarni shakllantirish bilan bog‘liq qisman moliyaviy oqimlar kiradi);
- korxonaning aylanma mablag‘lari harakati bilan bog‘liq (ularga moliyaviy oqimlarni belgilangan maqsad bo‘yicha tasniflashda ajratilgan moliyaviy oqimlarning barcha qolgan guruhlari kiradi).

5. Logistikada barcha moliyaviy oqimlarni hisob-kitoblarning qo‘llanilayotgan shakllaridan qat’i nazar ikkita katta guruhga tabaqlashtirish mumkin:

- so‘m va valyuta hisob-kitobi bo‘yicha naqd moliyaviy resusrlar oqimiga bo‘linadigan naqd moliyaviy mablag‘lar harakatini ta’riflaydigan moliyaviy pul oqimlar;
- axborot-moliya oqimlari naqd pulsiz moliyaviy mablag‘lar harakati bilan bog‘liq bo‘lib, ularga to‘lov topshiriqlari, hisob-kitob cheklari hisob-kitob qilish bo‘yicha naqd pulsiz moliyaviy resurslar kiradi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishda to‘lov hujjatlari harakati to‘g‘risidagi axborot oqimi bir xil yo‘nalishga va tovar oqimi bilan paydo bo‘lish manbaiga ega. Bunda moliyaviy oqim o‘zining bevosita harakatini banklarning korxona-xaridor va korxona-sotuvchi vakolatli bo‘limlari o‘rtasida amalga oshiradi va tovar oqimiga nisbatan qarshi yo‘nalishga egadir. Tovar, axborot va moliyaviy oqimlar harakatining umumiy chizmasi barcha oqim jarayonlari boshlanishining bir-biriga mosligi hisobga olingan holda keltirilgan. Biroq naqd pulsiz hisob-

kitoblarning har qanday mo‘ayyan shakli mahsulot, to‘lov hujjatlari va pul harakatining o‘z navbatini ko‘zda tutadi.

- hisobga olish-moliyaviy oqimlar tovarlarni ishlab chiqarishda yoki bo‘nak qiymatini ko‘paytirish bosqichida xizmat ko‘rsatishda paydo bo‘ladi. Bo‘nak qiymatini ko‘paytirish deganda tijorat tashkilotining ishlab chiqarish jarayonida moddiy harajatlarni shakllantirish jarayoni tushuniladi.

Moliyaviy resurslarning mazkur jarayon doirasidagi harakatini esa logistik hisobga olish-moliyaviy oqim ifodalaydi.

**6. Xo‘jalik aloqalari turlari bo‘yicha quyidagilar farqlanadi:**


- tadbirkorlik faoliyatining teng huquqli sub’ektlari o‘rtasidagi moliyaviy mablag‘lar harakatini aks ettiruvchi gorizontal moliyaviy oqimlar;
- sho‘ba va bosh tijorat tashkilotlari o‘rtasida o‘tadigan vertikal moliyaviy oqimlar.

Zamonaviy moliya bozorini rivojlantirishning shakli va yo‘nalishlarining xilma-xilligi, shuningdek, uning O‘zbekistonda bozor munosabatlarini barqarorlashtirish sharoitlarida faoliyat yuritish mexanizmining o‘ziga xos xususiyati tovar oqimlari harakatiga moliyaviy xizmat ko‘rsatishda qimmatli qog‘ozlar va ularning hosila vositalaridan keng foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, fond bozori vositalarini samarali qo‘llash moliyaviy oqimlarni optimallashtirishdan tashqari korxona-sotuvchi va korxona-xaridor xo‘jalik faoliyatining samarali ko‘rsatkichlarini ancha yaxshilash imkonini beradi. Birinchi navbatda, bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning soliq to‘lovlarini minimallashtirish orqali sof foyda olishni ko‘paytirishni yaxshilashga ta’aluqli. Ayni paytda ularni pasaytirish uchun davlat qimmatli qog‘ozlarining ayrim turlari va turli emitentlar veksellarini chiqarish hamda muomalaga kiritish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Ushbu sohada O.A.Novikov, S.A.Uvarov kabi olimlar korxonalarining soliq solinadigan bazalarini fond bozorlarining qayd etilgan vositalarini qo‘llagan holda kamaytirishning mavjud chizmalaridan ba’zilarini ko‘rib chiqmoqda. Odatda sotib oluvchi korxona oldi-sotdi bitimlarini moliyaviy ta’minalashda ularning tijorat banklarida hisob-raqamlarida to‘plangan pul mablag‘laridan foydalanadi. Ayni paytda ular uchun quyidagi chizmalarni qo‘llash samaraliroq bo‘lishi mumkin (2-rasm): sotib oluvchi korxona o‘zining mavjud pul mablag‘larini imtiyozli soliq solish ko‘zda tutilgan qimmatli qog‘ozlar (masalan, davlat yoki mahalliy qisqa muddatli obligatsiyalar) sotib olishga yo‘naltiradi, kerakli tovarlar sotib olish uchun esa tijorat bankdan kredit oladi. Bunday holatda kredit bo‘yicha qonunchilik tomonidan belgilangan stavkalar doirasidagi foizlar ishlab chiqarish va tovarlar aylanishiga ketadigan harajatlar tarkibida hisobga olinadi, sotib olingan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olingan daromadlar esa alohida hisobga olinadi va imtiyozli soliq solinadi.


Ko'rib chiqilgan chizmalarni sotib oluvchi korxonaning amaliy faoliyatida samarali qo'llash uchun qo'shimcha omillar, ya'ni kredit qiymati va uni qaytarish muddati, davlat yoki mahalliy obligatsiyalarni sotib olishda tijorat bankining vositachilik miqdori, pul mablag'larini o'tkazish muddati, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat yuritish qonunchiligi va hokazolarni hisobga olish zarur. Sanab o'tilgan omillarni fond bozorida ishlaydigan va uni biladigan kon'yutura o'zgarishini aytib berish qobiliyatiga ega mutaxassislarning ishtirokisiz har tomonlama tahlil qilib bo'lmaydi. Bunday mutaxassislarning tajribasi ko'p holatlarda taklif etilgan chizma uning 30 kun mobaynida umumiyl davom etishida ijobjiy natija berishini ko'rsatadi.

Sotib oluvchi korxona tomonidan sotib olish operatsiyalari samaradorligini oshirish uchun davlat va mahalliy qimmatli qog'ozlardan foydalanish sharoitlarida tovar hamda moliyaviy oqimlarning harakati 36- rasmida keltirilgan.


Oqim jarayonlari chizmasi sotib oluvchi korxona hisob-raqami ochilgan tijorat banki ushbu korxona uchun bir vaqtning o'zida kreditor-bank hisoblanishi to'g'risidagi taklifdan kelib chiqqan holda soddalashtirildi. Haqiqatda esa bunday holat har doim ham uchramasada, eng qulay hisoblanishi mumkin (36-rasm).



**36-расм. Товар ва молиявий оқимлар ҳаракатининг оддий чизмаси.**



**37-расм. Накд ҳисоб-китобларни амалга оширишда товар, ахборот ва молиявий оқимлар ҳаракатининг умумий чизмаси.**




**38-рasm. Sotib oluvchi korxona tomonidan soliq to'lovlarini minimallashtirishda tovar va moliyaviy oqimlar harakatining namunaviy chizmasi.**

CHizma tahlil shuni ko‘rsatadiki, logistik moliyaviy oqim (ya’ni asosiy tovar oqimi - tovar-moddiy boyliklar oqimi harakati bilan bog‘liq moliyaviy oqim) tashkil topish manbalari bo‘yicha tijorat bankining kredit resurslari hisobidan tashkil topgani bois qarz hisoblanadi. Ayni paytda sotib oluvchi korxona o‘z pul mablag‘laridan davlat yoki mahalliy qimmatli qog‘ozlar sotib olish uchun foydalanadi. Bu esa logistik moliyaviy oqimlarga hamrohlik qiladigan 2-moliyaviy oqimni shakllantiradi. Qimmatli qog‘ozlarning harakati o‘z navbatida, ular tovarlar hisoblagani boois yangi tovar oqimi - tovar-nomoddiy boyliklar oqimining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan tovar oqimlarini har birini alohida yoki bиргаликда optimallashtirish mumkin. Biroq faqat ikkinchi holatda oqimlar jarayonini boshqarishda logistik yondoshuvdan foydalanish mo‘ayyan korxona uchun katta iqtisodiy samara keltiradi.

Korxonalarining xo‘jalik faoliyatida davlat va mahalliy qimmatli qog‘ozlardan tashqari ularning soliq to‘lovlarini minimallashtirish maqsadida foizli va diskont vekselar qo‘llanishi mumkin. Ularning muomalada bo‘lishi moliyaviy oqimlar harakati chizmasini sezilarli tarzda o‘zgartiradi.




- 1- Маҳсулот (товар оқими) харакати
- 2- сотувчи харидорга вексел беради
- 3- сотувчи векселни белгиланган муддатда тўлов учун

### **39- rasm. Oddiy vekseldan foydalanishda oqimlar jarayonlar chizmasi.**

Masalan, hisob-kitoblarda oddiy foizli vekseldan foydalanilganda tovarlar yetkazib berish uchun to‘lov summasi ikki qismga- veksel nominali va veksel foizlariga bo‘linadi. Bu esa tovarlar narxini pasaytirish va oborot soliqlarini kamaytirish imkonini beradi. Sotuvchi korxonaga oddiy foizli veksel yozdirgan sotib oluvchi korxona uchun veksel nominali xarid qilngan tovarlar narxini, uning foizlari esa ishlab chiqarish va muomala harajatlari tarkibida to‘liq hisobga olinadigan to‘lovn kechiktirilgani uchun to‘lovn aks ettiradi. O‘z navbatida tovarlari uchun ana shunday vekselga ega bo‘lgan sotuvchi uchun faqat veksel nominaligina qo‘sishimcha qiymat va oborotdagি boshqa soliqlar sifatida olinadi, uning foizi esa qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlarda hisobga olinadi. Ayni paytda bunday daromad bo‘yicha 15 foiz soliq to‘lanadi. Oddiy foizli vekselni qo‘llashda tovar va moliyaviy oqimlar harakati tartibi **5-rasmida** keltirilgan.

Keyingi paytda qimmatli qog‘ozlar bozorida odatda mahsulot yetkazib berishni tashkil etishda o‘zaro hisob-kitoblarni yaxshilash uchun qo‘llaniladigan turli emitentlarning o‘tkaziladigan diskont veksellari keng tarqalgan. O‘tkazish vekselini nominal qiymatdan past narxda sotib olish veksel beruvchi korxona bilan uning tovarlari va xizmatlari uchun hisob-kitob qilishda ma’lum miqdordagi pul mablag‘larini tejash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, veksel beruvchidan qarzdor korxonalar uning veksellarini uchinchi shaxsdan bajonidil qabul qiladi (o‘z tovarlarini yetkazib bergenligi uchun to‘lov sifatida) va ulardan qarzlarini so‘ndirish uchun foydalanadi. Biroq o‘tkazish vekselidan foydalanishdialogistik tovar oqimiga moliyaviy yerdam ko‘rsatish mexanizmi yanada murakkablashadi. Bu holatda moliyaviy oqim xarakati **40-rasmida** keltirilgan chizmadagim ko‘rinishda ega bo‘ladi.

Logistik moliyaviy oqim o‘tazish vekselini qo‘llashda oddiy vekseldan foydalanishda tovar oqimiga moliyaviy xizmat ko‘rsatish mexanizmi bilan taqqoslanganda faqat o‘tkazish vekseli muomalasi bo‘yicha barcha ko‘rsatilgan operatsiyalar bajarilgandagina ana shunday hisoblanadi. Buning ustiga vekselni qaytarish veksel beruvchi tomonidan belgilangan muddatda pul mablag‘larini to‘lash va kontragentlar o‘rtasida mavjud majburiyatlar hisob-kitobi orqali ham amalga oshirilishi mumkin.



**40-rasm. O‘tkazish vekselidan foydalanishda tovar va moliyaviy oqimlar harakati chizmasi.**

Moddiy oqimlarga xizmat ko‘rsatishning moliyaviy mexanizmini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, logistik moliyaviy oqimning mavjudligi birinchi navbatda ularga xizmat ko‘rsatayotgan moddiy oqimning mavjudligi bilan bog‘liq, ikkinchidan, moliyaviy oqimlarning yo‘nalishi, hajmi, paydo bo‘lish manbai va harakati boshlash vaqtini tovar sotuvchi va xaridor tomonidan o‘zaro kelishilgan hamda oldi-sotdi shartnomasida ko‘zda tutilgan hisob-kitob shakliga bog‘liq, uchinchidan, keyingi paytda keng tarqalgan tovar sotuvchi va xiridor o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarni optimallashtirish uchun turli qimmatli qog‘ozlar turlaridan foydalanish amaliyoti

bir tomonidan tovar oqimlariga moliyaviy xizmat ko'rsatish mexanizmini ancha murakkablashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan uni qo'llash samaradorligini oshirdi.

Logistika va moliyaviy rejalashtirish sohasida tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi olimlar fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlardan foydalangan holda o'zaro hisob-kitoblar chizmasining mo'ayyan shartlariga rioya qilish tovar yetkazib berish uchun to'lanadigan to'lovlar summasining 10 foizdan 30 foizigacha tejab qolish imkonini beradi.

Shuni hisobga olish kerakki, tovar oqimlariga moliyaviy xizmat ko'rsatishning mexanizmi xo'jalik aloqalarining xususiyatlariga ham bog'liq, ya'ni:

- bevosita (mahsulotni sotib oluvchi va sotuvchi o'rtasida bevosita o'rnatiladi) va bavosita (tijorat vositachi ishtirokida o'rnatiladi) aloqalar. Logistik tizimda uchinchi sub'ekt, ya'ni tijorat vositachisining borligi bilan aniqlanadigan bavosita xo'jalik aloqalarining o'ziga xos xususiyati logistik vositalarni mahsulotning ishlab chiqaruvchi korxonalardan iste'molchi korxonalarga harkatini tashkil etish hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatish sohasida qo'llash xususiyatlarini takshirish zarurligini yuzaga keltiradi.

## **12.2. Raqobat iqtisodiy oqimlar va ularning logistizatsiyasi.**

Bozor turidagi iqtisodiy oqimlar M.Porter tomonidan batafsil tekshirilgan raqobatning beshta ta'siri ostida tovar va xizmatlarning raqobat oqimlariga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan tovar va xizmatlarning quyidagi oqimlarini raqobatchi deyish mumkin:

- raqobatchi firmalar tomonidan ishlab chiqilishi mumkini bo'lgan o'xhash tovarlar va xizmatlar oqimi;
- o'zaro raqobatlasha oladigan o'rnini bosuvchi (substitlar) tovar va xizmatlar oqimi;
- tovar ishlab chiqaruvchilar foydalanish uchun raqobatlashadigan moddiy-texnika resurslari oqimi;
- iste'molchilarining tovar va xizmatlar bozoridagi raqobatlashayotgan to'lovga layoqatli ehtiyojlari oqimi;
- shakllangan bozordagi tovarlar va xizmatlarning raqobat takliflari oqimi.

Bu va boshqa iqtisodiy oqimlarni logistik tashkil etish ko'pincha raqobatning ijobjiy salohiyatini oshirgan holda, salbiy raqobat ta'sirini bartaraf etishga yordam beradi.

Raqobat muhitida iqtisodiy oqimlarni tizimli optimallashtirish logistika vositalaridan foydalanish logistik zanjir ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini qo'shilishini ta'minlashni ko'zda tutadi. Ayni paytda iqtisodiy oqimda har doim ishtirokchilar o'rtasida kelishuvni izlash va

o‘rnatish asosida iqtisodiy manfaatlarni birlashtirish imkoniyati yotadi. Xususan, ana shu haqda A.I.Semenko “logistik yondoshuvning paydo bo‘lishi va undan samarali foydalanish” sharoitlarini tekshirishda yozadi va ular quyidagilardan iborat:

- oqimli jarayonning tashkiliy yaxlitligi;
- oqimli jarayonning texnologik yaxlitligi;
- tovar ayriboshlash va qayta ishlab chiqarishning oqimli jarayonlarining iqtisodiy yaxlitligi;
- oqimli jarayonlarning axborot yaxlitligi.

Alohiba firma iqtisodiy oqimining tashkiliy yaxlitligini ta’minlash uchun uning barcha ishtirokchilari manfaatlarini umumiy boshqaruvi tizimini tashkil etish orqali tashkiliy va funksional asoslangan logistik markaz yoki logistik zanjir ishtirokchilaridan birining iqtisodiy oqimlarni boshqarish bo‘yicha vakolatini berish shaklida kelishirishni talab etiladi. Birinchi va ikkinchi holatda ham o‘zaro kelishuv kelinishi aniq va raqobat muhitida antagonistik ziddiyatlarni olib tashlanadi.

Logistika nafaqat moddiy oqimlar, balki iqtisodiy oqimlar bilan ish olib boradi. Bu borada A.I.Semenko logistikani quyidagicha ta’riflaydi: “Logistika bu yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lib, uning asosiy vazifasi iqtisodiy oqimlarni, shu jumladan ishlab chiqarish-tijorat (tadbirkorlik) faoliyati, tijorat va boshqa shakllardagi oqimli jarayonlarni mufassal tashkiliy-tahliliy optimallashtirish hisoblanadi”. Iqtisodiy oqimning firma tomonidan asoslangan va tashkil etilgan bat afsil ta’rifi “Marketing va firma logistikasi” o‘quv qo‘llanmasi mualliflari tomonidan taklif etilgan. Ular firmaning iqtisodiy oqimlarini “umumfirma maqsadlariga erishish uchun firmanın shaxsiy, qarz olingan va jalb qilingan resurslari harkatining o‘zaro bog‘liq va zaro asoslangan jarayonlar” sifatida ta’riflaydi. Firma iqtisodiy oqimlarining barcha turlari 1-javalda keltirilgan. **Raqobatdagi iqtisodiy oqimlarni logistikatsiyalash** - bu logistik zanjirlar ishtirokchilari o‘rtasida har bir iqtisodiy oqim harajatlari va natijalari bo‘yicha kelishuvlarni doimiy izlash demakdir.

Shunday qilib, raqobatdagi iqtisodiy oqimlar bu:

- iqtisodiy oqimlar harakati amalga oshiriladigan logistik zanjirlar (kanallar) ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini qo‘shilganligi;
- logistik tizimda iqtisodiy oqimlarni optimallashtirish va oqilona tashkil etish uchun yaratilayotgan iqtisodiy o‘zaro kelishuvlarni o‘rnatish;
- bozorning tashkiliy va iqtisodiy mustaqil sub’ektlari resurslarini ulardan iqtisodiy oqimlarda samarali foydalanish uchun kooperatsiyalash.

Bunda shuni esda saqlash kerakki, logistika raqobatni umuman bartaraf etmaydi, balki faqat insofsiz raqobat maydonini cheklaydi va raqobat kurashini logistik tizim tashqarisiga o‘tkazadi. Logistikning mazkur xususiyati avtomatik tarzda amalga oshirilmaydi va o‘zini qulay tashqi muhitda, ya’ni jamiyatning nisbatan iqtisodiy va siyosiy barqarorligida to‘liq namoyon qiladi.

### Firmaning iqtisodiy oqimlarining tasnifi

Tasnifiy belgisi	Oqimlar
Firmaga munosabat	Tashqi Firma ichidagi
Iqtisodiy tabiat	Moddiy Molivayi Mehnat Axborot
Ishlab chiqarish bosqichlari	Sotib olish (ta'minot) Ishlab chiqarish ichidagi Taqsimlash (sotish)
Boshqaruvchanlik darajasi	Firmaga bog'liq Firmaga bog'liq bo'limgan
Bog'liqlik darajasi	Bog'liq Bog'liq bo'limgan
Tarqatish ko'lami	Mikro oqimlar Makro oqimlar
Logistizatsiya xususiyati	Logistizatsiyalanmagan Qisman logistizatsiyalangan To'liq logistizatsiyalangan

Insofsiz raqobatdan uzoqlashgan holda, faqat raqobatdagi iqtisodiy oqimlargina ularni optimallashtirish va oqilona tashkil etishning yetarli darajada logistik imkoniyatiga ega, degan xulosaga kelish mumkin. Bunda raqobatdagi iqtisodiy oqimlar harakati amalga oshiriladigan logistik zanjirlar (kanallar) ishtirokchilari aholiqining quyidagi asosiy turlarini ajratish mumkin:

- umumtizim foydalar ishtirokchilarning xudbin maqsadlaridan ustun kelganda iqtisodiy manfaatlarni birlashtirishga asoslangan kooperativ ahloq;
- ishtirokchilar o'rtaida ularning bir-biriga o'zaro ko'nikishi asosida kelishiuvlarni doimiy izlashni nazarda tutadigan moslashuvchan ahloq;
- ishtirokchilar tomonidan o'zlarining qonuniy huquqlarining bir qismini yanada yuqori umumtizim samaraga ega bo'lish uchun ixtiyoriy berishini ko'zda tutadigan korporativ ahloq;
- tovarlar bozorida ustunlik qiluvchi firmalardan birining ishtirokchisini yoki ishlab chiqarish omillarini majburiy jalb etadigan jahldorlik ahloqi.

Har qanday holatda ham ya'ni raqobatdagi iqtisodiy oqimlarni logistizatsiyalash jarayonini tashabbus qiladigan logistik zanjir (kanal) ishtirokchisi bo'l mish firma quyidagi qator talablarga javob berishi kerak. Ushbu talablarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: 1) tashqi (raqobat) muhitiga moslashish qobiliyati; 2) o'zining iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyati. Birinchi guruhga odatda quyidagilar kiradi:

- tashqi muhitni, iqtisodiy oqimlarda raqobat kuchlarini marketing va logistik tahlil qobiliyati;
- iqtisodiy oqimlarda logistik va raqobat muammolarini o'z vaqtida aniqlash qobiliyati;
- bozor talablari va iqtisodiy oqimlarda raqobat takliflariga bir xil moslashish qobiliyati;

- firma va logistik zanjirning (kanal) boshqa ishtirokchilarining raqobat imkoniyatlarini oshirish imkonini beradigan marketing, logistik va boshqa iqtisodiy yangiliklarni joriy qilish qobiliyati;

- raqobatdagi iqtisodiy oqimlarni qamrab oladigan logistik tizimlar ishlashini shakllantirish va tashkil etish qobiliyati.

O‘z iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari kelsak, ular quyidagilarga tenglashtirilishi mumkin:

- nobarqaror iqtisodiy konbyutura sharoitida firmaning barqarorligini ta’minlash imkonini beradigan moliyaviy imkoniyatlar;

- logistik zanjir ishtirokchilar texnika va texnologiyasini birlashtirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratadigan texnika-texnologik imkoniyatlar;

- raqobatdagi iqtisodiy oqimlarda logistik yangiliklarni tatbiqni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradigan intellektual imkoniyatlar;

- axborot texnologiyalarini yaratishdan tortib yagona axborot muhitini shakllantirish uchun kerakli sharoitlar yaratadigan axborot imkoniyatları.

Raqobatchilikda firmaning (korporatsiya) logistik ustuvorligi deganda logistik salohiyatdan firma ichidagi (korporativlar ichidagi) va tashqi iqtisodiy oqimlarda yanada to‘liqroq va samaraliroq foydalanish tushuniladi. Umuman olganda ushbu ustuvorliklar quyidagicha tavsiflanadi:

- xo‘jalik aloqalari bo‘yicha kontragent, shuningdek, yetkazib beruvchilar, kreditorlar, tijorat vositachilar, iste’molchilar va boshqalarni muvaffaqiyatli tanlash;

- tayyor mahsulot va xizmatlar tovar harakatini taqsimlash va tashkil etishning eng maqbul kanallarini topish;

- eng ma’qul logistik zanjirlar va operatsiyalarni modellashtirish va amalga oshirish;

- barcha iqtisodiy oqimlarda resursni tejash strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish uchun eng qulaysharoitlar yaratish;

- logistik tizimlarning barcha ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini birlashtirish va boshqalar.

Bu va boshqa logistik afzalliklar firmaning logistika vositalaridan kompleks tarzda foydalanish hisobidan o‘ziga xos integral raqobat imkoniyatini shakllantiradi. Raqobat ustuvorligi va firma raqobatbardoshligining asosiy tizimni tashkil etuvchi logistika omili uning integral imkoniyati hisoblanadi. Bu borada quyidagi tamoiyllarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- strategik rivojlanish maqsadlariga javob beradigan samarali va moslashuvchan (rivojlangan va ixtisoslashgan) tashkilotni tashkil etish;

- funktsional faoliyatning samarali uyg‘un birligi va balansligini (ixtisoslashganligi va

rivojlanganligi) ta'minlash;

- rivojlanishning yuqori (ustunlik) salohiyatiga (ixtisoslashganligi va rivojlanganligi), barqaror va uzoq muddatli raqobat ustuvorligiga, ya'ni raqobatbardoshlikka ega sotuvchilar, yetkazib beruvchilar bilan xo'jalik aloqalari hamda ishblarmonlik munosabatlarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- xaridorlar va iste'molchilar bilan xo'jalik aloqalari va ishbilarmonlik munosabatlarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

rivojlanishning yuqori (ustunlik) salohiyatiga (ixtisoslashganligi, rivojlanganligi va talabchanligi), va yuksak raqobatbardoshlikka ega vositachi (tijorat) tashkilotlar bilan xo'jalik aloqalari hamda ishblarmonlik munosabatlarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- yuqori rivojlanish salohiyati va taqlid qilish emas, balki taqqoslash hamda qo'llab-quvvatlash uchun ma'lum bir standar sifatidagi yuqori raqobatbardoshlikka ega taniqli raqobatchilar bilan raqobatning keskinligi va jadalligi.

Firmaning raqobat imkoniyatining logistika va barcha omillarning ta'siri ostida muntazam ma'lum bir davriylik bilan ko'rinishi o'zgaradi. Odatda raqobat imkoniyatining davrlari firma raqobatbardoshligini ifodalaydigan tovar va boshqa yangiliklarni joriy qilishning hayotiy davrlariga deyarli o'xhash. Shundan kelib chiqqan holda, firma raqobatbardoshligi hayotiy davrining beshta bosqichini aniqlash mumkin:

- yuzaga kelish, ya'ni sezilarli darajada raqobat ustunligiga ega tovar yoki boshqa yangilikning paydo bo'lishi sababli firmanın raqobat imkoniyati shakllana boshlaydi;

- firmanın raqobat ustunligi o'sishini tezlashtirish;

- firmanın raqobat ustunligi o'sishini sekinlashtirish;

- firmanın raqobat ustunligining yetukligi raqobat imkoniyatini xo'jalik aylanmasiga jalb qilish natijasida boshlanadi;

- firma raqobat ustunligining pasayishi odatda ko'proq ustunlikka ega raqobatchilar ta'sirida sodir bo'ladi.

Raqobat ustunligi qancha ko'p saqlansa, firma yangiliklarni, shuningdek, iqtisodiy oqimlarni logistikatsiyalashni shuncha ko'p muvaffaqiyatli amalga oshiradi va raqobatni buzgan holda, vaqtinchalik monopoliyani sun'iy yaratadi.

### **Nazorat savollari**

1. "Moliyaviy oqim" tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
2. Moliyaviy oqim tushunchasini ta'riflang.
3. "Moliyaviy resurs" va "kapital" tushunchalari nimani anglatadi?
4. Moliyaviy oqimlar tasnifini ifodalang.

5. Raqobat oqimlar mohiyatini tushuntirib bering.
6. Raqobatdagi iqtisodiy oqimlar logitsikasi nima degani?
7. Korxonaning iqtisodiy oqimlari tasnifini ifodalang.
8. Raqobatdagi iqtisodiy oqimlar harakati amalga oshiriladigan logistik zanjir ishtirokchilari hulqining asosiy turlarini tushuntirib bering.
9. Raqobat ustunligini logistizatsiyalash mohiyati nimadan iborat?

## **13-MAVZU. LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH TIZIMIDA TOVAR BELGILARI VA SERTIFIKATSİYALASH**

**Reja:**

1. Logistik xizmat ko'rsatish majmuida tovar belgilari.
2. Tovar belgisini tanlash va ishlab chiqish.
3. Tovarga uzoq muddatli qulaylikni yaratish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar.
4. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va tovarlar hamda xizmatlarni sertifikatsiyalash.

### **13.1. Logistik servis majmuida tovar belgisi.**

Yaqin-yaqingacha iste'molchilar mahalliy mahsulotlar qadog'ida ba'zida bor bo'lган va logistik servis tizimini shakllantirgan tovar markasi, belgisi, boshqa tovar va korxona belgilariga unchalik alohida e'tibor bermasdi. Tovar taqchilligi esa xaridorga tovarni tanlash, sotishlarni axborot bilan ta'minlashda injiqlik qilish imkonini bermasdi, tanlashning o'zi esa mahsulot turi va narxiga nisbatan juda ahamiyatsiz edi. Bosh ustiga qadoqdagi tovarning reklama-axborot ta'minoti ham soddalashtirilgan edi: unda tovarning tayyorlangan muddati, foydalanish vaqtini, tayyorlovchi va mintaqa bahosi ko'rsatilar edi, xolos.

Bozor munosabatiga o'tish iste'molchidan tovarga nisbatan munosabatning yuzaga kelgan bir xillagini qayta ko'rib chiqishni talab qildi, tayyorlovchi korxonalarga esa raqobat sharoitida iste'molchilar xulq- atvori asoslarini hisobga olish va bozorning an'anaviy usullari yordamida tovar hamda korxona uchun o'zining shaxsiy individual imijini shakllantirshga to'g'ri keldi.

Iste'molchilarning asosli xususiyatlarini hisobga olish ularni ko'p sonli parametrlar bo'yicha tabaqlashtiradi. Ushbu parametrlardan biri – bu iste'molchilarning yangi tovar va qadoqdagi tovarning marka xususiyatlariga moslashuvchanligi bo'yicha segmentatsiyalash hisoblanadi.

Iste'molchilarga kam harajat bilan xizmat ko'rsatishning yuqori darajasini ta'minlaydigan tovar harakatining samarali tizimini yaratish, undan oqilona foydalanish shakli logistikating muhim vazifasi sanaladi. Logistika tizimi turli korxonalarni boshqarishda keng qo'llanilmoqda. Ushbu

tizim taqsimlash kanalini tanlash va shakllantirishda korxonaning marketing strategiyasini ishlab chiqish asosiga poydevor qo‘yadi.

Marketing nazariyasi iste’molchilarni tovarni qabul qilishga moslashishi bo‘yicha quyidagi o‘ziga xos guruhlarga bo‘ladi va ushbu tovarning u yoki bu bozor uchun son nisbatini va tovar guruhlarini oldindan taxmin qilish, keyinchalik esa sotilayotgan tovar siyosati asosida tuzatish maqsadga muvofiqdir:

- novatorlar – tavakkalchilikka, tajribaga moyil, odatda o‘z imkoniyatlarini eksklyuziv va korxona tovarlarini, ko‘pincha import tovarlarni sotib olishda amalga oshiruvchi yuqori ijtimoiy maqom va yuqori darajali daromadga ega iste’molchilar toifasiga kiramagan shaxslar;

- yangi tovarga tez ko‘nikadigan, tavakkalchilikka unchalik moyil bo‘lmagan, o‘ylab ish tutadigan va nozik tabiatli, biroq ijtimoiy xususiyatlari bo‘yicha yuqoridagi guruhga o‘xshash odamlar;

- yangi tovarga oson ko‘nikadigan, tavakkalchilikka moyil bo‘lmagan, ehtiyyotkor, tovarlar, ularning xususiyatlarini puxta o‘rganadigan, undagi marka va axborotni sinchkovlik bilan tekshiradigan iste’molchilarning kichik guruhi;

- yangi tovarga asta-sekin ko‘nikadigan, tovarni xarid qilishda o‘ta ehtiyyotkor, barcha yangiliklarga mutaasib (konservativ), o‘zgarishlarni ma’qullamaydigan, taqlidga moyil, odatda kam daromad va unchalik obro‘li kasbga ega bo‘lmagan iste’molchilarning katta guruhi;

- retrograd, ya’ni o‘ta qoloq - har qanday o‘zgarishga juda salbiy qaraydigan, yetarli darajada tasavvurga ega bo‘lmagan, yangi tovarga ta’sirchansiz iste’molchilar.

Xaridorlarning u yoki bu o‘ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish qobiliyati sotuvchiga ularni ushbu mahsulot aynan kerak bo‘lgan mahsulot ekanligini va uni xarid qilib to‘g‘ri qilayotganini dalillar bilan ishontirish imkonini beradi. Tayyorlovchi va sotuvchi ushbu murakkab vazifani u yoki bu reklama vositalari yordamida hal etishi mumkin. Uning eng muhim elementlaridan biri – bu tovar belgisidir.

**Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi – bu bitta yuridik yoki jismoniy shaxslarning tovar va xizmatlarini boshqa yuridik yoxud jismoniy shaxslarning shu kabi tovarlaridan ajratib turuvchi belgilardir.** Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomi to‘g‘risida”gi qonuni chiqarilgan.

Tovar belgisi bozor munosabatlarining kerakli elementi, logistik servis xizmat ko‘rsatishning esa eng muhim elementlaridan biri sanaladi va uni iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ko‘pincha “gapirmas sotuvchi” deyishadi. Jahon amaliyotida tovar belgisi sug‘urta polisi yoki aktsiya singari bozorning o‘ziga xos xususiyatiga aylandi.

Birinchi tovar belgilarining paydo bo‘lishi o‘rta asrlarda ro‘yxatga olingan. O‘sha paytda hunarmandlar va savdogarlar birlashmasi (gilbdiya) har bir tovar tayyorlovchidan mahsulotga tegishli belgi qo‘yishni talab etardi. Bundan bir yo‘la bir qancha maqsad ko‘zlangan:

- ishlab chiqarilgan tovar muallifligi kuzatilgan;
- tovar soni nazorat qilingan, bu soliq harakatlarini yengillashtirgan;
- tovar sifati nazorat qilingan, bu tayyorlovchiga e’tiroz bildirish imkonini bergen;
- taniqli ustalarning mahsulotini soxtalashtirish, qalbaki ishlab chiqarishga to‘siqlar qo‘yish. Ayniqsa azaldanoq dori-darmon ishlab chiqaruvchilar mahsulot markasiga nisbatan o‘ta talabchan bo‘lgan.

Tovarni markalash tarixi har bir mamlakatda o‘z milliy ildizi va xususiyatlari ega. Biroq ko‘pchilik mualliflar tovarni markalash haqidagi dastlabki mulohazalar eng qadimgi davrga taaluqli deb hisoblaydi: masalan, Nineviya g‘ishtlari, qadimgi Gretsiya sopoli va Rim suv o‘tkazgich quvurlaridagi tamg‘alar.

Tovar markasi – bu bozorda turli sotuvchilar tomonidan taklif etiladigan mahsulot yoki xizmatni identifikasiya qiluvchi nom, belgi, ramz (rasm) yoxud ularning majmuidir. Markalarni belgilashning to‘rtta turi ma’lum.

Savdo belgisi – bu jonlantirilgan tovar markasi.

### **13.2. Tovar belgisini tanlash va ishlab chiqish.**

Tovar belgilarining bir qancha muqobil, kengroq tarqalgan, ya’ni og‘zaki, tasvirlovchi, birlashtirilgan, hajmli, tovushli va ularning birikkan turlari mavjud. Umuman olganda, jahon va mahalliy amaliyotda tovar belgilarining nihoyatda ko‘plab turlari, shu jumladan quyidagilar ham ma’lum:

- harakatlanuvchi, ya’ni harakatni takrorlovchi belgi;
- bir qancha elementlardan tashkil topgan kompleksli (murakkab) belgi;
- hid sezuvchi belgi- hid sezish organlari uchun mo‘ljallangan;
- tasvirlovchi belgi– tovarni yoki uning biron-bir xususiyati, shuningdek, uni tayyorlovchiga taaluqli xususiyatini aks ettiruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi;
- plastik - sinonimi hajmli belgi;
- ikki o‘lchamda mavjud bo‘lgan tekis belgi;
- bitta elementdan iborat oddiy belgi;
- keng - sinonimi hajmli belgi;
- tekislikda qavariq yoki botiq elementlar tuzilishini ifoda etuvchi burttirilgan belgi;
- yorug‘likka mo‘ljallangan yorug‘lik belgisi;

- murakkab – sinonimi kompleksli belgi;
- uch o‘lchovli – sinonimi hajmli belgi;
- rangli ko‘rinishda ro‘yxatga olingan rangli belgi;
- oq-qora ko‘rinishda ro‘yxatga olingan oq-qora belgi.

Tovar belgisining u yoki bu turini tanlashda tovar belgisining kuchi kabi o‘ziga xos toifani hisobga olish darkor. Tovar belgisi kuchi deganda esa, uning reklama qobiliyati, ya’ni xotirada mustahkam o‘rnashib qolish va ma’lum bir tovar yoki korxona bilan birga qo‘shilish imkoniyati tushuniladi. Ayrim mutaxassislar bu borada juda muhim bo‘lgan qo‘s Shimcha – belgining himoyalanish qobiliyati mezonini joriy qilmoqda. Biroq iste’molchi nuqtai nazaridan bu ikkilamchi ma’noga ham ega, chunki mahsulot tozaligi bo‘yicha tovar belgisiga egalik qiluvchi korxona javob beradi. Bundan tashqari, tovar belgisining asosi, ya’ni qabul qilishning iste’molchi uchun ma’qul turi hisobga olingan holda, tovar belgisinig qabul qilinish qobiliyati kabi toifani ham esdan chiqarmaslik kerak. Qabul qilishning quyidagi turlari mavjud: vizual (ko‘zga tashlanadigan), ovozli (fonetik), hid sezish, semantik (ma’noviy, sermazmun) va boshqalar.

Og‘zaki tovar belgilari harflar, hattoki ayrim so‘zlar birikmasini ifoda etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli mamlakalari tadbirkorlari an’naviy tarzda ushbu turni ma’qul ko‘radi. Xorijlik mutaxassislarning guvohlik berishicha, G‘arb tijorat olamida barcha tovar belgilarining 80 foizga yaqini og‘zaki ramzlar yordamida tayyorlangan. Og‘zaki tovar belgisini yaratish va takror ishlab chiqish oson. Negaki, u odatda kompaniyaning korxona nomi yoki uning ta’sischilari bilan bevosita bog‘liq. Bundan tashqari, eng asosiysi – og‘zaki tovar belgisi iste’molchilar tomonidan oson qabul qilinadi va o‘zlashtiriladi. Tovar belgisi mahsulotning haqiqiy tamg‘asi (brend) hisoblanadi va u bir turdagи buyumlar bozorida tovarlarini ajratib turadi hamda ularni markalanmagan tovarlarga qaraganda 20-40 foizga qimmatga sotish imkonini beradi. Ayni paytda mahsulotda tovar belgisining bo‘lmasligi, noma’lumligi uning narxini 10-20 foizga tushiradi.

Logotip – bu korxona yoki uning tovarlari guruhining to‘liq yoxud qisqartirilgan nomining maxsus ishlab chiqilgan va o‘ziga xos shakli.

Korxona bloki – bu kompozitsiyada birlashgan tovar belgisi va logotip, shuningdek, turli tushuntirish yozuvlari, ko‘pincha korxona shiori.

Korxona shiori – bu korxonaning asosiy g‘oyasini aks ettiruvchi chiroyli, qisqa tuzilgan shior. Masalan, “N‘yu-York tayms” gazetasining korxona shiori “Barcha yangiliklar chop etishga loyiq”.

Korxona konstantlari – bu korxona tomonidan hajmlar bozorida ishlashda qat’iy riox va qilinadigan konstantlar, matnni sahifalash tizimi, bezaklar taqdim etish va boshqalar.

Korxona rangi – bu korxona tomonidan qabul qilingan va qat’i amal qilinadigan rang yoki ranglar birligi.

SHriftlarning korxona komplekti – bu korxona tomonidan tovar belgisini, buyumning haqiqiyligini aniqlaydigan yoki qayd etadigan boshqa nomlari, kompozitsiyalarini chizishda ishlatiladigan shrift.

Yuqorida qayd etilgan barcha tarkibiy elementlar korxona usuli, ya’ni usullar majumini (grafik, til, rangli) shakllantiradi. Bu bir tomonidan korxona buyumlarining ayrim birligini ta’minlaydi, ikkinchi tomonidan korxona va uning mahsulotlarini raqib hamda uning tovarlariga qarshi qo‘yadi.

Belgilashni (tovar belgisini) ishlab chiqishda unga qo‘yilayotgan quyidagi talablarni hisobga olish kerak:

- 1) patent va huquqiy;
- 2) reklama va ruhiy;
- 3) konstruktorlik va texnologik.


Patent va huquq talablari. Belgilash himoyalanish qobiliyatiga, ya’ni uni tovar belgisi sifatida ro‘yxatga olish, shuningdek, tovar belgisidan tovarlarning ma’lum turi uchun foydalanishda uchinchi shaxslarning bir- biriga aynan o‘xshaydigan tovar belgilariga bo‘lgan huquqlarini buzmasligi maqsadida yangilik va ajratish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Reklama va ruhiy talablar. Ishlab chiqarilayotgan belgilash esda qolarli, iste’molchinig tovar sifati va belgilash o‘rtasida mustahkam ijobiy aloqasini yuzaga keltirishi, ya’ni tovar belgisi individuallashtiruvchi va reklama vazifasiga ega bo‘lishi kerak. Konstruktorlik-texnologik talablar. Belgilash (tovar belgisi) mahsulotni markalashda tirajlash va uni qo‘llashni osonlashtirish, birinchi galda esa, mo‘ljallangan mahsulotlar uchun mutanosiblikka ega bo‘lishi kerak.

Tovar belgisini ishlab chiqish buyurtmachi va ijrochi bilan loyihalashtirishning mumkin yo‘nalishlarini muhokama qilishdan boshlanadi. Ushbu muhokama davomida tomonlarning har biri o‘zining asosiy talablarini shakllantiradi. Bir paytning o‘zida ikki tomon dastlabki axborot bilan almashadi. So‘ngra belgilashni ishlab chiqishning tovar belgisi badiiy-texnik kengashda tasdiqlash va uni O‘zpatentda ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichlarini aniqlaydigan texnik vazifalari muhokama etiladi va tasdiqlanadi. **41-rasmda** keltirilgan tuzilmaviy chizma umumiylashtirishning xususiyatga ega.

Quyida aniq misollar bilan buyurtmachi va ishlab chiquvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat keltirilgan. Bunda belgilashning har-xil turlari, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi bo‘yicha bir- biridan ajralib turadigan tovar belgisi egalari – bir turdagji korxona va tashkilotlar ko‘rib chiqilgan. Bu esa qayd etilayotgan uslubning turli ishlab chiqarish sharitlariga mosligidan darak beradi.

Tovar belgisining ifodaligigi, esda qolarligi va iste’molchiga ta’sir qilish darajasi ko‘pincha ular bajariladigan texnologik vositalarga bog‘liq.



#### 40- Tovar belgisi (XKB) ishlab chiqishning asosiy bosqichlari.

Shu sababli tovar belgisini ishlab chiqishda boshqa omillar bilan bir qatorda tovar belgisini mahsulot yuzasining bosish joyiga, uning mahsulot katta-kichiligi va yuzasiga mos kelishiga, tovar belgisini bosish texnologiyasiga ham alohida e’tibor berish kerak. Tovarda tovar belgisini joylashtirish standartlar va texnik shartlar bilan aniqlanishi lozim. Biroq qator mahsulotlar uchun tovar belgisini bosish joyi ko‘rsatilmagan, shu bois muallif ushbu masalani o‘zi hal qilishi kerak.

### **13.3.Tovarga nisatan uzoq muddatli afzallikni yaratish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar. Brending.**


**Brending** – tovarga nisbatan uzoq muddatli afzallikni yaratish faoliyati bo‘lib, bu iste’molchiga logistik servis xizmatning ayrim elementlari, ya’ni tovar belgisi, qadoq, reklama murojatlari; marketing vositalari – seylz promushin, reklamaning ma’lum g‘oyasi va turli xil rasmiylashtirish bilan birlashgan, tovari raqobatchilar orasida ajratib turuvchi va uning qiyofasini (brand image) yaratuvchi boshqa elementlarining birgalikdagi kuchli ta’siriga asoslangan.

Brending sanoati rivojlangan mamlakatlarda keng yoyilgan, biroq mahalliy amaliyotda umuman qo‘llanilmaydi. U tasavvurimiz doirasidan chiquvchi ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi. “Brend” tushunchasi va u blan bog‘liq barcha narsalar markalashning o‘zbek tizimi uchun mutlaqo yangi toifa. “Brand” so‘zi inglizchadan “tamg‘a” so‘zi sifatida tajrima qilinadi. Dastavval bu tushunchaning paydo bo‘lishi va muomalada ishlatalishi o‘y hayvoni hamda kundalik hayotdagi narsalarni tamg‘alash (markalash) bo‘yicha operatsiyalar bilan bir xil hisoblanardi. Keyinchalik bu yangi “fabrika markasi” ma’nosiga ega bo‘ldi. Zamonaviy markalash atamasida “brend” tushunchasi keng talqin ega bo‘ldi va iste’molchida tovar, xizmatlar yoki korxonaning ijobiylarini shakllantiradigan hamda ko‘plab turli xil mahsulotlar orasidan aniq markaga ega tovari sotib olish istagini bildiradigan moddiy va nomoddiy toifalar majuni o‘z ichiga oladi. Quyidagilar “brend” toifasi ichidagi aniqlovchi elementlar hisoblanadi:

- markalanadigan mahsulot uchun intellektual mulk (tovar belgilari, sanoat namunalari, mualliflik huquqlari, ixtiolar, yangiliklarga taaluqli huquqlar);
- korxona usuli, servis xizmat ko‘rsatish, RR (jamoatchilik firkagini inobatga olish va unga ta’sir qilish, ommaviy axborot vositalari, xomiyalar va boshqalar bilan hakorlikni) qamrab oluvchi qabul qilingan marketing strategiyasi va reklama siyosati;
- texnologiya va maxsus asbob-uskuna, o‘z ichiga patentlangan qarorlar yoki yangilikni oluvchi ishlab chiqarish uslublari.

**Brending** – bu reklama beruvchi, amalga oshiruvchi tashkilot, shaxsiy brend-imij – tovar yoki tovarlar oilasining mo‘ayyan tovar belgisi bilan markalangan shaklni yaratish va iste’molchi ongiga keng ko‘lamda singdirish bo‘yicha reklama agentligining marketing tadqiqotlarga asoslangan hamkorlikdagi ijodiy ishidir.


Brend kompaniya va uning barcha mahsulotiga, masalan, Koka-kola yoki mazkur kompaniyaning ayrim mahsulotiga taaluqli bo‘lishi mumkin (brend- mahsulot). Bu korporativ brend deyiladi (**42-rasm**).



#### 42- Rasm. Brend tarkibini tashkil etuvchi asosiy elementlar.

BS ni asosiy blokli tarkiblar nuqtai nazaridan shakllantirish **43-rasmda** keltirilgan.

BS deganda yaxlitlagan va iste'molchi ongi, uning mahsulotni tanlashda hatti-xarakati asoslarini shakllantiradigan, natijada tovar va xizmatlar, shuningdek, korxonaning bozordagi o'rnnini ta'minlaydigan tovar yoki xizmatlarning ashyoviy va sezilmaydigan xususiyatlari tushuniladi. BS dan foydalanish tovar yoki xizmatlarning bozorning ma'lum bo'g'inda muvaffaqiyati tushuntirish imkonini beradi. Mazkur toifa – mahalliy tadbirkorlarimiz uchun yangi tushungcha sanaladi. Brend-strategiya tovar va uning turlarini model darajasida aniqlashtirish imkonini beradi. Bunda mahsulotlarga xos bo'lgan, ya'ni texnik va estetik xislatlar, qadoq dizayni, sotish joyini rasmiylashtirish, servis xizmatlarini ko'rsatish, kafolatli hamda kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishning mavjudligi va uni o'z vaqtida o'tkazishlik kabi qator jiddiy belgilarga tayaniladi.



#### 43- rasm. Bozorda firmaning brend-strategiyasini shakllantirishning asosiy elementlari.

Brend-imij yaratuvchilari mahsulotning iste'molchiga ta'sir qiladigan jismoniy xususiyatlarini ham hisobga oladi va bu nafaqat ongga, balki shakllanmagan ongga ta'sir qilgan holda hissiyotga ham murojaat etadi. Agarda tovar bozorda muvaffaqiyat qozonib, obro'ga ega bo'lsa, bunda ushbu tovarning mashhurligini takrorlaydigan bu kabi tovarlar har doim topiladi. Shu sababli brending raqobatchilardan ajralib turuvchi muntazam rivojlanadigan faoliyatdir.

Brending yordamida ko'p narsaga erishish mumkin. Xususan, brending quyidagilar imkonini beradi:

- mo'ayyan bozorda sotishlarning rejalshtirilgan hajmini saqlab turish va ushbu bozorda iste'molchi ongida tovar yoki tovar oilasi shaklini yaratish va mustahkamlash bo'yicha uzoq muddatli dasturni amalga oshirish;
- tovarlar turlarini kengaytirish natijasida foyda olishni ko'paytirish va ularning jamoat qiyofasi yordamida tatbiq etiladigan umumiy o'ziga xos xislatlari to'g'risidagi bilimlarni oshirishni ta'minlash;
- reklama materiallari va kampaniyasida tovar tayyorlangan mamlakat, mintaqa, shahar madaniyatini aks ettirish, tovarni sotish mo'ljallangan iste'molchilar talablarini, shuningdek, u sotilayotgan hudud xususiyatlarini hisobga olish;
- reklama auditoriyasiga murojaat qilish uchun uchta o'ta muhim omil – tarixiy ildiz, bugungi kun voqeligi va istiqboldagi taxminlardan foydalanish.

Shu bilan birga, brendingni samarali amalga oshirish oddiy ish emas. Brendingni samarali amalga oshirish u hamkorlik qilayotgan reklama beruvchi va reklama agentligining nafaqat kasbiy bilimlari hamda tadbirkorlik madaniyati, balki ularning intellektual mulk, tovar belgilari, dizayonlar, matnlar bilan ishlay olishligiga ham bog'liq.

Reklama bo'yicha ko'pchilik g'arb mutaxassislari yaqin yillarda direkt- marketing reklama faoliyatining qolgan barcha turlarini siqib qo'yadi va marketing kommunikatsiyasi sohasida hukmron bo'ladi, degan bir xil firkni bildirmoqda. Jahon bozorida direkt-marketing ommaviy axborot vositalaridagi reklamaga nisbatan uch marta samarali rivojlanmoqda va bu reklama agentliklari uchun unga qaraganda ikki marta daromadlidir. Ushbu hodisaning sabablaridan biri shundan iboratki, hamma joyda kompyuterlashtirish tufayli avvalambor hal etib bo'lmaydigan masala – reklama kampaniyasida har bir iste'molchiga yakka tartibga yondoshgan holda ommaviy qamrab olishni birlashtirishni hal etish imkonini yuzaga keldi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish, sotish, kommunikatsiyaga yangi mafkura olib kelgan va marketing sohasida universial yondoshishni bekor qilgan "demassifikatsiya" sodir bo'ldi. Bozor ko'plab qismlarga bo'linib ketdi.

Direkt-marketingning mohiyati reklama agentliklari vositachiligidan ishlab chiqaruvchi va shaxsan taniqli iste'molchilar o'rtasida uzoq muddatli o'zaro foydali hamda rivojlanadigan hamkorlikni o'rnatishdan iborat.

Reklama ta'siriga uchraydigan maqsadli guruhlarni topish uchun an'anaviy tarzda segmentatsiya (bo'g'imlash) uslubidan, ya'ni bir xil ehtiyojni ko'zda tutgan ijtimoiy-aholishunoslik xususiyatlari bilan o'xshash iste'molchilarni ajratishdan foydalaniladi. Direkt-marketingda esa aksincha, avval ehtiyoj aniqlanadi, keyin individuallashadigan va reklama jarayonida identifikatsiyalangan teskari aloqaga kiritiladigan tegishli iste'molchilardan guruhlar shakllanadi.

Direkt-marketing – bu marketingning barcha reklama vositalari va ularni tarqatishning barcha kanallaridan foydalanadigan uslubidir.

Reklama agentligining direkt-marketing sohasidagi ishlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- istiqbolli xaridorlarni shaxsan ajratish va ular bilan bevosita ikki tomonlama muomalani o'rnatish;
- ushbu xaridorlar bilan individuallashgan aloqani muntazam saqlab turish;
- daromadni yaxshilangan tovarlar va xizmatlarning yangi takliflarini, shuningdek, yanada samaraliroq reklama murojaatlarini sinab ko'rish yo'li bilan ko'paytirish.

Direkt-marketing bugungi kunda ko'plab sanoat, servis xizmat ko'rsatish va reklama korxonalari sarmoyalar sarflayotgan tarmoq hisoblanadi. Zero, direkt-marketing imkoniyatli xaridorlarni topish, ularni reklama beruvchi korxonaga murojaat qilishga ishontirish, ularni do'stlashtirish va sezilarli daromadlar olgan holda ular bilan shaxsiy, do'stona munosabatda hamkorlikda ish olib borish imkonini beradi.

Mahalliy eksportchilar uchun tashqi iqtisodiy reklamani rivojlantirishning bugungi bochqichida "direkt-mareting" tushunchasi tarkibiga kiruvchi katta valyuta mablag'larni talab etmaydigan va shu bilan birga juda samarali to'g'ridan-to'g'ri pochta jo'natishlari katta ahamiyatga egadir.

Direkt-marketingning iste'molchilar kampaniyasi bilan yo'lga qo'ygan identifikatsiyalangan va nazorat qilinadigan aloqalari ularga sarflangan mablag'larning samaradorligini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Direkt- marketingning reklamaning boshqa turlariga nisbatan asosiy afzalligi va farqi ham ana shunda.

### **13.4. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va tovarlar hamda xizmatharni sertifikatlashtirish.**

**Sertifikat** (lotinchadan certum – to'g'ri – facere - qilish) – bu ishlab chiqarilgan tovar yoki taqdim etilgan xizmat sifatini tasdiqlovchi hujjatdir.

Sertifikatsiya to‘g‘risidagi qonun sertifikatsiya maqsadlarini aniq shakllantiradi:

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning O‘zbekiston Respublikasining yagona tovar bozorlaridagi faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish;
- iste’molchilarga tovari asosli tanlashda ko‘maklashish;
- iste’molchini tayyorlovchining (sotuvchi, ijrochi) noinsofigidan himoya qilish;
- mahsulotning atrof-muhit, hayot, sog‘lik, mulk uchun zavfsizligini nazorat qilish;
- mahsulotning tayyorlovchi tomonidan bayon etilgan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash.

Sertifikatsiya tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichi “Iste’molchilar huquqlarini himoya hilish to‘g‘risida”gi qonunning chiqishi bilan bog‘liq. Ushbu qonunda mahsulotni sertifikatlashtirish shartligi ko‘zda tutilgan bo‘lib, buning uchun davlat standartlarida fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i, mulki xavfsizligini, atrof-muhitni himoya qilishni ta’minlash talablari belgilangan.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun iste’molchi huquqlarini davlat ko‘magida amalga oshiradi. Davlat qonunchilik asosida iste’molchining sifatli mahsulot, uning xavfsizligi, bozorning tovarlar (xizmatlarni) tayyorlash, sotishga taaluqli barcha vazifalari haqida axborot bilan ta’minlash huquqlarini aniq belgilab beradi. Iste’molchining tovar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan munosabatini tartibga solish qonunning tegishli bo‘limlarida aks ettirilgan.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun tomonidan buyumlarda ayrim kamchiliklar aniqlangan hollarda iste’molchi talablarini qondirishning qat’iy muddatlari belgilanadi. Masalan, uzoq muddat foydalanish uchun mo‘ljallangan tovarlar bo‘yicha sotuvchi, tayyorlovchi (ularning vazifasini bajaruvchi korxona) iste’molchi tomonidan talablar bildirilganda ta’mirlash davomida unga tezlik bilan pul olmasdan shunga o‘xhash tovari o‘z hisobidan yetkazib berishi shart. Bu talablar avtomototransport vositalari, mebel, elektr ustalarlar, elektr isitgichlar va ularning turlari, shuningdek, qimmatli toshlardan tayyorlangan buyumlar, matolar, ich kiyim, choyshab, ko‘rpa-to‘shak jiddlari va boshqalarga taaluqli emas.

Agarda sotuvchi xaridor talabini qondirishdan bosh tortsa, u sudga murojaat qilish huquqiga ega. Iste’molchi tomonidan tegishli sudga da’vo arizasi yozma ravishda taqdim etiladi. Unda: 1) sud nomi; 2) ariza beruvchining nomi, uning yashash joyi; 3) javob beruvchining nomi, uning yashash joyi, agarda javob beruvchi yuridik shaxs bo‘lsa, uning joylashgan joyi; 4) arizachi o‘z talablarini asoslayotgan holatlar; 5) arizachining talablari; 6) agarda da’vo pul bilan hisoblansa, uning qiymati; 7) arizaga ilov qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatilishi kerak. Ariza da’vo qiluvchi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Vakil tomonidan taqdim etilgan da’vo arizasiga vakilning vakolatini isbotlovchi ishon qog‘ozi yoki boshqa hujjat ilova qilinishi kerak. Da’vogar sifatida ishtirop etuvchi iste’molchi da’vo arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi lozim: tovari ko‘zdan kechirishda ishtirop etgan shaxslar

tomonidan imzolangan hujjat (agarda u tuzilgan bo‘lsa); tovar kamchiliklari tasdiqlovchi turli ma’lumotnomalar (hujjatlar); sotuvchiga yuboriladigan e’tiroz nusxasi; boshqa hujjatlar.

Shuningdek, iste’molchi sudga tovar sifatini tasdiqlash uchun tovarshunoslik yoki boshqa sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risida iltimos qilishii mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Tovar belgisi nima?
2. Tovar belgisini shakllantiruvchi tasnifiy belgilar.
3. Tovar belgilarning eng keng tarqalgan turlari.
4. Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi qanday vazifalarni bajaradi?
5. Belgili axborotni qabul qilishning uch bosqichi.
6. Tovar belgisini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari. Brending nima?
7. Direkt-marketing nimani anglatadi? Direkt-marketing sohasida reklama agentligi ishlarining asosiy yo‘nalishlari.
8. Korxona brend-strategiyasini bozorda shakllantirshning asosiy elementlari.
9. “Sertifikatsiya” tushunchasi.
10. Tovarlarni qalbakilashtirishning eng keng tarqalgan uslublarini sanab o‘ting.
11. Sertifikatlash ishtirokchilarining vazifalari.
12. Sertifikatlashni o‘tkazish qanday tamoyillarga asoslanadi?
13. Sertifikatlashning asosiy shakllari.

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Bo'riyev H.CH., Samatov G.A., Rustamova I.B. Agrologistika asoslari. O'quv qo'llanma. «O'zbekiston milliy entsiklopediya». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2003. 270 b.
2. Samatov G.A., Rustamova I.B. "Logistika" fanidan ma'ruzalar matni. ToshDAU 2008 y. 118 b.
3. Samatov G.A., Rustamova I.B. "Logistika" fanidan uslubiy qo'llanma. ToshDAU 2013 y. 110 b.
4. Dibskaya V.V. Logistika. Uchebnik.-M.:Izdatelstvo Yurayt, 2017.-317 s.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
4. Mirziyoyev.Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatlyiyyat tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 103 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
6. Anikin B.A. Praktikum po logistike. Uchebnoe posobie. Moskva Infra-M 2002
7. Business Marketing & Logistics 780 Logistics Management. Lectures prof. Steven Robeano, bie MBA,2005.Ohoi State University.
8. Donald Waters. Logistics. An introduction to Supply Chain Management. 2003. 354 p.
9. Gadjinskiy A.M. "Logistika". Uchebnik. - M 2003 – 408s.
10. Stukach V.F. i dr. Logistika. Uchebnoe posobie. – Omsk: Izd-vo OmGAU, 2004. –

256

### **Internet saytlari:**

1. [www.agriculture.uz](http://www.agriculture.uz) – ToshDAU axborot-maslahat markazining sayti
2. [www.agrowebcee.net/awuz](http://www.agrowebcee.net/awuz) - O'zbekiston agroaxborot tizimi portali.
3. [www.tsue.uz.-Toshkent Davlat Iqtisodiyot](http://www.tsue.uz.-Toshkent Davlat Iqtisodiyot) Universiteti
4. [www.osu.edu](http://www.osu.edu).- Universitet Oxayo, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
5. [www.umde.edu](http://www.umde.edu).-Merilend Universiteti, iqtisodiyot fakulteti(AQSH)
6. [www.timacad.ru.-K.A.Timiryazeva](http://www.timacad.ru.-K.A.Timiryazeva) nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.

<b>T/r</b>	<i>Mavzular nomi</i>	<i>beti</i>
1.	“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash logistikasi” fanining predmeti, vazifalari, asosiy tamoyillari va tushunchalari	3
2.	Logistika konsepsiysi	26
3.	Qishloq xo‘jaligida makrologistik va mikrologistik tizimi	59
4.	Ishlab chiqarish logistikasi	63
5.	Xarid logistikasi	69
6.	Taqsimot logistikasi	84
7.	Qishloq xo‘jaligi logistikasida zahirakar	91
8.	Qishloq xo‘jaligida logistik servis xizmat ko‘rsatish	102
9.	Transport logistikasi	106
10.	Qishloq xo‘jaligi logistikasida ombor xo‘jaligi	121
11.	Axborot logistikasi	126
12.	Moliyaviy logistika	134
13.	Logistik xizmat ko‘rsatish majmuida tovar belgilari va sertifikatsiyalash.	147